

84/502
A 95



jadid
adabiyoti
namoyandalari

ABDULLA AVLONIY

A large, close-up black and white portrait of Abdulla Avloniy's face, showing his eyes, nose, and part of his beard. The background is a warm orange color.

Biz qirdan qirg'a qochurmiz,
qarshimizda maishat mashaqqatlari
chiquq hujum qilur, o'ngimizdan
bilimsizlik va jaholat kelub,
jonlarimizni siqur, so'ngimizdan
musriflik, faqirlik va bid'atlar
chiquq yo'limizni to'sur.


Dangasalik, yalqovlik, ishsizlik
ustimizdan bosub, bo'g'mak istar.
Ajabo! Bizlar hamon bu eskincha
romka orasidan chiquq qochmak
istamaymiz. Biroz tushunmak va
o'yłamak lozimki, bu romka
orasidan chiquq qochmak va
qutulmak mumkinmi?

*yurt qayz' uni haqida
bebaho asarlari*

84(50'z)
A 35

jadid
adabiyoti
namoyandalari

ABDULLA AULONIY



ZABARJAD

MEDIA

2022

UO'K: 821.512.133-31

KBK: 84-44(50'zb)

A - 22

Avloniy, Abdulla

She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma [Matn]. Abdulla Avloniy / Nashrqa tayyorlovchilar Begali Qosimov, Olim Oltinbek. – Toshkent: «Zabarjad Media», 2022. – 432 b.

ISBN 978-9943-7070-4-7

Vatanining mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, millati farzandlarini sharafga to'lganlar qatorida ko'rishni orzulagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari – «jadid adabiyoti namoyandalari» bugun yana o'z o'quvchilari bilan yuzlashmoqda.

Xalq ma'naviyatini boyitish yo'lida olib borilgan kurashlar, milliy matbuot, adabiyot va teatrning odamlar tafakkurini oshirishdagi ahamiyati haqida asarlarida kuyunib yozgan, bu borada fidoyilik ko'rsatgan, alaloqibat qatag'onga uchraganlar haqida so'z borarkan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpoxon, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, Is'hoqxon Ibrat siymolari ko'z oldimizda gavdalanadi. Ular o'z asarlarida ko'targan muammolar hamon bizning qarshimizda bo'y ko'rsatib turibdi. Biz hamon «millatni uyg'otish uyg'organlarning vazifasi» degan chorlovga munosib javob qaytarolganimiz yo'q.

«Jadid adabiyoti namoyandalari» ruknida tayyorlangan kitoblarimizni o'qir ekan, kitobxon o'zini shu vatanning ongli fuqarosi, vatani va millati taqdiri uchun mas'ul inson sifatida namoyon qilishga o'zida jur'at topadi.

Nashrqa tayyorlovchilar

Begali QOSIMOV,

filologiya fanlari doktori, professor

Olim OLTINBEK,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

So'zboshi muallifi

Olim OLTINBEK

«*Jadid adabiyoti namoyandalari*» loyihasini nashrqa tayyorlashda maslahatlari uchun
«Qatag'on qurbanlari xotirasi» muzeyi katta ilmiy xodimi
Bahrom Irzayevga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

ISBN 978-9943-7070-4-7

© Abdulla Avloniy, «She'rlar, pedagogik asarlar, drama, maqolalar va sayohatnoma». «Zabarjad Media», 2022-yil.

OZODLIKNI ORZULAGAN SHOIR

Har bir inson o‘z erki bilan inson bo‘lganidek, har bir davlat ham o‘zining mustaqilligi, ozodligi bilan to‘laqonli davlatdir. Jadid bo-bolarimiz bunday davlatni sog‘inib yashab o‘tdilar. Shuning uchun ham ular ijodida istibdoddan qonga to‘lgan dil nolalarini va milliy ozodlikni sog‘ingan qalb sadolarini eshitish mumkin. Zero, Milliy uyg‘onish deb nomlangan adabiyotning bosh g‘oyasi ham shu edi. Bu adabiyotning yirik siymolaridan biri Abdulla Avloniyidir.

1900-yillardan boshlab (endigina o‘ttizdan oshgan) Abdulla Avloniy milliy dard bilan og‘ridi. Turkiy dunyoda chiqib turgan gazeta va jurnallar bilan tanishdi, «jadidchi» deb nom chiqardi, «jadid maktabi» ochib, dars bera boshladи. Bu haqda adibning o‘zi «*Tarjimayi holim*»da shunday yozadi: «*Turli gazetalar o‘qishga tutundim. Shul zamonlarda (1900-yillar nazarda tutilmoqda – O.O.) Rusyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnal-lar bilan tanishib, o‘qib ma’lumotimni orttira bordim. «Tarjumon» gazetasini o‘qub, zamondan xabardor bo‘ldim. Shul zamondan yerli xalqlar orasinda eskilik-yangilik janjali boshlandi. Gazer o‘quvchilar ni mullalar «jadidchi» nom bilan atar edilar. Men ham shu jadidchilar qatoriga kirdim. 1904-yildan jadidchilar to‘dasida ishlay boshladim. «Jadid maktabi» ochib, o‘qituvchilik qila boshladim».*

1907-yildan esa Avloniyning matbuotchilik faoliyati boshlandi. «1906-yilda «Taraqqiy» va «Xurshid» gazetalari chiqib, eski hukumat tomonidan to‘xtatilganidan so‘ng, 1907-yilda men o‘z muharrirligim bilan hamda temiryo‘l ishchilarining sotsial-demokratik firqasining aloqa va yordami bilan «Shuhrat» ismindagi gazetni Sapyorniy ko‘cha-da chiqardim... 10-no‘mirinda «Shuhrat» gazetasini tamom narsala-

rin butun idoradagi xat va qog'ozlar bilan musodara qilib, «cherezvi-chayni oxran» kuchi bilan chiqarmasqa mendan imzo olib to'xtatdi. Yiqilg'on kurashga to'ymas deganlaridek, 1908-yilda yozuvchilarimiz, idoramda xizmat qilg'uvchi Ahmadjon Bektemirov nomiga «Osiyo» ismli gazetga ruxsat olib, idorani o'z uyimga ko'chirib, yana chiqara boshladim», deb yozadi adibning o'zi bu haqda. Barcha jadidlar kabi Avloniying ham maktab-maorif va matbuot ishlariga kirishishidan assosiy maqsadi «qora xalqni oqartirmoq (ma'rifatli qilmoq – O.O.) va ko'zini ochmoq» edi.

Darhaqiqat, gazeta nomi bilan atalgan shoirning «Shuhrat» she'rida, gazetaning, ayni paytda, muharrirning ham maqsad va muddaosi o'z ifodasini topgan:

*Jahonda ittifoq-u ilm uchun ovoradur «Shuhrat»,
Zuhuri ro'shnoyi ilm uchun mahforadur «Shuhrat»,
Vujudin sarf qilg'on ilm uchun bechoradur «Shuhrat»,
Dili millat g'amida dam-badam sadporadur «Shuhrat».*

Manbalardan ma'lumki, Avloniying gazetchilik faoliyati bu bilan to'xtab qolmadı. U «Tarjimayi holim»da: «1915-yilda Toshkentda chiqg'on «Sadoyi Turkiston» gazetasiga yozuvchilik, muharrirlik qildim», desa, buning davomidan 1917-yilda ming mashaqqat bilan «Turon» va «Turk eli» gazetalarini bosganligi haqida ham ma'lumot beradi. Adibning, ayniqsa, «Sadoyi Turkiston»dagi ishlari tashsinga sazovordir. Avvalo, gazetaning assosiy muharriri va mahalladoshi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevga yaqindan turib yordam berdi. Ikkinchidan, gazetaning har bir sonini o'zining sermazmun va dolzarb mavzudagi maqolalari bilan boyitib bordi. «Madaniyat to'lqunlari», «Tiyotr xususida munozara», «Kim kimni yaxshi ko'rар?», «O'z shahrimda sayohat», «Kayfim uchdi», «Zakot», «Hifzi lison», «Jaholat», «Safohat balosi» kabilar shular jumlasidandur.

Avloniyning yana muhim bir milliy xizmati uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq. Millatning bir mustabid davlat istibdodi iskanjasida yashashi milliy turmushni izdan chiqargan edi. Buning bir tomoni milliy jaholat bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomoni mustabidlarning razilona siyosatiga borib taqalar edi. 1870-yildan boshlab birgina Toshkentning o'zida o'nlab aroq zavodlari qurildi, islovatxonalar ochib qo'yildi. Bularning barchasi yangi avlodni ma'nан, axloqan buzishga qaratilgan edi. Jinoyatlar, axloqsizliklar ko'paygandan ko'payib, ahvol shungacha yetib bordiki, chor ma'murlarining o'zi 10-yillarning birinchi yarmida ichimlik sotiladigan do'konlarni yopishga majbur bo'ldi. Bu haqda Avloniyning «Mayxonalar yopiluvi munosabati-la» she'ri ham bor. Lekin bun-gacha kechgan 40–50 yillik siyosat o'zining ishini qilib bo'lган edi. Bu orada bir necha avlod milliy zaminidan uzildi, ota-bobosidan tondi, hatto ularni inkor etishgacha bordi. Behbudiyning «Padarkush» dramasi mana shu avlodning peshonasiga bosilgan tavqi la'nat edi. Avloniy kabi jadid muallimlar fikri, barcha xatti-harakati jaholat chohiga qulayotgan mana shu avlodni tarbiyalash va ularni ulkan falokatdan saqlab qolish edi. Adibning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» asarlari aynan mana shu maqsadda yozilgan edi.

Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini «o'z shevamizda yozilgan «Axloq» kitobi» deydi va Turkiston maktabalarining yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida taqdim etadi. «Axloq» kitobi adibning hayotlik chog'larida ikki marta (1913, 1917) chop etilgan edi. Shundan keyin milliy g'oya va jadidcha maorif qatag'onga uchrab, asar oltmis yil nashr yuzini ko'rmadi. Nihoyat, 1978-yil professor Begali Qosimov tomonidan nashrga tayyorlanib, kirill alifbosida birinchi marotaba chop ettirildi. Shu tariqa «Axloq» kitobi millat qalbiga qayta yo'l topdi. Mustaqillik yillariga kelib (1992), asarning to'la nusxasi faksimelyesiga qo'shib

chiqarildi (*nashrga tayyorlovchi L. Xalilov*). 1998-yilda esa shoir «Tanlangan asarlar»ining ikkinchi jildidan o'r'in oldi.

Axloqshunosligimiz tarixida axloq fani ushbu kitobdan boshlab milliy mafkura darajasiga chiqdi. Boshqacha aytganda, Vatanni sevish, milliy tilni himoya qilish, millat mustaqilligi uchun kurashish kabi tushunchalar aynan shu asardan boshlab insoniy axloqning tarkibiy qismiga aylandi.

Odob-axloq Sharq adabiyoti uchun azaldan bosh mavzu. Hatto «adabiyot» so'zining asosida ham «adab» turadi. Bundan adabiyotning bosh vazifasi odob berish, tuyg'ularni tarbiyalash, xulqni poklash ekanligi anglashiladi. Adabiyot istilohining so'z san'ati ma'nosida ishlatilishi ham Abdulla Avloniyning 1909-yilda chop etilgan «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» kitobidan boshlangan edi. Bu haqda akademik Izzat Sulton o'zining mashhur «Adabiyot nazariysi» kitobida: «*Abdulla Avloniyning «Adabiyot. Milliy she'rlar dan birinchi juz» to'plami (1909-yil Toshkentda bosilib chiqqan) bu so'zning maxsus, tor lug'aviy ma'nosini aniqlash yo'lidagi dastlabki intilishlardan biri bo'ldi*», degan edi. Aynan shu kitobdan boshlab bizda adabiyot so'zi o'zining yangi hayotini boshlab, bugunda biz tushungan maxsus ma'noda qo'llanila boshlandi. Bu – ma'rifatchilik davriga kelib odob-axloqqa e'tibor yana bir karra oshganini ko'rsatadi. Bugun barcha xalqlar ma'rifatchiligidagi bosh masala axloq masalasidir. Global muammolarning ildizlariga e'tibor bersak, ularning paydo bo'lishi katta AXLOQdan uzoqlashishning natijasi ekanligini anglaymiz. Demak, axloq kecha va bugunninggina emas, erta kelajakning ham bosh masalasidir. Asar g'oyasi aynan shu jihatlari bilan ham o'lmasdir.

Adabiyotimizda Avloniy, Hamza, Tavallo kabi shoirlarimizdan boshlab «milliy she'r» atamasi qo'llanila boshlandi. Bu bitiklar, avvalo, millat dardini o'zida ifodalagani uchun ham shunday e'tirofga loyiqidir. Abdulla Avloniyning to'rt juzdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami aynan mana shunday she'rlardan

tarkib topgan. Bu she'rlar, birinchidan, millat dardini kuylagani, ikkinchidan, milliy ohanglarda bitilgani bilan adabiyotimiz tariixa alohida ahamiyatga ega. Avloniy ijodiy faoliyatining barcha qirralarini – she'riyatini, dramaturgiyasini, pedagogik asarlарини, publitsistikasini, hatto safarnomasini ham millatparvarlik va ma'rifatparvarlik tuyg'ulari bilan to'yintirilgan bir nur yoritib turadi. She'rlarida esa, shuningdek, istibdod va istiqlol g'oyasi bo'rtib turadi. Shoirning "Taajjublik hollar" nomli she'rida shunday so'zlarga duch kelamiz:

*Fano bir hola qolmish barcha avlodni Vatan, yo Hu,
Anosidin ayilgan qush kibi beixtiyor o'l mish...
Na, millat, yodi mozing vor, na istiqboling ummidi,
Vujuding punjayı vahshat ichinda tor-u mor o'l mish.*

Darhaqiqat, Avloniy juda katta shijoat va shiddat bilan ijod qilgan o'tgan asrning 10-yillaridagi ahvol shunday edi. Uning nazarıda yo'qlik (fano) tomon ketayotgan Vatanning yangi avlodni xuddi onasidan ajratib olingan bandi palaponlar kabi erkidan mahrum. Bu avlodda o'tmishning yodi, keljakning umidi yo'q, chunki uning vujudi vahshiylik panjalari ichida burda-burda qilingan.

Bunday ahvolga tushishiga millatning o'zi ham aybdor: chunki u ilm-u funundan yuz o'girdi, jaholatni o'ziga yor deb bildi, bunday g'aflat uyqusida yotib, do'st bilan dushmani farqiga bormadi, oqibatda esa inqirozga yuz tutdi.

*Qani avvaldag'i ilming, funundin e'tiroz etting,
Jaholat yori bo'lding, oshnolardin aroz etting,
Bilib do'stingni dushman, dushmaningni sarfaroz etting,
Kirib g'aflatni xobig'a, o'zingni inqiroz etting,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avlodning omon, millat, omon, millat...*

Mumtoz she'riyatimizda oshiq, yor va ag'yor uchligi mavjud. Jadid adabiyotiga kelib, bu tushunchalar yangicha mazmun kasb etgan. Ya'ni oshiq – Vatan va Millat qayg'usi bilan yashayotgan inson, yor – millat, ag'yor – shu ikkisi orasidagi dushman. Avloniy she'riyatida ko'p hollarda oshiq – bulbul, yor – gul (ya'ni millat), ag'yor esa xor (tikan) obrazlarini ifodalab keladi. Shoир «Ta'rifi gul» she'rida gul obrazi orqali mustabid tuzum zulmida ezilayotgan millatning ahvolini tasvirlaydi:

*Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,
Xor zulmindin to'kar ko'zyoshini durdona gul.
Kimki hamdam bo'lsa noqobil bila, zahmat chekar,
Bemuruvvat xor alindin har taraf to'lg'ona gul.
Gar sabo tebratsa gulni, xush isi nevchun chiqar,
Bag'riga botgan tikonlardan kelur afg'ona gul.
Naylasun bechora gul, botmish vujudiga tikon,
Zaxmiga marham uchun yaprog'iga chulg'ona gul.*

Gul tepasiga kelib uning holatini anglatmoqchi bo'lgan Bulbul esa umidsizlikka tushgan, chunki uning faryodi Gulga yetib bormaydi – u zolim qafas ichra:

*Kamoli ya'sidan, bekaslig'indan oh-zor aylar,
Umid andin uzub, ummidi g'amg'a yor o'lur bulbul...
Kecha-kunduz qafasda «Oh, gul» deb aylayur faryod,
Omon bermas anga zolim qafas, ozor o'lur bulbul.*

Bu Bulbul o'z dardini millati qulog'iga oshkor aytolmayotgan avloniylar obrazi. Chunki ularning ovozi bo'g'ilgan, xalqiga o'zligini tanitish, uni uyg'otish, taraqqiyotga boshlash yo'llari to'silgan edi. Shunga qaramasdan, jadid shoirlarimiz harakatni to'xtatish-madi: ularning maktab-maorif ishlaridagi faolligi, matbuotni

oyoqqa turg‘izishlari, teatrni yo‘lga qo‘yishlari ortida millatga o‘zligini anglatish, milliy istiqlol va unga erishishga katta umid turar edi. Quyidagi satrlar mana shunday xulosa chiqarishimizga asos bo‘ladi:

*Kelur ulfat, adovat o‘rtadin qalqur – ketar bir kun,
Qaro kunlar ketib, o‘rnig‘a ravshanlik yetar bir kun,
Adolat bog‘ida gulhoyi tarbiyat bitar bir kun,
Ochib g‘uncha dahonin shodlig‘ izhor etar bir kun,
O‘lur olam guliston, qayg‘u-kulfatlar yotar bir kun,
Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun,
Dilim, g‘am chekma ko‘b, bir kun kelur bedor o‘lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o‘lur olam.*

Darhaqiqat, 10-yillar so‘ngiga kelib, she’riyatda hurriyat gulosining atri anqiy boshladi. 17-yilning Fevrali keldi. Hurriyat bilan bog‘liq umid uchqunlari alangaga aylandi. Avloniyning «Hurriyat sharafina» she’ri mumtoz she’riyatimizning musaddas janrida yozilgan. She’rning har bir bandi so‘ngida:

*Ko‘b kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat*

satrlari takrorlanib keladi. Uchinchi bandiga kelib, quyidagi misralarga duch kelamiz:

*Mustabid eski hukumat rahm-shafqat qilmadi,
Bir tarafdan zulm etardi, qon to‘kardi bir yondan.*

Avloniyning «Qutuldiq» she’ri ham aynan shu tarixiy hodisaga bag‘ishlangan edi. She’r: «Qutuldi barcha millat zolimi xunxor zulmindan, / Romanov xonavayron bo‘ldi, badkirdor zulmindan» misralari bilan boshlanadi.

*Guliston o'ldi olam, har tarafda sayradi bulbul,
Asoratdan qutuldi barcha millat, istayur hur yo'l,
Xazondan saqla, yo Rab, istayur millat tikonsiz gul,
Yetishmoq muddaoga ilmsiz, hayhot, erur mushkul,
Na mehnatlarni ko'rdik, har qay-u ag'yor zulmindin.*

Muxammasning ushbu bandida dastlab muallifning shodiyona kayfiyatini sezsak-da, so'nggi ikki misrada uning umidsizligini ham his qilamiz. Darhaqiqat, dastlab Oktabr to'ntarishi, keyin Turkiston Muxtoriyatining qonga botirilishi Avloniyning millat istiqloli bilan bog'liq orzularini yo'qqa chiqardi. Hokimiyat oqdan qizilga o'tgani bilan milliy siyosatda hech qanday o'zgarish bo'lmadi – bir mustabidning o'rnnini ikkinchisi oldi. Shuning uchun ham Avloniy 1919-yilda yozgan bir she'rida:

*Mavj uran sahro yuzinda qirmizi ul lolalar,
Mustabidlar dastidin senga qilurlar nolalar,*

deb yozgan edi. Shoирning aynan shu yilning fevralida yozgan she'rlaridan biri «Xafalik soatda» deb nomlanadi. Mana uning dastlabki misralari:

*Har soniyada o'zga alam, o'zga jafodur ko'raman,
Har soat ichinda necha bing dard-u alamdur ko'raman...
Har kun boshingga turfa balo toshi yog'ilgay,
Har go'shada bo'lsang-da, qudratli qazodur ko'raman.*

Avloniylar orzusi asr adog'iga kelib amalga oshdi. Shoир orzu qilgan bu Istiqlol davriga kelib jadid bobolarimizning adabiy merosi o'z vorislariga qaytdi va ular tadqiq etila boshladi. Adabiyotshunosligimizda Avloniy ijodining targ'ib va tadqiqini professor Begali Qosimov boshlab berdi. Shoирning

ikki jilddan iborat «Tanlangan asarlar»ini chop ettirdi, «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» darsligiga alohida figura si-fatida kiritdi. Pedagogik asarlarini Ulug'bek Dolimov, jurnalistik faoliyatini Boybo'ta Do'stqorayev, dramaturgiyasini Shuhrat Rizayev ishladi. Adib ijodiga oid tadqiqotlar davom etmoqda. Abdulla Avloniy o'z she'rлaridan birida tadqiqotchilariga qarata shunday degan edi:

*Ey adibo, yaxshi tadqiq aylangiz yozmishlarim,
Satrlarda qora ermas, diyda giryonim chiqar.*

Darhaqiqat, Avloniy satrlaridagi yozuvlar shunchaki siyoh emas, balki uning qorachig'idan qora qon bo'lib oqqan ko'zyoshlaridir. Buni adibning har bir tadqiqotchisi his qilishi lozim.

Qo'lingizdagi ushbu saylanma adibning ikki jildlik tanlangan asarlari asosida nashrga tayyorlandi. Kitobga she'rlar, pedagogik asarlar, dramaturgiya, maqolalar, safarnoma ko'rinishida tartib berildiki, bu – birinchidan, Avloniy ijodining muhim qirralarini yaqqol ko'rsatib tursa, ikkinchidan, tadqiqotchilar uchun ham muayyan qulaylik yaratadi. Saylanmaning lotin yozuvida bosilishi esa yoshlarimizga Avloniy ijodi bilan yaqindan tanishishda alohi-da ahamiyatga ega.

Olim OLTINBEK,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

TARJIMAYI HOLIM¹

1878-yil milodiyda, 12-iyulda Toshkentning eski shahar Shayxantavur daha Mergancha mahallasida faqirhol bir oila-da tug‘ilganman.

Otamning ismi Miravlon, onamning oti Fotimadir.

Otamning tub kasbi to‘quvchilik (bo‘zchilik) bo‘lib, so‘ng zamonlarda Yarmanka bozorida yoymachilik qilib, bo‘z va chit bilan savdo qilur edi.

1885-yildan boshlang‘ich mактабда o‘qidim. O‘qchi mahallada Akromxon domlada xat-savodim chiqdi. Shul vaqt-larda (11–12 yoshimda) otam meni xatna to‘y qilib, qo‘lidagi bor-yo‘g‘idan ayrilib, faqir holga tushib qoladi.

1890-yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o‘qiy boshladim. Yoshim 13 ga yetgach, yo‘qsullik menga ta‘sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamga biroz yordamda bo‘lib, qish kunlarida o‘qir edim. So‘ngra O‘qchi mahalladagi domlamizning kam havesalaligidan, o‘quvda davomsizligidan O‘qchi madrasasini tark qilib, 14 yoshimda

¹ Avloniyning ushbu «Tarjimayi holim» i professor Begali Qosimov tomonidan nashrga tayyorlangan va ilk marotaba «Milliy uyg‘onish» (Toshkent: «Universitet», 1993, 108–114-betlar) majmuasida chop etilgan. Matn so‘ngida nashrga tayyorlovchi tomonidan shunday izoh bitilgan: «Avloniyning uy-muzeysiда uning turli davrda turli munosabatlar bilan yozilgan «Tarjimayi holim»ning 7 qo‘lyozma nusxasi mavjud».

Qiziquvchilarga foydalanish uchun qulaylik yaratish maqsadida shoirning turli davrda yozgan va bir-biridan ayrim tafsilotlari bilan farqlanadigan «Tarjimayi holim» i nusxalarini birlashtirishga jur‘at etdik. Asos qilib shoirning eng keyingi «Tarjimayi holim» i nusxasi (1932-yil 26-noyabr deb) olindi.

Muallifning jumla va ifodalari hech bir o‘zgarishsiz, aynan berishga harakat qilindi».

Ushbu «Tarjimayi holim» keyinchalik biroz qisqartirishlar bilan Avloniy tanlangan asarlarining ikki jildligiga kiritilgan (Toshkent: «Ma’naviyat», 1998. 2-jild, 187–192-betlar). Biz ushbu nashrda shu manbadagi variantni asos qilib oldik.

Shayxantavurdagi Abdulmalikboy daxmasiga (madrasasiga) kelib, Mullo Umar Oxunddan dars o'qiy boshladim. Bu choqlarda ham qish kunlarida o'qib, yoz kunlarida mardikor ishlamoqqa majbur edim.

1894-yildan boshlab she'r yozishga tutindim. Zamong'a muvofiq har xil mavzu'da she'rlar yoza boshladim. 18 yoshdan boshlab, mardikorlikdan qutulib, ustolik darajasiga erishdim. G'isht ustochiligi, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ustolig'ini qilar edim.

1900-yilda uylanib, oila boshlig'i bo'lib qoldim. Shu yilda otam o'lib, o'gay onam bilan bir ukam meni qaramog'imda menga boqim bo'lib qoldi. Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqg'a to'g'ri kelganlig'idan quvvayi muhofaza o'rta daraja bo'lg'on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg'a to'g'ri keldi. Shul choqlarda o'zim mehnat ichida yashaganlig'imdan boylarga va mullalarga qarshi she'rlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o'qishg'a tutindim. Shul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot-gazeta va jurnallar bilan tanishib, o'qib ma'lumotimni orttira bordim. «Tarjimon» gazetasin o'qib zamondan xabardor bo'ldim. Shul zamonda yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (jadid-qadim) janjali boshlandi. Gazet o'quvchilarni mullalar «jadidchi» nom bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904-yildan jadidlar to'dasida ishlay boshladim. «Jadid maktabi» ochib, o'qituvchilik qila boshladim...

1904-yilda rus-yapo'n urushi chiqib, bizning ham ko'zimiz ochildi. 1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to'lqini bizga ham zo'r ta'sir qildi. Bizning tashkilotimiz siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqart-

moq va ko'zin ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erish-moq uchun gazet chiqarmoqni munosib ko'rib, uyushmaning harakati bilan o'zbek tilida gazetalar chiqarildi.

1906-yilda «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalari chiqib, eski hukumat tomonidan to'xtatilgandan so'ng 1907-yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temir yo'l ishchilarining sotsial-demokratik firqasining aloqa va yordami bilan «Shuhrat» ismindiagi gazetni Sapyorniy ko'chada chiqardim. Temir yo'l ishchilarining komitetlari tomonidan «Rafiq Sobirov» ismli qozonli tatar orqadoshimiz meni(ng) gazetimg'a kelib, yozuv jihatlarindan yordamlashur edi. Shul vaqtida O'rungburg'da chiqadurgon, fofirus kog'aziga bosiladurgon «Soldat» ismli ruscha maxfiy (tayniy) gazetani va mundan boshqa ruscha yo-zilmish turli froqlamatsiyalarni «Rafiq Sobirov» bilan ikimiz turli kishilarning vositasi bilan tarqatur edik. Bu ruscha froqlamatsiyalarg'a qanoat qilmay, musulmoncha tipog'raf bilan maxfiy suratda froqlamatsiya bosub shahar va qishloqlarga ham tarqata boshladuk. Bu froqlamatsiyani(ng) yozuvchisi – O'tab kotib, Eski shaharg'a tarqatuvchi – Eshonxo'ja, Yangi shaharg'a – men, qishloqlarg'a – Umarqul Anorqul o'g'li edi. Bizning harakatimizni eski hukumatning sezganlig'i bilindi. Mening uyimda yolg'on pasport bilan turg'on «Sobirov»ni qochirdik. Ul O'rungburg'ga borib, qo'lga tushib qoldi. Sud o'limga hukm qilib, Toshkentdagi qo'mitani ochub bersang, o'lim jazosini o'zgartamiz, deb shart qo'ydilar. Ul o'limdan qo'rqib, tamom qilg'on ishlarin, «Shuhrat» gazetasin shul qo'mitani(ng) yordami bilan chiqqanlig'in va inqilob qo'mita a'zolarin tutib berdi. Ko'b kishilarning o'limiga, Sibir va turmaga yopuliviga sabab bo'ldi. 10-no'merinda «Shuhrat» gazetasin tamom nimarsalarin butun idoradagi xat va kog'azlar bilan musodara qilib, «chrezvichayni oxran» kuchi bilan

chiqarmasqa mendan imzo olib to‘xtatdi. Yiqilg‘on kurashga to‘ymas, degandek, 1908-yilda yozuvchilarimizdan, idoramda xizmat qilg‘uvchi Ahmadboy Bektemirov nomiga «Oziyo» ismli gazetga ruxsat olib, idorani o‘z uyimga ko‘chirub, yana chiqara boshladim. 6-no‘merida hukumat jonivorlari kelib, buni ham musodara qilib, berkitib ketdi. Mundan umidim uzilib, 1908-yilda (yana) Mirobodda «usuli jadid» maktabi ochib, muallimlik qila boshladim. Shul zamonda Toshkentda ochilmish 9 «usuli jadid» maktabning sakkiziga hukumat tomonidan ruxsat berilib, menga ruxsat olmoq uchun uch yil ovora bo‘lmoqg‘a to‘g‘ri keldi.

1909-yilda bir necha o‘rtoqlar bilan qonun tuzib, «Jamiyat xayriya» ochdik. Olti oy rais bo‘lib turdim.

1913-yildan boshlab xalqni ko‘zin ochmoq, madaniyatg‘a yaqinlashtirmoq uchun teatrug‘a kirishib, teatru ishlarin yo‘lg‘a qo‘yuvchilarning boshlug‘i bo‘lib, Turkistonning bir necha shaharlarig‘a borib, o‘zbeklar orasida teatrug‘a yo‘l ochdim. 10 ga yaqin ozarboyjon pyesalarin o‘zbekchaga tarjima qilib, sahnaga qo‘ydim. 3 pyesa yozdim. «Turon» ismli teatralni blag‘otvoritelniy jamiyatni yuzaga chiqardim. Shul yilda Eski shaharda ochilg‘on potrebitelniy obshestvoning ta’sis a’zolaridan-da edim. Bu vaqtarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo‘lsa ham botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi.

1915-yilda Toshkentda chiqg‘on «Sadoyi Turkiston» gazetasiga yozuvchilik, muharrirlik qildim. Hamda shul yilda ustav – qonun tuzib, «Jamiyat xayriya» ochdik. Hukumatdan ruxsat olmoq uchun bir yarim yil ovora bo‘lmoqg‘a to‘g‘ri keldi. Iki marotaba bergen arizamiz rad qilinib, uchinchi marotabada ruxsat bo‘ldi. Men shul «Jamiyat xayriya»ning muassis a’zolarindan bo‘lib, boshlab ochiluvida bir yil rais-

lik xizmatin a'lo qildim. Andin so'ng to hurriyat davrigacha a'zosi bo'lib, maktablarga, yetim va g'ariblarga yordam qilib kelinadur.

1915-yilda mahalla xalqi, «domlamiz «teatrchi bo'ldi», «masxaraboz» bo'ldi», deb meni maktabdan quvib, Mirobod mahalladagi boshlang'ich maktabni yopdilar. Maktabni Eski shahar Degrez mahallasiga ko'chirib, 2-bosqich (o'rta) maktab ohib, o'zim mudir bo'lib, Nizomiddin qorini muallim qilib turdim. Xadra mahalladagi obshestvo tomonidan ochilgan «Maktab kutubxonasi»ga bir oyiga yigirma besh so'mdan mohiyonaga prikazchik (xizmatchi) bo'ldim. Bu miyonada bir necha maktab kitoblari va bir necha she'r kitoblari yozdim.

1917-yilda o'zgarish boshlanishi bilan «Turon» jamiyatni tomonidan «soviet soldatski rabochi deputat»g'a vakil saylanib, sho'roda ishladim. Sho'ro tomonidan Eski shahar oziq qo'mitasiga kontrol tayin etildim. Toshkentda yeri xalqlar orasida bosh(liq) bo'lib, «O'qituvchilar soyuzi» va boshqa bir necha rabochiy soyuzlar tashkil qildim. Shul yilda mas'ul muharrir bo'lib, «Turon» nomli gazeta chiqara boshladim. Shul gazetaning 2-no'merinda mullalarga qarshi yozilg'on Mirmuhsin maqolasi to'g'risidan «Sho'royi islomiya» idorasinda barpo bo'lg'on zo'r bir yig'inda ulamolar tomonidan meni o'ldirmoqg'a va toshbo'ron qilmoqg'a hukm qilmoqchi bo'ldilar va gazetamga boyqot e'lon qildilar. Bir necha yovrupalik o'rtoqlarning harakatlari bilan alarning changalidan qutuldim. 3-no'merinda yana mullalarga qarshi avvalgidan qattig'roq maqola bosib yubordim. Bundan so'ng o'z ahboblarimizning ba'zi o'ng fikrlilarining ishtiroklari bilan meni o'rtoqlar orasinda sud qildilar. Bu o'rtoqlar sudida menga iki xil hukm qilmoqchi bo'ldilar. Biri ulamolarning qutqusi bilan qozixonaga olib borib jazo bermoq, ikinchi-

si, gazeta chiqarmaslikg'a mendan imzo olmoq. Men bunga rozi bo'lmadim. Bir gunohg'a bir jazo deya javob berdim. Oxirda o'z ismimg'a gazeta chiqarmasliqg'a mendan imzo olib, gazetani bog'ladilar. 5-no'merasin o'rtog'im Nizomiddin qorining nomiga chiqardim. Bu no'merida jo'rttaga ulamolarga qarshi xotin-qizlar haqinda yozilg'on o'rtoq Abdulhay Tojining maqolasin bosib yubordim. Mana mundan so'ng ulamolar meni yo'limni to'sa olmasliklarig'a ko'zlar yetib, boshqa yo'llar izladilar. Matlabim musulmon matbaasi bo'lib, mundan boshqa matbaada gazeta chiqarurlik musulmoncha harf yo'qlig'indan, boshqa bir matbaada harf bo'lsa ham hukumat gazeta bosilib turg'onlig'indan istifoda qilib, ulamolar matbaa egalarining uylariga vakillar yuborib, agar-da siz Avloniy gazetasin matbaangizga bossangiz, o'sangiz sizg'a janoga o'qi(t)masmiz, deb qo'rqtib, meni gazetimi-ni bosmasliqqa so'z olmishlar. Mana shul kundan e'tiboran meni gazetim Toshkentda matbaa ko'p bo'lsa-da, harf va naborshik yo'qlig'indan to'xtamoqg'a majbur bo'lur. Lekin men yana nima bo'lsa ham gazetani chiqarmoq chorasisig'a kirishdim. Bisotimda bor oqchani, «Turon» jamiyatidan biroz oqcha olib, Bokug'a borib, 25 pud harf va iki naborshik olib kelib, «Xaridmon» matbaasinda «Turon» gazetasin chiqarmoqg'a boshladim. Bu zamonda Toshkentda zo'r kuch olg'on «Ulamo» jamiyatining barmog'i bilan «Turon» gazeta-sining to'xtatuvning chorasisiga kirishsa-da, chora topolmay, faqat ismin o'zgartub, «Turk eli» ismi bilan chiqarug'a o'z ahboblarimiz bir majlisda qaror qildilar. Mana shul kundan e'tiboran gazetadan qo'limni tortdim. Yuqorida so'ylanlmish «Jamiyati xayriya» idorasiga muovini rais saylanib, shu yilg'i ochlik bilan kurashdim. Tilovoy rabochilar organizatsiyasiga ishtirok etdim. Idorada a'zosi-da bo'lib xizmat qildim. Bunda noshqa soldat va rabochi deputatlar sho'rosi tomonin-

931724

dan Eski shaharda barpo bo‘lg‘on oziq qo‘mitasiga mufattish tayin qilinib, ishlab turdim. 1917-yilda 2-krayevoy syezdg‘a vakil bo‘lib saylandim. 5-krayevoy syezddan 10-krayevoy syezdg‘acha vakil bo‘lib ham chlen TurSIK bo‘lib saylanib, turli mas’uliyatli o‘rinlarda xizmat qilib keldim.

1918-yilda kommunist firqasiga kirdim... Eski shaharda qorovullar, tunukasozlar, sobun ishlovchilar soyuzin tashkil qildim. 1918-yildan 1923-yilgacha Toshkent shahar ham Eski shahar sho‘rosiga chlen bo‘lib saylanib ishladim. 2-firqa qurultoyida vakil bo‘lib, Turkistonning Markaziy Firqa qo‘mitasiga – krayqo‘mg‘a chlen prezidium bo‘lib saylandim....

1919-yil 15-iyulda TurSIK tomonidan Afg‘onistonga yuboriladurg‘on hay‘at ichida siyosiy vakil muovini – zampolpred tayin bo‘lib, Afg‘onistonga ketdim. Zampolpred ham Hirot shaharida generalniy konsul bo‘lib turdim. Bir yil-u uch oy Sho‘rolar Hukumatining xorijiya xizmatinda yurub, 7 oy kon-sullik vazifasin ado qilub, kasalligim sababli qaytib keldim.

1920-yilda «Qizil bayroq» gazetasiga SK tomonidan red-kollegiya a‘zosi tayinlanib ishladik. Komzemda chlen kollegiya bo‘lib ishladim. 1920-yilda Turkbyuro SSPS meni SKdan so‘rab oldi. Nashriyot sho‘basiga mudir bo‘ldim. «Kasabachilik harakati» jurnalini ham gazetasini chiqarib turdim.

1921-yilda SK meki Turkbyurodan o‘z ixtiyoriga olib, Eski shahar maorif sho‘basiga muovini rais tayin qildi. Yetti oy ishlaganimdan so‘ng 1921-yil 6-sentabrda SK, TurSIK, Maorif qo‘missarlig‘ining vakillari tomonidan tuzilg‘on bir majlisda O‘lka O‘zbek Bilim yurti mudiri tayin etildim. Munda bir yarim yil ishlab, charchag‘onlig‘imdan ariza berib chiqdim.

1922-yilda xotin-qizlar bilim yurtiga tayin qildilar. Mudir bo‘lib olti oycha ishladim. Milliy komissariatda chlen kollegiya bo‘lib ishladim.

1923-yilda O'qituvchilar Soyuzining konferensiyasida jamiyatga saylanib, Eski shahar maorif soyuziga rais tayinlandim. Raykom profbyuro prezidium a'zoligiga saylanib ishladim. Birinchi raykomda ispolbyuro bo'lib ishladim. Eski shahar sho'rosida ijroqo'mga prezidium saylanib ishladim.

1924-yil 15-yanvarda Turkfront tomonidan yuborilgan kog'azga binoan Birinchi raykom meni Turkfront qoshidagi milliy sho'baga – milliy, harbiy-siyosiy mакtabga komandirovka qildi. Ona tili muallimligi vazifasini o'tadim ham birinchi rotada firqa yacheykasida ishladim. Yangi shahar sho'rosiga qo'shchi soyuzi tomonidan vakil saylanib, unda ham ishladim. Harbiy maktabda 6 yil ishlab, qartayganimdan ariza berib, 1929-yil oxirida bo'shadim.

1925-yildan beri SAKUda ilmiy ham o'qituv ishlari bilan mashg'ulman. Hozirda ham SAKUda kafedrada predmet komissiya raisi, til va adabiyot o'qituvchilik xizmatini bajaranan.

1929-yilda O'zbekistan Markaziy Ijroqo'miga a'zo bo'lib ishladim.

1929–1930-yilda SAKUNing rabfagida predmet komissiya-ga rais ham o'qituvchi bo'lib ishladim.

1930–1931-yilda SAGUNing pedfak bo'limida o'zbek tili va adabiyoti kafedrasiga rais ham o'qituvchilik xizmatin bajar-dim.

A. Avloniy, 1932-yil 26-noyabr

Ko'zing och,
yotma,
g'aflatdan
o'son,
millat,
o'son,
millat

«ADABIYOT YOXUD MILLIY SHE’RLAR»DAN¹

BIRINCHI JUZ²

IFODAYI MAXSUSA

Bizim Turkiston makotib³i islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta’lim o’linajaq kitoblar «Chahor kitob», «Sabotul-ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Xoja Hofiz», «Bedil» va «Maslakul-muttaqin»lar kabi she’r kitoblari o’ldig‘i jumlaning ma’lumidur. Bu kitoblarning ba’zisi oshiqona nazmlardan va ba’zilari e’tiqodot va amaliyoti islomiyag‘a mutaalliq⁴ mushkul mas’alalardan iborat o’lg‘onlaridan moada aksarlari forsiy tilda yozilg‘onlari uchun turk o’g‘li turk o’lan yosh bolalarimizning onlardan istifoda⁵lari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi. Voqeana, o’z ona tilini durust bilmag‘on, emdigina harflarni bir-biridan ayirg‘on bir yosh bolaning qo’liga «Chahor kitob» berib: «Ibtido mekunam banomi xudo» yoki «Sabotul-ojizin» berib: «Sano lil-xoliqi g‘abrov-u aflok» yoki «Fuzuliy» berib: «Qad anoral-ishq-lil ushshoq minhojal-hudo»; yoki «Xoja Hofiz» berib: «Alo yo ayyuhas-soqiy, adar ka’san va novilho» va so-

¹Dastlab 1909-yilda Toshkentda Ilin tipo-litografiyasida bosilgan. 1912-yilda – ikkinchi, 1914-yilda – uchinchi, 1916-yilda – to’rtinchi nashri amalgga oshirilgan. To’plam antologiya xarakterida bo’lib, unda boshqa shoirlarning ham she’rlari bor. Birinchi nashrida har bir she’rning vazni ko’rsatilgan. Sovet davrida shoirning boshqa asarlari singari undan ham ayrim namunalar mualifning 1979-yilda chop etilgan «Toshkent tongi» to’plamiga kiritilgan edi.

Qisqartirib nashr etilmoqda.

² Ushbu kitobga birinchi juzning birinchi (Toshkent: Ilin litografiyasi, 1909) va uchinchi (Toshkent: Ilin litografiyasi, 1914) nashri asos qilib olindi.

³ Makotib – maktablar.

⁴ Mutaalliq – aloqador.

⁵ Istifoda – foydalanish.

yira'lар kabi forsiy, arabiylisonlarida yozilmish eng adabiy va hikmatlik jumlalarni o'qutmak ila yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak yoki igna ila quduq qazimak orasida farq yo'qtur, zanedaram. Vorsun, bu zannim xato o'lsun-da, bolalarning onlardan bir narsa anglamaklari mumkin-da o'lsun. Masalan, «Fuzuliy»dan: «Sanamlar sajdadir bizda toat Tangri chun zohid², Kimi ko'rsang, san o'z diningda taklifi namoz ayla»; yoki «Navoiy»dan: «Yigitlikda qolib erdim atosini balosig'a, Qari-ganda dag'i qoldum balosini balosig'a»; yoki «Xoja Hofiz»dan «Nago'yamatki, hama sol mayparasti kun, Se moh may xo'r-u no' moh porso mebosh» va soyiralar kabi zohir³da oshiqona o'lan g'azallarni ma'nolarin anglasunlar. Anglaganlaridan na foyda? Balki, «Falon aziz shunday deydur», – deb buzuq axloqlara mubtalo o'lmaklari tabiiydur. Mana shul sabab-la bizim yosh muharrirlarimiz bir-ikki yildan beri g'ayrat edarak, maktablar uchun o'z ona tilimizda adabiy, fanniy, diniy va axloqiy kitoblarni(ng) tahrir va tarjima qilmakda. Va yosh muallimlarimiz ham eski kitoblarning o'rnina ushbu yangi kitoblarni ta'lim bermakda edilar. Turkiston xalqi avvaldan she'rg'a harisroq o'lub, savod chiqarmakni she'r kitoblarin durustlab o'quy olmakdan iborat bildiklarindan maktablarda o'qutmak uchun yana shul eski kitoblarning birina ehtiyoj ko'rulmakda edi. Kamina ham shul muallimlar jumlasidan o'ldug' umdan bu ehtiyojni-da arodan ko'tarmak va bolalarning tabiatlari na milliy hasrat va nadomatlardan iborat o'lan nasihatlarni o'rnashdurmak orzusinda o'z tarafimdan yozilmish she'rlarg'a ba'zi adib va shoirlarimiz tarafidan yozilub, g'azeta va majmualarda nashr o'lunmish milliy she'rlarni ilova edarak, «Adabiyot» unvoni ostinda ushbu majmuuning nashrina jasorat

¹ Soyira – 1) boshqa, 2) sayr qiluvchi.

² Zohid – ibodat qiluvchi.

³ Zohir – ko'rinish turgan, oshkor.

etdim. Shoyadki, birodarlarim – muallim afandilar-da banim bu jasoratimdagи qusurot¹i afu pardasi ila yopub, maktablarda ash’or ta’limi uchun bu majmuani intixob edarlar. Bozorlarda, do‘konlarda «Bayoz» o‘qub o‘turguvchi adabiyot oshiqlari-da, «Qoshingdan okang, ko‘zingdan okang» kabi ma’nosiz so‘zlar ila to‘b-to‘la o‘lan «Bayoz»lar o‘rnig‘a adabiyoti milliyamizdan iborat o‘lan bu majmuani o‘qusalar, daho foydaliroq o‘lur edi.

HAMD

Sanoyi hamd behad Rabbanog‘a,
Durud-u beedad haq mustafog‘a.
Xudoning rahmati bo‘lsun damodam,
Suyar yori aning to‘rt rahnamog‘a.
Abu Bakr-u Umar, Usmon, Haydar²,
Hasan birla Husayni Karbalog‘a.
Aning avlodи as‘hobig‘a rahmat,
Yana hobi rasuli mujtabo³g‘a.
Yog‘ulsin doimo boron⁴i rahmat,
Jamii ahli sunnat oshnog‘a.
Iloho, qilmag‘il xotir parishon,
Tutundim man bu kun bir ibtido⁵g‘a.
Xayolim lavhi ko‘rsatmakda bir naqsh,
Habibning hurmati yetkur baqog‘a.
Nafas tori bilan jon rastasidan
Qo‘shey ovoz bir millat sadog‘a.
Kecha-kunduz g‘ami millatda Hijron,
Gado, chun chang urur qimmatbahog‘a.

¹ Qusurot – kamchiliklar.

² Haydar – Alining laqabi

³ Mujtabo – saylab olingenan.

⁴ Boron – yomg‘ir.

⁵ Ibtido – boshlanish.

BIZ, MILLAT

Na xo'rliq, na kasolat? – Doimo afgor¹ biz, millat,
Hama gul dasta qilsa, ne terarmiz? – Xor, biz, millat.
Jaholat qaziyasi do'ndurdi istiqboli rif'at²dan,
Ma'oz-illoki, na iqror, na inkor – biz, millat.
Tutub selobi g'aflat mavji g'amg'a tashladi, hayhot,
Jahon Jayhunlarig'a to'mayi tayyor – biz, millat.
Tamaddunfeshalikdan o'zgalar ruhi mujassamdur,
Hayota qobil ermas, surati devor – biz, millat.
Hama ilm-u hunar asbobini olmaqni istarsa,
Chafon, chalma³, riyo sotmoqg'a xo'b tujjor – biz, millat.
Tafakkur soyasida o'zgalar shahd-u shakar yer-sa,
Tururmiz baqrayib har go'shada bekor – biz, millat.
May-u minosini tark aylasa ag'yor⁴, bizlar, oh,
Ichib jomi jaholatdan, hamisha zor – biz, millat.
Hama kasb-u kamolot etsa hosil ilm-fan birla,
Shifirguchi, yamoqchi, xayrchi – ko'b xor – biz, millat.
Taqozoyi zamon, har jins kiysa jismig'a loyiq,
Qilib qof-xaltadan ko'lmak-chopon – beor – biz, millat.
O'zi bilmas, sani dushman, sani johil bilur, Hijron,
Hayot-u ruh kerakmas – jiismidan bezor – biz, millat.

¹ Afgor – majruh.

² Rif'at – yuksaklik.

³ Chalma – salsa.

⁴ Ag'yor – dushman.

MAKTAB HAQINDA

Biling, o'g'lonlarim, sizlarni g'amdan qutqarur maktab,
Siroti mustaqim¹, rohi adamdan qutqarur maktab,
Maishat bobida ranj-u alamdan qutqarur maktab,
Hayot-u ruha dushman jahli samdan qutqarur maktab,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab.
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Taraddud birla doim dur² oling daryoyi maktabdan,
Tering jon rastasig'a xo'b zabarjadhoi maktabdan,
Topar maqsudini har kim qidirsa loyi maktabdan,
Umidim shul, jo'jular, uzmasanglar poyi maktabdan –
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Cholishmaq birla doim to lahad borguncha ilm ista,
Hadisi mustafodir: Shahri Chin borguncha ilm ista,
Sihatsan to badang'a harfi mad borguncha ilm ista,
Qo'yub ohista-ohista qadam, borguncha ilm ista,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Jahonda barcha ne'matdan laziz ilm o'lmasa, nedir,
Hunar bog'ida tubi qad aziz ilm o'lmasa, nedir,
Nasimi mushki totor³i tamiz ilm o'lmasa, nedir,
Gulob, tarbiyati jahli mariz⁴ ilm o'lmasa, nedir.
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

¹ Siroti mustaqim – qil ko'pik.

² Dur – 1) Inju; 2) Uzoq.

³ Mushki totor – toza va xushbo'y.

⁴ Mariz – kasal.

Hama xursandlikni ma'dan¹idur ilm, ey o'g'lon,
Hama fazl-u karamin manbayidur ilm, ey o'g'lon,
Hama xo'blarni xo'bin maskanidir ilm, ey o'g'lon,
Hama islom elini masnadidur ilm, ey o'g'lon,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Takabburlar qatorida havog'a bo'lmasang mag'rur,
Dutor-u tanbur-u chang-u navog'a bo'lmasang mag'rur,
Taraddud vaqtida bazm-u kazog'a bo'lmasang mag'rur,
Bo'lib hajr²ida Hijron mahliqog'a bo'lmasang mag'rur,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

FALAK KAJRAV, YO RAB

Falak kajrav³ bizi ag'fola⁴ aylandurdim-u, yo, Rab,
Va yo xurshid⁵i nuri ko'zları tindirdim-u, yo, Rab,
Qamar⁶ qon og'latib bizlarg'a nuqson verdim-u, yo, Rab,
Taajjub, yulduzi iqbolimiz g'am erdim-u, yo, Rab,
Tutub abr⁷i jaholat bizni pinhon qildim-u, yo, Rab.

Tamoman bizg'a berdi yo zamin, yo osmon g'aflat,
Havo berdi biza onjaq nasimi dilkushon g'aflat,
Zamona nahr⁸i su o'rniq'a berdi, oh, qon g'aflat,

¹ Ma'dan – kon.

² Hajr – ayrılıq.

³ Kajrav – egri yuruvchi.

⁴ Ag'fola – g'aflatdagilar, g'ofillar.

⁵ Xurshid – quyosh.

⁶ Qamar – oy.

⁷ Abr – bulut.

⁸ Nahr – daryo.

Zimistoni jahonda bormu bizdek titragon g‘aflat,
Bahori tarbiyat bizlarga to‘fon erdim-u, yo, Rab.

Zamona ahli derlar bizni fandan bexabar, hayhot,
Ziroatdan, sanoatdan xabarsiz besamar, hayhot,
Qilib tark amrini sharr ishlayurmiz, alhazar, hayhot,
Hunarda posibon hammoldurmiz darbadar, hayhot,
Bu hikmatlar biza ro‘zi azaldan erdim-u, yo, Rab.

Ulum ahli bo‘lub bir-birg‘a zid nafsonayi sarxush,
Muallimlar usul atrofida parvonayi sarxush,
Jo‘juqlar tarbiyatsiz, ilmdan begonadur sarxush,
Avomun-nos¹ g‘iybat hosili afsonadur sarxush,
Eshon, so‘fi tama’ jomig‘a xo‘landirdim-u, yo, Rab.

G‘anilar himmati to‘y-u tamoshog‘a ketar, Hijron,
Zamona bo‘stoni, fasli gul yeldek o‘tar, Hijron,
Faqir bechora bulbuldek vatan g‘amda yotar, Hijron,
Boqing ahli basirat² g‘uncha dilni chok etar, Hijron,
Jaholat jismimizg‘a xor o‘rnashtirdim-u, yo, Rab.

¹ Avomun-nos – omi odamlar.

² Basirat – ko‘rlik.

ISTAMAS

Hech inson dunyoda faqr-u fanoni istamas,
Hech tan o‘z jonig‘a ranj-u baloni istamas.
Aylama pand-u nasihat nokasa behudakim,
Qobiliyat bo‘lmasa, sharm-u hayoni istamas.
Ilm rohidan adashgan besarupo¹lar abas²,
Bexabar kavnayn³dan, rohi⁴ hudo⁵ni istamas.
Mayli jannat aylamas diydoridan ummidvor,
Tolibi diydor emas, amri xudoni istamas.
Sidq ila shar‘i payambarg‘a amal qilmaksi ul,
Ro‘zi mahsharda Muhammad Mustafoni istamas.
Choriyori bosafog‘a har kishi munkir esa,
Ul Hasan birla Husayni Karbaloni istamas.
Har kishida bo‘lmasa ixlos hubb⁶i xonadon,
Nuri chashm⁷i Mustafo xayrun-nisoni istamas.
Har kishini tab‘ida gavharshinosi bo‘lmasa,
Qadri qimmat bilmasa, qimmatbahoni istamas.
Kimki ummattur, biling, har ishda payrav⁸liq qilur,
Aysh-u ishratdan kechub zavq-u safoni istamas.
Ummat⁹ ersa har kishi millatni anduhin chekur,
Kimki Hijron bo‘lmasa, millat kazoni istamas.

¹ Besarupo – telba, bevosh.

² Abas – foydasiz, behuda.

³ Kavnayn – ikki dunyo(ning).

⁴ Rohi – yo‘l.

⁵ Hudo – hidoyat.

⁶ Hubb – sevish, yaxshi ko‘rish.

⁷ Chashm – ko‘z.

⁸ Payrav – ergashish.

⁹ Ummat – payg‘ambarlarga tobe’ kishi.

USHBU «ADABIYOT»A TURKISTON AHLINDAN JAVOB

Afandim, bu sizing afg‘oningiz bizlarga kor¹ etmaz,
Ocharga ko‘z qani bizda, imolar aslo or etmaz,
Xazon bo‘lg‘on gulistonidur, gulini ixtiyor etmaz,
Sizingdek bing² muxotib³ dodi faryodi mador etmaz,
Nechuk chiqsun bu millat, g‘ayrat-u himmatni yor etmaz.

Qani er bizda uyqudan u yog‘, xotin qatorinda,
Dil-u jonin jaholat qoplamish, yotmisht mazorinda,
Nechuk ibrat olur jonsiz jamod⁴ ul qabri zorinda,
Na deb so‘z tinglayurkim, punba g‘aflatgo⁵ shikorinda,
Nechun tursun bu g‘aflatdan tag‘oful⁶ e’tibor etmaz.

Bu jahliston eliga va’z⁷lar kor etmagay, faryod,
Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod,
Bu osiyo sangi⁸n ustida turpo ketmagay, faryod,
Bu ko‘histon dilini kahfi xobi bitmagay, faryod,
Yotar doim farog‘atda na nang⁹gu ori g‘or etmaz.

Bu mavhistonda bermas ibrat-u g‘ayrat samar, hayhot,
Hama yo‘l ko‘rsatuchilar tama‘chi, darbadar, hayhot,
Bu fanlardan xabarsizdur, falaklar qars urar, hayhot.

¹ Kor – ish, mehnat.

² Bing – ming.

³ Muxotib – xitob qiluvchi.

⁴ Jamod – jonsiz tabiat.

⁵ Punba g‘aflatgo‘ – lapashang.

⁶ Tag‘oful – g‘ofillik.

⁷ Va’z – pand, nasihat.

⁸ Osiyo sangi – tegirmon toshi.

⁹ Nang – uyat, nomus.

Yahudu armani, lotishlar aylar alhazar, hayhot,
Abu Jahl-u Yazidlar biz kabi millatni xor¹ etmaz.

Taraqqiy yo‘lina tushsunmi yo shaxsisidan qolsun,
Funun-u ilmdan ibrat desa, pul topmadan qolsun,
Maishat bobida pul topsin-u o‘z jayb²ina solsun,
Boqub hirsi ila ta’rixa, Qorundan na deb qolsun,
Nasihat aqchasiz bu sangi dillarda qaror etmaz.

Yahudiylar kelib savdoni andak qismini oldi,
Shupurg‘uchi, yamoqchi, xayrchilik bizg‘a ham qoldi,
Yahudiylar ko‘rub turk ittifoqin aqldan toldi,
Yasab shirkat g‘anilar yig‘di pul, joyi asil qoldi,
Tanazzul iftiroq³ etmakda bizlar sharm-u or etmaz.

Bu ko‘histon⁴g‘a maktabni solur, sahroyilarmu, oh,
Hunar birla funun tahsil etar qishloqilarmu, oh,
Muallim yetkarur kim? Bu qadim taryokilarmu, oh,
Madorislarni kim isloh⁵ edar, shalloqilarmu, oh,
G‘arib-u bekas-u bechorani odamqator etmaz.

G‘anilar o‘rtamizda bor, himmat nishlari burron⁶,
Faqirlar jismini tishlab olurg‘a tishlari burron,
Xusumat aylamakda dildagi g‘ul-g‘ishlari burron,
Jamoat, xayrni buzmak uchun qirqishlari burron,
G‘ariblar jismig‘a bunday alamni zahri mor⁷ etmaz.

¹ Xor – tikan.

² Jayb – cho‘ntak, kissa.

³ Iftiroq – tarqoqlik.

⁴ Ko‘histon – tog‘, tog‘lik yer.

⁵ Isloh – tuzatish.

⁶ Burron – keskir.

⁷ Mor – ilon.

Biza lozim erur axloq ta'limig‘a bir o‘n yil,
Jaholat jomi bizdan tark o‘lur, gar kechsa besh-o‘n yil,
Ulumi ma’rifatdan to xabar topmak-la o‘n-o‘n yil,
Chirog‘i ilm uchun Hijron bo‘lub yotmakka yuz o‘n yil,
Agar bing yil nasihat yog‘gani-la sabzazor¹ etmaz.

SADOQAT BIZDA YO‘QDUR...

Sadoqat bizda yo‘qdur, demakim, yalg‘onimiz bordur,
Ulum-u ma’rifatdan demakim, nuqsonimiz bordur.
Demakim, amri ma’ruf aylamakka bizda yo‘q bir kas,
Ki har bir go‘sayı jome’da mashrabxonimiz bordur.
Mudarrislarda yo‘q isloh, deb(on) oh urma behuda,
Bo‘lur tahsil hosil, deb dalil yozg‘onimiz bordur.
Tabobat bobida bizdan muqaddam hech millat yo‘q,
Alaflardan davo qilg‘uvchi bing Luqmonimiz bordur.
Tijorat aylamakda pasda qolduk, deb yema anduh,
Tama’dan aqcha to‘plar milyoner eshonimiz bordur.
Hakimlik bizdadur onjaq, buni ag‘yor bilmas, oh,
Chibiqlar birla jin quvlar qasidaxonimiz bordir.
Bizim ham ilm-u fandin bexabar, deb, aylama tahqir,
Tramvoydan tusholmay dumbaloq otqonimiz bordur.
Adab bobida tanho o‘zgalar lof urmasun, oxir,
Hazil o‘rnig‘a badnom-u haqoratdonimiz bordur.
Muhandis bizda yo‘q, deb noraso so‘z demagil, notiq,
Sharorat² tog‘ida mino topib olg‘onimiz bordur.
Safoni so‘fida, obidni mehrobida ko‘r, doim,
Ibodatni riyo aylar bizim shaytonimiz bordur.
Taajjublanma, Hijron, san, tag‘ofulpeshadur kajrav,
Yotar, yig‘lar, kular, ishlar – ajab davronimiz bordur.

¹ Sabzazor – maysazor.

² Sharorat – yaramaslik, yomonlik.

OLAM ICHRA KO'RMADIM...

Olam ichra ko'rmadim kizb¹-u xiyonatdan bo'lak,
Mehr-u shafqat o'rnig'a shaxsiy adovatdan bo'lak.
Hamshikamlar, hamnafaslardan farog'at ko'rmadim,
Oh, ko'nglum pora-pora, dil jarohatdan bo'lak.
Oshino yor-u birodardan muqarrar chektim al,
Hech bir shay ko'rmadim g'iybat, haqoratdan bo'lak.
Demak istarman xuruji Mahdiyi Iso qarib,
Uchramas bir shay² ko'za aysh-u sharoratdan bo'lak.
Shayxlar sayyod³ o'lub, saydi murid⁴ o'ldi, darig⁵,
Zuhd⁶-u taqvoni na qilsunlar sayohatdan bo'lak.
Ilm istarlar amaldin zarracha yo'qtur nishon,
Istamaslar bir shayi nazr-u saxovatdan bo'lak.
Millati islom uchun hech kimsa zahmat chekmasun,
Bizga onjaq yo'q zarar zahmat hijolatdan bo'lak.
Istama Hijron o'lub nojinslardan daf⁷i g'am,
Bu shajarlarda samar⁸ yo'qtur jaholatdan bo'lak.

¹ Kizb – yolg'on.

² Shay – narsa.

³ Sayyod – ovchi.

⁴ Murid – 1. Talab etuvchi 2. Ergashuvchi.

⁵ Darig' – afsus.

⁶ Zuhd – toat-ibodat qilish.

⁷ Daf' – qaytarish.

⁸ Samar – meva, hosil.

AFSUS

Afsus, bizim dog‘ladi, yondurdi bu matlab,
Na tab’, na matbaamiz vor, na mакtab,
Na ilm-u na ta’limi qiroat, na murattab¹.
Hayhot, bizim qopladi, ko‘r jahli murakkab,
Ovorayi sargashtayi zor og‘ladik og‘lab.

Xodimlik o‘lubdur kecha-kunduz biza pesha³,
Hosid⁴lik o‘lub bir-birimiz birla hamisha,
Donandayi fahmanda urur millata tesha,
Millat shajar⁵inda na qolub shox, na resha⁶,
Behosil o‘lub hosil, xor og‘ladik og‘lab.

Qo‘y zohid elin, go‘sada qilsunla(r) ibodat,
O‘z nafsina oroyish o‘lub solsun amorat⁷,
Balki avzina topar mahshar kuni jannat,
Yo‘x onlari daxli tusha gar cho‘llara millat,
Shaxsilik ila aksari kor, og‘ladik og‘lab.

Qo‘y, boylaring holina etsunla(r) tijorat,
Pullarni qo‘yub bonkaya, topsunla(r) ijomat,
Faqr ahli edub bir-birina kizb-u xiyonat,
Ismi o‘lan Isloma na maktab, na sinoat,
Pul pul qozonub, oxiri nor⁸ og‘ladik og‘lab.

¹ Murattab – tartib berilgan.

² Og‘ – ip, tor.

³ Pesha – kasb.

⁴ Hosid – hasadchi.

⁵ Shajar – daraxt.

⁶ Resha – ildiz, tomir.

⁷ Amorat – amirlik.

⁸ Nor – o‘t, olov.

Yo‘x zarracha, e voy, g‘anilar saxavoti,
Maktab so(l)sa bo‘lsunmi ani xarj manoti,
Ko‘rsatma alarga din-u millat xarajoti,
Ma‘sум jo‘juq o‘ynaya bersun jasoti,
Cho‘b ota minub oxiri mor og‘ladik og‘lab.

Farmoyishi payg‘ambara bizlarda amal yo‘q,
Farz-u vujub¹-u sunnata bizlarda mahal yo‘q,
Millat ishini ishlamaga jahd²-u jadal yo‘q,
O‘lduk badaviy³, bizda qavonin⁴i milal yo‘q,
Hosil ishimiz jurm⁵i kibor og‘ladik og‘lab.

Sharb-u maya oludadu(r) bizlarda javonlar,
Kanyak-la to‘lur vaqtি safarda chamadonlar,
Suhbat yerimiz bo‘ldi numir-u resturanlar,
Ko‘r, ko‘zlar-a, oh, uchramayur, g‘ayri⁶ fiyonlar,
Sargarm o‘lubon, dilda g‘ubor og‘ladik og‘lab.

Hojilari ko‘r, ishlari har yerda riyodur,
Olimlari ko‘r, domi tama’, kori ribodur,
Johillari ko‘r, kizb-u xiyonatda jalo⁷dur,
Ojizlari ko‘r, zor-u giriftori balodur,
Oluda o‘lub abri bahor og‘ladik og‘lab.

¹ Vujub – vojib amallar.

² Jahd – tirishish.

³ Badaviy – sahroyi, ko‘chmanchi.

⁴ Qavonin – qonunlar.

⁵ Jurm – jinoyat, gunoh.

⁶ G‘ayri – o‘zga, boshqa.

⁷ Jalo – Vatanni tark etish.

Har yerdaki, ilma bizi targ‘ib eta(r) mazhab¹,
Tahsili ulum etmaka bizda qani maktab,
Millat bolasi to o‘qusun – hal o‘la matlab,
Nokaslara Hijron o‘lubon, o‘lma muxotab,
Hayhot, jaholat biza yor, og‘ladik og‘lab.

IKKINCHI JUZ²

*Fe’li insoning haqiqiy foil³i vijdonidur,
Hokimi qonuni hukm hosili vijdonidur.*

HAMD

Qalam qudratini olama qilib insho,
Iki jahong‘a iki harf ayladi imlo.

Bu korxona bir ustoddin emas xoli,
Kerak bu qudrata, albatta, qodir-u dono.

Yetolmas aql qushi uchgani-la bir chetina,
Ajab vasi’ bu ayvonin ayladi barpo.

Yaratti ichrusida ins-u jinsnai sajda uchun,
Malaklar aytadir tominda «robbi-al-a’lo».

Karamxonanda na’im⁴ oshno-u begona,
Bu ostonaga bosh urmiyurmi shoh-u gado.

¹ Mazhab – yo‘l, maslak.

² Sovetlarga qadar uch marta (1912, 1915, 1917) bosilgan. Keyingi sakson yil davomida birinchi marotaba to‘liq e’lon qilinmoqda.

³ Foil – ishlovchi, bajaruvchi.

⁴ Na’im – ne’matlar.

Karimdurki, kechar bandasin gunohini,
Desa xatosini afuin tilab xudovando.

Azizdurki, eshidigin birovni gar quvsu,
Iki jahon eshidigindan topolmayur ma'vo¹.

Ko'rurmiz olam aro turfa-turfa maxluqot,
Yarotti barchasini juft xoliqi tanho.

Yaratti yer yuzida eng musharraf insonni,
Berib farosat-u aql-u tilin qilib go'yo.

Bino qilib ikki olamni hazrati fayyoz²,
Tufayli hazrati kavnayn, sayyidi barno.

Yubordi yer yuziga bir necha payg'ambarlar,
Arolarinda edi afzali habibi xudo.

Atomiz Odam-u Havvoni qo'ydi jannatiga,
Tushirdi yer yuziga, aylab erdilarki xato.

Birini qavmini to'fon ila halok etdi,
Birin tirikligida ayladi makonin a'llo.

Birini qavmini qildi halok sarsar³ ila,
Biriga tosh ichidan teva⁴ chiqdi, tug'di balo.

Birini otasha otdurdi qudrati birla,
Birini qavmini zer-u zabar qilib Mavlo.

¹ Ma'vo – makon.

² Fayyoz – fayz egasi, tangri taolo.

³ Sarsar – qattiq shamol.

⁴ Teva – tun.

Birini qildi o'n ikki o'g'il ila xushhol,
Xususan, ichlarida erdi Yusufi barno.

Hasad balosini berdi og'alarin dilina,
Asir Yusuf-u Ya'qub Yusufina ado.

Sinor haqinda birin saxt ayladi ranjur,
Baloga sobir ekan, berdi oxirida shifo.

Birini qavmini otash ila qilib barbod,
Birini qavmini bir sayha birla jo bar jo.

Birini dushmanidan asradi aso birla,
Suv uzra ko'pruk edi, dushman uzra ajdarho.

Birin qo'linda temir mum kabi erir erdi,
Birini hukmini ostinda erdi bodi sabo.

Birovga Qodir atosiz o'g'ul ato qildi,
Zamona zolim ekan ko'p ko'rolmadi Iyso.

Birini ayladi me'roj kechasi mehmon,
Bu rutba hech payambarga bo'lmas erdi ato.

Bularni har birini ko'ndurub bir ummatga,
Bularni har biridin necha millat etdi bino.

Bularni ayladi taqsim firqa-firqa qilib,
Biriga berdi xato yo'lini, biriga hudo.

Biri jafo qilur erdi o'zin payg'ambarina,
Biri xulus¹i dil ila der erdi «Omanno».

Birini ayladi Iysoyi, birini Musoyi,
Birini qalbini ko'r ayladi, birin bino.

Kifoyadur bu sharaf ummati Muhammadga,
«Qoshimdadir, – dedi, – Islom dinidur bolo».

Aziz ekan nega xor o'ldi, haq o'zi bilgay,
Bizimcha, bunga sabab bo'ldi a'lam-u ulamo.

Saodat asrida qildi taraqqiy dini mubin²,
Uzoqladiqcha saodatdin o'ldi asr – asri fano.

Nifoq-u bug'z³-u xurofota uchradi Islom.
Tushub amaldin asir o'ldi hikmati hukamo.

Tanazzul ayladi, bordiqcha millat o'ldi g'arib,
Baloyi nafsa cholishdilar aksari xulafo⁴.

G'arib millat uchun hech kim o'ljadi Hijron,
Tarahhum ayla o'zing, ey a'lami sirri xafo.

¹ Xulus – xolis.

² Mubin – ravshan, ochiq.

³ Bug'z – kek, dushmanlik.

⁴ Xulafo – xalifalar.

NA'TI RASULI AKRAM

Ul kunki, erdi olami Islom beadib,
Insonlar edi kufr-u zalil¹ ichra dilsirib,
Lot-u Uzzoni vaqtı xarobi edi qarib²,
Islom uchun kerak edi bir rahnamo xatib,
Dunyo quchog‘ina sizi qildi xudo nasib,
Mavludingiz-la berdi ikki olamig‘a zeb,

Sizzin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz (ni) holina bemor ham g‘arib.

Haq berdi sizga ul kuni lovlok xilqat³i,
Mo‘jiz uchun berib siza Furqon⁴ oyati,
Oyni ikkiga bo‘ldingiz aylab ishorati,
Ey, sohibi muassisasi Islom millati,
Haqdin tilab hamisha gunohkor ummati,
Haq va’da qildi Kavsar⁵-u jannat shafoat⁶i.

Sizzin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g‘arib.

Adl-uadolat erdi hama kori boringiz,
Ummat debon kechur edi laylu nahoringiz,
Islom sabz ayladi⁷ fasli bahoringiz,
Serob qildi tashnalari shar‘i joringiz,

¹ Zalil – xor, tuban.

² Qarib – yaqin.

³ Xilqat – yaratilish.

⁴ Furqon – Qur‘oni karim.

⁵ Kavsar – jannatiy chashma.

⁶ Shafoat – vosita bo‘lish.

⁷ Sabz ayladi – ko‘kardi, yashnadi.

Tutdi livoyi shar'iy¹ngiz chahor yoringiz,
Bul kun g'arib millat-u biz intizoringiz,
Sizdin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Me'roja chorladi sizi qurbat² uchun Jalil,
Oyat buyurdi masjidi Aqsog'acha dalil,
Andin samog'a boshladi qo'lingizda(n) Jabroil,
Bo'ldi sayohatingiz-la samo atri zanjabil,
Fazl-u fasohat³ingiz-la malaklar edi xijil,
Topdi vujudingiz sharaf ayni salsabil,
Sizdin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Rif'at buyurdi haq sizi to'qquz falaklara,
Payg'ambar ayladi sizi ins-u malaklara,
Ummat g'aminda bog'ladingiz tosh yuraklara,
Haq jilva berdi siz bila shol-u yifiklara,
Holi inoyatingizdan o'tdiki bu mardumak⁴lara,
Millat shafoat istadi bul kun tilaklara,
Sizdin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Ummat xatog'a qildi jadal, qilmayur savob,
Millat xarob-u hol xarob-u vatan xarob,
Shar'i sharif ishlamayur holi iztirob,
Bulbul yerina qildi vatan bu zamon g'arob⁵,

¹ Livoyi shar'iy – shariat tug'i.

² Qurbat – yaqinlik.

³ Fasohat – yoqimli nutq.

⁴ Mardumak – ko'z qorachig'i.

⁵ G'arob – g'ariblar, kelgindilar.

Ilm-u amalni o‘rniga ummat ichar sharob,
Dillar kabob-u bag‘r kabob-u yurak kabob.

Sizdin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g‘arib.

Ashobi shar’ bo‘ldi, ajab, zor-u notavon,
Donanda lol-u johil sharmanda – nuktadon,
Bog‘i fasod gulshan-u millat guli – xazon,
So‘ldi guli shariat-u bulbullari – nihon,
Ahkom¹ shar’ o‘rniga jahl o‘ldi hukmron,
Millatni bog‘i bekas-u mahv² o‘ldi bog‘bon,

Sizdin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g‘arib.

Bu na zamonki, millati holi zabundur,
Bug‘z-u adovat o‘rtada haddin fuzun³dur,
Har kas⁴ o‘zining nafsi uchun sarnigun⁵dur,
Jahl o‘tina yonib dilimiz la’l gun⁶dur,
Ummat amalni tashladi, ko‘zyoshi xundur,
Hijron – biz, o‘zgalar hama sarvat⁷i funundur,

Sizdin tarahhum istayur Islom, yo habib,
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g‘arib.

¹ Ahkom – hukmlar.

² Mahv – yo‘qolish, bitish.

³ Fuzun – ziyoda, ko‘p.

⁴ Kas – kishi, shaxs.

⁵ Sarnigun – boshi egik, sharmanda.

⁶ La’l gun – la’l monand, qip-qizil.

⁷ Sarvat – boylik.

ILM

Ilm bog'inda bizam toza bakom o'lmaliyuz,
Ilm gulzorina bulbul kabi rom o'lmaliyuz,
Ilm vaslina xiradmand¹i xirom o'lmaliyuz,
Ilm ila millati Isloma g'ulom o'lmaliyuz,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilm uchun bizga bo'laklar kabi g'ayrat lozim,
Ilm uchun bizga muallimlara diqqat lozim,
Ilm uchun bizga muruvvat bila himmat lozim,
Ilm uchun bizga taraddud bila xidmat lozim,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilmsizlarga jahoning keng uyi tor o'ldi,
Ilmsizlarga zamon bermaki ozor o'ldi,
Ilmsizlarga hama dard-u alam yor o'ldi,
Ilmsizlarga maishat yo'li dushvor o'ldi,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilmdur ikki jahon manzilining a'losi,
Ilmdur ikki jahon masnadining bolosi,
Ilmdur ikki jahon rohatining ma'vosi,
Ilmdur ikki jahon shavkatining barposi,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

¹ Xiradmand – aqlii, donishmand.

Ilm bir gavhari noyob, yo'q o'lmas, bitmas,
Ilm bir nuri ziyodurki, jilosi ketmas,
Ilm bir nuri ilohiy – kishini xor etmas,
Ilm bir quvvat erur – millatini mahv etmas,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmalievuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmalievuz.

Ilmsiz ushbu zamonlarda yashar kun bitdi,
Ilmsiz xobi kasolat¹da yotar kun ketdi,
Ilmsizlarni bilimlik yo'q etar kun yetdi,
Ilmsizlik bizi, Hijron, yashatur kun o'tdi,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmalievuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmalievuz.

MAHBUBLARIMA BIR XITOB

Asrimiz asri taraqqiy, bizda mag'ruri xayol,
Ittifoq-u ilmsizlik bizni qildi bemajol,
Oh, g'ofil millating uyqudin uyg'otmak mahol,
Og'lasun qon ko'zlarim millat g'aminda bemalol,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go'star jamol,
Tobakay² hajringda bizlarni qilursan poymol.

Avvalo bizlarg'a xushguftor erding, tashlading,
Biz bila har yerda hamraftor erding, tashlading,
Bizlara xo'b munis³-u g'amxo'r erding, tashlading,
Qil muruvvatkim, qadimlar yor erding, tashlading,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

¹ Kasolat – sustlik.

² Tobakay – qachongacha.

³ Munis – do'st, o'rtoq.

Ko‘b zamondur yovrupalularg‘a bo‘ldung oshno,
Jurmi ne bo‘ldi, bizim zulmatda qoldi Osiyo,
Amriqo vahshiylari nuringdin oldilar ziyo,
Qoldimiz biz Amriqo, Oqyonussiyolardan fano,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go‘star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

O‘zgalar sen birla olamni musaxxar¹ qildi, oh,
Rahnamo aylab sani, kasb ayladi sun‘i iloh,
Dengiz-u yer – osmonlarda barobar topdi roh,
Emdi navbat bizlara yetdimu, qil bir yo‘l nigoh,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go‘star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

Asrlardur boqmayin jahl o‘tina yoqding bizi,
Hasrat-u anduh ila bejon kabi boqding bizi,
Mehnat-u g‘am toshi birla doimo choqding bizi,
Dahr fatvosi-la Mansur dorina toqding bizi,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go‘star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

Ayrlub sandan fano bir hola dushtuk oqibat,
G‘iybat-u bug‘z-u adovat-la yurishtuk oqibat,
Xayrdin yuz do‘ndurub, sharrga tirishtuk oqibat,
Masjid-u mehrob-u minbarda urushtuk oqibat,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go‘star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

¹ Musaxxar – fath etilgan.

Jam'i mol-u mulk barbod o'ldi sandin ayrılib,
Bo'ldi tafriq¹ olami Islom sandin ayrılib,
G'ayrlar zorib, biz(l)ar mazruba sandin ayrılib,
Bo'ldimiz xo'b qobili taqsim sandin ayrılib,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

Har zamonning bir Zulayho, Yusufi barnosi bor,
Vomiqing Uzrosi bo'lsa, Majnuning Laylosi bor,
Ko'hkan boshinda Shirinning bir ajib savdosi bor,
Bilmazam, mahbublarining buncha istig'nosi bor,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

Hosili sizdin umidim budur, ey mahbublar,
Ko'z qarosi, bag'r qonimdan yozib maktublar,
Derman: aldanmang falak zolim so'zina, xo'blar,
Hajrida Hijron kabi ovozangizdur ko'blar,
Ittifoq-u ilm, Islom ahlina go'star jamol,
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol.

¹ Tafriq – farq, nizo.

MAISHATDAN BIR MANZARA

Bizim yerlarda ixvat¹, shaxsi(y) rohatdin iboratdur,
Hama a'mol²imiz shaxsiy adovatdin iboratdur.

Qani himmat, qani g'ayrat, qani bizlarda yangi hol,
Butun avzoyimiz lof-u atolatdin iboratdur.

Qani shirkat, qani sarvat, qani bizlarda mulk-u mol,
Hama a'morimiz eski amoratdin iboratdur.

Qani ulfat, qani shuhrat, qani bizlardagi iqbol,
Butun afrod³imiz sangi mazoratdin iboratdur.

Qani millat, qani hurmat, qani bizlar kabi pomol,
Hama ash'orimiz xob-u atolatdin iboratdur.

Qani ilm-u qani omil, qani bizlarda iste'mol,
Butun afkor⁴imiz hamyonga toatdin iboratdur.

Qani nahy⁵-u, qani munkar, qani bizlarda mofil-bol,
Hama ahvolimiz yalg'on mahoratdin iboratdur.

Qani zohid, qani taqvo, qani bizlarda xush af'ol⁶,
Butun davronimiz anduh-u kulfatdin iboratdur.

¹ Ixvat – birodarlik.

² A'mol – amallar.

³ Afrod – yolg'izlar.

⁴ Afkor – fikrlar.

⁵ Nahy – qaytarish.

⁶ Af'ol – harakatlar.

Qani hol-u, qani quvvat, qani ta'mini istiqbol,
Hama atvorimiz moziy kasolatdin iboratdur.

Qani maktab, qani tolib, qani ta'limi istikmol,
Butun avlodimiz vahshiy safohatdin iboratdur.

Qani mehr-u, qani shafqat, qani tarbiyyati atfol¹,
Hama af'olimiz behuda odattin iboratdur.

Qani ummat, qani sunnat, qani bizlar qilan a'mol,
Butun qilg'onimiz bid'at – qabohatdin iboratdur.

Qani inson, qani Hijron, qani bizlarcha gung-u lol,
Hama nodonemiz millatga hasratdin iboratdur.

QABRISTONA BIR NAZAR

Ey ko'zim, dunyodan o'tmish bu qarindoshlarni ko'r,
Ko'zlarina xok to'l mish bu qari-yoshlarni ko'r,
Nasli inson-u malaksiymo parivashlarni ko'r,
Bu Adam² sahrosida tufroq arolashlarni ko'r,
Maqsudina yetmayin yotgan dili g'ashlarni ko'r.

Bu Vatan – shoh-u gado, yaxshi-yamon yakson³idur,
Bu Vatan hajrinda har kun necha jon qurbanidur,
Bu Vatan yo rohat-u yoxud alamning konidur,
Bu Vatan har bir vujudning mabdayi pinhonidur,
Bir kafan shaydosi bo'lgan bu qalamqoshlarni ko'r.

¹ Atfol – bolalar.

² Adam – yo'qlik.

³ Yakson – bir xil.

Dunyoni arslon kabi tirnoqlamish bechoralar,
Kecha-kunduz nafs uchun sarson o'lub ovoralar,
Ba'zisin millat g'aminda bag'ridur sadporalar,
Hosili inson dilini dog'-u hasrat yoralar,
G'ayrati tufrog'a do'nmish bu aziz boshlarni ko'r.

Bunlaring turmushlari bir darsi ibrat go'starur,
Bas, butun manzarlari bir ya's¹i hasrat go'starur,
Har nazarda bir bo'lak anduh-u kulfat go'starur,
Bu fano maydonidakim, holi quvvat go'starur,
«Roje'un»² xatti yozilmish bu qaro toshlarni ko'r.

Qiz anodan ayrilib, o'g'li atosindin judo,
Shohlar taxt-u g'anilar mol-u mulkindin judo,
Ba'zilar g'am qaydidan, ba'zi asoratdin judo,
Oshiqi ma'shuqdan, ma'shuq oshiqdan judo,
Hajrda marjon kabi oqmish qizil yoshlarni ko'r.

Dunyoda Doro kabi hikmat-la tadbir aylagon,
Hashmati Xisrav kabi olamni tasxir³ aylagon,
Hukmfarmonlig'da yuz-ming domi tazvir⁴ aylagon,
Birni nolon, birni giryon, birni tahqir aylagon,
Bir siqim tufrog' o'lan arslona o'xshashlarni ko'r.

Kosasi Jamshid jomindan xabar verganlaring,
Maskani firdavs bog'indan xabar verganlaring,
Manzili Kisroni tomindan xabar verganlaring,
Xodimi Ma'mun g'ulomindan xabar verganlaring,
Necha yuz-ming qarz ila, Hijron, siri foshlarni ko'r.

¹ Ya's – ma'yuslik, umidsizlik.

² «Roje'un» – qaytuvchi.

³ Tasxir – zabit etish.

⁴ Tazvir – firib, aldash.

DUNYO FOJEASINDAN

Olamni o'rab olg'on g'avg'osi nadur, bilmam,
Bu odam o'g'ullarin da'vosi nadur, bilmam,
Bir-birlariga qilg'on ig'vesi nadur, bilmam,
Insonlari bu kori bejosi nadur, bilmam.

Ko'zlardin oqar qon yosh, bilmam, nechuk olamdur,
Dunyoni bosub selob, har go'shada motamdur,
To'fonmi, balodurmi – har qatrasи bir g'amdur,
Bunlarni yaratmoqdan savdosi nadur, bilmam.

Bilmamki xarob o'l mish bu olami insiyat¹,
Gardun²mi xato aylab vermas biza tarbiyat,
Uyqudamи insonlig', g'aflatdamи ulviyat?³
Ro'yo esa bu olam, fardo⁴si nadur, bilmam.

Hayvon kabi har yerda inson qilinur qurban,
Fir'avna bu kunlarda taqlid ediyur inson,
Bu kori fanolardin hatto o'tanur shayton,
Bu jabr-u sitamlarning ma'nosи nadur, bilmam.

Diqqat-la boqur bo'lsang, aqlingni bosur hayrat,
Haq pastda qolub, nohaq pul birla topur quvvat,
Bo'lg'usi zabun holing, yo'q sanda agar sarvat,
Xalq(n)ing bu qiziqdirgon dunyosi nadur, bilmam.

¹ Insiyat – insonlik.

² Gardun – falak.

³ Ulviyat – insoniy ulug'lik.

⁴ Fardo – erta.

Bechora-yu ojizlar dastindan etar faryod,
Aftoda yetimlar ham jabrindan emas ozod,
Dunyoning o'zi bilmam bo'lg'usi qachon barbod,
Bu g'am uyidur, Hijron, axrosi¹ nadur, bilmam.

HASRATLIK HOLLARIMIZ

So'ldi g'aflatdan jahon bog'indag'i gul – yorimiz,
Xor ila to'ldi gulistoni Eram – gulzorimiz.

Bo'ldi bizlarg'a vatan boyqush kabi vayronalar,
Uchdi gulzori vatandan bulbuli hushyorimiz.

Bir boqub dunyo kitobindan xabardor o'lmaduk,
Ilm o'qub, olamga sohib bo'ldilar ag'yorimiz.

Bormu olamda bizindek jahl bog'inda yotan,
Xobi g'aflat birla yoz-u qishda biz bekormiz.

Fikrimiz aysh-u farog'at, dardimiz bazm-u nashot,
Kayf yurg'onida yotgon bir kasal – bemorimiz.

Gardishi davron kabi ayrilmayin bir nuqtadin,
Eski hammom, eski tos-u, yangidin bezormiz.

Hayfkim, ilm-u funun birla jahon purnur ekan,
Vodiyi zulmatda bizlar jahl ila g'amxormiz.

Rahm-shafqat, marhamatdin yo'q erur bizda nishon,
Zulm ila kizb-u xiyonatga, ajab, tayyormiz.

¹ Axros – sukunat ma'nosida.

Ittifoq ila yashar ag‘yor, bizda iftiroq,
Ixvat-u fayz-u muhabbatdin qochar, beormiz.

Bu falokat uyqusи, bilmam, qachon bizdin qochar,
Uyg‘onub, ko‘zni ochub bo‘lg‘aymukin bedor – biz?

Zodimiz yo‘qdur amaldan kasb qilsak e’tibor,
Kosibi ashror¹ o‘lub kosid erur bozorimiz.

Mahv o‘lur har qaysi millat ichsa g‘aflat bodasin,
Moyili mayxona o‘lmish ko‘zлari xummorimiz.

Ittifoq-u ilmsizlik bizni Hijron aylayur,
Ma‘rifatsiz ketdi qo‘ldin har na yo‘q-u borimiz.

ILM AHVOLINDAN BIR MANZARA

Havoyi nafsimiz do‘ndurdi bizni istiqomatdan,
Hayoti ilm tushdi xastaliqg‘a holi sihhatdan,
Davosina cholishmay turdi olimlar adovatdan,
Ilojin qilmadi hech kimsa, tushdi lofi quvvatdan,
G‘aribi so‘rmayurlar, qo‘rqmayurlarmu qiymatdan.

Mizoji sustlandi, dardi kundan kun ziyod o‘ldi,
Qizil gul yafrog‘idek yuzlari isloh uchun so‘ldi,
Vujudin g‘am parishon ayladi, xo‘b bag‘ri qon o‘ldi,
Ko‘zining kosasi darmon uchun qon yosh ila to‘ldi,
Nechun bizlarda yo‘q bechora ilma mehr-u shafqatda

¹ Ashror – yomon odatlар.

Hama ilm ahli o‘z naf¹‘i uchun har fe’l, har ko‘yda,
Yotib bemorimiz uyda, yururmiz nafs uchun to‘yda,
Osilmish necha shaytonlar bizim har tolayı mo‘yda,
Hama isloh ila topdi ziyo, bizlar – qaro uyda,
Biza ortuq ko‘rundi qornimiz ahvoli millatdan.

Ajab ibratnamo oyinadur bizlarg‘a mozi(y)lar,
Boqing, Nu’mon, Abu Yusuf kabi alloma qozilar,
Rivoji ilm uchun bo‘lmish edi zindong‘a rozilar,
Bizim bu holimizni ko‘rsalar bizdin arozilar,
Taajjub! Ilm uchun bizlarda yo‘q biror zarra g‘ayratdan.

Buyurdi: «Utblabu-l-ilm va lav bi-s-Sini» payg‘ambar,
Suruldi ilm ila har yon u dam farz²ini payg‘ambar,
Qolib kisht o‘rtasinda bu zamon shohini payg‘ambar,
Amon, yo, Rab, bu kun mot o‘lmasun bu dini payg‘ambar,
Qutulg‘ay erdi, yo Rab, bu baloyi dardi mehnatdan.

Ko‘zidan ketdi nuri, qolmadi millatni darmoni,
Qo‘lidan ketdi davlat, bo‘ldi ummat jahl qurbanoni,
Yetarmu hech yerina ilmsiz bechora afg‘oni,
Chirog‘i ilm so‘ndi, tark o‘lub ahkomi Qur‘oni,
Yaqin o‘lduk shaqovat³ga, yiroq o‘lduk shariatdan.

Zamona gulshaninda so‘ldi tanho qomati Islom,
Tanazzul bog‘ina yuzlanmak o‘ldi odati Islom,
Maorifdin oyildi, g‘amga do‘ndi rohati Islom;
Ilmsizlik balosi bo‘ldi oxir ofati Islom,
Asir o‘lduk sharoratga, ba‘id⁴ o‘lduk saxovatdan.

¹ Naf – foyda.

² Farz – ijrosi zarur bo‘lgan Allohning buyruqlari.

³ Shaqovat – baxtsizlik, yomonlik.

⁴ Ba‘id – uzoq, yiroq.

Taraqqiy aylayur ag‘yor, biz g‘aflat quchog‘inda,
Taraddud qilmayin rohat, yoturmiz g‘am po‘chog‘inda,
Zamon bizlarni biryon aylayur mehnat o‘chog‘inda,
G‘animatdur otilmak ilm bog‘ina bu chog‘inda,
O‘sonmazmi, azizim, millati Islom g‘aflatdan.

Yumulmish bizni ko‘zlar bu jahon ma’murini ko‘rmay,
Jaholatdin chekilmay, ro‘schnolik nurini ko‘rmay,
Yotibmiz vodiyi zulmatda kulfat davrini ko‘rmay,
Qutulmay necha g‘aflatdan uxuvvat¹ havrini ko‘rmay,
Tushub chohi mazallat²ga, topib lazzat jaholatdan.

Qachon bizlardagi kin-u adovat mahv o‘lur, yo, Rab,
Bahori tarbiyatda fayz olub, gulshan kulur, yo, Rab,
Adolat bog‘iga gulhoyi hurriyat³ to‘lur, yo, Rab,
Chiqib bulbul qafasdan, yori dildorin ko‘rur, yo, Rab,
Yasharmiz tobakay, Hijron, chekilmasmizmi zulmatdan.

DUNYO KITOVIDAN

Har kim kelur olamg‘a bo‘lur zor-u parishon,
G‘urbat-la, mashaqqat-la yashar dunyoda inson.

Hammoling og‘ir bo‘lsa yuki, mehnati ortur,
Har kimki ulug‘ bo‘lsa, bo‘lur kulfati oson.

Har dardning o‘lur chorasi, har yig‘layan o‘lmaz,
Har kulfata bir oxir o‘lur, har gama poyon.

¹ Uxuvvat – birodarlik.

² Mazallat – xorlik, tubanlik.

³ Gulhoyi hurriyat – hurriyat gullari.

Bemoring agar sihhatini istasa Olloh,
Kelgay qoshig‘a doru bila sohibi darmon.

Har kimning agar umri tamomiga yetushsa,
Yo‘q foydasi kelgan ila qoshig‘a Luqmon.

Zolimning o‘zi zulma giriftor o‘lur oxir,
Albatta, bo‘lur uy buza(n)ning xonasi vayron.

Sabr et sitama, bo‘lg‘usidur oxiri rohat,
Yusufg‘a nechuk zulm qilur erdilar axvon¹.

Sabr ayla, ko‘zim, yig‘lama mehnat-la, jafoga
Bir doirada davra qimaz gardishi davron.

Bir kun bu xarob olami oboda qo‘yub yuz,
Gullar ochilub, qilg‘usi bulbullari javlon.

Beilmi amal aylama avqot²ing(n)i nobud,
Fikr ayla, nechuk ishladilar ilm ila Luqmon.

Tufrog‘dan o‘lur masjid ila dayr binosi,
Birdir nazari Haqda ma’jus-la musulmon.

Och ko‘zni, ko‘zim, davlati iqbola quvonma,
G‘aflat uyini(ng) yiqdi nechuk otashi Hijron.

¹ Axvon – birodarlar.

² Avqot – vaqtlar.

AFSUSLIK HOLLAR

Buncha, Rabbim, na uchun dahr¹da biz xor o'lduk,
Ilmdan g'ofil o'lub, jahla talabgor o'lduk.

Ushlamay shar'i nabiy, bo'l madimiz rohnajot,
To'g'ri yo'ldan qoyilib, egriga raftor² o'lduk.

To'g'ri so'z qolmadi, bizlarga yolon bo'ldi mizoj,
Tarbiyatsiz bu fano mulkida bemor o'lduk.

Qarzimiz bo'lsa birovdan, pulini bermasmiz,
Aysh-u ishrat yo'liga oqchasi tayyor o'lduk.

Bu na hasratli hayot, odativiz – fisq-u fujur,
Shar'dan yuz o'gurub sharr bila g'amxor o'lduk.

Haqni botil³ga sotub, qahr ila qilduk savdo,
Mehr bozorida biz zulma xaridor o'lduk.

Quvlobon bulbuli sho'ridani gulzori vatan(dan),
Qo'ndurub o'rninga boyqushni mirishkor o'lduk.

Umrimiz jahl ila kechdi, dilimiz g'am birla,
Dunyoda sud-u ziyon bilmagan ashror o'lduk.

Ishimiz bir-birimiz oldamak-u bo'ldi firib,
Hiylagarlikda ajab, tulkiyi ayyor o'lduk.

¹ Dahr – dunyo.

² Raftor – yurish.

³ Botil – buzuq.

Surati haykalimiz jonlidur, ammo beruh,
O'zgalarning ko'ziga surati devor o'lduk.

Ko'z oching, ahli Vatan, bo'yramidur insonlig',
Xobi g'aflatga asir-u g'ama dildor o'lduk.

Amrini tashladimiz, nahiya bo'lduk qurban,
Haq yo'lindan adashub, qahra giriftor o'lduk.

Ilmsiz bug'z-u adovat-la bo'lurmiz Hijron,
Kech, Xudo, dargahinga toza gunohkor o'lduk.

JANOBI HAQDAN BIR RIJO

Kayf-u safog'a ayladimiz sa'y ila shitob,
Ketduk tariqi ma'siyata qilmayin savob,
Na bizda yodi mahshar-u, na rohat-u azob,
Hosili savob bizda yo'q-u jurm behisob,

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Bizdek jahonda g'aflat ila yor bormi, oh,
Dunyoda bizcha millati bemor bormi, oh,
Bizlar kabi adovata tayyor bormi, oh,
Fisq-u fujura bizcha talabgor bormi, oh,

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Yo'q bizda bir kishiki, talabgori ittifoq,
Ilm ahlimiz g'urur ila allomayi nifoq¹,

¹ Nifoq – munofiqlik.

Uxuvat yerina dillara o'lturdi iftiroq,
Avlodi millat o'ldi zamon ilmidan yiroq,

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Millat xaroba olamida yurdi dar-badar,
Millat yuzina qilmadi hech kimsa bir nazar,
Millat deganda barchani bo'ldi qulog'i kar,
Millat chaqirsa, borgay eduk to'y qilib agar,

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Ibrat ko'zi-la boqmaduk o'tgan zamonalara,
Idrokimiz yetushmadi sud-u ziyonlara,
Ta'rixa boqmayin ko'zimiz to'ldi qonlara,
G'aflat ajaldan ilgari qasd etdi jonlara,

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Olamg'a to'ldi ilm-u hunar, bizda yo'q havas,
Aytur otasi o'g'lina: xat chiqsa, emdi bas,
Bundan nari o'qish senga, o'g'lim, kerak emas,
Mulloni qadr-qimmati bizlarda bo'ldi pas(t),

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Yo, Rab, bizim-da millatimiz hushyor qil,
Insof ila hidoyati bizlarga yor qil,
Ilm-u amalda jumlamizi barqaror qil,
Din-u shariat uzra bizi ustivor qil,

Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Yo, Rab, ber emdi millati Islom uchun rivoj,
Jahl-u nifoq dardina qilg‘il o‘zing iloj,
Dildin adovati ko‘tar, ulfatni qil mizoj,
Lutf-u karamg‘a biz kabi Hijronlar ehtiyoj,
Yo, Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,
Yonduk jaholat otashina, bag‘rimiz kabob.

TAAJJUBLIK HOLLAR

Ajab hasratli olamdur, ko‘ngillar dog‘dor o‘lmish,
Jaholat zahmidin dillar – ko‘ngillar lolazor o‘lmish.

Jahon gulzorina ibrat bila boq, bulbuli g‘ofil,
Guli Islomdek dunyo yuzinda bormi xor o‘lmish.

Ayil, ey millati g‘ofil, yetar boshingga bu xobing,
Nechun, bilmam, ochilmish ko‘zlarining uyquga zor o‘lmish.

Fano bir hola qolmish barcha avlodi Vatan, yohu,
Onosindan ayrilgan qush kabi beixtiyor o‘lmish.

Adovat band bo‘lmish dillariga, band ne yanglig‘,
Shakar o‘rnig‘a to‘ldirganlari kin-u naqor¹ o‘lmish.

Muruvvat to‘g‘risinda o‘zgalardin olmaduk ibrat,
Shuning-chun boshqa millatlarga biz bee’tibor o‘lmish.

Taajubdur, biza lozim ekan ta’mini istiqbol,
Tashab ilm-u fununlarni, borub biz g‘amga yor o‘lmish.

¹ Naqor – juda ahamiyatsiz.

Abas moziy kechurdi, emdi no‘ldi millating holi,
Yotib g‘aflat kanor¹inda balolarga duchor o‘lmish.

Na millat yodi moziyng vor, na istiqboling ummidi,
Vujuding punjayı vahshat ichinda tor-u mor o‘lmish.

Hayoting tarbiyatsizlik to‘fangiga nishon aylab,
Chunon majruh, o‘lub ruhlar, yuraklar zahmdor² o‘lmish.

Yotar millat, yotursan tobakay bu kahfi xobingda,
Bo‘lib Hijron ko‘ngullar, dilda jonlar beqaror o‘lmish.

MILLAT HOLINDAN BIR YA’S

Ey millati najib³, qolmadi avvalgi rohating,
G‘am birla to‘ldi haykal – shakli qiyofating.

Yo‘q bizda bir kishi sani holingni bilguchi,
Xam bo‘ldi kimsasiz sani shavkatli qomating.

Avloding o‘ldi dahrda beilm, behunar,
Qurban o‘lub jaholata jismi salomating.

Bizdin umid aylama holingni so‘rmog‘i,
Biz hoziriz⁴ agar bo‘lsa to‘y-u ziyofating.

¹ Kanor – quchoq, og‘ush.

² Zahmdor – kasal.

³ Najib – olижаноб.

⁴ Hoziriz – тайормиз.

Har kas o‘zini nafsi uchun dar-badar yurub,
Esdan chiqordi mahshar-u yodi qiyomating.

Kimdan iloj istading, ey millati g‘arib,
Hozirgi eng hakim zamonlardur ofating.

Taqsim qilurg‘a boshladilar mol-u mulkingi,
Fos-u Eronda qolmadi qilgan imorating.

O‘g‘lonlaringni barchasi nodon o‘lan jo‘juq,
Allohdan o‘zga qolmadi yor-u himoyating.

Har dardi vordur oxiri, har g‘amga intiho,
Haq vergusi jazosini chekkan riyozating.

Yo Rab, tarahhum aylamasang zor millata,
Kimgarg‘a bo‘lg‘usidur adadsiz inoyating.

Xolis dil ila qilmading, ey millato, amal,
Barbod bo‘ldi bir necha qilgon ibodating.

Ibrat ko‘zini ochmading atrofinga boqub,
Jahd-u jadalni tashlasak o‘ldi qabohat¹ing.

Har yangi ishka qarshi turub aylading aroz,
Hijron bo‘lurg‘a bo‘ldi sabab eski odating.

¹ Qabohat – qabihlik.

ZAMON AHVOLINDAN

To'ldi olam nur ila yangi sinoatlar chiqib,
Yangi tartib-u nizom, yangi davlatlar chiqib,
Yangi yo'l, yangi zamon-u yangi soatlar chiqib,
Yangi usto, yangi kor-u yangi hikmatlar chiqib,
Eski uyni buzdilar yangi mahoratlar chiqib.

Ilm ila olam musaxxar bo'ldi, biz johil hanuz,
Xobi g'aflat boshimizg'a yetsa ham g'ofil hanuz,
Ochmayin ibrat ko'zin biz uyquga moyil hanuz,
Ilm-u hikmatlarga bizlar bo'imaduk qoyil hanuz,
Boshimizda charx urar bolun sayohatlar chiqib.

Buncha g'aflat, yo'qmi fan tahsilina irshod¹imiz,
Yoki bizda yo'qmi fan ilmin bilan ustodimiz,
Bizni yo ilm-u hunarga yo'qmi iste'dodimiz,
Bizg'a mushkul bo'lsa, yo'qmi bizlari avlodimiz,
Bo'yла² tursak fasx³ etar bizni falokatlar chiqib.

Istasak ilm-u funun na shar'imizdan man' vor,
Kirsamiz dorulfununlarga bizi kimlar quvor,
Podshoh hazratlari har kimga bergen ixtiyor,
Bizlari ham haqqimiz vor boshqa millatlar qator,
Millati davlatga loyiq ahli xizmatlar chiqib.

Ilm o'rgongil Xutoydin bo'lsa ham der Mustafo,
Amri payg'ambarni tutmay tutdimiz rohi xato,

¹ Irshod – to'g'ri yo'l ko'rsatish.

² Bo'yла – bunaqa, bu kabi.

³ Fasx – buzish.

Ilmi hikmatlarni tashlab qildimiz jonga jafo,
Vodiyi zulmatda qolduk topmayin rohi safo,
Mol-u davlat ketdi qo'ldin ham shariatlar chiqib.

Din-u millatning baqosi ilm ila, ehson ila,
Biz esa mag'rur nafs-u ishrat-u davron ila,
Ilmsiz, ta'limsiz to'l mish yuraklar qon ila,
Tarbiyatsiz, ruhsiz bu haykali bejon ila,
Xo'b tamoshko ko'rsaturniz jonli suratlar chiqib.

O'zgalar sa'y-u jadal birla yetib maqsudiga,
Bizni yalqovlik tutub otdi tanazzul o'diga,
Ma'rifatsizlar qachon yetgay ziyon-u sudiga,
Ilmsizlari(ng) chiqarmoqda zamon nobudiga,
Asrimizda kun ko'rolmas befarosatlar chiqib.

ISTIQBOLIMIZ UCHUN BIR JIGARSO'Z

Kerak bu kunda biza ilma e'tibor etmak,
Funun uyina otilmakni ixtiyor etmak,
Ulum¹ hosil edub, o'zni baxtiyor etmak,
Yetar bu kung'acha g'aflatda ilmi xor etmak,
Funun-u ilm ila mumkindur iftixor etmak.

O'quvni farz debon qichqurur shariatimiz,
Nechuk bu amrg'a g'ayratsiz ahli millatimiz,
Sabab nadurki, yo'q o'ldi bu yo'lda himmatimiz,
Bizim-da bor edi o'tgan zamonda g'ayratimiz,
Yiqitdi bizni ilm-u funundan or etmak.

¹ Ulum – ilmlar.

Taraqqiy ayladi ag‘yor ilm, g‘ayrat ila,
Qutuldi jahl danidan funun, sarvat ila,
Yetushdi maqsudina ittifoq, ulfat ila,
Bizim nechun ishimiz yo‘q hayot-u millat ila,
Biza najot yo‘lidur, bularni yor etmak.

Qorong‘ulikda qolubdur sa’id o‘lan millat,
Fano uyinda yotur jonini siqub illat,
Solor boshina yana o‘z o‘g‘illari kulfat,
Budurmi rohi payg‘ambar, budurmidur ummat,
Bu holimizg‘a kerak yig‘lab oh-u zor etmak.

Jahonda qolmadni biz qilmagan yamonliqdan,
Zalil-u xor biz olamda notavonliqdan,
Ko‘ngulda qolmadni bir zarra mehribonliqdan,
Ketib-ketib biza g‘am qoldi bilmagonliqdan,
Butun-butun ishimiz jurmi oshkor etmak.

Bukun na bo‘ldi biza, ilmsiz o‘g‘il-qizlar,
Bo‘lubdi millating avlodni barcha ishsizlar,
Kelurni o‘ylamagan xom-u bexabar bizlar,
Budur saodatimiz – ilm ila hunar izlar,
Yetar bu damg‘acha Hijronda intizor etmak.

O'Z MILLATIMDAN RIJOYI OJIZONAM

Yotursan tobakay g'aflat quchog'inda, uyon¹ millat,
Jaholat jomasin ustingdan irg'it, tur, zamon, millat,
Ketib hamrohlar, san yo'lda qolmakdan o'ton, millat,
Tur, o'tmay vaqt noz uyqudan ko'bdur ziyon, millat,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Qani avvaldag'i ilming, funundan e'tiroz etding,
Jaholat yori bo'lding, oshinolardan aroz etding,
Bilib do'stingni dushman, dushmaningni sarfaroz² etding,
Kirib g'aflatni xobiga o'zingni inqiroz etding.
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Zamong'a boqmasang, sanga zamon aslo nazar qilmas,
Ketar hamrohlar tashlab, sanga aslo xabar qilmas,
Yetib g'ayrat ila bir yurmasang, aslo hazar qilmas,
Tarozug'a qarab toshingni qo'y, aslo zarar qilmas.
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Olib ta'lim sandin o'zgalar ilgori ketdilar,
Funun ta'rixlaringni sharh etib asliga yetdilar,
Falotun, Bu Ali Sinolaringdan ishlab o'tdilar,
Sanu avloding osor³i qadimlarin unutdilar.
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

¹ Uyon – uyg'on.

² Sarfaroz – xursand.

³ Osor – asarlar.

Zamon olimlari hasratli holing so'rmadilarmu?
G'aniylar bul sani holi xarobing ko'rmadilarmu?
Tanazzul bobida yoningda o'lтурmadilarmu?
Taraqqiy bog'ina yo'l boshlasang san, yurmadilarmu?
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avlodning omon, millat, omon, millat.

Marizing bir tarafdan, bir tarafdan xorsan, millat,
Badandan doimo qon oldurar bemorsan, millat,
Tiling yo'q, kar qulog'ing, surati devorsan, millat,
Buzug'dir niyating axloqsiz, beorsan, millat,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avlodning omon, millat, omon, millat.

Zamonlardurki, boyqushdek xarobat istayursan oh,
Tashab milliy sadolarni, xurofot istayursan oh,
Gulistondan kechib sayri mazorot istayursan oh,
Nadur bilmam muroding, buncha hayrot istayursan oh,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avlodning omon, millat, omon, millat.

Sani holi xarobing ko'rsa Majnun zorlar yig'lar,
G'arib-u bekas-u bechora dilafkorlar yig'lar,
Zamin-u osmon, sang-u dar-u devorlar yig'lar,
Bilib shoir muroding voqifi asrorlar yig'lar,
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,
Topar san birla avlodning omon, millat, omon, millat.

Tamanno aylaram sandan, yotursan tobakay, ko'z och,
Fano mulkina yuzlanmakdan avval ilm ila nur soch,

G‘animatdур, tanazzul bog‘ini ilming-la tashlab qoch,
Yetar maqsuda ag‘yoring, bo‘lub Hijron qolursan och,
Ko‘zing och, yotma, g‘aflatdan o‘son, millat, o‘son, millat,
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

TARJE‘BAND

Afsus bu zamonda, bizim e‘tibor yo‘q,
Yosh-u qarida g‘ayrat-u nomus-u or yo‘q.
Fisq-u furuj birla giriftor barcha jon,
Ilm-u amalda bizda sabot¹-u viqor² yo‘q.
Har kim sharobxona desang zavq ila borur.
Ilm-u funung‘a bizda nechun ixtiyor yo‘q.
Har kas baloyi nafs uchun bo‘ldi mubtalo,
Millat g‘arib, kimsasiz-u g‘amgusor yo‘q.
O‘tmoqda umr hoy-u havas birla barhavo,
Millat g‘amini o‘ylag‘uchi hushyor yo‘q,

Yo, Rab, Muhammad ummati bo‘ldi bu kun g‘arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Ey, millating ulug‘lari, rohi hudo uchun,
Millatni yodingizg‘a olingiz Xudo uchun.
Maktab solub jujuqlari tarbiyat aylangiz,
Islom ham shariati Haq Mustafo uchun.
Insaf eding, jahonda bizimdek faqir yo‘q,
Israf edurmiz oqchani kayf-u safo uchun.
Maktab degonda barchani bo‘lg‘ay qulog‘i kar,
To‘y qilsa bog‘-hovli sotilgay havo uchun.

¹ Sabot – barqarorlik.

² Viqor – ulug‘vorlik.

Farz-u vujub ishlanayur, ishlanur bid'a(t),
Millat ulug'lari borishur muddao uchun.

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Bu na zamonki, shayxi zamonlardur dar-badar,
Millat xarob bo'ldi, avlodи bexabar.

Kirdi tanazzul uyiga bizdan qilib aroz,
Millat yuziga shafqat ila qilmaduk nazar.

Qildi tadanniy¹ millatimiz, biz hanuz mast,
Millat uchun vujudimiz o'ldi butun zarar.

Boq sohibi muruvvat, insof uchramas,
Millat ishini ishlag'uchi (larni) bo'ldi qasdi zar.
Har kim o'zini naf'i uchun, nafsining quli,
Millat deganda ko'z yumulur ham qulog'i kar.

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Afsus, ahli ilm giriftori iftiro(q),
Boy-u faqir barchasi vobastayi nifoq,
Qizlar anoni so'zlarini qilmayur qabul,
O'g'li atosining so'zina solmayur quloq,
Er xotuni bilan qilodur erta-kech urush,
Xotun erig'a qilg'uchi har kunda bir firoq.
Qolsa meros ikki birodar qilur talosh,
Hosili, zamona ahlida yo'q zarra ittifoq,
G'iybat, shikoyat o'ldi qarilar so'zi mudom,
Yoshlarni barchasi adab-u ilmdan yiroq.

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

¹ Tadanniy – tubanlashish.

Turfa zamonki, xonayi millat xarobdur,
Har kim o'zini naf'ini izlab shitobdur,
Har kim bu kunda bo'ldi asiri manofe¹,
Yo'q bir kishiki, millat uchun dili kabobdur.
Bizlarda yo'q ulum-funung'a nechun jadal,
Yo'q kimsa har savola hozirjavobdur.
Bu na zamonki, bo'ldi hama ilm ahli xor,
To'y-u janoza bunlara cho't-u hisobdur,
Ilm ahli bo'ldi oz-u ziyod o'ldi johilon,
Beilm qavm chekg'usi ranj-u azobdur.

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Bu na zamonki, g'am ila to'l mish bu kun jahon,
Olam o't olsa yong'uchi har yerda musulmon,
Chok o'ldi siyna, dog' ila qat-qat erur ko'ngil,
Har jonda ya'si hasrat, har dilda bing fig'on.
Har kim sonur o'zini bu olamda Zufunun²,
Islom uyinda qolmadi fandan biror nishon,
Hech biza ilm-ma'rifata qolmadi havas,
Bo'lduk zaif, bekas-u bechora, notavon.
Savdo qilurg'a sarvat-u sarmoya qolmadi,
Bozori ma'rifatni bilmasa har kim qilur ziyon.

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Bu na zamondurki, ishlarimizdur butun fano,
Har kim o'zini naf'i uchun bo'ldi mubtalo.

¹ Manofe' – manfaat, foyda.

² Zufunun – ko'p fanlarning bilimdoni.

Boylarni yo'q muruvvati aslo faqirga,
Fikr-u xayol – sarvat-u sarmoya-yu g'ino,
To'plar hamisha voris uchun mol-u oqchani,
Millat yo'lna qilg'usi yo'q bir pulin fido.
Obid qilur ibodatin el qoshida daroz,
Bo'l mish asiri hirs ila aftodayi riyo,
Yo'qdur xalosa bir amali pok dil bilan,
Topdi rivoj bizda, ajab, xamr¹ ila ribo².

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Vo, hasrato, ki barchamiz Isloma ofatiz,
O'z fikrimizcha, olim shar'u diyonat³iz,
Maqsudimiz farog'at ila firiblik,
Millat g'amini o'ylamagan befarosatiz!
Yo'l ko'rsatuvchi bosh kishilar bizda ozdur,
Be ilm-u bezarofat⁴ koni jaholatiz.
Har kim cholishsa millat uchun xalq ta'n edar,
Bo'yni sinuq yetim kabi biz besaodatiz.
O'tmish zamonni hech kishi olmas xayolina,
Hijron zor, johil-u nodon jamoatiz.

Yo, Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

¹ Xamr – mast qiluvchi ichimlik.

² Ribo – sudxo'rlik.

³ Diyonat – dindorlik, poklik.

⁴ Zarofat – nozikfahmlik.

FIG'ONI BULBUL

Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,
O'turdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul,
Ko'rub gul yafrog'ini hajridin dod etdi bir bulbul,
Visoli yor uchun yuz navha¹ inshod² etdi bir bulbul.

Dili bizlar kabi majruh, visoli yordan mahrum,
Ko'zi yoshlu: zamondin bexabar, dildordan mahrum,
Guli ag'yora ulfat, munisi g'amxordan mahrum,
Mayin ovoz ila dillarni noshod etdi bir bulbul.

Nechun bilmam, sarupo sho'rish-u sarshor³ g'aflatdur,
Adashkon xonumondin, har so'zi bir darsi ibratdur,
Vatan mahjur⁴ ekan har nag'masi go'yo shikoyatdur,
Boqib so'yi samoga vird-u avrod etdi bir bulbul.

O'lur behush inson gar falakdan aylasa faryod,
Emas javlon ko'handa bir zamon to bir nafas dilshod
Xazonning dasti zulmindan qilub bing shikva⁵lar te'dod⁶,
Fig'on-u nola birla dod-bedod etdi bir bulbul.

Sadoyi dil firibi aylayur dil g'unchasini chok,
Nidoyi hayratafzosi qilur ko'z kosasin namnok,
Navoyi sho'rish ohangi qilur inson vujudin pok,
Lisoni hol ila jonlarga imdod⁷ etdi bir bulbul.

¹ Navha – nola, mungli yig'i.

² Inshod – ta'riflamoq.

³ Sarshor – limmo-lim.

⁴ Mahjur – hijronda qolgan.

⁵ Shikva – shikoyat.

⁶ Te'dod – sanash.

⁷ Imdod – madad.

Vujudi mehnat-u g‘am birla to‘lgan qobil afg‘ona,
Tamoman turmushi bir darsi ibrat har bir insona,
Aning faryodi afg‘oni zamondan ermas afsona,
Vujudin hajri dildorinda barbod etdi bir bulbul.

Taajjub, men kabi bechorada millat hisi vorkan¹,
Muhabbatdan urar dam dilda millat qayg‘usi vorkan,
Na deb Hijron bo‘lur g‘aflat ko‘zunda uyqusi vorkan,
Sahargohi xayolimga bir irshod etti bir bulbul.

AHVOLI OLAMDAN BIR NAMUNA

Qilur tokay jafosin, bizga ham dildor o‘lur olam,
Tulub mehr-u vafosi, qo‘zg‘alub, g‘amxor o‘lur olam,
Tashab og‘ushi nisyon²in turub hushyor o‘lur olam,
Muruvvatsizlig‘indan jirkanub, bezor o‘lur olam,
Bahori ma‘rifat uyg‘otsa, xushguftor o‘lur olam,
O‘sub rayhoni shafqat mushk ila totor o‘lur olam,
Dilim, g‘am chekma ko‘b, bir kun kelur, bedor o‘lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o‘lur olam.

Kelur ulfat, adovat o‘rtadin qalqur, ketar bir kun,
Qaro kunlar ketub, o‘rnig‘a ravshanlik yetar bir kun,
Adolat bog‘ida gulhoyi tarbiyat bitar bir kun,
Ochib g‘uncha dahonin shodlig‘ izhor etar bir kun,
O‘lur olam guliston, qayg‘u-kulfatlar yotar bir kun,
Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun,
Dilim, g‘am chekma ko‘b, bir kun kelur, bedor o‘lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o‘lur olam.

¹ Vorkan – bor ekan.

² Nisyon – unutish.

Saodatbaxsh nuri ma'rifat ummatni ihyosi,
Funun-u ilm ila barpo ekan millatni ashysosi,
Ketib Islom alindan bog'i jannat sarv-u ra'nosи,
Gulitsoni jahoning bormi bizdek besaruposi,
Hazor afsus, bizni yiqdi shaxsiy nafs g'avg'osi,
Jahon bog'inda so'ldi kimsasiz millatni lolosi,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Adovat beslamakda bir-birina dom o'lduk biz,
Kirib shayton so'zina puxta¹ erkan, xom o'lduk biz,
Sharaflik ummat erduk, ne uchun badnom o'lduk biz,
Takabbur birla nodonlik yo'lina rom o'lduk biz,
Ketib g'ayrat-shijoat, sohibi avhom² o'lduk biz,
Suxandon millat erduk, betil-u bekom o'lduk biz,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Balo toshi yog'ildi boshimizga xobi g'aflatdan,
Mizoji sust o'lub avlod, millat tushdi quvvatdan,
Bilimsizlik tushurdi, yiqdi bizni qadr-u qimmatdan,
Jaholat quvdi bizni xonumon-u mol-u sarvatdan,
Keyin qolduk, chekilduk har zamon ag'yor millatdan,
Suruldiq dahraro bizlar qatori odamiyatdan,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Adabsiz, tarbiyatsiz, ma'rifatsiz barchamiz – nodon,
Tamaddunpeshalar bizlarni vahshiy deb otar har yon

¹ Puxta – pishiq, pishgan.

² Avhom – vahimalar.

Huquqing no'ldig'in idrok qilmas, jismimiz bejon,
Amal yo'q, ilm yo'q haykal kabi(miz) ismimiz – inson
Eduk qimmatbaho avvalda, emdi qadrimiz arzon,
Ko'ngulda dog'lar qat-qat, bo'lur ko'z yoshimiz marjon
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Zamonning odatidur ilmsiz insonlari yutmak,
Abas bir g'oyasiz dunyoyi dundan yaxshilik kutmak,
Kerak bir maslak-u bir g'oya-u idyol¹ni tutmak,
Biza bir yo'lni ushlab nuri maqsuda borib yetmak,
Sabovat gavharini loyi balchiqdan xalos etmak,
Budur maqsud bizlarga, salaflar ortidan ketmak.
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Yetar Hijronlig' emdi, tark lozim xobi g'aflatni,
Qadam qo'ymak, kurashmak, axtarib nuri hidoyatni,
Zamon to'fonidan qutqorg'ali avlodи millatni,
Abas o'tkarmayin umri azizini – sabovatni,
Munavvar fikr etib, ko'rsatmalidur yaxshi odatni,
Tuzatmak ilm ila fikr-u xayol-u ruhi ummatni,
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

¹ Idyol – ideya, g'oya.

MAORIFPARVAR G'ANIYLAR QULOG'INA

Bashorat, ey g'aniylar, judingiz manzuri olamdur,
Ochilmish maktabingiz jahl amrozina marhamdur,
Muqaddasdur, muborakdur, buyukdur, eng muazzamdur,
Ko'rub shayton maorif uyini ma'yus purg'am'dur.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Qilib barpo makotib g'ayrat ila bizga ehsonlar,
Tamaddun² nuri birla porloq o'ldi qalb-u vijdonlar,
Vatan avlodи qildi iktisobi fayzi urfonlar,
Ko'ngillar, ruhlar bo'ldi muzayyan ishta ixvonlar.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Haqiqat bahriga g'avvos-u diydoriga mahramsiz,
Maorif bog'ining siz bog'boni, nura hamdamsiz,
Makotib yo'lini ehson qilurg'a misli Adhamsiz,
Saxiysiz, oliyhimmatdursiz, ozodi jahannamsiz.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Jaholat dardining darmoni yo'q urfondan boshqa,
Maorif bog'ining dehqoni yo'q ehsondon boshqa,
Taraqqiy yo'lining imkonи yo'q umron³dan boshqa,
Tamaddun charxining davroni yo'q hamyondan boshqa.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

¹ Purg'am – g'amga botgan.

² Tamaddun – madaniyat.

³ Umron – obodonchilik.

Daho yordam qiling, avlodi millat sizni yod aylar,
Munavvar fikr birlan maqtar, ixlos ziyod aylar,
Qolib sizdin keyin olamda sizg'a yaxshi od aylar,
Duo aylar, bag'ishlar, ruhingiz o'lganda shod aylar,

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Bu kun afrodi millat madh etar sizni muhabbatdan,
Tilab haqdin inoyat ham pay(g')ambardan shafoatdan,
Ochub dasti tamanno ko'zlaruz boroni rahmatdan,
Ochub maktab bizim-chun sarf etibsiz mol-u sarvatdan,

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Hayoting bog'ini vayron edan bodi jaholatdur
Tamaddun nurini mastur¹ edan avhomni g'aflatdur,
Maorif shamsini benur edan abr-u adovatdur,
Qulubi millating purnur edan ishta saxovatdur,

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Ulum arbolina har bir mashaqqat ish bo'lur oson,
Og'ir ishlar uchun mahkum edilmish johil-u nodon,
Tabiiydurki, o'lguncha mashaqqat-la yashar hayvon,
Bizi ilm uyina savq etdingizlar aylabon ehson.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

¹ Mastur – bekitilgan, maxfiy.

Hama ilm-u funun axz¹ etsa, biz g'aflatni oldimiz,
Qilub bir necha kun to'y, surnay-u karnayni choldimiz,
Ketub dasmoya qo'ldin bo'ynimiz sizlarga soldimiz,
Bu kun shoyoni ehson, tarbiyatsiz g'amda qoldimiz.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Daho shafqat qiling, abno²yi millat kasbi kom³ etsun,
Diyonatparvar o'lsun dunyoda ibrozi nom etsun,
Muhib⁴i millat o'lsun, mol-u mulkka ehtimom etsun,
O'qub ilm-u funun kasbi kamolotin tamom etsun.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Nadur bu xobi g'aflat qoflamish avlodi Islomi,
Sharorat shiddatidan tebranur arsh-u qalam tomi,
Shuning-chun hech yerga yetmayur ummatning anjomi,
Muqaddas dinimizning bu zamon qolmish faqat nomi.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Bizim baxtiqaro ummidimizning sham'i yonmazmi?
Falak kajrav biza jabr-u jafosindan o'tonmazmi?
Maorif bongini qichqirsa ham ummat uyonmazmi?
Ochildi ilm subhi, xobdin millat o'sonmazmi?

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

¹ Axz – olish.

² Abno – bolalar, o'g'llar.

³ Kom – tilak, maqsad.

⁴ Muhib – sevuvchi.

Rahi millatda himmatlu kishilar sarfi mol aylar,
Saxiylar himmati to'plansa qal'ayi jibol¹ aylar,
Hamiyat bo'lsa avlodi Vatan ilm-u kamol aylar,
Topar Hijron jujuqlar tarbiyat, kasbi kamol aylar.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

TURKISTON TUFROG'INDAN BIR SADO

Qilur bizlardin, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston,
Ziroatdan xabarsiz bizlar, barbod Turkiston,
Anomizdur, haqi vor bizdan etsa dod Turkiston,
Vatan qadrini bilmas bo'ldi xo'b avlod Turkiston,
Emolmaydur sutin avlodidan noshod Turkiston.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

Tushub savdoi sot-sot boshimizg'a, bevatan qolduk,
Sotub bog'-u ekin yerlar pulini kissag'a solduk,
G'animat aqcha deb to'y-u tamoshalar qilib olduk,
Tiyin o'rning'a so'mlar sarf etub naqqoralar cholduk.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

Quchog'ina olib bizlarni qildi tarbiyat chandon,
Onadek bag'rida bizlarni boqdi, bo'ldimiz ulkon,
Yashab rohat bila ko'ksinda bo'ldi ismimiz inson,
Haqiqiy modarin inson soturmi oqchag'a – arzon.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

¹ Jibol – tog'.

Vatan bizlarg'a der: tahsil aylang ilm ila urfon,
Yetar g'aflat, yetar zillat¹, yetar bu xobi bepoyon,
Emas yotmoq zamoni, navbahor ayyomidur al'on²,
O'turma go'shayi g'aflatda, ekmak ilmini o'rgon.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

Ziroat³ ilmiga taklif etar bizni Vatan yig'lab,
Ziroatsiz yashar mumkin emas der bag'rini dog'lab,
Ekinsiz yerda turmas qo'ysalar boyqushni gar bog'lab,
O'sumlik yerlara ag'yor urdi o'zlarin chog'lab.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

Boqilsa chashmi ibrat-la jahondur ilm ila purnur,
Makotiblar ochildi, nur sochdi, biz mastu (ham) mag'rur,
Maorif birla bo'ldi changali Mozandaron ma'mur,
Funun birla taraqqiy qildi olam, biz hamon ranjur.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

Hayoting bog'ini selob edan boroni g'aflatdur,
Behishtoso Vatan vayron, qurban ni jaholatdur,
Bu kun millat boshini past edan mezoni vahshatdur,
Bizim olomi⁴ g'urbatga solan, Hijron, adovatdur.
Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

¹ Zillat – xorlik.

² Al'on – hali, hozirgacha.

³ Ziroat – dehqonchilik.

⁴ Olom – alamlar.

TURKISTON TUFROG'IGA XITOB

Ey jahla, xobi g'amga talabgor o'lan Vatan!
Bormi saningcha bekas-u beyor o'lan, Vatan?!
Sa'y-u jadalga munkir-u inkor o'lan Vatan!
Avlodi-barcha ishsiz-u bekor o'lan Vatan!

Hoy-u havasga munis-u g'amxor o'lan Vatan!
O'z ahlidan zerikkan va bezor o'lan Vatan!

Avloding o'lsa barchasi beilm – ofating,
Bo'lmish malul haykal-u shakl-u qiyofating.
Vayrona bo'ldi manzil-u joyi ziroating,
Boyqushlar o'ldi hamdam, yor-u qarobat¹ing.

Ilm-u amalni tarkina tayyor o'lan Vatan!
Ey, jomi jahla ko'zları xummor o'lan Vatan!

Ey, manbayi adovat-u maydoni kinazor,
Avloding o'lsa jonsiz-u san – bir buyuk mazor,
Jonlik janzoza birla to'lub sahning, ey diyor,
Xoma²m sanga shu so'zları ko'zyosh ila yozor.
Ey, bodi jahli toza giriftor o'lan Vatan!
Bormi jahonda san kabi bemor o'lan Vatan?!

Tiri qazoya bizlari qilding nishona san,
Bizg'a mazor, o'zgalara darsxonasan,
Ag'yora yor o'lubsan-u bizdan begonasan,
Boqmazsan iqtizoyi charha – na hukm zamonasan,
Bizdan bezub, bo'laklara dildor o'lan Vatan!
Ilm ahlina vasi', biza tor o'lan Vatan!

¹ Qarobat – yaqinlik.

² Xoma – qalam.

Xoki mazallatingda yoturmiz bo'lub g'arib,
Har kunda bing fig'on chekamiz misli andalib,
G'unchang ochildimi – hukamo¹lar olur terib,
Biz ersa, xor ilan qolamiz, zor benasib,

Ey, gullari fununa havaskor o'lan Vatan!
Ey, g'unchasi maorif uchun zor o'lan Vatan!

Ey, zindalari – madfun², ey, xonumon – xarob,
Vayrona uylaring ko'rinur sahnayi hisob,
Sonkim bu manzarang biza bir mahshari azob,
Har bir boqishda jon siqilur, bag'r o'lur kabob,
Bog'i jinon, bizg'a alamzor o'lan Vatan!
Obu havosi zahr ila ozor o'lan Vatan!

Ey modarim, jo'juqlaring iflos, beziyo,
Ostingdan usting o'ldi biza tar(i)qa fuqaro,
Sandin umid shulmidi, jondan aziz ono?!

Kundan kun aylading bizi Hijrona mutbalo,

Ey, shiri shafqati³ biza xunbor⁴ o'lan Vatan!
Bormi jahonda sancha sitamgor o'lan Vatan!

¹ Hukamo – hakimlar, donishmandlar.

² Madfun – dafn etilgan.

³ Shiri shafqati – mehr-shafqat suti.

⁴ Xunbor – qontalash.

ORZUYI VISOL

Hofizdan

G‘oyib o‘lgan Yusufing kelg‘usi Kanon, chekma g‘am,
Qayg‘ulik uy bo‘lg‘usi bir kun guliston, chekma g‘am.

Ey dilo, qayg‘u chekan, xushhol o‘lursan, urma oh,
Kelgusi qaytub qoshingga ul yo‘qotg‘on, chekma g‘am.

Bir-iki kunda murodingcha falak aylanmasa,
Doimo bir yo‘l bila ketmas bu davron, chekma g‘am.

Yetsa umringni bahori, kelgusidur bulbuling,
Bo‘lg‘usi gullar, chamanlar bulbuliston, chekma g‘am.

Bo‘limg‘il navmid hargiz, bexabarsan g‘ayb¹dan,
Parda ichra bo‘lg‘usi ko‘b sirri pinhon, chekma g‘am.

Har kishi olamda sargardon kezar g‘amxorsiz,
Oxiri yordamchi bo‘lg‘ay anga bir jon, chekma g‘am.

Ka’ba istab gar qadam qo‘ysang biyobonlar aro,
Bersa zahmatlar sanga xori mug‘ilon, chekma g‘am.

Bir tarafdan dog‘i hijron, bir tarafdan ta’nalar,
Qayg‘uliklar holini bilmazmi rahmon, chekma g‘am.

Sel kelub dunyoni barbod etgali qilsa xuruj,
No‘h suvchidur, sanga tegmaz bu to‘fon, chekma g‘am.

¹ G‘ayb – g‘oyiblik, sir.

Garchi manzildur xatarlik, ham yiroq maqsudimiz,
Hech yo'l yo'qdurki, bo'lmas anda poyon, chekma g'am.

Hofizo, faqr uyida tanho qorong'ida yotub,
Toki virdingdur duo-u darsi Qur'on, chekma g'am.

Har kishida bir g'arazdur, har ko'ngulda bir xayol,
Har kim o'z ummidining qurboni, Hijron, chekma g'am.

MAKTAB

Maktabdur oftobi jahon saodating,
Maktabdur osmoni zamon sabovating.

Maktabdur eng ziyoli puranvor jilvagar,
Maktabdur oshyoni hama fayz qudrating.

Maktab qoshina kimni chaqirsa, qilur adib,
Maktab makoni manba'yi insof-u g'ayrating.

Maktab u joyi dilkash shirin maqomdur,
Maktab behisht-u jannat hur tabiating.

Maktab jahonni(g) bir chamani lolazorkim,
Maktabki, sarvi sunbulidur qadr-u qimmatting.

Maktab nasimi subh kabi fikra jon verar,
Maktab hayot ziynatidur odamiyating.

Maktab qilur jaholat-u nodonlig'a iloj,
Maktab baloyi ofatidur qayg'u, kulfating.

Maktab ko'ngulni zulmat-u g'amdan qilur xalos,
Maktab kalidi, ochquchidur bobi rohating.

Maktab dilingga sochg'usi ilm-u fununni,
Maktab ziyoda qilg'uchidur aql-u hikmating.

Maktab hakimi hoziq erur jahl dardina,
Maktab gulob ma'junidur dard-u hasrating.

Maktab dilingi pok qilur zanggi vahmdan,
Maktab egov-u arrasidur faqr-u zillating.

Maktab qo'lingni tutdimi, boshlar hidoyata,
Maktab rais-u rahbaridur din, millating.

Maktab – u chashmaiki, suyi kavsari jinon,
Maktab – u manba'iki, sochar fayzi rahmating.

Maktab yo'lini tutsa kishi tobg'usi najot,
Maktab – u manzilikli, mururi salomating.

Maktab uyeki, Ka'bayı maqsud shundadur,
Maktab sharafli jome'yı har bir ibodating.

Maktab zakot ro'za-yu hajni bayon qilur,
Maktab namoz ta'lim edar ham tahorating.

Maktab – xulosa bog'i adab, koni ma'rifat,
Maktab hariq vulqoni, Hijron, jaholating.

MAORIF NADUR

Maorif oftobi partavi nuri haqiqatdур,
Maorif jilvagarkim, hosiloti fayzi rahmatdур.

Maorif bir chamandur, gullari ta'mini istiqbol,
Maorif millatini xor qilmas, sarvi jannatdур.

Maorif bir behisht – hur-u g'ilmonlar makonikim,
Maorif xobi g'aflatdan qochar bog'i salomatdур.

Maorif o'lmasaydi nuri ilma qiymat o'lmazdи,
Maorif bir adibi tarjimon qadri qiymatdур.

Maorif tarqatur olamg'a har xil fayzi ulviyat,
Maorif noshiri ravnaqfizoyi qalb-u fikratdур.

Maorif bir uzukkim, qaysi millat taqsa bolodur,
Maorif xotami muhri Sulaymoni tabiatdур.

Maorif bir suvekim, qaysi millat ichsa, ul o'lmas,
Maorif chashmayi obi hayoti odamiyatdур.

Maorif bir sadafdur (to) mahmini qornida dur aylar,
Maorif tarbiyat baxshoyi qiymat, sha'ni millatdур.

Maorif bir sahab-u so'ng bahori nozparvarkim,
Maorif-la o'son dillarda anvor¹i sadoqatdур.

Maorif o'yla bir ohangrabodur fikr, vijdona,
Maorif jozibi fan, dof'eyi jomi jaholatdур.

¹ Anvor – nurlar, quyosh.

Maorif bildirur ilm-u funun yo‘lini insona,
Maorif bir muallimdurki darsi aqla rif’atdur.

Maorif sham’durkim, ravshan aylar dili shabro‘ni,
Maorif nurining parvonasi ozod ummatdur.

Maorif rahnamo – yo‘lboshchidur rohi haqiqatga,
Maorifdan judo millatni holi ya’si hasratdur.

Maorif soyasinda chiqdi buncha yangi san’atlar,
Maorifning vujudi turmushi bir ilmi hikmatdur.

Maorif-la taraqqiy qildilar ag‘yor, biz qolduk,
Maorifsizlaring chekdiklari olomi g‘urbatdur.

Maorif birla qilsa ahli olam kasbi ulfatni,
Maorifdin qochub, Hijron, bo‘lub bizg‘a nadomatdur.

GIRDOBI G‘AMDAN BIR FO‘RTANA

Keldi gulzori jahonga qaysi gul, xor o‘lmadi?!
Qaysi bir bulbul jafoyi yordan zor o‘lmadi?!

Ko‘rdingizmi bir chechak¹ – dahr ichra oxir so‘lmasun,
Qaysi gulni ko‘rdingiz, bog‘ ichra bexor o‘lmadi?!

Qavmiga ming yil nasihat qildi No‘h – kor etmadi,
Qaysi payg‘ambar xaloyiqdan dilozor o‘lmadi?!

¹ Chechak – gul.

Ko'rsating bir Yusufi qardoshlari zulm etmagan,
Qaysi bir Ya'qub dog'i hajri diydor o'ljadi?!

Qaysi Muso chekmadi ranj-u alam fir'avndan,
Bormi bir Ilyos qavmidinki, bezor o'ljadi?!

Ash'yo qilsa nasihat qavmiga, qildi shahid,
Qaysi Zikriyo boshida arra tayyor o'ljadi?!

Tashladi Namrud o't ichra (ul) Xalilullohni,
Qaysi bir Yahyo shahidi tig'i xunxor o'ljadi?!

Qaysi Yunus otmadi dengiz quchog'ina o'zin,
Bormi bir Isoyi Ruhullohki, bar dor¹ o'ljadi?!

Barcha payg'ambar jahonda qavmidin chekdi jafo,
Bormi bir Ahmad, duchori zulmi kuffor o'ljadi?!

Bormi bir Siddiq, og'u ichmasin bu dahrda,
Qaysi bir Umar shahodatga giriftor o'ljadi?!

Bormi bir Usmon shahodat sharbatin no'sh etmagan,
Qaysi Haydar boshida tig'i sitamkor o'ljadi?!

Xonadoni Mustafokim, zahr ichib o'ldi Hasan,
Qaysi sahrodur Husayn qoni-la anhor o'ljadi?!

Bormi bir Suqrot olam ichra og'u ichmasun,
Kimki hikmat sohibidur dahr anga yor o'ljadi?!

¹ Dor – uy.

Qaysi Bistomiyni ko‘rding xalq takfir¹ etmagon,
Bormi bir Mansur «Analhaq» desa sangsor o‘lmadi?!

Laylining Majnunina yo‘l vermadni kajrav zamon,
Kimki oshiqdur, jahonda vasli dildor o‘lmadi.

Bermadi Farhodina bu bevafo Shirinini,
Vomiqing Uzrosina bu charx g‘amxor o‘lmadi.

Ko‘rmadingmi: sham’ yonmazmi visoli yor uchun,
Bormi bir parvona, Hijron, shu’layi nor o‘lmadi?!

PARISHON HOLLAR

Haqiqatdan, saodatdan yiroq ahli fano bizlar,
Safolat²da, razolat³da chekarmiz bing jafo bizlar.

Sanoye’ soyasida kasbi shavkat aylasa ag‘yor,
G‘arib millat boshiga behunar bitgan balo bizlar.

Maorifsiz, sanoatsiz, tijoratsiz, ziroatsiz,
Yotib xobi kasolatda jahondan mosuvo bizlar.

Zamonning iqtizosi yangi olmoq, eskini otmoq,
Kulunj ahvolimizdur, eski fikr Abdulqafo bizlar.

Nechun bizlarda qadrin bilmayur hech kim badan ilmin,
Qolub g‘aflat ichinda ko‘rmayin ro‘yi ziyo bizlar.

¹ Takfir – kofirga chiqarish.

² Safolat – xasislik, tubanlik.

³ Razolat – pastkashlik, tubanlik.

Tamaddun olamindan darsi ibrat olmayurbiz, oh,
Jahondan ko'rmayin o'tmakda osori zako¹ bizlar.

Bizim xilvatda ko'rsa, qilmishimizdin qochar shayton,
Xaloyiq oldida xo'b muttaqiy², so'finamo bizlar.

Biza lozim kelurmi eski hammom, eski tos o'lmoq,
Taraqqiy yo'linha yuzlandi olam ro'dafo bizlar.

Funun-u ilm olub, hamsoyalar yetdi murodina,
Jaholatga bo'lub hamdam g'arib-u benavo bizlar.

Sharorat aylamakda barcha millatdan o'zub ketduk,
Asiri fisq bo'lduk, misli qavmi naynavo bizlar.

Ota o'g'lin o'qutmas, qizni qilmas tarbiyat modar,
O'sub beilm, beta'lim, besharm-u behayo bizlar.

O'quvni farz der bizni shariat har o'g'ul-qizg'a,
O'qutmay qizlarimizni, shariatdan judo bizlar.

Kiyib xirqa-rido, gardong'a solib sotdimiz taqvo,
Vatandan, xonumondan, bog'-u bo'stondan raho bizlar.

Agar ahd aylasang, qilg'il vafo, der Tangri bizlarg'a,
Ki har kun va'dasin bing marta buzgon bevafo bizlar.

Ilmsiz, tarbiyatsiz, mol-u sarvatsiz bo'lub Hijron,
Hamiyatsiz, bilimsiz dar-badar yurgon gado, bizlar.

¹ Zako – ziyraklik.

² Muttaqiy – taqvodor.

FALAKDAN BIR SHIKOYAT

Bu kajrav qurub bizlara turfa dom,
Qaro-oq ila aylayur bizni rom.
Gunash¹ nuridan ayladi bizni dur,
Hama ilm subhidadur, bizg'a shom.
Qamar shu'lasindan ololmay ziyo,
Tanazzul yo'lin qildimiz ehtirom.
Ko'rinmas bizni baxtimiz yulduzi,
Zamon to'rbasin² qilmayin ko'zg'a rom.
Funun ko'kida o'zgalar barqdek,
Qilur jilvasin boshimizda davom.
Falak markazidur qaro baxtimiz,
Qachon dur o'lur chambari kajmarom.
Ziyo ro'zi ta'mini ag'yor uchun,
Qaro kechasin pos etar, biz g'ulom.
Bu zulmatni bizdan ko'tar, ey falak,
Bahaqqi Muhammad alayhis-salom.
Qachon tebratur ilm subhing nasim?
Nasib o'lmayin go'starurmu qiyom?
Havong bizlara tarbiyat vermasa,
Yemrilub-yemrilub buzulsun tamom.
Qazo bodi Hijron solub charxinga,
Xarob aylasun, aylasun vassalom.

¹ Gunash – quyosh.

² To'rba – to'rva.

QIT'ALAR

Bing ayshimni qiluram hadya birgina g'amga –
Ki, aysh-u xob-u xayol-u g'amim banga yo'ldosh,
Agarchi baxti qaroyam, ki hech g'am chekmam,
Charoki, baxtim erur holi millata o'xshosh.

Maorif uyini bolosidur o'y-u Vatanim,
Funun bog'ini ra'nosidur gul-u chamanim,
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujuda ziri vahm,
G'arib millatimning xokidur go'r-u kafanim.

Suhbati solih qilur komil sani,
Suhbati johil qilur fosiq sani,
Tirgizodur ko'nglingni arbobi hol,
O'ldurodir qalbing(n)i arbobi zilol.

Yaxshi do'st aybi yor-do'stini,
Ko'zgudek ro'baro'sida so'zlar.
Yamon o'rtog' tarog'cha ming til ila,
Orqadan burmalab tarab so'zlar.

UCHINCHI JUZ¹

*Qalam qarosidur ogoh dostonimdin,
Hazin qayg‘um eshiting u tarjumonimdin.
Nechun farah bo‘layin, oh, beziyo ko‘ruram,
Kelan zamonimi, Hijron, kechan zamonimdin.*

HAMD

Ey xudovandi jahon, loyiq senga hamd-u sano²,
Ikki harf ila iki olamni san qilding bino.

Har nimakim, bor-yo‘q qilmoq senga oson erur,
Istasang bo‘lg‘usi barpo, istasang bo‘lg‘ay fano.

Bu jahon (u) ins(u) jon bir kun hama yo‘q bo‘lg‘usi,
Bir o‘zingg‘a xos erur qolmoq hayot ila baqo.

Har nafasda ikki ne’mat sandan osori hayot,
Barcha mavjudoti olam iktisob aylab havo.

Gabr³-u tarso⁴, mo‘min-u kofir qilur qulliq sanga,
Dargahingga bosh egar yosh-u qari, shoh-u gado.

Barcha millatlar senga o‘z holicha toat qilur,
Qahr(u) lutfingdin emas xoli adib-u porso⁵.

¹ 1917-yilga qadar ikki marta chop etilgan. Ikkinchchi nashr 1916-yilda G‘ulo-miya matbaasida amalga oshirilgan.

Ayrim qisqartirishlar bilan chop etilmoqda.

² Sano – maqtov, madh.

³ Gabr – otashparast.

⁴ Tarso – nasroniy.

⁵ Porso – xudojo‘y.

Gardishi xoningda alvon ne'matingdan yeb-ichar –
Suvda mohi, ko'kda murg'on, yerda inson, chahorpo.

Bu dabistoni jahondan har kim olgay bir sabaq,
Ba'zilar beklar Xudoni, ba'zilar beklar xato.

Rahmatingdan kesmagay ummidini har bir vujud,
Borgohi kibriyo¹dan aylayur xavf-u rijo.

Marhamat bobida ismingdurki: «Rahmoni-r-rahim»,
Bizdan isyon-u xatolar, sendan ehson-u ato.

Adl(u) ehson-u karimlik sha'ning(g)a shoyistadur,
Har ne bersang shokir²iz, bo'lmas demak chun-u charo.

Nur(u) zulmat, shod(u) g'am, faqr-u fano sandan yetor,
Zahr ortidan chiqar bol, to'y ortidan azo.

Bir kishin aylab funun-u ilmdan idroksiz,
Birning Aflatun kabi ko'nglina solding kimyo.

Ba'zini(ng) johil, dani – qilding dilin aylab qaro,
Ba'zini (ng) allomayi dahr aylading – verding ziyo.

Bir kase afsun o'qur o'rtaga tafriq solgali
Birtasi tasxir uchun boylar tugun, yozgay duo.

Ba'zilar bir shayxni ushlab, pirim deb, qo'l berib,
Xoki moyini qilurlar ko'zlariga to'tiyo.

¹ Kibriyo – ulug'lik.

² Shokir – Allohga shukr qiluvchi.

Ba'zi bir so'finamolar nafs uchun toat qilur,
Hirs ila bo'l mish biri aftodayi ko'yi riyo.

Ba'zilar bo'l mish musaxxar bir go'zal dildorga,
Bog'lamish mehr(u) muhabbat zulfi yor-u dilrabo.

Obid-u zohid, murid-u murshid¹-u shogird-pir,
Nafsi ammora² alinda umrini aylar habo³.

Zulm edar mazluma zolim, aylamas sandan haros⁴,
Qolmadi ushbu zamonda Odam o'g'lida vafo.

Ag'niyo⁵lar notavonlarga qilur zulm-u sitam,
Faqr ahli bo'ldilar sabr-u qanoatdan judo.

G'ayrat-u nomus ila sharm-u hayo yo'q kimsada,
Rahm-shafqatlar ozaydi, qolmadi xayr⁶-u saxo.

Moyayi iqbol uchun ba'zi qilur jahd-u jadal,
Sarvati sarmoyayi davlatga ba'zi mubtalo.

Aylading, yo, Rab, chibinga qandi shirindan nasib,
O'tkarur avqotini yeb ustixon murg'i humo⁷.

Sher dandoniga qilding luqma oh-u zorni,
Bo'ri changolida qo'yni aylading motamsaro.

¹ Murshid – to'g'ri yo'lga soluvchi.

² Nafsi ammora – yomon nafs.

³ Habo – behuda.

⁴ Haros – qo'rquv.

⁵ Ag'niyo – boy.

⁶ Xayr – yaxshi amal.

⁷ Humo – Afsonaviy baxt-saodat qushi.

Ankabuta¹ pashshani qilding yemush, mushxora mush,
Chok etar bag‘rin – kabutarni qilur lochin g‘izo².

Chok o‘lur miskin sadaf ko‘ksida vor durdona-chun,
Bulbuli sho‘ridani(ng) solgay qafasga xush sado.

Qayda ko‘rsang g‘olibi mag‘lubni aylar poymol,
Yerdadur, suvda, havoda yo‘q bo‘lish g‘amdan raho.

Ey Xudo, hayratda qolgan aql sun’ingg‘a seni,
Charxi davron o‘zgarish-la aylanur subh-u maso³.

Bir zamon bo‘lg‘ay gunash nuri ila ravshan jahon,
Bir zamon chiqg‘ay bulut – ravshan jahon bo‘lg‘ay qaro.

Muncha zulmat ichra, yo, Rab, qoldi Hijron millatim,
Millatim, milliyatim hajrida bo‘lsun jon fido.

¹ Ankabuta – o‘rgimchak.

² G‘izo – ovqat, yemish.

³ Maso – stol (bu yerda kechqurun ma’nosida).

NA'TI SARVARI OLAM

Tutundim na'tinga, Ahmad, qilub himmatni bologa,
Sifoting jonga marham deb qalam tebratdim inshoga.
Vujudingkim tuyassar bo'ldi ul kun dori dunyoga,
Abiri mushki totoring yetushdi arzi Bathoga
Yiqildi Ka'bardin but, larza tushdi qasri Kisroga.

Yuzing nurini ko'rganda malaklar sajda aylardi,
Ko'zing shahlosiga Jabr(o)il o'zini banda aylardi,
Yer-u ko'k xalqi, ins-u jin(s) boshin afkanda aylardi,
Jamolingga vuush-u tayr tabriki xanda aylardi,
Muqavvas qoshlaring ta'rifi yetti go'shi anqo¹ga.

O'shal kunkim, Buroq-u Rafraf ila aylading me'roj,
Vujuding-la samoga Haq sanikim ayladi ixroj,
Kiyib erding muborak boshing uzra san la'oliy² toj,
Tamomi anbiyo ruhi yo'lingda erdilar muhtoj,
Ziyorat qilg'ali keldilar ul kun Baytul Aqsoga.

U chohi sultanatkim, sanga berdi xilqati lavlok,
Tufayl³ingdur iki olam, vujuding nur(u) nasling xok,
Quduming gardidan bo'ldi muattar yetti qat aflok,
Jamolingga shavqida huri jinon⁴ etdi yaqosin chok,
Tilarding osiy ummatni chiqub san arshi a'loga.

Bu dunyo lazzatiga qilmas erding zarracha parvo,
Qadamgohing edi ul jannati firdavsdan bolo,

¹ Anqo – afsonaviy qush.

² La'oliy – marvarid.

³ Tufayl – sabab, vosita.

⁴ Jinon – jannat.

Pay(g‘)ambarlar barisidan sani rutbang edi a’lo,
Malaklar ham sani ko‘rgan zamon der erdi: «Omanno»,
Nechuk bosh egmasunlar sen kabi oliy shahanshoga.

Hamisha go‘shi joningg‘a yetub ilhomni Rabboniy,
Payo-pay yetgay erdi qalbinga oyoti Qur’oni,
Jilo bergay edi yuz gulshaningga nuri rahmoniy,
Saxovat sohibi erding, shafoat javharin koni,
Sig‘inmasmi bu ummatlar seningdek durri yakto¹ga?!

Qani ummatki, bilsa gavhari qiymat bahosini,
Yo‘lidan chiqmasa o‘lguncha sandek rahnamosini,
Ajab ermaksi, topsa ikki dunyo muddaosini,
Tufaylingdin qabul etsa Xudo shoyad duosini,
Shafe² aylab sani qilsa tazarru’ robbi Allo(h)ga.

Ilohiy – sen, rahim – sen, rahmating behad-du bepoyon,
Habibing hurmatidan millati xor etma, ey Rahmon,
Bu ummatlar bu kunda qildilarkim haddidan tug‘yon,
Gunoh loyiga botdi, qolmadi qo‘zg‘almoqa darmon,
O‘zing yetkur bu Hijron osi(y)larni Ka’batullo(h)ga.

¹ Yakto – yagona, tengsiz.

² Shafe’ – vosita.

BIZLARDA NIMALAR BOR?

Qaysi millatning bizimdek voiz¹i xushxoni bor?
Kimni beshta xotun olgan qorni to'q eshoni bor?

Ko'zi og'riq bir kishi borsa tabib surgi berur,
Ko'rdingizmi, kimni mundog² Zufunun, Luqmoni bor?

Ilm uchun sarf aylayur bor-u yo'qin ag'yorlar,
Bazm-u to'yga kimni bizdek sohibi ehsoni bor?

Mehr-u shafqat o'zgada, bizlardadur kin-u nifoq,
Qaysi ummatning bizimdek besar-u somoni bor?

Gar gadoy don topsa, to'rba topmagay degondek,
Kimni bizdek belbog³ida to'rt qabat hamyonи bor?

Gar safarga chiqsamiz xurjin to'la go'sht-u qazi,
Yog'i chiqg'on to'rbasidin kimni so'k-talqoni bor?

Gar qulay bo'lsa yoturmiz hafta mehmonxonada,
Kimni bizdek bemalol ishsiz – bekor mehmoni bor?

Me'damizdur boquvat² – xom-u fishiq birdek biza,
Kimni bizdek mahmidaklik³ qora bug'doy noni bor?

Yengil ishlarni qilurlar o'zgalar san'at bilan,
Qof-qaro xizmat bizimkidurki, o'lmas joni bor.

¹ Voiz – va'z aytuvchi.

² Boquvat – baquvvat.

³ Mahmidaklik – chamasi, sedananining bir turi haqida gap ketayotir.

Jon suchukmi halvo deb so'rsa agar bizdan birov,
Halvo shirin deb javob bermoqni xo'b imkoni bor.

Ota-bobodan meros qolgan uchun arzon baho,
Yerlarimizni(ng) sotarmiz, bizda pulning koni bor.

Katta-katta oqchalarni(ng) sarf edub bid'atlara,
Qars urub, qarzdor bo'lub qolmoq yo'lin osoni bor.

So'ylagan, yozgan bilan bo'lmas ado hasratlarim,
Qayda mendek millating qayg'usida Hijroni bor.

MILLAT HOLINDAN BIR JIGARSO'Z

Ey xudovandi jahon, maxfiy emasdur sanga hol,
Bizlara berding jaholat, o'zgag'a izzu kamol.

Buncha kulfat, buncha g'am to'plandi millat boshiga,
O'yla behol o'ldikim, qo'zg'olmaka yo'qdir majol.

Bir tarafdan ilmsizlik, bir tarafdan xorlik
Tutdi millatning yaqosindin – qutulmog'i mahol.

Ro'shnolig' ko'rmayur, kundan kun ortur mehnati,
Bu razolatdin xalos o'lmoqg'a yo'qdur ehtimol.

Shul qadar ma'yus holin so'rg'oli yo'q kimsasi,
Barcha avlodи bilimsiz, kar qulog'-u gung(u) lol.

Har kim o'z nafsi uchun shom(u) sahar javlon urar,
Millating ahvolidan voqif emasdur yosh-u chol.

Ikki-uch dona jaridasi chiqodur kuch bila,
Bizni Turkiston maorif yo'lig'a qilmas jadol.

Toza qotmisht uyquga, kirmas qulog'iga sado,
Qahf xobida yotar to ro'zi mahshar bemalol.

Bu taraqqiy davrida nechun ochilmas ko'zlar,
Uyqumi, g'aflatmi bu – bitmas-tuganmas moh(u) sol.

Sezmayur jismi hisi, tuyg'usi yo'q surat kabi,
Tepsangiz tebranmayur boshiga monandi devol.

O'yamas, afsus, aslo bir-da istiqbolini,
Qoflamish atrofini qayg'umi, hasrat yo xayol?

Buncha Hijronlig'da afg'onlar chekodur har zamon,
Qil tarahhum holina, lutf et o'zing, yo zuljalol¹.

RAMAZONI SHARIF

Keldi bizlarga bu kun mohi safodur, ramazon,
Miskin-u zorlara xayri saxodur, ramazon.

Kechasi xatm²i tarovih, kunidur ro'za ila
Ichi-toshi to'la nur durri bahodur, ramazon.

Kambag'allarga berur mol-u zakotin boylar,
Siylar iftor qilub, mehr-u vafodur, ramazon.

¹ Zuljalol – buyuklik egasi, ya'ni Tangri taolo.

² Xatm – tugallash.

Laylatu-l-qadr kechasi yoshirin bu oyda,
Kimki bedor esa, albatta, topodur, ramazon.

Har kim ixlos ila tutsa butun oy ro'zasini,
Ushlabon ilkini jannatga chopodur, ramazon.

Ro'za tutmoq biza Islom dinining bir rukini,
Qoralangan dilimiz pok yopodur, ramazon.

Ilmi tib, hifz¹-u sihat yo'llarina hoviydur²,
Bobi hikmatlarini bizga ochodur, ramazon.

Me'damizni qiladur toza va ishlaydurgon,
Tomir-u nervimiza doru sochodur, ramazon.

Qalbimiz pok qilur ruhimizni tasfiyasi³,
Ko'b yemoq ayni xatodurki, qochodur, ramazon.

Halqini toza qilub, pok qilur vijdonini,
Quvvayi hozima⁴miz mahkam etadur ramazon.

Nafsimiz rom o'ladur, halqumiz⁵ olg'ay orom,
Ko'nglimizni qilub ozoda, ketodur, ramazon.

Rahmati haqdin umiding bo'lsa tut ro'zasini,
Ko'za bo'lsang sanga Hijron-u jafodur, ramazon.

¹ Hifz – saqlash, qo'riqlash.

² Hoviy – qamrab oluvchi.

³ Tasfiya – poklash, sof qilish.

⁴ Quvvayi hozima – hazm qilish quvvati.

⁵ Halq – halqum, tomoq.

XAROBALARGA XITOB

Assalom, ey xaroba ayvonlar,
Ey safolatga g'arq o'lan shonlar.

Toqlar, qasri oliv, ey vayron,
Toshlar – qubbasi yera yakson.

Na uchun, ey xaroba, jimjitsan,
Eski bir shona toza hujjatsan.

Tor o'lubsan baxilni fikridek,
Buzilubsan hasudni ko'nglidek.

Kunduzing eski bir rido¹yi kafan
Kechangiz tor bir buyuk madfan².

Osmon ruh, yer mazor o'lmish,
Qurayi arz na'sh ilan to'lmish.

Yo'q karam gardishi muhitingdan,
Qof-qarodurki usting ostingdan.

Jim bo'lib qol mish, oh, ovozing
Churumish jismi nag'ma-yu sozing.

Manzaring ko'zga ro'zi mahsharsan,
Noma yoxud kitoba o'xsharsan.

¹ Rido – yelkadan tashlab yuradigan choyshabga o'xhash darveshlar kiyimi.

² Madfan – qabr, mozor.

Holdandur butun sahifalaring,
Na'shlardur xutut¹i feasaring.

Tufrog'ing har biri bo'lakcha kitob,
Zulmating qilur zamonga xitob.

Derki: – Ey shoni shavkata mag'rur,
Bu jahon ayladi kimi masrur².

Bu parishon zamon hol bila,
Umrin o'tkarma, – der, – xayol bila.

Goh shabdek sukut ichra tarob,
Goh mahsharsan, ey jahoni xarob.

Shul fano olaminda san hayron,
Kes umidingni dunyodan, Hijron.

MAYXONALAR YOPILUVI MUNOSABATI-LA

Shukurlar o'lsun Xudoga man' o'lub sahbo³ sharob,
Xalq ichmay tinchlandi, qolmadi rasvo sharob.

Podsho hazratlari bog'latdimi mayxonani,
Qolmadi hech bir shaharda soqiy-u mino, sharob.

Ichkulik «Ummul jinoyat»⁴ deydilar payg'ambarim,
Bu gunohlar onasi qursun, butun g'avg'o sharob.

¹ Xutut – xatlar.

² Masrur – xursand, shod.

³ Sahbo – qizil may.

⁴ «Ummul jinoyat» – jinoyatning onasi.

Dinimiz man' aylagan bizga olib-sotmoqni ham,
Doimiy bitsun jahonda, bo'lmasun savdo sharob.

Bog'lanub mayxonalar, shaytonlara ish qolmadi,
Xonadonlarga solurdi har kuni ig've sharob.

Tun-u kun yig'laydir iblis motami mayxonada,
To qiyomat ko'rmasun dunyo ko'zi aslo sharob.

Bizni(ng) Islom dini maydan o'yla qilmishkim, hazar,
Toza bir xum suvni iflos aylagay tomsa sharob.

Ko'b kishini qildi rasvo, xonadonlarni buzub,
Ichkan insonlar(n)ing aqlini qilub bejo sharob.

Ichkuliqg'a o'rganub bo'ldi «fiyon» bir nechalar,
Ko'b kishilar boshiga soldi quruq da'vo sharob.

«Alkagul» og'usi birlan xo'b churutdi xalqini,
Ba'zin etdi qaltiroq, ba'zin qilub a'mo¹ sharob.

Zaharlab, ichgan kishilarning buzub axloqini,
Boshlab elni o'g'rilikg'a qildi ko'b yag'mo sharob.

Ba'zi o'rgangan kishilar emdi Hijronlig'dadur,
Qancha kulfatlar chiqordi bir o'zi tanho sharob.

¹ A'mo – ko'r, so'qir.

SAYOHAT SAMARASI

Hamdlar bo'lsun Xudoga, qayda ko'rsang yoshlari,
Milliy ishlarga tashabbuslar qilur, kengoshlar.

Andijon-u Marg'inon-u O'sh-u Namangon-u Ho'qand
Yoshlari bir-birlari birlan bo'lub sirdoshlar.

Ketdi g'aflat, keldi ulfat – tug'di davri intiboh¹,
Qayda ko'rsang yoshlari, bir tug'madek qardoshlar.

Bu zamondan necha yil avval qayon erdi bu hol,
Yosh bo'lsun, xoh qari go'yo edi kundoshlar.

Kechdi avvalgi zamon, bitdi adovat kunlari,
Chiqli anvori muhabbat, ochilib ko'z-qoshlar.

Kattalar aylar kichiklarga tarahhum lutf ilan,
Ham kichiklar kattalarning yo'liga ergoshlar.

Ba'zi ko'ngli qoralar yo'qdur demang, har yerda bor,
Dengiz ostida sadaf bo'lg'usidur ham toshlar.

Yangi milliy ishlara har yerda bor sa'y-u jadal,
Birga ish, birga taraqqiy, birga yerlar oshlar.

Kattalar, sizdan umid shul: tashlangiz san-manlig'i,
Sizga bizlar ergashayluk, bizga siz – yo'lboshlar.

Basdur emdi, shuncha Hijronlig'da o'tdi oy-u yil,
Ilgariga hatlashayluk bir bo'lub yo'ldoshlar.

¹ Intiboh – ogohlilik, g'aflatdan uyg'onish.

OILA MUNOZARASI

Ota

O'g'limizni o'qutsamiz-chi, xotun?
Qizimiz ham o'qusa, bo'lg'ay otun¹,
Ilmsizlar ko'rар qaro kunlar,
Yoshlik vaqtidur kumush, oltun.

Ona

O'g'limiz o'qubon eshon bo'lmas,
Qiz o'qusa uy ishlarin bilmas.
O'qugonlar bo'ladi mahmadona,
Siz-u bizni nazar-pisand qilmas.

Ota

O'g'limiz o'qusa, bo'lur mullo,
Qizimiz ham o'qur, yozur imlo.
Maktaba kirsun, ilm o'rgansun,
Zargar ishlab qilur misi tillo.

Ona

O'quganni birimu Ahmadjon,
Yegali uyida topilmas non.
Meni so'zimni tinglang, ey otasi,
O'quganiga yer emish pushmon.

Ota

Bu zamonda o'qumagan kish(i)lar,
Non, osh o'rniga kesak tishlar.
Angladiningmi so'zimni, ey onasi,
Ilmsizlar qiyin ishi ishlar.

¹ Otun – muallima.

Ona

O'g'il o'qusa, sigirni kim boqadur?
Qiz o'qusa, olovni kim yoqadur?
O'qugonlar bo'ladi beixlos,
Olamunchoq tumorni kim taqadur?

Ota

O'g'il-qiz o'qusa bo'lur olim,
Johil odamlar bo'ladur zolim.
Baxt-u iqbol ilma bog'liqdur,
Ilm o'qutmoq ahsan a'molim.

Ona

O'qubon o'g'lingiz bo'lurmu imom?
Mullodan qadrlik shu kunda avom.
Roziya, Marziya ilmsiz-ku,
Tikish-u osh, ish biladi – tamom.

Ota

O'qumasa o'g'il chapan bo'lodur,
Ilmsiz qiz vafosi kam bo'lodur.
Mol-u davlat besh-olti kunlikdur,
Dunyo moli go'r-u kafan bo'lodur.

Ona

Bolalarni o'qutmasak nima g'am?
Ilm uchun qancha pul berub barham.
Hama birdek barobar insondur,
Mullodan ilmsizning qay yeri kam?

Ota

Farz o'qutmoq o'g'il-qizini ota,
Yordam etmoq kerak bularga ona.
Muncha bema'ni so'zlar aytursan,
So'zlagan so'zlarining barisi xato.

Ona

O'g'lingizni o'qutsangiz o'quting,
Manga desa bo'z-u elak to'quting.
Qiz degan o'qusa, yomon bo'lodur,
Bu so'zimni xayolingizda tuting.

Ota

Qo'y, gapurma kelishmagan so'zni,
O'qutaylik o'g'il bilan qizni.
Ikkisi ham uluma tolidur,
Bo'lsa olim, qilur duo bizni.

Ona

Ilm uchun muncha bo'lasiz Hijron,
O'zgalar ham sizing kabi inson.
Nega onlar o'qutmayur bolasin,
Bu ishingizga man juda hayron.

Ota

Sen o'zingni bil, o'zgani qo'yaver,
Yaxshi ko'rsang bolangni maktab ber.
Xulq, odob, ilm o'rgansun,
Sanga ham, manga ham xalq rahmat der.

KO'BDAN UNUTMOQ KERAK EDI

Ey ko'ngul, atrofinga boq, jomi sahboni unut,
Bazmi ayyomi dagildur, qaddi zeboni unut.

Ichma g'aflat bodasin ey millati oliyjanob,
Bas, yetar sarkushlig'ing, bu kori bejoni unut.

Shunchakim qilding o'yun, to'y-u tamoshalar yetar,
Endi g'ayrat vaqtidur, ortiq taqozoni unut.

Shayx, so'filar sanga dunyo najas deb ko'rsatur,
Maqsadidur aldamoq, san tarki dunyoni unut.

O'nashubdur jisminga bir necha af'oli qabih¹,
To'g'ri kelmas bu zamonga rasmi boboni unut.

Ilm-u san'at-la jahon ayvonidur oyinaband,
San yotar beg'am qaro uyda, bu zindonni unut.

Ma'rifat bozorida moling sotolmaysan, g'arib,
Eski chig'riq, eski charx-u eski do'konni unut.

Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotun-qiz ahlina,
Qo'y qadam ilm uyina, tumor-u marjonni unut.

Yetdilar maqsudina ag'yor, sen qolding yozuq,
Izla darmon-u ilojin, chekma afg'on(n)i, unut.

¹ Qabih – yomon, xunuk.

Tarbiyatsizlik bilan so'ldi ochilgan gullaring,
Qolmadi imkoni yo'q ish sanda «lo-lo»¹ni unut.

Turmushing g'aflatmi yo uyqu, bilolmaysan hamon,
Tashlagil vahm-u xayolotingni, ro'yoni unut.

Vaqti o'tsa har bir ishning oxiri Hijron va g'am,
Qilma to'yni, berma joma, qo'y, saruponi unut.

MOZORIM LAVHINDAN

Shoiram, ban so'ylaram, sizg'a zabonim arz etar,
Jon qulog'i birla tinglang, sizg'a jonim arz etar.

Xoli ermas bir zamon jismim jafoyi ta'nadan,
Holi ahvolim siza ruhi ravonim arz etar.

Ban nihon o'lsam-da, osorim nihon o'lma, qolur –
Qayg'ulik holimni axlofa² nihonim arz etar.

Har zamon holi dilim xomam siza aylar bayon,
Ojiz o'lsam so'ylamakdin, tarjumonim arz etar.

Ban yiqilsam yo yo'q o'lsam, kimsadan so'rmang bani,
Ko'ngluming yosin yiqilmish xonumonim arz etar.

Bir zamon bo'lg'ay manga lavhi mazorim tarjumon,
Millatim hijronda, Hijron, jovidon³im arz etar.

¹ «Lo-lo» – yo'q-yo'q (inkor etish).

² Axlofa – xalaflar, izdoshlar.

³ Jovidon – abadiy.

DEVONI HOFIZDAN TARJIMA

Bu xirqaki kiygonim, mayga alishuv yaxshi,
Bul ma'nisiz daftarni mayga botiruv yaxshi.

Umrimni yamon qildim, ko'b vaqt qarab yurdim,
Vayronani burjida aftoda bo'lув yaxshi.

Zohidlaring ahvolin elga aytosim kelmay,
Bu qissani gar aytsam, chang birla aytuv yaxshi.

Ahvoli falak shunday bebosh(u) oyog' bo'lsa,
Ma'shuq havasi, soqiy, may qo'lda tutuv yaxshi.

San munchaki dildorsan, dilni uza olmiyman,
Ko'b dardiki tortarman, ul sochi yechuv yaxshi.

Chunki qariding, Hofiz, chiq maykadadan emdi,
Rindi-yu havasgarlik yoshlikda bituv yaxshi.

Ey millati hasratkash, muncha bo'lasan Hijron,
Masti-yu g'ururlikni emdi tugatuv yaxshi.

IKKI SADO

Bu ajab ish qilur kishini ado,
Iki kun ichra chiqdi ikki sado.
Bir kun avval qilub sado Ho'qand,
Ertasi Toshkand qildi navo.

Tug'dilar bir Vatan onosindan,
Ikki o'g'lon chiqishdi, qildi nido,
Asra, yo Rab, baloyi ofatdan,
Cho'q¹ umr ver har ikkisina, Xudo.

Yashasunlar og'o-ini birdek,
Birisini birindan etma judo.
Ko'rmasun dog'i hajrini onasi,
Qilsun o'g'lonlari-la kasbi havo.

Sandan umidimiz budur, yo, Rab,
Arosun millatina siyna rohi hudo,
So'zlasun doimo shirin til ila,
Suyodur yaxshi so'zni shoh-u gado.

JARIDA MUHIBLARINA

Do'ndi fasli bahora xoriston,
Gul ochildi bo'lub bahoriston,
Qo'ndi bulbul, chaman ochib bo'ston,
Eshiting, aylayur siza doston.
Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

¹ Cho'q – ko'p.

Maslaki betaraf, taraqqiy yo‘li,
Qalamin ilm uchun tutubdir qo‘li,
Sarf etar qancha bo‘lsa bor puli,
Odvakatdur mudiri mas’uli,
Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

So‘zidur to‘g‘ri, rost-haqgo‘ylik,
Maqsadi ilm ila xudojo‘ylik,
Yordam aylang, qiling duogo‘ylik,
Sizdan aylar umid xushro‘ylik,
Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

Millating holini bayon aylar,
Husni qabihin siza ayon aylar,
Sahfasin sizg‘a tarjimon aylar,
O‘qumoqg‘a tilin ravon aylar,
Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

Ulamo ahlini dilin choqlar,
Ag‘niyolarni xotirin soqlar,
Fuqaroni huquqini yoqlar,
Millatin jahl xobidin oqlar.
Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

So‘z yozar Lo‘ndin, Piterburgdan,
Berlin, Istanbul-u Parijlardan,

Pekin-u To‘ki-yu Misr, Qohir(a)dan,
Rim, Kobul, Tunis, Jazoirdan.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

Kina, bug‘z-u adovati tashlang,
Emdi chinlab o‘qumaqa boshlang,
Olmak uchun yoningizi qoshlang,
Ibrat olub ko‘zingizi yosha lang,

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

Haftada ikki martadur chiqishi,
Yilg‘a to‘rt so‘m bahosi, yoz-u qishi,
Bir manat – besh tiyin, olish-u berishi,
O‘qumasmi olib aqlli kishi?!

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

Kutgan erdi gazitni xalqimiz,
G‘ayrat etgan kishini olqiyimiz,
Soli ta’rixina shuni deymiz:
«Amr etibdur o‘qurni dinimiz».

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,
O‘qungiz shavq birla, ey do‘ston.

SHOIRILA TO‘TI

Shoir:

Kel, ey to‘ti, ikkovlon so‘ylashayluk holi millatdan,
Eshutdimki, emishsan boxabar ahvoli millatdan.

Ko‘rub Makka, Madina, Misr, Istanbul-u Eronni,
Nalar ko‘rdung, eshitding, so‘yla, jonim, mol-u sarvatdan.

Kezub Fos-u Yaman, Afg‘on-u Hindiston, Jazoirni,
Ridodan, hirqadan, tasbehdan, so‘yla ibodatdan.

Qrim, Qofqoz, Qozon, Ufa, O‘runburglarni kezmishsan,
Musulmonlar arosida na ko‘rding yaxshi odatdan.

Ko‘rubsan Yovruponi, holini bir-bir bayon ayla,
Maorifdan, funundan, ilmdan, bobi hukumatdan.

Arablar, forsiylar, turklar, totar-u hindiyilar
Taraqqiy qildilarmi, yo‘qmi, so‘yla kori ummatdan.

Bular ham ilm-fandan, ma’rifatdan boxabarlarimi,
Ziroatdan, sanoatdan, hunardan, ilmi hikmatdan?

Kelibsan bizni Turkiston aro, ey murg‘i jonparvar,
Bu so‘zlarning javobini menga bergil muruvvatdan.

To‘ti:

Savol aylab so‘rarsan bandadan ahvoli millatni,
Eshit, ey shoiri shirinsuxan, mandan nadomatni.

Butun islomiyon g‘aflatda, shaxsiylik ila mag‘rur,
Xayoliga keturmaydur sira asri saodatni.

Maorifdan, funundan istasang topmassan osore,
Daroz aylab qilurlar el qoshida haqg‘a toatni.

Sharorat bo‘lsa tish-tirnoqlari birla yopushgaylar,
Riyosiz yo‘q ibodat, ochquchi yo‘q chashmi ibratni.

Hama islom elining sahnayi ummidi bog‘lang‘on,
Firib-u aldamoqni kasb qilmishlar, kasolatni.

Ziroatdan, sanoatdan xabarsiz Fos-u Eronlar,
Asiri asr bo‘ldi tashlamay bug‘z-u adovatni.

Arabdur, turkdur, totor, hindidur, musulmondur,
Xurus har yerda birdek qichqiribdur, olg‘il ibratni.

Hunar yo‘q, ilm yo‘q, fan yo‘q, taraqqiyidan nishon yo‘qdur,
Musulmon kissasidan yel esadur ishta sarvatni.

IFFATLI INSONLAR

Bo'ynini egmas kishig'a haqni bilgon nafs uchun,
Molin isrof aylamas olivjanobon nafs uchun,
Maslak-u maqsadni sotmas chin musulmon nafs uchun,
Yirtmas iffat pardasin arbobi urfon nafs uchun.

Har kishining ko'nglida mastur bir omoli bor,
Ba'zining baxt-u saodat, ba'zining iqboli bor,
Ba'zining na kulbasi, na sarf etarga moli bor,
Ismat¹ini buzmag'ay har xonavayron nafs uchun.

Turmag'ay bobo tama'da himmat-u g'ayratlik er,
Bo'lsa gar bir burda noni, kambag'allar birla yer,
Ojiz-u bechorani ko'rgan zamon onlarga der:
Cho'zmag'ay dasti tama'ni yaxshi inson nafs uchun.

Parcha non deb sindirarmi odamiyat shonini?
Go'sht yig'moqg'a verarmi nafsa minnat nonini?
Minnat ichra band etarmi har kishi jononini?
Chindan ishlab keltirar chin mardi maydon nafs uchun.

Sotmag'ay iffat-hayosin nafs uchun arzon baho,
O'zdan ojizroq kishilarg'a qilur xayr-u saxo,
So'zida sodiq turur, ahdig'a ham qilgay vafo,
So'yamas aslo yolonni ahli vijdon nafs uchun.

Mor zahridin yomonroqdur baxilning bir puli,
Ham chayonni nayzasidan puralam nokas tili,
Yumshamas tun-kun eritganda danining tosh dili,
Nokasa sunmas bo'yin gavarshunoson nafs uchun.

¹ Ismat – poklik.

Bir qarn¹ ichra qorin deb obro' to'kmak abas,
Arzi² nomusin yo'qotganlar bo'lurlar xor-u xas,
Xalqqa minnatdorliq hargiz kerak ermas emas,
Odat etmas g'ayratin nomusdoron nafs uchun.

Rizq topmaqda chumolidek kuchingga yig'lag'il,
Pashshadek xonish qilub har sufra³dan quvlanmag'il,
G'ayratingni, arzi nomusingni, Hijron, saqlag'il,
Pardayi insoniyat yirtarmu inson nafs uchun.

GAPURMANGLAR

Keling, insof eting, bug'z-u adovatdan gapurmanglar!
Masojid⁴ oldida g'iybat, shikoyatdan gapurmanglar!

Saxiylikni qiling odat, bo'ling shafqat-muruvvatlik,
Baxilning qoshida xayr-u saxovatdan gapurmanglar!

Yetar g'aflat, yetar zillat, yetar beimlik, jonon,
Oching ibrat ko'zini, xobi g'aflatdan gapurmanglar!

Tijoratga, sanoatga kirayluk boshqa millatdek,
Yo'q o'lsun ma'raka, to'y-u ziyoftadan gapurmanglar!

Ibodatni qiling ixlos ila, Alloh uchun xolis,
Riyo aylab xaloyiqg'a riyozatdan gapurmanglar!

Jin-u dev-u pari deb bolalarni dillarin buzmang,
Kelur «Olabo'ji» deb, hech xurofotdan gapurmanglar!

¹ Qarn – asr.

² Arz – qiymat, qadr.

³ Sufra – dasturxon.

⁴ Masojid – masjidlar.

O'g'ul, qizlarni yaxshi tarbiyat birla qiling ulkan,
G'azab, achchig¹ ila dahshat siyosatdan gapurmanglar!

Bolasini o'qutmak farzdur har bir otolarga,
O'qutmasdan, ish o'tgan so'ng nadomatdan gapurmanglar!

Sabiylar oldida bema'ni so'zlab xulqini buzmang,
Juvon-u bachcha deb ko'z-qosh, ishoratdan gapurmanglar!

Tama'dan, moli mardumxo'rlikdan ehtiyot aylab,
Firib-u hiylagarlikdan, xiyonatdan gapurmanglar!

Nasha, afyun-u ko'knor, ichkulikning nomini aytmang,
Shularga o'xshagan fisq-u sharoratdan gapurmanglar!

Bolalarga «Onangni ur, otangni so'k», deb o'rgatmang,
Urish, mushlash kabi bejo jinoyatdan gapurmanglar!

Ziyonlik, dilga o'rnashgan yomon ishlarni tashlayluk,
Ota-bobom qilgan deb urf-u odatdan gapurmanglar!

Siza arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,
Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan gapurmanglar!

Payg'ambar aytdi: «Ba'zi she'r – hikmat, ba'zisidir sehr»,
Amal aylang bu so'zg'a, hajv-u bid'atdan gapurmanglar!

Keling, emdi yozayluk, so'ylashayluk kamchiliklardan
Yetar Hijronlig¹ emdi, jomi ishratdan gapurmanglar!

¹ Sabiy – yosh bola.

SADOYI BULBUL

Qo'nub gul shoxiga bulbul der: Ey insonlar, insonlar,
Qilursiz tobakay g'ofil yotib afg'onlar, insonlar.

Turing uyquni tashlang, ilm oling, yoshlik g'animatdur,
Yo'q ersa, bo'lg'ungizdur jahl uchun qurbanlar, insonlar.

Tugan mish sizdagi insoniyatning obi hayvoni,
Adovat dengizingiz to'lqin-u to'fonlar, insonlar.

Uchub ketmish dilingizdan birodarlikning osori,
Ko'runmas zarracha shafqat, his-u vijdonlar, insonlar.

Jahon tor o'ldi sizning dastingizdan barcha qushlarga,
Qamab dom-u qafasga some¹ ilhon²lar, insonlar.

Qarong'u qildingiz dunyo yuzin johil dili yanglig',
Dilingizni yorutmas ilm ila urfonlar, insonlar.

Faqir-u notavon har yerda biz qushlar kabi nolon,
Qani yordam debon Haqdan kelan farmonlar, insonlar.

Tun-u kun aylasam faryod sizlarga asar qilmas,
Dili tog'lar toshidek yumshamas qotgonlar, insonlar.

Adovatni tash(l)ang, ulfat bo'lingiz, bir tug'ushg'ondek,
Bu olamga erursiz necha kun mehmonlar, insonlar.

¹ Some' – tinglovchi.

² Ilhon – yoqimli ovozda sayrash.

Muruvvatlik bo'lingiz, bir kishining jonin og'ritmang,
G'arib-u benavolarga qiling ehsonlar, insonlar.

Saxovat bo'stoniga ko'ngul murg'ini rom aylang,
Sanoxon¹ o'lg'usidur hurlar, rizvonlar, insonlar.

Taraqqiy ayladi dunyoda har millat ilm birla,
Nechun siz qoldingiz pastlab, musulmonlar, insonlar.

Kuchingizning boricha umringizni ilma sarf aylang,
Bilimsizlar iki olamdadur Hijronlar, insonlar.

MUXOTABIM QALAM

Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog'inda faryod et!
Otib tashla arodin eski odatlarni, barbod et!

Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san,
Qarong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et!

Sadoyi dil firibing-la o'chur kin-u adovatni,
Adolat orzusi-la to'kub yoshingni, inshod et!

Jaholat zulmat ichra qoldi avlodi Vatan mag'mum,
Nazar qil, marhamat qil, jahl changolidin ozod et!

Kerak, oqil esang, dunyoga ortuq hirsingi qo'yma,
Qo'lingdin kelganicha ilm arbobina imdod et!

Karamxoningni yozgil ne'mati alvon ila har on,
Shakarguftor ila avlodi millatni dilin shod et!

¹ Sanoxon – madh o'quvchi.

Kirish, ojizlara imdod qilmak punja¹sin boshla,
Bu millat xonadonin toza ta'miring-la bunyod et!

Maishat bobida islomiyon har yerda mehnatkash,
Ziyoyi ilma targ'ib ayla, mehnat bog'in obod et!

Agar qolsun desang olamda bir ta'ixi osoring,
Cholish millat ishina bir binotek yaxshi bir od et!

G'arib millatni afrodi tilar sendan shu umidi,
Chaqir ilma, Vatan avlodini chin odamizod et!

Belingni bog'la mahkam, shar'i onhazratga xizmat qil,
Qaro yoshingni to'k shom-u saharlar virdi avrod et!

Vatan mehri agar bo'lsa, dilingda ishq savdosi,
Otil nuri maorifga, o'zingni misli Farhod et!

Yetar g'aflatda Hijronlig', qadam qo'y bog'i ta'lima,
Cholishmishlar nechuk tahsila o'tmish ta'rixing yod et!

G'ALAT

Shayxlik da'vo qilub, beilm guftoring g'alat,
Shayx San'on bo'lmasang, bo'yningda zunnoring g'alat.
So'fiman deb sof dil bir-la ibodat qilmasang,
So'zing(g)a to'g'ri emasdir jumla kirdoring g'alat.
Ilm lofin urding el qoshida manmanlik qilub,
Qo'lda tasbeh, mag'zsiz bosh uzra dastoring g'alat.

¹ Punja – odat.

Zohido, zuhdingga mag'rur o'limg'il san zinhor,
Qilmasa Tangri qabul toati darkoring g'alat.
Ro'za tutgach, mushlashursan ko'chada har kim bila,
Gar savol o'lsa, xumoriman deb iqroring g'alat.
Haqni amr etgan zakotini mukammal bermayin,
Hiyla aylab kambag'al haqqiga inkoring g'alat.
Hoji desun xalq, deb qilding ziyyarat Ka'bani,
Aqrabo avlodinga qilg'on jafokoring g'alat.
Xalq oldida ibodatni qilib dur-u daroz,
Maxfida qulluq adosi bo'lsa dushvoring g'alat.
Kambag'allarni qo'yub boying chaqirding ro'zada,
Xolisona qilmag'on xayrot-u iftoring g'alat.
Qoriyo, qilding tilovat doimo dunyo uchun,
Gar xudo rahm etmasa, shab¹-ro'z takroring g'alat.
Ilmdan yo'q sanda osori duoxonlik qilub,
Yozibon bergan ezibichki-yu tumoring g'alat.
To'rt adad tosh tashlabon, kasb aylading rommol²lik,
Jin-u shaytondin yalondan bergan axboring g'alat.
Bizga eshon-u tabiblik otadan meros deb,
Za'faron habbulmalikdin doru tayyoring g'alat.
«Askiyo³man» deb tilingg'a harna kelsa so'ylabon,
Majlis-u ulfatchilikda mardum ozoring g'alat.
Dod-faryod etganing birla qulog'i kar eling,
Ters to'nini tashlamas, Hijron, bu axtor⁴ing g'alat.

¹ Shab – tun, kecha.

² Rommol – romchi, folbin.

³ Askiyo – askiyachi.

⁴ Axtor – xatarlar, tahlikalar.

DIQQATMAN

Aromizda muhabbatni urushkoniga diqqatman,
Musulmonlarning axloqin qurishkoniga diqqatman.

Olarda aqchani olg‘ay xamirdan qil sug‘urg‘ondek,
Berurda to‘rtta tuqg‘ondek tirishkoniga diqqatman.

Agar so‘fi chaqirsa, masjida kirmas, ibodatg‘a,
Xudoyi osh desang saf-saf kirishkoniga diqqatman.

Agar ilm-u maorifg‘a taraddud qilsa bir inson,
Anga qarshi turub, xalqning qizishkoniga diqqatman.

Taajjub, bu zamonda to‘g‘ri so‘z tuvg‘ong‘a yoqmaydur,
Temurchidek yalon so‘zni cho‘zishkoniga diqqatman.

Icharlar och yurakg‘a choyni shilqillatib doim,
Kishilarni samovarda qirishkoniga diqqatman.

Agarda yetti yerda to‘y bo‘sса, oshni tushurgaylar,
To‘yub qorni, kekurub, ko‘b kerushkoniga diqqatman.

Maorif, ilm yo‘lina tiyinni ko‘zlari qiymas,
Bazmda bachchaga so‘mlar berishkoniga diqqatman.

Bo‘laklar bolasi ilm uyina otulganda,
Bizim avlodimiz o‘ynab yurishkoniga diqqatman.

Yo(v)rupo xalqi har ishga nazar ibrat uchun boqsa,
Bizim el qof yo‘qotgandek turishkoniga diqqatman.

O'qub hamsoyamizning qizlari zebo tikish tiksa,
Bizi qizlarni tikg'oni burushgoniga diqqatman.

Bo'laklar ilm durrin rishtayi joniga tizganda,
Bizimki ilmsiz cho'pchak terishkoniga diqqatman.

Hama dehqonchilikni yangi asboblar bilan qilsa,
Omoch-bo'yinturuq-la yer surishkoniga diqqatman.

Havosi yaxshi uylarni yasab rohat yashar ag'yor,
Bizimkilar zax uylarda churishkoniga diqqatman.

Xaloyiqdan mani Hijronlig'im behuda ermaskim,
Firibgarlik qilub, yumshoq ko'rishkoniga diqqatman.

BIZ NIMA HOLDAMIZ?

Ey, jaholat nori birla yondi jismi pokimiz,
Ilmsiz qolduk ayoq ostida misli xokmiz.
O'sdi ilm-u ma'rifat-la boshqalar ar-ar kabi,
Tarbiyatsiz, majmag'il monandi zangi tokmiz.
Jismin, axloqin tuzatdi noslar, tannoslar,
Kir chopon, ko'krak ochuq, yaxtak yaqosi chokmiz.
G'ayrilar tashlab jaholat bodasin g'amdan xalos,
Biz esa masti jaholat, ko'knori taryokmiz.
Aysh-u ishrat bo'lsa har qancha qilurmiz bemalol,
Diniy ishlardan, ibodatdan qochar bebok¹miz.
Dori dunyo ilm ila purnur o'lan bir vaqtda,
Jahli vodiysinda yotgandur xotun-erkakmiz.

¹ Bebok – beparvo.

O'ylamak lozim emasmi, ey Muhammad ummati,
Farzi sunnatdan chiqub, bizlar qayon ketcokmiz?
Johilon bilgaymu naf'i-sudini, ey olimon,
Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz?
Ilm yaxshimi, jaholatmi, tushunmaymiz hanuz,
Aqlimiz yo'qmi bizim, majnunmi yo tentokmiz?
Ichkilik, ummul xabois¹, deydilar payg'ambarim,
Kecha-kunduz ko'p icharmiz, johil-u nopokmiz.
Basdur, ey Hijron, jaholatdan gapurmak shunchalar,
To'g'ri so'z tuvg'ong'a yoqmaydur, demish o'rnikimiz.

MUSIQI

Mast o'lur har kim eshitsa, shavq ila ovozingi,
O'ynamoq aylar taqozo, tinglasa jon sozingi.
Mavji ovozing asir aylar qulubu jonlari,
Some' aylarsan sado qilsang agar insonlari.
Chashmi ruhoning necha ming jonlari jazz aylagay,
Murda dillar junbushingdan to'tiyo kasb aylagay.
Elni eltar zavq diydoring tamanno aylasa,
Kim musaxxar o'lмаган vasling tamosho aylasa.
Kayflanmazmu seningdek dilkusho mastonadan,
Qaysi jon ayrimoq istar san kabi jononadan,
So'yagan kimdur dahoningdan azal asrorini,
Nag'mang ochgay elni afkorin, tuzar jon torini.
Larza tushgay jismi insona tarannum aylasang,
Qalblar larzishga tushgay san takallum aylasang.
Suvrating ko'rganda, ey jonparvari zebo maqom,
Otashi ishqing-la har jon suvrati bo'lg'ay g'ulom².

¹ Ummul xabois – qabihliklar, tubanliklar manbayi.

² G'ulom – qul.

Kuyla, so'yla she'rimi, ey ruhparvar, bemalol,
Bir sado qil, bir nido qil, ko'rsat ohangi jamol.
Koinota chiq uyingdan, aylagil bir iltifot,
Shaklingi ko'rganda, sendan ruh kasb aylar hayot.
Nag'masozingdur madori jism, qudsiy¹ so'zlarin, Ruhbaxshodur sado qilganda, Hijron, ko'zlarin.

MILLAT HAYKALIGA XITOB²

Tur, ey millat, uyqudan, hasratlashayluk,
Ilm uyiga kirmoqg'a suhbatlashayluk.

Yotma, millat, uqlama, bedorlashayluk,
Milliy ishlar ishlarga, tur, bel bog'lashayluk.

Yotmoq bo'lsa xo'b yotding, emdi turmoq zamoni,
Uyqu, g'aflat, yalqovlik – jaholatning nishoni.

So'lmish guldek yuzlaring, yoshlar sochur ko'zlarin,
Uzma umid dunyodan, ayt qayg'ulik so'zlarin.

Tilsiz, ishsiz, bilimsiz, bemor, millat – avlodning,
Hech bir yeriga yetmas oh-u fig'on, faryoding.

Olam nurga to'lganda, bizlar vulqon ichida,
Barcha chiqdi sohilga, bizlar to'fon ichida.

Dunyoga boq diqqat-la, yotma g'aflat, hasratda,
Olamdag'i san'atga ko'z qamashgan fursatda.

¹ Qudsiy – muqaddas.

² «Yig'lama yorim» kuyida (*Avloniy izohi*).

Kechdi ul o'tgan zamon, hozirda yangi zamon,
Nodon millat mahv o'lgan, o'qugan, bilgan – omon.

So'lgan gulingni bo'yla, tarixlaringdan so'yla,
Ko'b zamon chekding g'urbat, istiqbolingni o'yla.

Uxlading bir necha yil, emdi ilma g'ayrat qil,
Yalqovlikni tark ayla, fan-u ilming yaxshi bil.

Tur, bizlarga yo'l ko'rsat, ko'rpangni ustingdan ot,
Bul taraqqiy davrinda yotmog'lik sanga uyot.

Ma'yus o'lma, ey millat, bo'lma navmid ham diqqat,
Savq et ilma avloding, g'ayrat qil, chekma g'urbat.

Ag'yor – olim biz nodon, barcha – ruhlik, biz bejon,
O'zgaga dunyo bo'ston, bizlarga zindon Hijron.

BAHOR

Ko'nglum xush erdi mavsumi fasli bahordan,
Bodi sabo keturdi xabar vasli yordan.
Tab'i tabiat aylamish atrofni sabzazor,
Rashk aylayurdi Bog'i Eram bu diyordan.
Bir yonda gul-chechaklar otub, tebranur chaman,
Bir yonda bulbul oh chekur intizordan.
Bir shavq xush latofat ila kelturur nasim,
Bir qo'quni chamandan va bir lolazordan.
Boq diqqating-la bir gula, bir sarv-u sunbula,
Och ko'zlariningi, qilma gina ro'zgordan.

Ag‘yoring oldi gulni gulobin terib-terib,
Gulshan xazona do‘ndi tushub e’tibordan.
Na sanda yora mayl, na vasl uchun havas,
Chek allaringni emdi bu zavq-u ixtiyor dan.
Avvalda sanda bor edi ilm-u funung‘a ishq,
Shimdi iborat o‘lding u eski mazordan.
Ko‘b yotma, qotma, ista visoli jamoli yor,
Bo‘lma bahor so‘ngida Hijroni zordan.

O‘Z MAISHATIMIZDAN

Ko‘b qiziq bul jahonning savdosi,
Ko‘rinur rang-barang tamoshosi.
Har yera borsa, so‘zi maqbuldir
Kimni bor bo‘lsa nuqra-tillosi.
Gar faqir o‘lsa, ochligidankim,
Bo‘limg‘ay boyni zarra parvosi.
To‘y qilib, osh berur g‘aniylarga,
Kambag‘al kirsa, hayda-haydosi.
To‘n berur ag‘niyo-imomlarga,
Kambag‘al parcha nonni shaydosi.
Sarf etar to‘yga pulni ming-minglab,
Yo‘q xayolinda maktab inshosi.
Ilm uchun pulni ko‘zлari qiymas.
Kim bilur, bormi, yo‘qmi foydosi?!

Jumlesi boyni so‘zini aytur,
Xohi eshon-u, xohi mullosi.
Ilmdan istasang, nishon yo‘qdur,
Boshida bor qozoncha sallosi.
Xalqqa bir pulcha qimmati yo‘qdir,

Har kim(n)ing bo'lsa ilmi-donosi.
Tong otur – kun botur – o'tar davron –
Yo'qtur millatni zarra bolosi.
Har kishi o'z maishatin istar,
Kimga lozim malolni g'avg'osi.
To'g'ri so'z tuvg'onig'a yoqmaydur,
Bu so'zimdur zamon taqozosi.
Ko'rdimi parcha manfaat millat,
Ey, zamonning adibi a'losi?!

Jamiyat majlisina bormaslar –
Yo'qtur yog'li palov, nishollosi.
Ey ko'zum, qon to'k, og'la, Hijron bo'l,
Ishda millatga buldur avlosi.

MAISHATIMIZDAN BIR MANZARA

Ko'b vaqlar uxladuk, emdi turayluk,
Tong otdi, uyqudan ko'zni yirayluk.
O'tmasun vaqtimiz, ilma yurayluk,
Tezgina ilm(n)ing uyiga kirayluk.
E millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Tangrimiz farz qilmish bizga o'qurni,
Ko'bimiz bilmasmiz o'qur, yozurni,
Biz yaxshi ko'ramiz uxlab yoturni,
Boshqalar o'qutur gung-u so'qurni.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Umrini sarf etmis ilma bobolar,
Chekmishlar ilm uchun jabr-u jafolar,
Bizlar ham bo'lmayluk baxti qarolar,
Bitsun, yo'q o'lsun bu kayf-u safolar.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Bobolar qilmishlar ilma shitob,
Yozmishlar qancha hisob-kitob,
Solmishlar maktab, madrasa, mehrob,
Bizlar yotarmiz o'qumayin uxlab.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Oz bizda yaxshi tartiblik maktablar,
Yo'q bizlarda ilma jiddiy talablar,
Otalar ilma pul bermas – yer gaplar,
To'ylarga oqchalar necha ming sarflar.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

O'zgalar ittifoq, bizda xiyonat,
O'zgada ilm olmaq, bizda jaholat,
O'zgalarda g'ayrat, bizda atolat,
O'zgada iqtisod, bizda safohat,
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Dinimiz man' etgan kishi haqin yerdan,
Biz hazar qilmaymiz haqqing yo'q derdan,

Pul desa qattig‘miz tosh-u temirdan,
«Ol» demak yoqadir, bezormiz «ber»dan.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog‘i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog‘i.

Har yerda ko‘chdi juhudlarga savdo,
Bizlara hovli sot, bog‘ni sot, yallo,
Ilmsiz har bir ish oxir vovaylo,
Och ko‘zni, ey Hijron, ilma bel boylo.
Ey millat, uxlama, ilm olur chog‘i,
Har millat ilm oldi – yondi chirog‘i.

O‘Z MAISHATIMIZDAN

Arbamiz g‘ildiragi uch gaz-u g‘ildir-g‘ildir,
Olti botmon yuki birlan qiladur pildir-pildir.

Millat avlodi hama arbakash va hammollar –
Afti angori qaro, kiygani – juldur-juldur.

Boshqalar ilm-u hunar soyasida yaxshi yashar,
Ilmsiz faqri zaruratga biz(l)ar quldur-quldur.

To‘ldi tobe’lig‘imiz Rusiyaga ellik yil,
Bilmayin rus lisonin, ko‘zimiz mo‘ldur-mo‘ldur.

Biz qachon ajratamiz foyda birlan zararni,
Lof, yolg‘on gap-so‘zda qilamiz guldur-guldur.

Kimga o'g'lingni o'qut ruscha – desang, yoqmaysan,
Ruscha bilsa buzilur der, vaji buldur-buldur.

Samovarga chiqishub yosh-qari chuldirashur,
Ertadan kechg'acha choyni ichadur sho'ldur-sho'ldur.

O'lturub maqtashadur otini, eshshaklarini,
Biri der: yo'rg'a, biri der, meniki – duldur-duldur.

Uyda och o'lturodur xotuni, er to'kma yeyar,
Kelturub bachcha, bazmlarga ketar puldur-puldur.

O'ynabon qarta-qimor, pullarini boy beribon,
Tom teshub, bo'g'cha o'g'urlab, odam o'ldur-o'ldur.

So'z quruq bo'lsa, kishining qulog'iga yoqmas,
Osh berub, to'n berubon qo'ynini to'ldur-to'ldur.

Muncha behuda tutoshub qizishursan, Hijron,
Elga ohing asar etmas, o'tuning ho'ldur-ho'ldur.

SAFOHAT¹ – AYNI FALOKAT

Safohat ofati jondur jahonda,
Safohat bizdadur ushbu zamonda.

Yuqumlik bir marazzandur safohat,
Yuqub, andan tug'ulur har falokat.

¹ Safohat – nodonlik.

Safohat mahv etar umring, hayoting,
Umid etma safohattan najoting.

Safohat aylagay molingni toroj,
Bo'larsan oxiri nomarda muhtoj.

Beribdur Haq senga juz ixtiyori,
Rizo ermas buzuq koringga bore.

Aziz umringni g'aflatda kechurma,
Safohat jomini nafsa ichurma.

Shariat yo'lida qil istiqomat,
Safohat oxiri hasrat, nadomat.

Dushun joni azizing, ehtiyot et,
Musaffo bo'l, pay(g')ambar ortidan ket.

Safohat o'ylama oromi jondur,
Butun vijdon ila jonga ziyondur.

Faqirlikni pula sotub olursan,
Dushungil, dushmanan muhtoj qolursan.

Safohat dushmani nomus-u sha'ning,
Buyuk bir ofati ruhi ravoning.

Qabohatdur, safolatdur safohat,
Na Hijronlig' falokatdur safohat.

NIMA KIMNIKI?

Xo'ja xor-u so'z hama bandoniki,
Oqcha pullar sohibi jandoniki.
Nega xomush o'lding, ey ahli xirad,
Bo'ldi dunyo kori sharmandoniki.
Shirkat aylab, arbakash ham bo'lmaduk,
Har kuni minglarcha so'm ko'nkoniki.
Nasya olub sut ichadur bizni xalq,
Maska, qaymoq fabrik-u bankoniki.
Bo'lmasa moyi g'ijirlaydur o'qi,
Barcha ishning mehvari tangoniki.
Gar faqir o'lsang, demas holing nadur?
Mehribonlig' oltin-u dengoniki.
Eski to'n bo'lsang, bo'lursan xor-u zor,
Izzat-u hurmat to'ni yangoniki.
Ilmdan boylik yuqorida turar,
Suhbat-u majlis siliq salloniki.
Ilm uchun bir pulni qiymas ko'zlari,
Resto'randa tangalar yalloniki.
Chashmimizni bosdi g'aflat pardasi,
Tinch-u rohat ko'zlari binoniki.
Soddalik bozori bo'ldi xo'b kasod,
Sud qilmoq mahkam-u dononiki.
Kamchilikni nazm ila taqdim etar,
Ishda bu Hijron degan ustоники.

TO'RTINCHI JUZ¹

*Xomam to'kiyur xuni jigardin g'azaliyot,
Oyinayi har millat erur til-adabiyot.*

BIR-IKKI SO'Z

Alloh-al hamdu vab-l-mirahi, ban o'z qalamim ila nashr o'linan «Adabiyot» ismli milliy she'rlar majmuasining to'rtinchchi juz'ining matbuot olaminda jilvagar o'lmosg'ina muvaffaq o'ldum. Muhtaram millatparvar muallim afandilar va adabiyot muhiblari banim nochizonalarimi iltifotsiz qoldurmadijar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalina kiritub, maydoni ta'lima qo'ydilar. Ulardan boshqa o'z qalamim ila maydoni matbuotda jilvagar o'lan «Birinchi muallim», «Ikkinci muallim», «Adabiyot», «Turkiy guliston», «Tarixi anbiyo» ismli asarlarim maktablarda o'qulmoqda. Millat bolalari banim bu asarlarimdan istifoda qilmoqda ekan, banim bu xususdagi g'ayrat va jasoratim daho ziyoda o'limg'a boshladi. Inshoollo, tezdan dilimda xat tortilmish yana bir necha asarlarning matbuot vositasi-la qoriyi kiromlarning anzor²i oliylarina taqdim qilmoqg'a bandani majbur qildi. Tabiiy o'lan nuqson va kamchiliklarimi tanbih va tanqid qilmaqda himmat va marhamatlarini bandadan darig' tutmasalar edi.

*Cholishmoq bandadan, tavfiq³ Allohdan,
Oynasi ishdur kishining, lofa boqilmas,
Shaxsining ko'rinxur rutbasi, aqli asarindan.*

Toshkent, Abdulla Avloniy, taxallus
«Hijron».

¹ 1916-yilda G'ulomiya matbaasi (Orifjonov litografiyasi)da bositgan. Noshiri: Maktab kutubxonasi.

Ayrim qisqartirishlar bilan e'lon qilinmoqda.

² Anzor – nazarlar.

³ Tavfiq – yordam, madad.

HAMD

Hamd o'lsun, ey Xudoyo, senga beadaad sano,
Odamni aylading qora tufrog'din bino.

Ko'kda malaklar arzi ubudiyat¹ing qilur,
Yerda qilur ibodating insonlaring ado.

Qudratlaringni hech yeriga aql erishmagay,
San'atlaringdan ojiz erur fahm, ey Xudo.

Sun'ing bahoridin o'sadur bog' aro chaman,
Rayhon-u sunbul-u gul-u ra'noyi jonfizo.

Tushmish dimog'i bulbula gulning muhabbatı,
Shom-u sahar gul ishqida bulbul qilur sado.

So'ylar shakaring ishqida to'tiyi bezabon,
Qumrini qaydi dom qilan dona bebahō.

Har zi² vujuda nafs ver-u bas, hayot ichun,
Har zi hayot nafsi ichun jon qilur fido.

Ag'yora verding ilm-u funun ishqini o'zing,
Biz ersa barcha johil-u nodon, benavo.

Do'sting habibi sayyidi muxtor hurmati,
Ummatlarini xobi kasolatdin et judo.

Yo, Rab, g'arib millati hushyor ayla deb,
Hijron quling ko'tardi qo'lin aylab iltijo.

¹ Ubudiyat – bandalik, qullik.

² Zi – tirik, jonli.

NA'TI HAZRATI RASULI AKRAM

Qur'oni karim nozil edub bizlara Xoliq,
Vahyi ila yubordi oni payg'ambara Xoliq,
Amr ayladi bizlarga amal qilmag'a Xoliq,
Ko'ndirdi rasulini bu ummatlara Xoliq.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Biz ummat erur senga, ayo sayyidi barno,
Payg'ambarimizsan bizi, ey gavhari yakto,
San ikki jahon boisisan, xojayi «Toho»,
San birla, ajab, topdi sharaf Yasrib-u Batho.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Bir shar'i sharif ummat uchun aylading ehson.
To ro'zi jazo joridur ahkomi farovon,
Ey ummi laqab sohibi donandayi Qur'on,
Kim zikr eta(r) nomingni mukammal o'lur iymon.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hодиyyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Olam hama gumroh edi, san rohbar o'lding,
Oyni bir ishorat edubon ikkiga bo'lding,
Ummat g'amida shom-u sahar qayg'uga to'lding,
Lolo gulini olama nashr etding-u so'lding.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hодиyyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Ul kunki, chiqib arshi mualloni yorutding,
Lavh-u qalami kursi-yu zeboni yorutding,
Ul jannati firdavsi musaffoni yorutding,
Shams-u qamar-u manzili ma'voni yorutding.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hодиyyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Haq verdi senga chun sharafi xilqati lavlok,
Gardi qadaming birla muattar edi aflok,
Rizvon-u malak husniga ahsan dedi, ey pok,
Avsosingi mingdin birina yetmagay idrok.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Dunyo ko'zi hech ko'rgan emas san kabi ustod,
Faqr ahlini ko'nglini qilurding hama vaqt shod,
Ey durri yatim, olama verding go'zal irshod,
Chin hurriyat erdi u zamon, har kishi ozod.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Ey qiblayi olam, san eding rahmati ma'bud,
Bu dini mubin o'ldi vujuding ila mavjud,
Sonsiz salovat o'lson, ayo Ahmadi Mahmud,
Hijronlari mahsharda shafoatga choqir zud.

Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad,
qurban anga ummat,
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

ADIBI SHAHIR¹ ISMOILBEK RUHINA

Ey millatning bobosi, buyuk nuktadon eding,
Millatni holina dushunon tarjimon eding,
Erding adibi komil-u sohibi lison eding,
Islom olamina go'zal mehribon eding,
Millat ishina hab² cholishub ishlagon eding,
Haq rahmatiga loyiq-u jannatmakon eding.

To'lsun xudoni(ng) rahmatiga marqading seni(ng),
Do'nsun saroyi mag'firatga masnading seni(ng),
O'zgarmadi o'lancha go'zal maslaking seni(ng),
Savq etdi ilma bizni butun g'ayrating seni(ng),
Asling qrimlik erding, ulug' zodagon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Har jonga soldi hasrat ila ya'sa motaming,
G'ayb etdi shonli bir kishin Islom olaming,
Dunyodan uchdi oxirata ruhi purg'aming,
Bo'lsun behishtda hur ila rizvon hamdaming,
Millat ishida qartayubon charchagon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

¹ Shahir – mashhur.

² Hab – dona.

Dunyoga sencha dohiyi donanda¹ kelmagay,
Faryoda sencha bulbuli xonanda kelmagay,
Sandek fatonat ahli, metin banda kelmagay,
Fi'ol ichinda sen kabi bofanda kelmagay,
Bizlarni nuri ma'rifata boshlagon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Ey sohibi lison, fasohatlu, ey najib!
Ustoz eding, muallim eding, bizga, ey adib!
Notiq eding, muharrir eding, eng buyuk xatib,
Nutqingdan o'ldi millating afrodi benasib,
Obi hayot barcha labi tashnagon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Dunyoga kelsa har kishi, bir kun qilur safar,
Har jism o'lur jahonda fano, ishta nomvar,
Lekin seningcha sha'n ila ketmoqg'a kim yetar?
Maydoni ma'rifatda topar sancha kim zafar?
Erding g'ayuri Rustami Islomiyon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Dunyoda har kim ishlasa, xayr ishta nom olur,
Olamda qancha yurdimi, eldan salom olur,
Dunyodan o'tsa jismi ketar, ismi kom olur,
O'lgan so'ng anga har kishi tilga kalom olur,
Ustodi xalq, davlata sohibnishon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Ayt hasratingni emdi huzuri payg'ambara,
Chekg'on g'amingni so'yla u hodiyi akbara,

¹ Donanda – bilimdon.

Bizdin shikoyat ayla borub ruhi sarvara,
Bir nutq so'yla bizdan o'shal shohi rahbara,
So'z so'ylamoqg'a notiq-u hab qahramon eding,
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

HOFIZDAN

«*Bayoti Sheroz*» kuyiga¹

Yetushdi mujdaki, qayg'uli kunlaring qolmas,
Ulayda qolmadig'idek bulaydag'i qolmas.
Agarchi man nazari yora xoksor o'ldim,
Raqibim manga o'xhash shod o'la qolmas.
Ko'tarsa bayrog'ini, ursa xanjari birlan,
O'y-u uyi ichra turgan bir kishi omon qolmas.
Faqirlaring dilini ovla, qo'lga ol, ey boy,
Xazina-yu zar-u oltun, kumushlaring qolmas.
Senga g'animat, ayo sham'i vasl-u parvona,
Bulay muomalangiz subhidamgacha qolmas.
Xabar keturdi farishta u olami g'aybdan,
Kishi karam eshikida umidsiz qolmas.
Ravoq uzra zabarjad² bila yozilmish bu,
Karam egasini ehsonidan bo'lak qolmas.
Bu so'zni Jamshid u bazminda shod o'lub dediki,
Ketur piyolada mayni, ki Jomi Jam qolmas.
Shikoyating yeri ermas, yozilgani bo'ladur,
Kishi hamisha giriftori g'am bo'lub qolmas.

¹ «Devoni Hofiz»dan tarjima. Milliy kuylarimizdan biri «*Bayoti Sheroz*» kuyidirkim, kuy shundan iboratdir:

Rasid mujda, ki ayyomi g'am naxohad mond,

Chunon namondu chunin niz ham naxohad mond (Avloniy izohi).

² Zabarjad – qimmatbaho tosh.

Nigor mehr qo'yar deb, tama' qi(l)ma, Hofiz,
Nishoni mehr yo'qidek sitamlari qolmas.
Falakni ters ketar deb bo'limgil Hijron,
Ki bizni ezgani birlan o'zi-da sog' qolmas.

HOFIZDAN TARJIMA

Tanbur, dutor, angla, na taqrir qilurlar,
Avloqda iching ichkuni, takfir qilurlar.
Ushshoqlaring pardasini ishq o'zi yirtar,
Yoshlarni, qarilarni-da tahqir qilurlar.
Dilda xiralikdan bo'lak ish hosili yo'q-ku,
Yanglish bu xiyolindaka dilgir qilurlar.
Derlarki, eshitma, dema ham ishq ramuzin,
Qandoqcha qiyin qissani ta'bir qilurlar.
Tashvishga solub vaqtlarim may ko'tarubon,
Hilvatda ko'ring, pir-murid «gir» qilurlar.
Yuz mulk dili yorti boqishda olinurkan,
Bu to'g'rida xo'blar nega taqsir qilurlar.
Biz hiylasiga aldanubon tashqari qolduk,
Ichkarida onlar nima tadbir qilurlar.
Bir firqa e(y)tar: «Sa'y-u jadal vasla yeturgay»,
Bir firqa buni «soyayi taqdir» qilurlar.
Birdek turajak dermusen ahvoli zamonni,
Bu ishxonani har kuni tag'yir qilurlar.
Mayni ichaver! So'fi-yu shayx, mufti, raislar,
Diqqat ila boq! – Hammasi tazvir qilurlar!
O'ylab ko'r o'zing, ichkulik ig'vegaga sabab, chun,
Shore'larimiz bizlari tanfir qilurlar.

RO'YO

U kechakim shabi torik qildi istilo,
Bu sahnada ko'rinur bango bir ajib ro'yo.
Jahon yuzini bosib qirmizi qizil to'fon,
Faje' qo'qusi vordurki, jirkanur inson.
Vabomi, qahr-al-haymi ne balo, bilmam,
G'azabmi margi mufojatmi – daho bilmam.
Faqat ko'ngul mutaraddud, puriztirob, malul,
Qilur faje' bu shabni qachon sabohi halul.
Sukut ichinda shu qon-jona aylayur yilon,
Farroshi xoba chekilmakda xalq bepoyon.
Nadur bu ma'raka maydonidur baloyi hayot,
Shu sahna fojiasidan bo'lurmi favzi najot.
Qilur shu dengiza inson o'zini parvona,
Kechub o'g'il-qizidan, boqmayur pul-u jona.
Bunga zamon hukamosi topolmayur chora,
Butun jahon bu kechik tongi birla ovora.
Bu zulmat ichra judo necha xonumonindan,
Bu charxi kajrav o'tonmazmi imtihonindan.
Shu asr emish madaniyat, shu – davr emish go'yo,
Jahon ichindagi insoniyat, emish ro'yo.
Saboh umidida seskandim uyqudan, Hijron,
Tushummi yoki xiyolimmi, bilmazam, al-on.

QIMORBOZNI(NG) QIMORBOZGA NASIHATI

Bandi bo'lsang yutquzub, beorman, deb yig'lag'il,
Cho'ntagimda bir pulim yo'q, zorman, deb yig'lag'il.
Volidangni paxtasini ur, qimorga boy ber,
O'g'risan deb ushlasa, nochorman, deb yig'lag'il¹.

¹ Bu ikki bayt xalq adabiyotidan olinib yozildi.

Ertadin axshomg‘acha o‘ynab yurugil bemalol,
Kechqurun osh vaqtida tayyorman, deb yig‘lag‘il.
Yaxshilikg‘a undasa har kim seni, solma quloq,
Man nasihat ahlidin bezorman, deb yig‘lag‘il.
Ishlasang bo‘lmaydimi, kuch-quvvating bor-ku desa,
Sog‘ emasman, bequt-u bemorman, deb yig‘lag‘il.
Ko‘kraging zaxga berib yotgil, yoqongni chok etib,
Tur bolam, – desa onang, uxlorman, deb yig‘lag‘il.
Gar yomonlar suhbatig‘a chorlasa, tayyor bo‘l,
Yaxshilar yo‘qlar esa, murdorman, deb yig‘lag‘il.
O‘ynama, o‘g‘lim, qimor, deb yig‘lasa, Hijron, onang,
O‘rganib qoldim netay, xummorman, deb yig‘lag‘il.

ARZIMAS

Ayo g‘ofil, jahon ayshi bag‘ir qoningg‘a arzirmu?
Esiz umring jaholatda yegan noningg‘a arzirmu?

Ulum-u tarbiyatdan bexabar avlodning, ey g‘ofil,
Qilan to‘y-u tamoshong xonavayroningg‘a arzirmu?

Bu dunyo ayshiga bor-u yo‘qingni sarf qilg‘aysan,
Qaro yer ostiga kirganda armoningg‘a arzirmu?

Xayol-u xotiringda benavolarga muruvvat yo‘q,
Xasislikda kechan holi parishoningg‘a arzirmu?

Urug‘-tuvg‘onlaringni barchasi sendan emas xushnud,
Bu yanglig‘ mehrsizliq bag‘ri so‘zoningg‘a arzirmu?

...¹ jam' qilg'on shaylaring go'r og'zida qolgay,
Saxovatsiz, muruvvatsiz keden joningg'a arzirmu?

Qolur dunyoda moling, san ketarsan dori uxro²ga,
Saxiylar oldida qilgan pushaymoningg'a arzirmu?

Ish o'tgan so'ng pushaymon, ey birodar, kor qilmaydur,
Chekib hasrat-nadomat, oh-afg'oningg'a arzirmu?

Bilursanmi, san ul qavmi najib islomiyonsankim,
Sahoyif birla dunyo to'lsa Qur'oningg'a arzirmu?

Adolat, to'g'rilikni amr etar Qur'onimiz bizga,
Dushun, kin-u adovat nuri iymoningg'a arzirmu?

Chiqib «Al mo'minuna uxuvvat»dan maslaking, yohu,
Oyil, do'stim, fano ish poki vijdoningg'a arzirmu?

Qani ulfat, qani ixvat, qani haqdin kel(g)an farmon
Qani bizlarda omil, dog'i Hijroningg'a arzirmu?

HAQIQAT O'LSUN BU XAYOL

Keling, ey do'stlar, kayf-u safoni tashlamaymizmu,
Jafosiz dunyoda mehr-u vafoni boshlamaymizmu?!
O'tar dunyo, ketar dunyo, qolur ko'nglingdagi armon,
G'animatduri, azizim, umrimiz, ish ishlamaymizmu?!
Aromizda bizim ishchi kishining qiymati yo'qduri,
Boqib insof ila ishlovchini olqishlamaymizmu?!

¹ O'qib bo'lmadi.

² Dori uxro – oxirat hovlisi.

Bizim avlodimiz ham ilm-u urfon bilsun, o'rgansun,
Yetar g'aflat, yetar zillat binoni xushlamaymizmu?!
Fununi ilmsiz dunyoda turmog'liq mahol-alhol,
Bu kundan ibtido nur-u ziyoni ushlamaymizmu?!
Kelur bir kun ajal bodi, xazona do'ndirur umring,
Aziz jondan aziz avlodimiz bo xushlamaymizmu?!
Jahon bozorida, afsus, tushdik qadr-u qimmatdan,
Jaholatdan kechub ilm o'yini og'ushlamaymizmu?!
Yetar oh-u fig'on, Hijron, yetar bu xobi bepoyon,
Oyilmoq vaqtidur, g'aflat boshiga mushtlamaymizmu?!

KERAKMI YO KERAKMAZMI?

Senga, millat, bu kunda ilm ila urfon kerakmazmi?
Jaholat illatig'a sa'y ila darmon kerakmazmi?

O'g'ul-qizni o'qutmasdan ketarsan dunyodan g'ofil,
Qaro go'rda duoyi xayr ila Qur'on kerakmazmi?

Xudo amrin qo'yub hab ishlayursan turfa isyonlar,
Bihisht-u kavsar-u diyord il rizvon kerakmazmi?

Hayotingda havo birla havas yo'lini izlarsan,
Fatir-u benavoga xayr ila ehson kerakmazmi?

Qo'lingdan kelsa, o'z dindoshlaringg'a berasan ozor,
Muruvvat sanda yo'q, insof ila vijdon kerakmazmi?

Jadal birla jahonda ishla, sandin o'zga xayr olsun,
Ki, har bir ishda, jonom, pul ila javlon kerakmazmi?

Ziroat ishlarida nega bizlarda havas yo‘qdur,
Bu dunyo ziynati-chun bog‘ ila bo‘ston kerakmazmi?

Jahonda bormi bizdek ilmsiz, johil qolan millat,
Parishon holimizga, oh ila afg‘on kerakmazmi?

Dilo, tokay yotarsan xobi g‘aflat yo‘rg‘oni uzra,
Bilimsiz o‘tmish umring dog‘ ila Hijron kerakmazmi?

MUSTAHZOD

Hasrat ila har shab ko‘ruram uyqudan ozor,
yo, Rab, bu na kirdor!

To subha qadar to‘lg‘anuram misli kasal, mor,
bilmam, bu na asror.

Yonub, yiqilub, goh turib, goh o‘tirurman,
g‘amlarga boturman.

O‘rtab yonuram har kecha parvona kabi zor,
man bekas-u beyor.

Borgan sari chulg‘or bani avhomi xayolot.
Tangrimg‘a munojot,

Bu dard-u alamlar qiladur uyquni bedor.
ko‘b qayg‘ularim bor.

Qonlar yuturam, xobi xayolimdan o‘tondim,
jonimdan o‘sondim,

Yalg‘on ulamolardan o‘lubman juda bezor,
shayton kabi makkor.

Insof ila vijdondan uzog‘ ko‘ngli qarolar,
ul so‘finamolar,

Kofir qimog‘a muhri ani yonida tayyor,
tasbih sanar ayyor.

O‘z nafsi uchun o‘zgalari qilmada qurbon,
qani axvat so‘zi – Qur’on,
Dindan xabari yo‘q sonur, ul o‘zini dindor,
ul mo‘mini jindor.
Naqdinayi jon hadyayi haqqoniyat o‘lsun,
ig‘vochi yo‘q o‘lsun,
Bizlarda qachon bo‘lg‘usi o‘z aybig‘a iqror,
tokayg‘acha inkor.
Hosil haq-u haqqoniyat ahli topilurmi?
yo tug‘ilurmi?!
Hijronlaring ahvoldidan Ollo xabardor,
Haq o‘zi g‘amxor.

FALAK BIZNI NALAR QILDI?

Falak motamsaro ko‘zyoshimizni qona do‘ndurdi,
Muruvvatsizlig‘i-la bag‘rimiz bir yona do‘ndurdi,

Biza g‘amxona qildi bu Vatan tufrog‘ini holo,
Bo‘laklarga maishat yo‘llarin osona do‘ndurdi.

Funun-u ilmdin zolim falak bizlarni dur aylab,
Butun avqotimizni xayr ila ehsona do‘ndurdi.

Shikoyat aylasam joiz bu kajrav gardishindankim,
Hayoti umrimizni besar-u somona do‘ndurdi.

Nalar qildi jahonda bizni beparvo falak makkor,
Farog‘at ayshimizni oh ila afg‘ona do‘ndurdi.

Na ilma bizda rag'bat, na fununa yo'q havas bizda,
Halovat huzrimizni hasrat-u armona do'ndurdi.

Faqirlikg'a boturdi, oshimizda qolmadi lazzat,
Palov, norinlarimiz qoqshagan qoq nona do'ndurdi.

Kasolat dardiga chandon bizikim mubtalo qildi,
Salomat-sog'lig'imiz bedavo darmona do'ndurdi.

Biza ozor vermakdin soqinmaz, rahmi kelmazmi,
Umid-u orzumiz(ni) dam-badam Hijrona do'ndurdi.

TA'RIFI GUL

Xor alindan bag'ri qon o'l mish, bo'yan mish, qona gul,
G'uncha bag'rin chok etub, afg'on qilur afsona gul.

Elni gulg'a rag'bat chekg'on azobindan kelur,
Ul tikan dastida yon mish otashi so'zona gul.

Yuzdag'i xoli emas – zolim tikonning yorasi,
Kecha-kunduz zaxmi g'am birlan butun o'rtona gul.

Gulni gul dermu kishi gulning tikoni bo'l masa,
Oning uchun loyiq o'l mish izzat-u ehsona gul.

Subhidamda yuzlaridan mavj uran shabnam emas,
Xor zulmidan to'kar ko'zyoshini durdona gul.

Kimki hamdam bo'lsa noqobil bila zahmat chekar,
Bemuruvvat xor alindan har taraf to'lg'ona gul.

Gar sabo tebratsa gulni, xush isi nevchun chiqar,
Bag'riga botgan tikonlardan kelur afg'ona gul.

Naylasun bechora gul, bot mish vujudiga tikon,
Zaxmiga marham uchun yaprog'iga chulg'ona gul.

Dildagi qayg'ularin ko'rganmusiz chun za'faron,
Chok etib g'urbat yaqosin ko'rsatur insona gul.

Qadrini bilmas kishilar so'ldurur gul yuzlarin,
Tushmasun johil qo'liga, bitmasun nodona gul.

Hosili bechora gul, ovora gul, aftoda gul,
Oxiri so'lgay yuzi g'am bodi-la Hijrona gul.

HIJRONI BULBUL

Bahor o'lsa, shabi hijron hamisha zor o'lur bulbul,
Gulining ishqida faryodi xushguftor o'lur bulbul.

Nidoyi jon fizosi aylayur dil g'unchasini chok,
Muhabbat soyasida jonidan bezor o'lur bulbul.

Xudodan boshqa yo'q bechoraning bir voqif asrori,
Bo'lur noloni giryon, hajr ila bemor o'lur bulbul.

Yemoq-ichmoq butun yodig'a kelmas yoridan boshqa,
Tutar doim o'tar ro'zaki, beiftor o'lur bulbul.

Kamoli ya'sidan, bekaslig'indan oh-zor aylar,
Umid andin uzub, ummidi g'amga yor o'lur bulbul.

Nechun g'amga giriftor o'ldi, bulbul bag'ri qon o'ldi,
Jazosi shul: gul istab moyili gulzor o'lur bulbul.

Vatandan, xonumonindan yo'q oni zarra parvosi,
Bo'lib sho'rida shaydo masti behushyor o'lur bulbul.

Qachon gulni uzub, sotmoq uchun band aylasa gulchi,
Tushub sayyod alina, tolibi mozor o'lur bulbul.

Bo'lurman gulg'a hamdam deb, o'zini bog'latur doma,
Fidoyi jon etar mushtoq chin diydor o'lur bulbul.

Kecha-kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,
Omon bermas anga zolim qafas, ozor o'lur bulbul.

Taajjub, rahm qilmas, yetmayur faryodina hech kim,
Bu Hijronlig'da doim g'am bilan g'amxor o'lur bulbul.

JOHIL NA BILUR

Bilmagay johil jahonda lazzati dunyo nadur,
Balki, bilmas, anglamas, dunyo nadur, uqbo nadur.
Oh-u faryod-u fig'oni injitodur o'zini,
Bilmayur dunyoga qilmoqdan quruq g'avg'o nadur.
Faqr-u g'urbatdan shikoyat aylayur sa'y etmayin,
Kunchilik aylar bo'lakg'a, bilmas istig'no nadur?
Bilmagay tartib nadur, har ish qilur qilgay ziyon,
Olmoq-u sotmoq tijorat, bilmayur savdo nadur?
Ilmsiz o'sganlig'indan ilm qadrin bilmagay,
Xat nadur, yozmoq nadur, bilmoq nadur, imlo nadur.
Xor-u zor o'lgay hamisha boshqalarga qul bo'lub,
Mehnat-u g'am shu'lasiga ro'z-u shab parvo nadur.
Kulfati kun-kundan ortar, hech bo'lmaz rohati,
Qayg'u-hasrat otashiga yonadur, o'rtonadur.
Majlisi suhabatda bo'lsa bosh qoturg'ay so'zleri,
G'oyadan, maqsaddan o'lmas gaplari – afsonadur.
Yaxshi bo'lmaydur yamon hargiz nasihat aylasang,
Jahl g'avg'osi-la mag'rur, aqldan begonadur.
Jon nadur, jonon nadur, bilmam ziyon-u sudini,
Vodiyi hayrat aro bilmas g'ami fardo nadur.
Jahl agar jahli basit¹ o'lsa, davosi vordur,
Qolsa kim jahli murakkabda, dali devonadur.
Hosili, johi g'am-u anduhdan bo'lmas xalos,
Bilmayur rohat nadur, hasrat nadur, Hijron nadur.

¹ Basit – sodda, oddiy.

GUFTORI G'AM

Har kima ag‘yor bo‘lsa, menga xo‘b dildor g‘am,
Kecha-kunduz hamdamim, har yerda hamasror g‘am.
Shodlig‘ini naylaram, yo‘qtur vafosi bir zamon,
Qayda bo‘lsam birgadur, menga anis-u yor g‘am.
O‘yla xo‘qilmish banim-la, bir nafas ayrilmayur,
O‘zgaga ozor bo‘lsa, menga beozor g‘am.
G‘am boshiga kelsa g‘am, qayg‘ularin so‘ylar banga,
Kulbayi ahzonimi ravshan qilub, har bor g‘am.
Dahr bog‘ida bo‘lolmas hech kishi g‘amdan raho,
Har qay-u gul jismida bo‘lgay tizilgan xor g‘am.
Olim-u johil, faqir, shoh-u gado yaksonidur,
Boriga boricha g‘am, yo‘g‘iga yo‘qcha vor g‘am.
Hosili dunyoda g‘amsiz bo‘limgay Xizri hayot,
Har birin boshida bordur ming tuman osor g‘am.
Xoli ermas g‘am alindan har adib-u porso,
Istamas bo‘lsang-da oni ul seni istor g‘am.
Bir nafas mendan judoliqg‘a rizosi yo‘q ani,
Ketsa ham bir onda kelg‘ay qoshima takror g‘am.
Yondurar, ammo bu otashlar kabi yoqmas kishin,
Yo jahannam noridek mag‘z – ustixon o‘rtor g‘am.
So‘zlarim sizlarni Hijron etmasun deb qo‘rqaram,
Chunki doim men bila shom-u sahar g‘amxor g‘am.

JIGARSO‘Z

Har nafas dardi dilimdan dog‘i hijronim chiqar,
Chiqsa jonio qismidin, ko‘nglumdin armonim chiqar.

Siyayi so‘zonimi yorsa agar, boqsa tabib,
Shubhasiz, bag‘ri siyohimdan qalamdonim chiqar.

Ta’nayi insonlara bo‘lmish hadaf hijron dilim,
Har jarohat o‘rnidan bir ohi afg‘onim chiqar.

Oshinolig‘ ko‘rsatur qoshimda yuz nayrang ila,
Oshino zan etdikim, bir dushmani jonio chiqar.

Xanjari tildin dilimda yoralar turna qator,
So‘z emas, Hijron dilimdan tirqirab qonim chiqar.

Ey, adibo, yaxshi tadqiq aylangiz yozmishlarim,
Satrlarda qora ermas diyda giryonim chiqar.

Sahfalarda satr ulanmush xat(ti) holimdu yozuq,
Har parishon jumladin holi parishonim chiqar.

Gar hayoti jovidonim tan ila qilsa vido’,
Dildagi qayg‘ularimdan joni so‘zonim chiqar.

Zohido, tasbih o‘gurmam, san kabi istab behisht,
Dildadur diydori tildan zikri hamyonim chiqar.

Istasa Hijronlig‘img‘a har kishi mendan dalil,
Safhayi dilg‘a yozilmish to‘la burhon‘im chiqar.

¹ Burhon – hujjat, dalil.

MUNOJOT

Milliy kuylarimizdan «Segoh» kuyiga solinub yozildi.

Yo, Rab, tarahhum et biza, qilg‘il inoyati,
Bir sandin o‘zga millati yo‘qtur himoyati.

Tushduk baloyi g‘amga bilimsiz gado bo‘lub,
Avlodimizga dardimizning vor siroyat¹i.

Bo‘lduk faqir-u zor-u dilafgor-u notavon,
Nodonlig‘ ila jona yetushdik nihoyati.

Har darda bir davo bo‘la, har g‘amga intiho,
Yo, Rab, bu jahl dardini bo‘lg‘aymi g‘oyati.

O‘rnashdi bizda aqla sig‘ishmas xurofalar,
Kimdan erishdi bizlara yolg‘on hikoyati.

Qildin qiyiq topib bizim alloma-yu mullolar,
Muslimni kufrina topadurlar rivoyati.

Yo, Rab, bu mojarolara Hijron o‘lur ko‘ngil,
Sandin bo‘lakg‘a aylamak o‘lmas shikoyati.

¹ Siroyat – yuqish, ta’sir qilish.

QARS FALOKATZADALARINING HOLI¹

Ardahon, Qars boshiga keldi baloyi nogahon,
Qichqirub yosh-u qari faryod o'lub der: Al-amon!
Kimsasiz qolmish yetimlar yig'lab istar osh-u non,
Qaysi bir vijdon qilur toqat bu hola bir zamон,
Bo'lди hap vayrona Qars-u Ardahon,
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Necha modar jonidan – shirin bolosindan judo,
O'g'li ayrildi atodan, qiz anosindan judo,
Qiz-xotunlar nechasi iffat-hayosindan judo,
Och-yalang'och barchasi, zavq-u safosindan judo,
Bo'lди hap vayrona Qars-u Ardahon,
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Yetmadi zolim falak bechoralar imdodina,
Rahm-shafqat qilmadi ins-u malak faryodina,
Cho'q musulmonlar fido bo'lди ajal sayyodina,
Bizga vojib²dur ko'mak qilmak ular avlodina.
Bo'lди hap vayrona Qars-u Ardahon,
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Necha kun avval g'ani bir oila bo'lди safil,
Mol-u dunyo, mulk-u ashyo barchasi qoldi sabil,
Farcha non istab egur bo'yning bu kun xor-u zalil,
Vaqti imdod, ey Vatan ahli, vering, bo'l mang baxil,
Bo'lди hap vayrona Qars-u Ardahon,
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

¹ 1914-yilda Turkiyaning Qars va Ardahon shaharlarida yuz bergen yer qimirlash munosabati bilan yozilgan.

² Vojib – bajarilishi zarur.

Ey muruvvat ahli, imdod-u inoyat vaqtidur,
Oh, non deb jon otonlarga ionat vaqtidur,
Kimsasiz qiz-u juvonlarga muruvvat vaqtidur,
Tez yeting faryodina, eng so'ng zarurat vaqtidur.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Bu yoziqlar holina qaysi musulmon og'lamaz,
Bu fajoye' sahnani ko'rganda kim qon og'lamaz,
Bu musibat dog'ida qay ahli Qur'on og'lamaz,
Shuncha iymon ahli qurban, qaysi Hijron og'lamaz.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

O'Z AHVOLIMIZDAN

Bu Turkistonda zebo qir-u soy ko'b,
O'sumlik tufrog'i, keng, yaxshi joy ko'b,
Sigir, qo'y, ot-u teva birla toy ko'b,
Qimiz, qaymoq, qatiq va et-u moy ko'b,
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b¹,
Hisobin bilmagon bema'ni boy ko'b.

Pulin sarf aylayur to'y-u azoga,
Yo'q-u bori ketar bod²-u havoga,
O'qurman, desa, pul bermas bologa,
Davo bormi bu dardi bedavoga?
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Havosi qarzdordek zor yig'lar,
Ekinsiz yer yotib bemor, yig'lar,
Guliston bog'larida xor yig'lar,
Bilimsizlar ishi dushvor, yig'lar.
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Ko'zi qiymas maorif yo'lig'a pul,
Bu Turkiston elining odati – shul,
Bu turmush, bu yashovni boshig'a kul,
Biluvchi bilmaganni aylagay qul,
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

¹ Jargonda «loy» pul demakdir.

² Bod – shamol, yel.

Xarojotdin qochur boddek g‘izillab,
Kela bersa, to‘da yoqdan sharillab,
Qo‘lidan uchmadi bir pul pirillab,
Chiqim hech bo‘lmasa, kelsa g‘irillab.
Bizim Toshkand elinda oncha «loy» ko‘b,
Hisobin bilmagan bema’ni boy ko‘b.

Yetim-u beva-yu bechoralarni,
Dilin shod aylamas aftodalarni,
Vali derlar bo‘sang-u sodalarni,
Koyirlar ilmlik ozodalarni.
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko‘b,
Hisobin bilmagan bema’ni boy ko‘b.

Terak yafrog‘idek titrar bizi xalq,
Qochar, qo‘ydek avodisdan bizi xalq,
Ilmsiz, tarbiyatsiz – po‘k, bizi xalq,
Yuraksizlik bilan Hijron bizi xalq.
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko‘b,
Puli ko‘b, aqli kam bema’ni boy ko‘b.

«MARDIKORLAR ASHUVLASI»DAN¹

BIR MARDIKORNING OTASI O'G'LIGA AYTGAN SO'ZLARI

Qancha mehnatlar bilan, o'g'lim, sani boqg'on edim,
Man sani deb g'am o'tiga jonimi yoqg'on edim.

San ketarsan, man qolurman ko'zlarim giryon bo'lub,
Bu judolig' otashiga o'rtanub, biryon bo'lub.

Dastyorim, hamdamim, oromijonim sen eding,
Belginamning quvvati, ruhiravonim sen eding.

Naylayin, ketding qoshimdan, qoldim emdi ayrilib,
San ketarsan, man g'aribga kim boqodur qayrilib?!

Qo'lda kuch-u belda quvvat, tanda darmon qolmadi,
Ko'zda nur-u boshda aql-u saru somon qolmadi.

Har g'amining poyoni bordur, har alamning oxiri,
Shodlikg'a aylonodur har fig'onning oxiri.

G'am yema, o'g'lum, qaro kunlar ketub oq kun chiqar,
Yerga nam, qo'rquunch bulutlar daf o'lub, oydin chiqar.

¹ 1917-yilda Orifjonov litografiyasida bosingan. «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» majmuasining 6-juzi. Muallif shunday izohlaydi: «...Birinchi to'da mardikorlarni jo'natmoq uchun chiqishda yasalgan namoyishda Toshkentdagi teatruga maxsus «Turon» to'dasi tarafidan turli latif kuylarda o'qulgan edi. Ko'b kishilar iltimos qiluvi sababli jam' qilinib, nashr qilindi. Va boshqa bir necha shoirlarning yozgan she'rlari o'zlarining ruxsatlari ila ushbu adabiyotga ilova qilindi».

To'plamdag'i she'rlardan ayrim namunalar berilmoqda.

Haq taollo manga sabr-u sanga umr etsun ato.
Sog'-salomat kel Vatang'a, bo'lmasun o'rnung xato...

Bor, xudo yoring bo'sun, Ollog'a tobshurdum sani
Sog' borib kelg'il amon, mavlog'a tobshurdum sani.

Mehribonlardan ayilding, bo'lma Hijron, ey bolam,
Ham Vatandan ayrilib san diyda giryon, ey bolam.

1916-yil

ONASINING O'G'LIGA AYTGAN SO'ZLARI

Jon bolam, jonio bolam, Olloh sani yoring bo'sun,
Kecha-kunduz yo'lda-cho'lda Tangri g'amxorin bo'sun.

Man sani bag'rimga bosub o'stirib erdim, bolam,
Kim, qaro kunda boqarsan san mani derdim, bolam.

Oh, naylay, bo'shga chiqdi bu mani xush niyyatim,
San ketar bo'lding qoshimdan, kim qilur tarbiyyatim.

Naylayin, zolim falak ahvolima rahm etmadi,
Bu falakning davrida kimg'a judolig' yetmadi.

Ey bolam, naylay, judolig' o'ti bag'rim yoqadur,
Mehribonim, san ketar bo'lding, mani kim boqadur?!

Dilda sabrim, ko'zda yoshim, tanda jonio qolmadi,
O'rtanib yondim, qimirlashga majolim qolmadi.

Holi zorimkim nechuk kechg‘usi, sandin ayrilib,
Mohi solim qandoq o‘tgay, zor sandin ayrilib.

Hech qayg‘u yo‘q jahonda bu judolig‘din yamon,
San kulub o‘ynab yurursan, man bo‘lub rangi samon.

Naylayin man mushtipar, bechora baxti qoraman,
Kecha-kunduz o‘z gamim birlan o‘zim ovoraman.

Na qilay, bu ko‘bg‘a kelg‘on to‘y, mani choram nadur?
Man kimam? Bu oh-u voh-u nolayi zoram nadur?!

Chordevor ichra yotib, yig‘lab sani yod etaman,
Qismati haq shul ekan – man kimg‘a faryod etaman?!
Etaman

Ey bolam, mandin duodin boshqa yordam yo‘q sanga,
Qayda borsang, ikki enlik xat yozib turgin manga.

Yaxshi bor, jonim, bolam, kelg‘il qoshimg‘a ertaroq,
Qilmasun Olloh sani soyangni boshimdan yiroq.

Tez ko‘ray, jonim bolam, tezlikda diydoring sani,
Qayg‘a borsang haq o‘zi bo‘lsun madadkoring sani.

Ko‘b uzoq ketma, ishingdan bo‘sh bo‘sang, kel qoshima,
Rahm qil, jonim bolam, bu ko‘zdan oqg‘an yoshima.

Yig‘latub qo‘yma yo‘lungda zori sargardon qilub,
Tezgina kel qoshima, yurma mani Hijron qilub.

1916-yil

O'G'LINING ONASIGA AYTGAN SO'ZLARI

Volidam, Makkam, Madinam – mehribonim sen eding,
G'amguzorim, mushfiqim, oromijonim sen eding.
Ey, vujudimg'a sabab bo'lgan meni mushfiq onam,
Jismiming ruhi – hayoti, jovidonim sen eding.
Oq sutingga, oh, loyiq sanga xizmat qilmadim,
Marhami jonim, muhibbi xonadonim sen eding.
Boshingizdan, ey ona, parvonadek aylanmadim,
O'tanurding man uchun, sham'i shabonim sen eding.
Bu falak soldi judolig' boshimizga, ey ona,
Qayg'ulik vaqtimda kayf-u shodmonim sen eding.
Man ketar bo'ldim, qolursan ko'zlariningdan yosh oqub,
Man g'aribni katta qilgan posbonim sen eding.
Qo'ltug'ingda tarbiyat topdim, yashab, o'ynab-kulub,
Bilguchi dard-u g'amim, sirru nihonim sen eding.
Naylayin, emdi judolig' pora aylar bag'rimi
Zor Hijronlig' tunida oshiyonim sen eding.

1916-yil

XOTUNIGA AYTGAN SO'ZLARI

Yaxshi qol, ey munisi g'amxor, ko'rsam-ko'rmasam,
Ey ko'zimning nuri puranvor, ko'rsam-ko'rmasam.
Naylayin, soldi judolig' boshimizg'a kaj murod,
Zulfi sunbul, ko'zlar xummor, ko'rsam-ko'rmasam.
Ayshimiz gulzoriga o't tushdi barqi charxdan,
Ma'zuram man, ey guli bexor, ko'rsam-ko'rmasam.
Yolg'iz uylarda rafiqi mehribonim sen eding,
Yor-u jonim, hamdamim, takror ko'rsam-ko'rmasam.
Bul emas erdi umidim, boshima soldi qazo,
Sabr etarsan, ey shakarguftor, ko'rsam-ko'rmasam.
Hech dushvor ish bo'lurmu bu judolig'din yomon,
Xush qol emdi, qaytadan diydor ko'rsam-ko'rmasam.
Bir-birimizga muhabbat rishtasin bog'lab eduk,
Toqatim yo'q hajringa, ey yor, ko'rsam-ko'rmasam.
Kecha-kunduz fikr-u zikrim oy yuzing vasli o'lur,
Ko'zlarim yo uyqu, yo bedor ko'rsam-ko'rmasam.
Bir-birimizdan tirik zolim falak qildi judo,
Ayrilib sandin o'lum – bemor ko'rsam-ko'rmasam.
Haq taollo manga toqat, sanga sabr etsun ato,
Gul'uzorim, yaxshi qol, man zor, ko'rsam-ko'rmasam.
Man ketarman, san qolursan, ayrilib, Hijron bo'lub,
Ko'z yoshingni to'kma, ey dildor, ko'rsam-ko'rmasam.

1916-yil

Tarbiya
bizlar uchun
yo hayot –
yo mamot,
yo najot –
yo halokat,
yo saodat
yo – falokat
masalasidur.

«BIRINCHI MUALLIM»¹ KITOBIDAN

MUALLIM AFANDILAR DIQQATINA

Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinchi muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o'qutub ko'rsalar. Chunki har gulning bir isi, har mevaning bir ta'm va mazasi vordur. Bu «bo'y» va ta'm esa tajriba sohiblarina kashf va ma'lum o'lur. Shoyad, millat bolalarina foidabaxsh o'lur umidinda bir necha muallimlarimizning iltijolari ila ko'b vaqt tajriba so'ngindan bu risolayi ojizonamni «Birinchi muallim» ismi-la maydoni intishora qo'ydim. Maorifparvar muallim birodarlarimiz iltifotsiz qoldurmasalar kerak. Inson nuqsondan xoli o'lmadig'i kabi qilg'on amali ham qusur va xatodan ori(y)² o'lmas. Shul sababli muallim afandilarimiz har bir qusur va kamchiliklarimdan tanbih va tanqid ila ogoh qilsalar edi.

Toshkand, muallim Abdulla Avloniy

YAMONLIQ JAZOSI

Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor erdi. Ota va onasining so'ziga kirmasdan har xil yamon ishlarni qilur erdi. Bolalar birla urushub, yaqolashub, kiyimlarini yirtub kelur erdi. Unda onasi mehmon uchun asrab qo'yan taomlarini yegon vaqtida, onasi:

– «Qosim o'g'lim! Taomni sen yedingmu?» – desa: – «Men yegonim yo'q, mushuk yegondur», – der edi.

¹ «Birinchi muallim» kitobining 3-nashri (Toshkent, Portsev litografiyasi, 1915) asosida tayyorlandi.

² Ori(y) – xoli, toza.

Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga pul qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lub yotdi. Qosim kelub, sekin tangani olib og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lgonda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumig'a tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko'rdingizmi, yamonning yamonligi o'z boshiga yetdi.

QANOAT

Bir kishining Ali va Vali ismli iki o'g'li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kun otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirub, mana, sizga olma bera-man, – dedi. Vali tezlik bila kelub: «Otajon, menga hammasini bering», – dedi.

Ali sekingga kelub, manga birlashtirish olma bersangiz bo'ladur, – dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog'iga olub, peshonasidan o'pub, iki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo'lma, deb adab berdi.

*Qanoat birla qorin to'yg'urursiz,
Qanoat bo'lmasa, ko'p och qolursiz.
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar.
Qanoatlik kishi og'zini yog'lar.*

ZAR QADRINI ZARGAR BILUR

Bir kun bechora Xurus ayog'lari ila xashak arosini axtarub turgon zamonda bir dona marvarid topdi. Ul marvaridni cho'qub-cho'qub, nola qilub: «Oh, aqlsiz odam bolalari! Hech narsaga yaramaydurgon narsalarni qadrlik bilub, eng qadrlik narsalarni qadrini bilmaslar. Hozirda man buni tobg'uncha,

bir dona bug'doy tobsam edi, manga ovqat bo'lur erdi», – deb xafa bo'lurdi.

*Har kishi o'z nafsiga bir pul uchun g'avg'o qilur,
Boshqaga ming so'm zarar kelsa, qachon parvo qilur?
Har kim o'z qornin adosidur, agar eshondur,
Qushdur, insondur, o'zining qorniga qurbondur.*

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Bir ari suv ustinda uchib borur edi. Birdan suvga yiqlub ketdi. Qanotlari ho'l bo'lub, ucharga kuchi yetmadi. O'lar holatga yetdi. Buni bir Kabutar ko'rub, Ariga rahmi kelub, darhol bir cho'bni tishlab, suvga tashladi. Bechora Ari bu cho'bni kema qilub, suv balosidan qutuldi. Arodan ko'p o'tmadi. Bir bola tuzoq qo'yub, Kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rg'on zamon kelub, bolani qulog'ini choqdi. Bola qulog'ining alamidan tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi. Kabutar vaqtini g'animat bilub, uchub ketub o'lumdan qutuldi.

*Yaxshilik qilsang, bo'lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so'z birlan ilon indan chiqar,
So'z yamon bo'lsa, pichoq qindan chiqar.*

TO'G'RILIK

Bir kampirning uyinda bir tup balx tuti bor erdi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtda qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortuq qilub, pul olub, butun avqotini tut sotub o'tkarur edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon

solmoqchi bo'lub, ustun oxtarganda kampirning tuti to'g'ri keldi. Podshoh tutni ming oltunga sotub oldi. Bechora kampir boy xotin bo'lub qoldi. Bir kun tutni ko'rgali bordi. Ko'rдиki, tuti jannat kabi bir ayvon o'rtasinda turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

*Ey tutim, to'g'riling qildi bizni davlatga yor,
Egri bo'lsang, san o'tun bo'lgay eding, man xor-zor.
To'g'rilar jannatning ayvonindadur.
O'g'rilar ranj-u alam konindadur.*

ITTIFOQ

Jonivorlar ichinda eng kichiklari chumolidur. Lekin o'zлari kichik bo'lsalar ham nihoyatda g'ayratlik, ittifoq hayvonlardur. O'zlaricha podshohlari, kattalari, askarlari bo'ladur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasinda o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rmaslar. Agar ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hammalari bir dan dushmanga yopushub, biri qo'lini, biri ayog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, o'zlarindan necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochurlar.

*Ko'rdingizmi, yung o'zi xo'b maydadur,
Birlashub arqon bo'lsa, fil boylanur.
Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas.
Ittifoqa jin ham ozor aylamas.*

«QO'SHMA SO'ZLARDAN»

Hozirgi asrda ilmsiz kishilar boshqalarga qul va asir bo'lvdan boshqa hech ishga yaramaslar.

«IKKINCHI MUALLIM»¹ KITOBIDAN

*Shavkati inson erur ilm-u adab,
E'tibor etmas anga mol-u nasab.*

Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifboden so'ng o'qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilib, axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlanmush O'QUV KITOBDUR.

MUQADDIMA

Yerni va ko'kni, yer va ko'kdagi narsalarni(ng) barchasini yaratgon yolg'uz Alloh taolo hazratlaridur. Ko'zlarimizga ko'ringan va ko'rinnagan katta va kichik narsalarni, inson va hayvonlarni, ko'kdagi quyosh, oy va yulduzlarni, yerni yorutmak va bizlarni tarbiya qilmak uchun yaratuchi yana janob Haqdur. Bizlar shul Alloh taoloning bandasimiz, Alloh taolo bizning Tangrimizdur. Janob haq bizlarga nihoyatda ko'p ne'matlar bermishdur. Bizlarga bergan ne'matlarining mingdan birini sanab – hisoblab bitirmak mumkin emasdur. Ammo bizga bergan ne'matlarin orasinda AQLdan aziz va qimmatli ne'mat yo'qdur. Rasuli akram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taolo bandalarga bergan ne'matlari orasinda AQLdan yaxshiroq narsa yo'qdur», demishlar. Ey o'g'lonlarim! Siz ham ulug' ne'mat qadrini bilingiz! Janob Haq bizlarni aqlii inson qilib boshqa hayvonlardan ortuq qildi. Va bu aqlni nurlandirmak va ortturmaq uchun o'qumaq, yozmaq, ilm-u ma'rifat hosil qilmak kerak. Va bu ne'matlarni qo'lg'a olmaq uchun yoshlikdan harakat qilmaq, cholishmak va bu ulug' ne'matlar barobariga Alloh taologa shukr qilmaq har birimizga vojib va lozimdir.

¹ «Ikkinch muallim» kitobining ikkinchi nashri (Toshkent, «Maktab» nashriyoti, 1915) asosida tayyorlandi.

AQL

Bir kun otamiz Odam alayhissalomga janob Haq tarafindan hazrat Jabroil **AQL**, DIN va HAYONi kelturub: «Alloh taolo sizga bu uch narsadan birini olub qolurga sizni ixtiyorlik qildi. Xohlaganingizni olib qolingiz, sizga hadyadur», – dedilar. Odam alayhissalom: «Aqlni ixtiyor qildim», – deganlarida, hazrat Jabroil Din ila Hayoga boqub: «Sizlar o‘z joyingizga ketingiz. Odam sizlarni qabul qilmadi», – desalar, alar: «Janob Haq bizlarni, Aql qayda bo‘lsa, sizlar ham shunda bo‘lursiz, deb amr qilgan edi, bizlar Aqldan ayrilmasmiz», – dedilar. Emdi ochuq ma’lum bo‘ldiki, Aql qayda bo‘lsa, Din va Hayo ham shunda bo‘lur ekan. Aql qancha ortsa, yuqorilansa, Din ila Hayo ham shuncha quvvat topar ekan.

*Har kishi qilsa ilm uchun harakat,
Versun Alloh aqlina barakat.*

SALAVOT

Hadsiz-hisobsiz rahmatlar payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga bo‘lsunki, bizlarga shariat yo‘llarin ko‘rsatgan va din hukmlarin o‘rgatgan, bizlarni musulmon bo‘lishimizga sabab bo‘lgan, Islom dinin tarqatmak uchun qancha mashaqqatlar chekkan, Makka kofirlarining jabr-u jafolariga sabr qilgan, Allah amrin tutub o‘z vatanlarin tashlab, Madinaga ko‘chgan, Uhud tog‘indagi urushda muborak tishlari singan, butun umrlarinda Allohning amrindan bir qilcha oyrilmagan, bor kuchlarini(ng) dini Islom yo‘linda sarf etgan. Bizlarga eng katta muqaddas Qur‘oni karim ila sunnatlarin qoldirib ketgan, bandalarindan jonlari chiqg‘uncha «ummatt», «ummatt»

deb olamdan o'tgan bizning payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom afandimiz hazratlaridurlar. Mana bizlarga shul suyuklu payg'ambarimizga, avlod-u sahabalariga doim Alloh taolo tarafindan rahmat so'ramak lozimdir. Bizlar shul zotning ummatlaridurmiz. «Ummatman» demak, faqat quruq til ila bo'lmas. Balki jon-u dil ila payg'ambarimizni(ng) buyur-gan ishlarini qilur, ko'rsatgan yo'llaridan ayrilmaslik, tandan jonimiz chiqg'uncha biz ham «millat», «millat» deb dunyodan ketmak bo'lur.

MAKTAB

Maktab uyi – dorulamon¹,
Maktab hayoti jovidon.
Maktab safoyi qalb-u jon,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab erur doruladab,
Maktab erur ehsoni Rab,
Maktab erur gulzor ajab,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab siza jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur,

¹ Dorulamon – amonlik uyi.

Maktab g‘ami vayron qilur,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Maktab berur Qur’on siza,
Maktab berur imon siza,
Maktab berur huron siza,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Maktab o‘quvni ko‘rsotur,
Maktab yozuvni o‘rgotur,
Maktab uyqudan uyg‘otur,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Maktabdadur ilm-u kamol,
Maktabdadur husn-u jamol,
Maktabdadur milliy xayol,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Maktab demak, masjid yo‘li,
Maktab erur jannat guli,
Maktabni sizlar bulbuli,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Maktab misi tillo qilur,
Maktab sizi mullo qilur,
Maktab sil(l)iq salsa qilur,
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

SAXIYLIK

Bir kishining Said ismli o'g'li bor edi. Otasi har kun maktabda taom olib yemak uchun o'n tiyin pul berur edi. Bir kun maktabga ketub borganda, bir faqir kishi yo'luqub:

– O'g'lim, ikki kundan beri ochman. Taom olib yey desam, ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo'q. Birroz oqchang bo'lsa, bersang, savob topur eding, – dedi.

Said faqirning so'ziga toqatsiz bo'lub, holig'a rahmi kelub, atosi bergen o'n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir bu yosh Saidning qilg'on shafqat-u marhamatiga ofarin qilub, yig'lay-yig'lay duolar qilub ketdi. Said ul kun o'zi och qolsa ham, ochligini hech kimga bildurmay sabr-u qanoat ila o'tkardi. Maktabdan ozod bo'lub, uyiga borgan zamon qilg'on ishini otasiga so'zladi. Otasi ham «saxiy Saidim», deb xursand bo'lub, duo qildi ham bundan so'ng Saidga har kun yigirma tiyindan berurga va'da qildi. Saodatlik Said otasi bergen yigirma tiyinning o'n tiyinini yeb, beshini faqirlarga berub, beshini yig'ub, tezdan boy bo'lub ketdi.

BAXILLIK

Bir baxil kishining uyiga bir necha yaqin do'stlari mehmon bo'lub keldi. Ul baxil mehmonlarning ziyofat qilmak o'rninga behuda so'zlarni(ng) so'zlab o'lturdi. Arodan ko'p vaqt o'tgandan so'ng xizmatchisini choqirub:

– Bor, taom pishgan bo'lsa, olib kel! – dedi.

Shul vaqt xizmatchi bir taboq ustida pishgon xurusni olib kelgan zamon, baxil xizmatchiga boqub:

– Boshini nima qilding? – dedi. Xizmatchi:

– Afandim, nima qilur edim, tashladim.

Baxil:

– Nodon! Kishi xurusning boshini ham tashlarmi? Agar bir kishi tovuqning ayog‘ini tashlasa, man borub olur erdim. Bosh degan a’zolarning xo‘jasidur. Ul boshi ila qanday yaxshi qichqirar edi. Marjon kabi toji ham boshinda edi. Eng shirin a’zolarindan sanalgon tili, eng ulug‘ a’zolarindan miyasi, ikki shahlo ko‘zları barchasi boshinda edi. Bor, topib kel! Biz yemasak, mehmonlarga yedururmiz! – dedi.

Ko‘rdingizmi, bu baxil kishi hech narsaga arzimaydurgon bir xo‘roz boshidan bir necha xosiyatlar bayon qilub, o‘zining qanday kishi ekanligini bildurdi.

AXLOQIY HIKOYA

Eshitdimki, mashhur Majnun zor
Bo‘lub mavt¹i Laylosidan beqaror,
Ketub hushidan bo‘ldi holi xarob,
Ravon bo‘ldi Layloni qabrin so‘rob.
Yo‘liqdi: bir o‘g‘lon edi hushyor,
Zamondan xabardor edi, aqli bor.
Dedi: «Ey o‘g‘ul! Qabri Laylo qayon?»
O‘g‘ul kului, berdi javobin ravon.
Dedi: «Sizmusiz ishq lofin uran?!
Topar so‘rmayin ishq kayfin suran.
Mazora borub ista har go‘rdan,
Olib xokini iska mazkurdan.
Na yerdan ke(l)sa ishq-savdo isi,
U tufrog‘ erur Layloning turbasi».

¹ Mavt – o‘lish, vafot etish.

ARSLONILA AYIQ

Bir kun Arslon ila Ayiq ikisi do'st bo'lub, ov qilmoqchi bo'ldilar. Sahroga chiqub, yugurib-yelib, bir kiyikni tutdilar. Yemakchi bo'lub turg'on vaqtlarinda arolarinda urush paydo bo'ldi. Arslon: – Man kattaman, manga ko'proq berursan. Ayiq: – Man kichik bo'lsam ham sandan ko'b harakat qildim, yugurdim, yeldim. San bir joyda qarab turding. Sergo'sht yerni man yerman, deb urush boshladilar. Shul darajaga yetdilarki, ikisi ham o'lar holatga yetub, yerga yiqilub, qimirlashga majoli qolmadi. Bularning holidan bir necha bo'rilar xabar-dor bo'lub, kelishub tayyorgina kiyik go'shtini yeb, suyagini qo'yub ketdilar. Bu iki janjol qilgon bechoralar bir-birlariga der edilarki, agar bizlar urushmagon bo'lsak edi, ikimizning ham qornimiz to'ygon bo'lur edi. Mana, urushgonimiz uchun ikimiz ham og'zimizdagи oshimizdan ayrilduk, deb afsus qi-lub, oxirda surgolib borub, molimizning so'lakayi deb, quruq suyakni chaynadilar.

*Urushgonlar suyakni zo'rg'a chaynar,
Tamoshochi suyaksiz etni poylar.
Ketib qaymog'i, sut qolgay o'ziga.
Sut ham shirin ko'ringay och ko'ziga.*

BULBULILA ESHAK

Bir kuni Bulbul ila bo'ldi Eshak o'rtog'lar, Yurdilar aylab tamoshlo, har taraf gulbog'lar. Bir zamon Eshak deydi: Ey, bulbuli shirin zabon, Sayragil, do'stim, bu dam, ketsun yurakdan dog'lar. O'lturub gul shoxiga Bulbul chunon qildi fig'on,

Bo'ldi hayvonlarda ish tashlab qulq solmog'lar.
Barcha qushlar ofarinlar qildi Bulbul tovshiga.
Gul bo'lib ochdi u dam gul g'unchasi yafrog'lar.
Bir zamon Bulbul sadosini(ng) qilib erdi tamom,
Hangradi Eshak, hama qochdi yig'ilgon zog'lar
Ko'rdi Eshak ul zamon, hech kimsa yo'q gulzorda.
Yerga og'nab sochti boshiga qum-u tufrog'lar.
Aytdi: Ey bulbul, ajoyib! Sayrashing yaxshi ekan,
Man kabi tovshing sani qilmas dimog'(n)i chog'lar.
Sayrashing ishsiz kishilarga eshitmak yaxshidur,
Man baqirsam, ishlariga qildilar ketmog'lar.
Ko'ylagi yo'qlar, tizi yirtuq kishilardan kular,
Xoh hayvon, xoh insondur – o'zini sog'lar.
Har kishi o'z aybini ko'rmas, kishi aybin ko'rар,
O'zgani bir ignacha aybi ko'rungay tog'lar.

NAFSI BUZUQ HAYITDA O'LAR

Bir qishloqi tog'dan o'tun kesmak uchun bordi. Bir ko'za-da olib borgan sutini daraxt ostiga qo'yub, o'zi o'tin kesmak uchun ketdi. Shul vaqt bir tulki kelub, ko'zaga boshini suqub, sutdan biroz ichgan zamonda aqli dediki, bas, bundan nari borsang, baloga yo'liqursan. Nafsi aytdiki, ichaber, kambag'alning bir to'ygoni – chala boy bo'lgoni, dedi. Tulki aqlin so'ziga kirmasdan, nafsin yo'lig'a yurdi. Bir vaqt sut tamom bo'lg'ondan so'ng tezgina qochmoqchi bo'lg'on zamonda ko'za boshini mahkam siqub qoldi. Bechora tulki qancha harakat qilsa, ko'za ham shuncha qisa boshladи. Yugurdi, yeldi, yolbordi, ko'za aslo yaqosini bo'shatmadi. Oxirda achchig'i kelub, – sani suv ichinda bo'g'ub o'ldurmasam bo'lmas

ekan, – deb ko'zani olub borub bir katta suvg'a suqg'on zamonda, ko'za tulkini to'g'ri suv ostiga olub kirub ketdi. Tulki suv ostinda der ediki:

*Baloyi nafs uchun, oxir, surundim,
Kelub sayyod domiga ilindim.
Agar aqlim so'ziga kirsam erdi,
Aziz jonim salomat bo'lgay erdi.*

AQLLI QARG'A

Kunlar yoz fasli o'ldig'indan har yerda suvlar qurumish. Bechora Qarg'a suv yo'qlig'indan nihoyatda suvsamish edi. Tillari osilub, har tarafdan suv axtarmoqda ekan, birovning oldinda turgon ko'zaning ko'ruba, yoniga kelub boqsa, ichinda suyi bor. Lekin bo'ynini suqub ichay desa, bo'yi yetmaydi. Biroz o'yladi-da, tumshug'i ila toshlarni yig'ub, ko'zaning ichiga tashlay boshladi. Oz vaqt ichinda ko'zaning ostindagi suv ustiga chiqub, tosha boshladi. Aqli qarg'a suvdan ichub, tashnalik balosidan qutulub, uchub ketdi.

BOG'CHA

Bog'chalarining xo'b yaxshidur havosi,
Jong'a rohat verur zavq-u safosi.
Yag'ochlar-da yashil yafrog' ichinda,
Rang-barang gullarning yashnar ziyosi.
Sabza o'tlar arosinda ochilgan
Binafsha-yu qizil gul-u ra'nosi.
Lekin gulning yoshlik kabi umri oz,
Tez yo'q bo'lur xush qomati zebosi.

Yaxshi verur bog‘, ishlasa bog‘bon,
Cho‘nchokinda ko‘b bo‘lg‘usi aqchosi.
Yoshligida ko‘b o‘qug‘on bolani,
Qariganda obod o‘lur dunyosi.

HASAD BALOSI

Bir kun Zog‘cha insonlar kabutarlarni(ng) boqub, alarga don berub, yaxshi uyalar yasab bergenlariga hasad qilub, ko‘rolmadi. Bul ham kabutar bo‘lub, tekin donlardan yeb, rohatda yashamoq bo‘ldi. O‘zini oq bo‘rga bo‘yab, kabutarxonag‘a kelub, kabutarlar ila birga yashamoqg‘a boshladi. Bir kun osmonda uchub boradurg‘on bir necha zog‘chalarni ko‘rub, birdan «chag‘g‘» deb qichqirub yubordi. Hamma kabutarlar buni zog‘cha ekonin bilub, har tarafdan yopishub cho‘qiy boshladilar. Bechora Zog‘cha kabutarlar arosindan zo‘rg‘a qochub, zog‘chalar arosiga borub qo‘sildi. Zog‘chalar ham buni Zog‘cha ekoniga ishonmadilar. Har qancha «chag‘g‘... chag‘g‘...» deb yolborsa ham: – Ho nodon, bizni(ng) aldayman dersanmi? Bor, zog‘cha bo‘lsang, oq chompsoningni yeshib kel! – deb bular ham (aning) boshlariga cho‘qub-cho‘qub jo‘natdilar.

Hissa: bechora Zog‘cha hasad balosiga yo‘luqub, iki jahon ovorasi bo‘lub qoldi.

AQLLI BOLA

Bir bola qo‘schnining uyiga o‘ralmish tabaqda taom olib borur edi. Bir kishi uchrab:

– Ey o‘g‘lim, tabaqda nima olib borursan? – dedi.
Aqlli bola javob berib:

– Ey otajon, tabaq ichindagi narsaning kishiga aytmoq va ko'rsatmoq mumkin bo'lsa edi, usti o'ralmagan, ochiq bo'lur edi, – dedi.

QALANFIRILA CHO'L YALPIZI

Sahroda o'sgan Cho'l yalpizidan so'rdilarki: «San avvalda yaramas bir o't erding, bu xushbo'y isni qaydan olding?» deb. Yalpiz javob berdiki: «Rost, man avvalda yamon bir o't erdim. Lekin bir necha vaqt qalamfir yonida o'sub, birga yashadim. Aromizda do'stlik paydo bo'ldi. Shul sababli avvalgi yamon islarim ketub, do'stligning yaxshi islari manga yuqub qoldi», – dedi.

*Yaxshilarning suhbati – jon rohati,
So'zлari – dard-u alamning ofati.*

OVOZ

Bir bola maktabdan kelub, kitoblarini qo'yub, taomlarni yeb, o'ynamoq uchun bog'chaga kirub, shul kun o'qugon sabaqini qichqirub o'qugon zamon qulog'iga qo'shnining devori tarafidan bir bolaning o'qugon tovushi keldi. Bu ovozni eshitgan zamon bog'da mandan ham boshqa bola bor ekan deb suyunub:

«Kel o'rtog'! Ikimiz birga o'qushub, birga o'ynaymiz», – desa ul ham shul so'zni aytdi. Bolaning biroz achchig'i chiqub, atrofni oxtara boshladи. Ko'b vaqt izladi, o'zidan boshqa hech kimni ko'rmadi. Oxirda jahli chiqub, yamon so'zlar aytsa, ul tarafdan ham yamon so'zlar eshitdi. Bola nihoyatda xafa bo'lub, yig'lab, borub onasig'a aytdi: «Ey onajon! Bog'da bir

yamon bola bor ekan, man nimani so'zlasam, shuni aytur. Manga yamon so'zlar so'zladi. Qancha izlasam ham topolmadim», dedi. Onasi bolaning o'zining ovozi ekanin bilub: «Ey o'g'lim! San anga yamon so'z aytma. Yaxshi so'z aytsang, ul ham sanga yaxshi so'zlar ila javob berur», – dedi. Bola yana bog'ga borub yaxshi so'zlar so'zlasa, javobiga yaxshi so'zlar eshitdi. Aqllik bola bildiki, yaxshi so'zga insonlar yaxshi javob, yamon so'zga yamon javob berurlar emish. Bundan so'ng bola hech kishiga yamon so'z aytmaydurg'on bo'ldi.

YALG'ON DO'ST

Bir vaqt iki kishi do'st bo'lub, safarga chiqmishlar edi. Bir tog' ichindan ketub borgonlarında uzog'dan bir yo'lbarsni ko'rmishlar. Do'stlarning biri darhol yugurub bir daraxt ustiga chiq mish. Ikinchisi shoshilub qolub, nima qilishin bilmay, yerga cho'zulub, o'lukg'a o'xshab yot mish. Yo'lbars kelub, iskab-iskab o'luk gumon qilub qaytub ket mish. O'rtog'i daraxtdan tushub: «Birodar, yo'lbars qulog'ingga nima deb so'zlab ketdi?» deb so'ramish. Yo'ldoshi: «Oh, do'stim! Shodligingda o'rtoq bo'lub, g'am vaqtingda tashlab qochadurg'on nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lma!» deb so'zlab ketdi, deb javob bermish.

CHIN DO'ST

Iki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,
Bir nafas ayrilmas erdi bir-biridan iki jon.
Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,
Bo'ldilar sahro tamoshosi uchun bir kun ravon.

Yo‘lda bir daryodan o‘tmak to‘g‘ri keldi do‘stlara
O‘lturub bir kemaga ketmog‘da erdilar hamon.
Bir zamon to‘lqin kelub ul kemanı qildi xarob,
Ul iki o‘rtog‘ yiqildilar suv uzra nogahon.
Suv yuzinda ul zamon ketmakda erdilar oqib,
Suvchilar keldilar ushlab olg‘ali suvdan amon.
Ul iki do‘sning birini tutsa, suvchig‘a dedi:
Qo‘y mani, avval borub, do‘sstimni qutqar beziyon.
Suvchi borub ushlasa o‘rtog‘ini,
Ul ham aylar do‘s qutulsin deb fig‘on.
Ko‘rdingizmi, ey suchuk o‘g‘lonlarim,
Do‘sstlig‘dan bu siza bir doston.

XURUSILA BO‘RI

Bir Bo‘ri daraxt ustinda o‘lturgon Xurusni ko‘rub, tutub yemak uchun daraxt ostiga keldi. Hiyla birla bechora Xurusni daraxtdan tushurmoqchi bo‘lub: «Ey, Xurus o‘rtoq! Man sangaga bir yaxshi xabar keturdim. Hayvonlar ila qushlar arosinda sulh bo‘ldi. Bir-biriga zulm qilmasga, biri ikinchisini tutub yemasga qaror verildi. «Kel, birodar, pastga tush! Bir-birimizga do‘s bo‘lib, birga o‘ynayluk», – dedi. Xurus Bo‘rining so‘ziga aldanadurg‘on darajada nodon va ahmaq bo‘lmadig‘indan Bo‘riga boqub dediki:

– Do‘sstim, so‘zing rostdur, to‘g‘ridur. Lekin biroz sabr qil. Sandan boshqa iki it ham sulh xabarin keltururlar. Alar ham kelsunlar. Hammamiz birga o‘ynashurmiz, – dedi.

Bo‘ri Xurusdan bu so‘zni eshitgan zamon dumini orqasig‘a qo‘yub qocha boshladi. Xurus: Ho, birodar, nima uchun qochursan, aroda sulh bor-ku? – desa, Bo‘ri:

- Oh do'stim! Bu zolim itlar sulhni buzgong'a o'xshaydur,
- deb qochub ketdi. Xurus orqasindan «quq... qurii... quu...» deb qichqirub qoldi.

*Aql egasi hiylaga aldanmagay,
Hiylagarning hiylasi boshin yegay.
Do'st ila dushman so'zining farqi bor,
Fahm etar, har kimki, o'lsa hushyor.*

JANJALCHILIK ZARARI

Bir suv ustiga ko'pruk kabi bir taxta qo'yilmish edi. Bu taxtaning ustindan o'tmak uchun iki echki iki tarafdan kelub, bir-biriga yo'luqti. Biri dediki:

- Man sandan kattaman, san yoshsan, arqangga qayt, manga yo'l ber, – dedi. Ikinchisi:
- San katta bo'lsang, ulug'liging o'zingga, man sandan quvvatli. San qayt. Mandan so'ngra o'tarsan, – deb arolarinda zo'r g'avg'o chiqdi. Ikisi ham bo'yinlarini egishub, shoxlarin shoxlariga qo'yushib, chunon suzishdilarki, oxirda suvga yumalab tushub, ikisi ham suvda g'arq bo'ldi.

TAMA' BALOSI

Bir Sichqon qofqonni ko'rgan zamon:

«Yohu, insonlar qanday hiylakordurlar. Ajabo, manga ov uchun ichiga bir parcha yog' qo'ymishlar-da, mani aldab qofqonga tushirmak istarlar. Amon, yo, Rab! Man yaxshi bilurmanki, bu ov emas, maning uchun qurilmish bir tuzoq-dur. Xayr, bu hiyla ila mani alday olmassiz», – deb qaytub ketmak bo'ldi. Shul vaqt biroz o'ylab, o'z-o'ziga dediki: «Bu

yog‘dan yemasam ham biroz iskamak mumkin. Ammo man yog‘ isini ko‘b yaxshi ko‘raman. Kel, buni iskamakdan nima zarar bor», – dedi-da, qofqon yoniga kelub, yog‘ni iskay boshladi. Yog‘ning isi dimog‘iga xush kelub, tez-tez iskab turgan zamon burni yog‘ni yurtib yuborib, qofqon «shart» etub ketdi. Bechora sichqon tama’ balosiga giriftor bo‘lib qoldi.

Bayt:

*Oz tama’ ko‘b zararlari ketirur,
Nafsi tiymagan o‘zin yitirur.*

AQLSIZ BOLA

Bir kishi o‘g‘lina berib tesha,
O‘g‘lin aqlin qilurg‘a andisha.
Dedi: «Ishlat bu teshani, o‘g‘lum.
Bundan aqling menga bo‘lur ma‘lum».
O‘g‘lon ushlab qo‘liga teshasin,
Ko‘r, nechuk ko‘rsatur tamoshosin.
Bordi masjid devorining tagina,
Kovladi tesha birla yaxshigina.
Ko‘rdi ul dam ota o‘g‘il holin,
Bo‘ldi ma‘yus, buzdi ahvolin.
O‘g‘lin iki qulog‘idan burdi,
Oh tortub bu so‘zni ayturdi:
«Tesha berdim: o‘tin kes-u bovla,
Kim dedi, masjid ostin kovla».
Ibrat olmaq kerak bu o‘g‘londan,
Haq bizi mamnun etdi ehsondan.

Tutmaka qo'l, yurar uchun po(y)lar,
Berdi bir necha boshqa a'zolar.
Har birin ishlatur eri bordur,
Ishlatur bilmagan kishi xordur.
O'ylamay millat uyini buzsak,
Yiqilur uyimiz ipin uzsak.

BOLALAR BOG'CHASI

Yigitlikda o'quvdan qolsang, o'g'lon,
Qariganda pushaymonsan, pushaymon.
Ulug'lik mol-u davlat birla ermas,
Salomat bo'lsa aqling, senga shul bas.
Go'zallik yuzda ermas, ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.
So'zing oz o'lsin-u, ko'b ma'ni o'lsun,
Eshitganlar qulog'i durga to'lsun.
Takabbur bo'lmag'il, bo'lg'il muloyim,
Bo'lursan shod-u xurramlikda doim.
Birov qilsa g'azab, sen so'kma oni,
Budur yaxshi kishilarning nishoni.
Yamonlik qilsalar, san yaxshilik qil,
Yamonlig'ni ho'kuzni bo'ynig'a il,
Nasihatni qulog'ingga ilib ol,
Yamon so'zni eshitmay tez ketib qol.
So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltun.
Misi chiqg'ay, so'zing ko'b bo'lsa bir kun
Ko'paygan so'zni bo'lg'oy to'g'risi oz,
Shakarning ko'pidin ozi bo'lur soz.
Birovdan bir nimarsa so'rma zinhor,
Kishining minnati sanga na darkor?!

Talab qilg'il muroding Xudodan,
Gadosan, so'z muroding podshodan.
Jadal qil ilm uchun, o'g'lum, hamisha,
Kuching borida g'ayrat birla pesha.
Ekin vaqtida uxlab yotsa dehqon,
O'roq vaqtida bo'lg'ay ko'zлari qon.

TAQSIM

Bir kun iki bola ko'chada o'ynab yurgon zamonda bir adad yang'oq topdilar. Biri aytdi: «Man olurman, avval man ko'rdir». Ikinchisi: «Yo'q, birodar, man olurman, yerdan man oldim», – deb ikisi g'avg'o qilub turub edilar. Bir yigit kelub: «Ey charog'larim! Shoshmang, talashmang, man sizlarga yaxshilab taqsim qilub berurman», – deb yang'oqni qo'llidan olub, ikki palla qilub, bir palla po'chog'ini birinchi bolaga, ikkinchi palla po'chog'ini ikkinchi bolaga berub: «Mana, qolgoni taqsim qilgon kishiga», – deb mag'zini og'ziga solub, jo'nab ketdi. Bolalar bo'lsa, po'choqini ushlab, baqrayushub qoldilar.

Hissa: Ozga qanoat qilmagan ko'bdan qolur.

BOLARIILA PASHSHA

Bir pashsha qir tarafdan uchub kelmakda o'lan Arini ko'rub:

«Do'stim, qaydan kelursan?» – dedi. Ari: «Qirdan kelurman. Biroz bol yig'dim. Uy yasamoq uchun mum ham hozirlab keldim», – dedi. Pashsha: «Oh birodar! Bir boshing uchun muncha harakat qilursan! Nima bo'lurki, san ham man kabi

rohatda yashasang, chunki mening yashamoqimda hech bir mashaqqat yo'q. Insonlar tarafindan hozirlangan dasturxonlardan har xil taomlarni yeb-ichib umr o'tkarurman. Ba'zi vaqtlarda sani yasagan bolingdan ham to'yganimcha yerman. Mana! Yashamoq mana! Umr kechurmaq uchun olamda mundan yaxshi turmush bo'lurmi? Na manda bol hozirlamak mashaqqati va na uya solmak kulfati bor», – dedi. Ari bu so'zlarga javoban dediki:

«Oh do'stim! Bu sani turmushing o'z boshingdan beri kelmasun. Mashaqqatsiz taomda lazzat bo'lurmi?!

Insonlar sani sufradan quvarlar, urarlar, o'ldirurlar. San olamda o'g'rilar kabi umr o'tkarursan. Oxirda bir o'rgimchak luqmasi bo'lakdan boshqa bir narsaga yaramazsan. Ammo maning tayyorlagan mumim hamma ibodatxonalarini yorutar. Bolim dunyoning hamma yerinda maqbuldur. Insonlarning og'izlarini totli qilur. Shul sababli insonlar mani o'zlari tarbiya qilurlar va har yerda mani maqtarlar», – dedi-da, «Qo'y, birodar, mani ishim ko'b, san ila behuda so'zlarni so'zlashub tururga vaqtim yo'q», – deb uchub ketdi.

Hissa: Mehnat oxiri – rohat, yalqovlik – oxiri xorlikdur.

YIL, SANA

Bir yil o'n iki oydur. Bir oy to'rt hafta, bir hafta yetti kundir. Shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chahorshanba, panjshanba, jum'a. Bir kun yigirma to'rt soat, bir soat oltmisht daqiqa – «minut»dir. Oy hisobi iki xil bo'lur. Biri qamariy, ikinchisi shamsiy.

QAMARIYYA HISOBI

Qamariyya hisobi ila oylarning arabcha ismlari: muharram, safar, Rabi’ul-avval, Rabi’ul-oxir, jumodul-avval, jumodul-oxir, rajab, sha’bon, ramazon, shavvol, zulqa’da, zulhijja.

Qamariyya oylarining oltisi 30 kundan, oltisi 29 (kun)dan keladur. Bu hisob ila bir yil uch yuz ellik to’rt kun bo’ladur. Bu hisob musulmonlarning diniy ibodat, bayramlari uchun yuritilur. Musulmoncha yil boshi birinchi muharramdan hisoblanur. O’ninchi muharramda hazrati imom Husayning Karbaloda shahid bo’lgan kunlaridur. Bu kun musulmonlarning motam va duo kunidur. Rabi’ul-avvalning o’n ikinchi kuni Payg’ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning tug’ilgan kunlaridur. Bu kun musulmonlarning ulug’ bayram va shodlig’ kunlaridur. Birinchi ramazondan boshlab birinchi shavvolgacha ro’za tutilur. Birincha shavvolda Iydi fitr namozi o’qilur. Uch kun musulmonlarning ulug’ bayrami bo’lur. O’ninchi zulhijjada Iydi qurban namozi o’qilur. Qurban(lik)lar so’yilur. To’rt kun bayram qilinur.

Sanayi shamsiyya hisobi ila oylarning ismlari

| ARABCHA | RUSCHA | RUMCHA ¹ | KUN |
|---------|----------|---------------------|-----|
| Hamal | Mort | Mort | 31 |
| Savr | Aprel | Nison | 30 |
| Javzo | Moy | Mais | 31 |
| Saraton | Iyun | Haziran | 30 |
| Asad | Iyul | Tammuz | 31 |
| Sunbula | Avgust | Ofstus | 31 |
| Mezon | Sentabir | Eylul | 30 |

¹ Rumcha – Turkiya turkchasida.

| | | | |
|-------|----------|----------------|----|
| Aqrab | O'ktabir | Tishrini avval | 31 |
| Qavs | No'yabir | Tishrini soniy | 30 |
| Jadyi | Dekabir | Konuni avval | 31 |
| Dalv | Yanvar | Konuni soniy | 31 |
| Hut | Fevral | Shubot | 28 |

Sanayi shamsiyya oylarining ba'zilari 30 va ba'zilari 31 kun. Yolg'uz hut oyi 28 kundur. Har to'rt yilda hut 29 (kun bo'lub) kelur. Bu yilni zo'r yil deb atalur. Arabchada yil boshi birinchi hamaldan, ruschada birinchi yanvardan, rumchada (birinchi) konuni soniydan boshlanur.

YILNING FASLI

Bir yil to'rt faslga bo'linur. Biri yoz, ikinchisi kuz, uchinchi si qish, to'rtinchisi bahordur. Yoz oylari: iyun, iyul, avgustdur. Kuz oylari: sentabir, o'ktabir, no'yabirdur. Qish oylari: dekabir, yanvar, fevraldur. Bahor oylari: mort, aprel, moydur.

YOZ FASLI

Yoz faslida daraxtlarning bargi yashil bo'lub, yashil barglari orasida mevalari taram-taram qizorub, ekinlar fishub, oqil insonlar kabi boshlarini egub salom qilurlar. Bog'lar o'zlarini gullab, rang-barang yafrog'lar ila yasaturlar. Maktab va madrasalarda o'qushlar to'xtatilub, shogirdlar har tarafga sayohat qilurlar.

KUZ FASLI

Kuz faslida kunlar qisqarur, birinchi sentabirdan boshlab har yerda maktab-u, madrasa ochilur. Shogirdlar yelkalariga jildlarini osub, odob-u yaxshi niyat ila maktablariga borurlar. Havolar salqinlanib, ekinlar o'rilub, daraxtlardan mevalari, barglari to'kilub, yashil o'tlar sarg'ayub, har narsadagi go'zal manzara – ko'rinish tamom bo'lur.

QISH FASLI

Qish faslida quyosh bizdan yiroqlashur, havolar sovur, suvlar muzlar, yer yuzida qor ila qoflanur, uchar qushlar oz qolur, sahroda o'tlaydurg'on jonivorlarga, safarda yuradurg'on savdogarlarga kun ko'rmak mashaqqat bo'lur. Qurt-u qumursqalar yer ostiga kirarlar. Pashsha va arilar bahorgacha o'lgan kabi qotub yoturlar.

BAHOR FASLI

Bahor faslida kunlar uzayur, daraxtlar barg chiqarur, qishning zulmidan har tarafdan qochgan qushlar kelur, yer ustiga o'tlar yashil gilam kabi yozilur, suvlar toshar, yoqimli yellar turar, gullar yashnar, otlar kishnar, bulbullar sayrar. Yer yuzidagi insonlar-u hayvonlarning yuzida shodlig-u sevinch bir asar ko'rilur. Xususan, sahrov-u bog'larning manzarasi, har tarafdan suvlarning shalolasi, gullarning xush isi, qushlarning go'zal ovoz-nag'masi insonlarning dumog'larini chog' qilub, yangi hayot, yangi ruh, yangi safo berur.

MAKTABA DA'VAT

Boqdi gunash panjaradan bizlara,
Yotma! Deyur barcha o'g'il-qizlara.
Nolayi faryod qilib barcha qush:
– Maktabingiz vaqtি, deyur sizlara.
Boshladi har kim o'z ishin ishlara,
Siz-da, turing maktabingiz izlara.
Uchdi ari bog'chalara bol uchun,
Buzov turur uyda cho'kub tizlara.
Siz-da, kitoblarни(ng) oling shavq ila,
Tez yuguring ilм yo'lin gezlara.
Dangasani suymayur Alloh hech,
Ketsun oqub dangasa dengizlara.

BO'RIILA XOTUN

Bir och Bo'ri taom oxtarub yurgon zamonda bir uydan bir xotunning tovshin eshiturki, bolasiga borub: «Yig'lama, sani Bo'riga berurman», – der. Bechora Bo'ri qachon bolasini men-ga chiqorub berur ekan, deb eshigida o'lтирur edi. Arodan bir necha soat o'tar. Xotun yana bolasiga borub: «Yig'lama, qo'zim, man sani Bo'riga bermasman. Bo'rining o'zi ham bu yerga kela olmas. Agar kelub qolsa, man ani boshiga kaltak birla urub, o'ldururman», – der. Bo'ri xotundan bu so'zlarni eshitub, der: «Oh, yolg'onchi insonlar, hech bir to'g'ri so'zlamassiz! Hozir bir xil so'zlab turub, bir nafasdan so'ng boshqa so'zga ko'chur-siz! Olamda sizdan ayyor jonivor yo'qdur!» – deb jo'nab ketdi.

Hissa: Har kishi bu olamda o'z nafsin balosiga qolmishdur.

IKI DEVONA

O'tgan zamonda bir devona bir shaharga borub, har kimni urub, so'kub, nima uchun odamlar hammasi bir tarafga qarab yurmaslar. Biri bu tarafga ketsa, biri u tarafga ketar, dedi. Odamlar javob berdilarki, har kim o'z ishi bor tarafga borur, biri bozorga borsa, biri uyiga qaytur, dedilar. Devona bularning so'zini qabul qilmadi. Oxirda arolarindan biri turub, bu devonadur. Devonaning so'ziga shoyad devona javob bersa, deb bir devonani olib keldi. Birinchi devona so'rdiki: «Yer yuzidagi odamlar nimaga bir tarafga qarab yurmaslar?» Ikinchi devona: «Yer kemaga o'xhash suv ustinda turadur. Agar odamlar hammasi bir tarafga qarab yursalar, barchamiz suvg'a ag'darilub ketarmuz», – deb javob berdi. Birinchi devona: «Balli, do'stim! Hammadan san yaxshi javob berding!» – deb jo'nab ketdi.

Hissa: Har kishiga o'z maslakdoshining so'zi maqbuldur.

BO'RIILA UZUM

Bir bo'ri bog'ni aylanurdi kirib,
Boqdi har yonga ko'zlarini yirib.
Ko'rди: Bir bosh uzum ajab pishgon,
Turlanur qizil bo'lub, tizilib.
Nafsi qildi anga qarab harakat,
Og'zidan keldi suvlari sizilib.
Irg'idi, sakradi uzumg'a qarab,
Nafasi og'zi-burniga siqilib.
Bo'yi yetmay ololmadi, jo'nadi,
Qayta-qayta, boqib-boqib, tikilib.
Yo'lda aytur Bo'ri uzumga qarab:

– Xomsan va g'o'rasan, bo'lmaydi tegib,
Tishlasam, tishlarim qamashtirasan,
Pishmagansan ekan hanuz ezilib.
Bo'yi yetmay uzumga bechora,
Ketdi navmid o'lub suyak qidirib.

YAXSHILIK

Bir kun bir yaxshi kishi ko'chada o'tub borg'onida bir necha hayosiz kishilar orqasidan yamon so'zlar ila so'kib qoldilar. Bu kishi alarming so'zini(ng) eshitib, qo'lini ko'tarib: «Yo, Rab, bu nodonlarg'a o'zing aql bergil va to'g'ri yo'lga solg'il!» – deb duo qildi. Bu holdan xabardor bir kishi so'radiki, «Nima uchun siz ul kishilarning haqqig'a yaxshi duo qildingiz?» – deb. Ul kishi: «Ey birodar, har kim o'zida borini berur. Menda yaxshilik bor edi, shuni berdim, onlarda yamonlig' bor ekan, oni berdilar. O'zingda yo'q narsani qaydan olib berursan, har kim qilganicha topar, yamonning yamonlig'i o'z boshiga yetar», – deb javob berdi.

*Hayo-nomus imona dalildur,
Hayosiz doimo xor-u zalildur.*

OCHKO'ZLIK

Bir bola ko'chada yig'lab o'lturur edi. O'tub-ketub turgon kishilardan biri: «O'g'lum, sanga nima bo'ldi? Na uchun muncha yig'larsan?» – deb so'radi. Bola: «Bir tiyin aqcham bor edi, yo'qotib qo'ydim. Shuning uchun yig'larman», – dedi. U kishining bolaga rahmi kelib, «Mana o'g'lim, oqchang yo'qolgan bo'lsa, man sanga boshqasini berurman», – deb cho'ntagidan bir tiyin oqcha chiqorub berdi. Bola oqchani

club, yana avvalgidan ortuq yig‘lamoqg‘a boshladi. Ul kishi: «Daxi nimaga yig‘larsan?» – desa, bola: «Oh, otajon! Agar o‘z oqcham yo‘qolmagan bo‘lsa edi, hozir oqcham iki tiyin bo‘lur edi», – dedi.

*Ko‘zing och bo‘lmasun, o‘g‘lum, ko‘zing och,
Qanoatsiz kishini uxlatub qoch.*

ILMSIZLIK BALOSI

Bor edi bir kishi, xat bilmas edi bechora,
Bo‘ldi betob, yurak bag‘riga chiqdi yora.
Ertasi o‘g‘lina aytdiki, ayo tifl adib,
Bor, ketur boqmoq uchun qoshima bir yaxshi tabib.
O‘g‘li kelturdi tabibni atosi qoshig‘a,
O‘lturub boqdi tabib, ul dam, ayog‘-u boshig‘a.
Ikki xil doru yozib berdi o‘shal bemora,
Birini ichmak uchun, birisin surtora,
O‘g‘li doru uyidan oldi ikki shisha davo:
Birisi sharbat edi, birisi og‘uyi balo.
Shisha ustinda davoning bor edi ta’rifasi,
O‘qumoqdan yo‘q edi xastaning hech ma’rifasi.
Shishalardan birini ushladi avval qo‘lina,
Ichdi sharbat debon og‘uni – surardi dilina,
Ul zamon bag‘ri yonib, ayladi faryod-u fig‘on,
Bo‘ldi bir necha nafas, so‘ng tanidan joni ravon.
Otasi o‘ldi, o‘g‘li yig‘ladi faryod aylab,
Qo‘shnisi olim edi, chiqdi belini boylab.
Qildi o‘g‘lona nasihat, dedi: – Ey, tifl zabun,
Ilmsizlikdan otang jonidan ayrıldı bu kun.

O‘qimoq, yozmoqi bilsaydi otang, ey o‘g‘lon,
Balki, boshiga qazo kelmas edi ushbu zamon.
Quvvating borida xat bilmoq uchun qil harakat,
San jadal qilsang o‘zi, bergusi Alloh barakat.
Ibrat ol, o‘g‘lim, otangdin, bo‘lmag‘il san yaramas,
Qilmag‘il umringni zoye, dema qish-yoz, o‘qu, yoz!

AQLLI BOG‘BON

Bir bog‘bonning uch o‘g‘li bor edi. Uchi ham dangasa va ishyoqmas edilar. Bog‘bon bir kun kasal bo‘ldi. O‘g‘illarini ishga solmak uchun yoniga choqirib: «O‘g‘lonlarim, mani ajalim yetgan o‘xshaydur. Man sizlarga vasiyat qilub keta-yin. Bog‘ning ichiga bir ko‘za oltun ko‘mub qo‘yg‘onman. Mandan so‘ngra o‘zingiz kavlab, topub, bo‘lishub olursiz», – dedi. Arodan bir necha kun o‘tmay, bog‘bon dunyodan o‘tdi. O‘g‘illari oltun axtarub, bog‘ni chunon qazidilarki, tufrog‘lari kul bo‘lib ketdi, lekin tokning ildizidan boshqa narsa topol-madilar. Ammo shu yili tok chunon uzum qildiki, oqchasi necha ko‘zaga to‘ladurgon oltun bo‘ldi. So‘ngra bu yalqovlar bildilarki, oltun yerda emas, ishlovda ekan.

Hissa: Hamma yamonliqning onasi – dangasalik, qo‘rqoqlik – otosidur.

BO‘RIILA QO‘ZI

Bir Bo‘ri suv ichmak uchun suv boshiga keldi. Past taraf-da suv ichub turgon bir Qo‘zini ko‘rdi. Oni(ng) bir hiyla bilan tutub yemakchi bo‘lub: «Ey yaramas, nima uchun man ichodurgon svjni bulg‘otursan?» – dedi. Qo‘zi: «Afandim, bu

qanday so'z? Siz suvning yuqori yog'inda. Man quyi yog'inda bo'lsmam, man qanday suvni bulg'aturman?!» – desa, Bo'ri yana qichqirub: «O'tgan yil san maning otamni(ng) ham so'kkan eding, emdi manga ham qarshilik qilursan», – deb kelub, qo'ziga yopushdi. Bechora Qo'zi:

«Afandim! Man o'tgan yil otangizni so'kmak qayda, o'zim onadan ham tug'ilg'onim yo'q edi», – desa ham: «Ha, nodon, holo ham adabsizlik qilursan», – deb bechora Qo'zini parcha-parcha qilib, yeb qo'ydi.

Hissa: Yamonning kuchi yapaloqqa yetar.

SHAYX SA'DIY

Shayx Sa'diy hazratlari kichiklik vaqtlarinda otalari ila birga sahar turub ibodat qilur edilar. Bir kun uylariga bir necha mehmon kelub, yotub qolmish edi. Ul kecha turgan vaqtlarinda mehmonlarning «pish-pish» uxbab yotganini ko'rub, otalariga: «Bular qaydoq¹ insondurlarki, ibodat uchun hech birlari boshlarini ko'tarmaslar, ibodatdan g'aflatni yaxshi ko'rurlar ekan», – deganlarida, otalari: «Ey o'g'lum! Ibodat qilurman deb sahar turub, birovni aybini ko'rganingdan, sen ham bular kabi tosh-dek qotib yotganing yaxshi edi», – dedilar.

Hissa: O'z qabohatini ko'rgan kishini(ng) o'zgalarning qabohatlarini ko'rmaqka vaqt bo'lmas.

¹ Qaydoq – qandoq.

QO'RQOQ

Bir kishi g'oyat qo'rqoq va yuraksiz o'lub, kechalari aslo ko'chaga chiqmas edi. Bir kuni o'rtog'larindan biri: «Birodar, san ham kechasi ko'chaga chiq, nimadan qo'rqsan. Agar biror kishi sanga qarab, qorayib kelur bo'lsa, san ham oning ustiga bosub boraver. San qandoq qo'rqsang, ul ham sandan shundoq qo'rqrar. Saning yuraklik va botirlig'ingni ko'ruba, sandan qochar», – deb oni yuraklik qilmak uchun nasihat qilsa... «Oh do'stim, bu ish aslo bo'lmas. Agar bu nasihatni ul odam ham eshitgan bo'lsa, ul ham maning ustima bosturub kelsa, man ul vaqtida qayga qochub qutulurman. Qo'y, birodar, saning bilgoning o'zing'a, meni bilgonim o'zimg'a», – dedi.

*Tarbiyat qilgon bila noasl odam bo'lmagay,
Ifni yuz alvon ila rang etsalar bo'lmas ifak.*

ITILA GADO

Bir It egasining eshigini poylab yotmishe edi. Yelkasida surjun, qo'liga tayoq ko'targan bir Gado kirib keldi. It buni ko'rgan zamon vovullay boshladi. Bechora Tilanchi Itga bo-qub, yolvorub: «He, jonivor, manga boq, marhamat qil. Iki kundan beri taom yegonim yo'q», – dedi. It Tilanchiga bo-qub: «Bu mani sanga qilgon marhamatim emasmu? Uydagi kishilar mani tovushimni eshitub, chiqub saning qorningni to'yg'azurlar», – dedi.

Hissa: Bahosi arzonni so'zi qimmatli bo'lur.

MAQTANCHOQ G'oz

Bir G'oz suvda suzub yurub: «Olamda mandan hunarmand qush yo'qtur. Yerda yugurarman, suvda suzarman, havoda ucharman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor», – dedi. G'ozning bu so'zini bir Qurbaqa eshitub: «Birodar, san muncha maqtanmasang... Chunki baliqdek suzolmaysan, kiyikdek yugurolmaysan, lochindek ucholmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilgoning yaxshi edi», – dedi.

Maqol: Maqtanma g'oz, hunaring oz.

AYIQNING DO'STLIG'I

Bir Qishloqi Ayiq birla yo'ldosh bo'lub, ikisi birga yashay edilar. Har vaqt Qishloqi uxlasa Ayiq tepasida, do'stumga bir narsa zarar qilmasun, deb poylab o'ltirar edi. Bir kun Qishloqi uxlab yotganda bir pashsha kelub peshonasiga qo'ndi. Har qancha quvsu ketmadi. Oxirda achchig'i kelub: «Bu zolimni urub o'ldurmasam bo'lmas», – deb, bir katta toshni olib kelub, Qishloqining boshiga chunon urdiki, pashsha uchib ketub, Qishloqi o'lub qoldi.

Hissa: Do'sti nodondan dushmani ziyrak yaxshi.

KALAMUSHILA SICHQON

Bir kun Sichqon Kalamushning uyiga borub: «Qo'shni, man sizga bir yaxshi xabar kelturdim. Mushuk Yo'lbarsning qo'liga tushgan emish: Bizlarga Mushuk kabi zolim dushman dan qutulmoq zo'r shodlig'dur», – dedi. Kalamush Sichqonga boqub:

«Ey qo'zim, san holo yoshsan, hech narsadan xabaring yo'q. Yo'lbars Mushukni o'ldurur, deb o'ylaysanmi? Yo'q, jonio, aldanursan. Butun olamda Mushukdan zo'r hayvon yo'qdur. Man bir-ikki marta sinaganman. Alloh hech kimni oning changoliga giriftor qilmasun», – dedi.

Hissa: Har kishi o'z kushandasidan qo'rqrar.

*Kesak qanoti siniq qush ko'ziga tosh ko'rinur,
Elakda tursa kefak, och ko'ziga osh ko'rinur.*

KO'R KISHI

Hazrat Muso alayhissalom Tur tog'iga borurlarida yo'llaridan to'sub bir ko'r kishi oyog'lariga yiqulub: «Meni haqimga duo qiling, ko'zim ochilsun», – deb yolbordi. Hazrat Muso duo qildilar, ko'zi ochildi. Ertasi yana Tur tog'iga borishlarida ko'rdilarki, ul ko'r kishi ko'chada kim ko'runga, shuni urub, hamani to'polon qilub yuribdur. Muso alayhissalom: «Alloh seni bilib ko'r qilgan ekan. Ne'mat qadrin bilmas ekansan, sendek kishilarning ko'zini ochug'idan ko'r bo'lgani yaxshi-roqdur», – deb yana duo qildilar, avvalgidek ko'r bo'lub qoldi.

Hissa:

*Mushukni bo'lsa gar iki qanoti,
Qolurmi dunyoda chumchuqni zoti.
Eshak bo'lsa ho'kizdek iki shoxlik,
Berurmi boshqa hayvonlarga sog'lik.*

AHMADILA OTASI

Bir kishining Ahmad ismlik o'g'li bor edi. Ahmad bir kun maktabdan kelurida bir bola birla urushub, bir musht urub, boshini yorub qo'ydi. Ul bola kelub Ahmadning otasiga arz qildi. Otasi Ahmadni chaqirub, mahkam iki qulog'ini(ng) burab: «Ey o'g'lim, man ham yosh vaqtimda sanga o'xhash mushtzo'r edim, changolimga tushgon kishini amon qo'ymas edim. Ittifoqo, bir kun o'zim ham bir mushtzo'rning qo'liga tushub qoldim, chunon adabimni berdiki, ikinchi o'zimdan kuchsizlarga aslo mushtzo'rlik qilmaydurgon bo'ldim», – dedi.

Hissa:

*Ulug'larni adab saqlab, qil izzat,
Kichiklarga muruvvat qil, muruvvat.
O'quvni yoqasini qo'yma zinhor,
Kuching yetsa, qalamning boshini yor.*

SOQIILA ONASI

Soqi bir kun maktabdan kelub, onosidan taom so'radi. Onosi oldiga bir kosa sho'rbo kelturub qo'ydi. Soqi sho'rbodan bir qoshuq og'ziga olub: «Ona, man bu mazasiz sho'rbongni ichmasman», – dedi. Onasi: «Ichmasang qo'y, o'g'lim. Boshqa pishirub berurman», – deb oldidan olub qo'ydi. Soqini(ng) kechgacha xazon toshitub, ishlatdi. Soqi horub, charchab, qorni ochub o'lturgon edi. Onosi yana shul sho'rboni isitub olib kelub, oldiga qo'ydi. Soqi sho'rbodan biroz ichib ko'rub: «Mana, onajon! Bu qanday totli sho'rbo bo'lmish. Umrinda aslo mundog' shirin sho'rboni ichkonim yo'q», – dedi. Onosi kulub: «Ey o'g'lim, bu boyagi o'zing ichmagon sho'rbodur.

Hozir san harakat qilding, ishlading, qorning ochdi, ishta-hang ochildi. Sho'rbo ham shirin bo'ldi», – dedi.

Hissa:

*Ishlamak ishtaha ochar,
Dangasa ishdan qochar...*

KO'RILA CHO'LOQ

Bir ko'r kishi ila cho'loq – ikisi bir katta suv labidan borur edilar. Bularga suv ustiga tashlangan yag'ochdan o'tmak lozim bo'ldi. Cho'loq aytdiki: «Birodar bu yag'och ustidan o'targa mani ayog'im yaramas». Ko'r aytdiki: «Agar mening ko'zim bo'lsa edi, o'tar edim», – dedi. Cho'loq aytdiki: «Bo'lmasa, san mani orqangga ofich, man sanga yo'l ko'rsatub, ayoq qo'yadurg'on yeringni aytub turay, ikimiz o'tib ketarmiz», – dedi. Shunday qilub bir-birlarini yordamlari ila iki yorti bir butun bo'lub suvdan o'tdilar.

Hissa: Janob Haq yer yuzidagi insonlarni bir-biriga muhtoj qilib yaratmishdur. Muhtoj vaqtida qo'ldan kelgancha bir-biriga yordam qilmak, hojat chiqormak lozimdur.

MAKTAB GULISTONI¹

MILLIY SHE'RLARDAN

BESHINCHI JUZ

*Maktab – xazinayi adab-u ilm(u) izzating,
Maktab – bog'i jannati firdavs, ne'mating,
Maktab kishini jahl(u) daniy²dan qilur xalos,
Maktab – kalidi ka'bayi qalb(u) zakovating.*

*Adabiy-axloqiy maroq-u shavq ila o'quladurgan hikoyalari,
she'r ila Turkiston mакtablarining ikkinchi sinflaridan boshlab
o'qutmoqg'a muvofiq ravishda yosh bolalar uchun yengil vazn va
oson sheva uzra tartib berildi.*

MAKTAB BOLASI

Bir kuni go'dak, shirin harakot,
(Bersin ollo umrina barakot),
Jildini bo'yniga olib osdi,
Maktabg'a qarab qadam bosdi.
Yo'lda bir o'rtog'i anga uchrab,
So'yladi o'ynamoq uchun ko'b gab:
«Kel, bu kun borma maktabg'a», – dedi.
Aldabon nonidan biroz yedi.
– Kel, birodar, buguncha o'ynayluk,
Katta suvlar bo'yini bo'ylayluk.
O'rtog'ining javobini berdi,
So'z ila xo'b odobini berdi.
Man emasman saning kabi ahmaq,
Fikr-u zikrim emas o'yin, kulmaq.

¹ 1916-yilgi birinchi nashri (Toshkent, Yakovlev litogr.) asosida tayyorlandi.

² Daniy – tuban, razil.

O'ynasam o'ynaram ozod bo'lib,
Ota-onamni xizmatini qilib.
Maktabga borub sabaq oluram,
O'qumasam, san kabi chafan qoluram.
Jur, sanam bor banim-la maktabg'a,
Ko'b havaskor bo'lmag'il gabg'a.
Yo'lga soldi til ila yo'ldoshin,
Maktabga moyil ayladi boshin.
Soldi o'rtog'ining so'zina qulog',
Bosdi ul ham o'quv yo'linha oyog'.
Ikkisi birga bo'ldilar mullo,
Chiqdi xat-u savod ham imlo.
Yaxshilar yaxshilikg'a boshlaydur,
Yamon o'rtog' yaqongdan ushlaydur.

VATAN

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,
Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdur.
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur.
Sening darding boshqa dardni tortib olur.
Yering, suving bizni boqub to'ydiradur,
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.
Olma-anor, anjir, uzum – mevalaring,
Ot-u ho'kuz, echki, taka, tevalaring.
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,
Har birlari noz-u ne'mat parchalari.
Sendan tug'ub, katta bo'lub, qaytib borub,
Yana senga kiradurmiz bag'ring yorub.
Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!

Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,
Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzuk so'yla!
Bizlar sotmas burun qilur erding faryod,
Biz sotgan so'ng nega dersan bizlardan dod.
Ayb bizlarda, seni sog'ub emolmaduk,
Yemush berib, yem o'rniغا yem olmaduk.
Bilolmaduk ko'ksingdag'i xazinani,
Biz bilmasmiz tosh-tarozu, mazinani,
Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botub,
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.
Seni sotub pul qilurmiz – ketur-qolur,
Bir yildin, so'ng bahong ikki bo'lub olur.
Tarbiyatsiz, ilmsizlik jazosidur,
Jaholatning boshga solgan azosidur.
Selobi g'am kelmas burun jadal birlan,
Tu(v)g'onini to'xtatmagan bo'lur Hijron.

HIJRON SO'ZI

Tug'ub o'sdim bu Vatanda,
Vatanim misli yo'q jahonda!
Tufrog'lari o'sumlikdur,
Manzarasi ko'rumlikdur.
Bir tarafda tog'lari bor,
Mevasi mo'l bog'lari bor.
Tog'laridan konlar chiqar,
Yerlaridan donlar chiqar.
Suvlaridur tamlu-totli,
Mevasi qand-u nobotli.
Bog'laridur shirin-sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.

Daraxtlari o'sar firosh,
Falak uzra ko'tarub bosh.
Havosi o'ta yoqimlik,
Cho'llari bor toshlik, qumlik.
Toshkand emas, toshqand erur,
Kesaklari gulqand erur.
Ishlagang'a xazinadur,
Dangasaga harinadur.
Kecha-kunduz faryod etub,
Ishlovchini yotur kutub.
O'tar kunlar, o'tar zamon,
Ey, Vatanim, bo'lma Hijron!
Men ketsam-da, sen bo'l omon!
Omon – Vatan, Vatan – omon!

NAMOZ

Tangrini farmonidur bizg'a namoz,
Dinimiz arkonidur bizg'a namoz.

Erkag-u qizg'a barobar qilmag'i,
Har kuni besh vaqt farz bizg'a namoz.

Qalbimizdan qayg'ularni yo'q qilur,
Hikmati Luqmonidur bizg'a namoz.

Jahl(u) g'aflat otashini past etar,
Kavsari obi hayot bizg'a namoz.

Farqsiz shoh(u) gado safda turar,
Hurriyat maydonidur bizg'a namoz.

Har qay-u mo‘min kerak qilmak ado,
Buyrug‘i Qur’onidur bizg‘a namoz.

Tark qilganlar gunohkor o‘lg‘usi,
Qilmog‘i lozim erur bizg‘a namoz.

Dunyoda izzu sharaf, uxroda ham,
Lutfi Haq rahmonidur bizg‘a namoz.

Benamozlar ko‘rmagay rohat yuzin,
Ikki dunyoga kerak bizg‘a namoz.

RO‘ZA

Ey mohi munavvari muborak,
Farz etdi sani biza taborak.

Insonga sharaf virdi quduming,
Shod etguchi san erur umuming.

Sansan hama oy ichinda sarvar,
Sandan dil-u jon o‘lur munavvar.

Ta’rif qilur sani malaklar,
Tabrik qilur zamin, falaklar.

Ey jome’yi jud(u) lutf(u) ehson,
Ey manba’yi nur-u fayz(i) Rahmon.

Vor sanda u rahmati ilohi(y),
Afu o‘lg‘usi bandang gunohi.

Haq lutfini sanda aylar izhor,
Ehsonli, karamli, baxshishing vor.

Masjidlar aro to'lur xaloyiq,
Tangring ibodatiga loyiq.

Mo'minlar edub xudoga sajda,
Boshini egub umumi banda.

Har kimda ibodata havas bor,
Har dilda surur, shod bisyor.

Ovozayi shavkating bo'lakcha,
Sanda so'rolur go'zal tilakcha.

Xursand bo'(l)masinmi ro'zadorlar,
Rahmat ishqil bu oyda porlar.

Ehsoni xudosan, ey sharif oy,
Bechorani sanda shod etar boy.

Yuz shukr Muhammad ummatiga,
Shoyista xudoni rahmatiga.

Gar tutmasa ro'za qay musulmon,
Bo'lg'usi gunohkor, (ey) Hijron.

ZAKOT

Xudo amrin tutungiz, ey g'aniylar,
Quloq solmas nasihatga daniylar.

Beribdur mol(u) dunyo sizg'a Rahmon,
Qo'lingizdan kelancha aylang ehson.

Zakotini bering bechoralarg'a,
G'arib-u benavo, ovoralarg'a.

Bu ishni hiyla yo‘lga burmang aslo,
Xudoni aldamoqg‘a yurmang aslo.

Yig‘ilgan molingiz chirkdan qiling pok,
Yaqongiz ro‘zi mahshar bo‘lmasun chok.

Hazar aylang faqirlar hissasidin,
Bo‘ling ogoh Qorun qissasidin.

Beranlarni(ng) xudo yaxshi ko‘rodur,
Nainki har kishi oni urodur.

Sulaymon qoshiga kirganda har jon,
Quruq qo‘l xushima kelmas, der erkon.

Beringizlar xudoni bergenidin,
Beran qo‘l ustun o‘lg‘ay olg‘onidin.

Xudoni amriga aylang itoat,
Saxovatni qiling boqadri toqat.

Hal (iz) jazou-l-ehson illal ehson,
Jazo vaqtida bo‘lmang zori Hijron.

HAJ

Bu kun bayti Xudo ajmo‘yi ummat-la muzayyandur,
Muazzazdur, mukarramdur, muqaddas, eng muazzamdur.

Butun dunyo musulmonlaring iyd azholari bo‘lg‘ay,
Butun Islom elin anda bu kun sho‘rolari bo‘lg‘ay.

Biza hajdan murod haq yig‘in qilmog‘i ummatdur,
Payg‘ambar aydilar bizga: «Jamoat fayzi rahmatdur».

Bukun qurban kesurlar Haq rizosini tilab Islom,
Xudo amrin ado aylab qilurlar bandalik e'lom.

Faqirlar siylanur har yerda joriy xayr ila ehson,
G'arib-u benavo, miskin, yetimlar shod ila xandon.

Fig'on, islomiyon g'aflat, jaholat-la parishondur,
Amal yo'q, ilm yo'q, birlik-da yo'q, arbobi isyondur.

Ajab, ehsona loyiq bir-siqim majruh o'lub qolduk,
Maorifdan oyilduk, mustahiq¹ beruh o'lub qolduk.

Ochib dast²i tamanno bir duo aylang, musulmonlar,
Bu kun g'am dastida bo'lduk parishonlig'da sarsonlar.

G'arib ummat, faqir millat, Vatan avlodi g'urbatda,
Yo'qoldi moya³miz, yo'q kasbimiz, biz – dard(u) mehnatda.

Fununa hashr⁴ ochildi, ilm tahsili uchun mezon,
Hisobini berolmay biz faqat a'moldan Hijron.

BAHOR

Avval bahor bo'lsa, kulur chamanlar,
Bargak yozur gullar, g'uncha dahانlar.
Barcha qushlar uchar, o'qur chamanda,
Bog'-u bo'ston, tog'-u sahro, o'rmonda.
Yaylovlarda qo'zichoqlar mag'rashur,
Ovozlari yuraklarni dog'lashur.
Har tarafdan suvlar shildirab oqar,
Shildiragan tov(u)shi odamga yoqar.

¹ Mustahiq – haqli, loyiq.

² Dast – qo'l.

³ Moya – mohiyat.

⁴ Hashr – mahshar, qiyomat.

G‘ir-g‘ir shamol yelpillatur gullarni,
Gul tebranub sayratur bulbullarni.
Har narsada shodlig‘ asar ko‘rilur,
Ko‘kmak bo‘lub beda-pichan o‘rilur.
Ekinchilar har xil oshliq ekarlar,
Tuxumlarin yerni haydab tikarlar.
Dangasalar bo‘lar-ketar, deb yotur,
Qish kunida ot-u to‘nini sotur.
Ko‘b ishlagan ko‘b olur, oz ishlagan – oz,
Qish kuni rohatdadur kim ishlasa yoz.
Har kim nima eksa, albat, shuni o‘rodur,
Ekmaganlar o‘zgalarg‘a muhtoj bo‘lodur.
Keling, biz ham ekinimiz boshlab ekamiz,
Imtihonda ekg‘animiz o‘rib yig‘amiz.
Har kim avval bahorini o‘tkarsa bekor,
Yoz kelganda Hijron bo‘lur, ul Tangri bezor.

YOZ

Yozda pishar barcha ekin, mevalar,
Shod o‘ladur zor yetim-bevalar.
Har yera borsang, hama ma‘murchilik:
Handalag-u tarbuz-u qovun – tilik.
Yer gunasha yaqin o‘lub nur olur,
Yerga muhabbatli ziyyosin solur.
Har kishi o‘z nafsi uchun ishlagay,
Ishlamagan qishda nima tishlagay?
Bog‘lari, bo‘stonlari rang-barang,
Mevasi-yu gullariga bir qarang,
Gullari, bulbullari bor, bog‘lari,
Qo‘ylari, qo‘zchoqlari bor, tog‘lari.

Sutlar-u, qaymog‘-qimizlar serob,
Suvlar oqur soylar aro sharqirob.
Bir taraf(d)a ekinchi – xirmonchilar,
Bir taraf(d)a o‘roqchi – ketmonchilar.
G‘ayratlilar g‘amini yer vaqtinda,
Tirtishub ishlaydur g‘animat kunda.
Ishyoqmaslar yozda yurar guldurab,
Qish kelganda qolgay ko‘zi mo‘ltirab.

KUZ

Kuz kuni ko‘zlara yamon ko‘rinur,
Yafrog‘i misli za’faron ko‘rinur.
Meva o‘rniga bog‘-u bo‘stonda
Shaldirab qaqshagan xazon ko‘rinur.
Gullar o‘rnida xor ila xashak,
Bulbul o‘rnida zag‘izg‘on ko‘rinur.
Ketgay Odam Atoni jannatidek,
Jo‘ylari bir sovuq yilon ko‘rinur.
Yozni ko‘rding, kuzni ham ko‘rasan,
Shodlig‘ ortidan fig‘on ko‘rinur.
Har kishi foyda ko‘rmagay doim,
Sud orqasidan ziyon ko‘rinur.
Yig‘lagan shod o‘lur, kulan yig‘lar,
Har daqiqa bo‘lak zamon ko‘rinur.
Aylanub-jaylanub o‘ta(r) bu zamon,
Keti avvalgidan yamon ko‘rinur.
Qish kelur boshinga qilich ko‘tarub,
Qalqoning paxtalik chapon ko‘rinur.
Yoz ishlamading, san ishyoqmas,
Yig‘mading don – poxol-u somon ko‘rinur.

Ko'zlarining jovidirar yeganga boqib,
Ishchi oldinda osh-u non ko'rinur.
Yoz ko'zim, yoz xating(n)i, tez-tez yoz,
Yoz – omon, kuz – omon, omon ko'rinur.

QISH

Kelsa qish, bo'lsa sovuq, har kimg'a me'yorincha vor:
Yo'qg'a-yo'xcha, borlara-borincha vor.
Boylar yog'liq palovni tanchada g'amsiz yemas,
Kambag'allar och-yalang'och chekg'on ozorincha vor.
Yerlara tushgan qirovlar ham daraxtda bulduruq,
Yozni yashnab o'sadurgon sabza gulzorincha vor.
Qish kuninda ho'l o'tunning achchig'i,
Yoz kunining mushki totorincha vor.
Ul sovuqni shiddatidin yaxlagan muzni ko'ring,
Boylarning oynabandlik sirli devo(r)incha vor.
Har kim uyiga yig'ilgan to'da qorlarga qarang,
Unfurush xannotlarning yig'gan omborincha vor.
Siz daraxt ustidagi oq qorlara aylang nazar,
Mullalarning chulg'agan boshiga dastorincha vor.
Bir tarafda qaltirab turgan tilanchiga boqing,
Ko'zlarining yoshi irmoqlarni(ng) asrorincha vor.
Bu sovuq rahm aylamas beva-yetimlar holina,
Kim yetar faryodina? – Bu hol dushvorincha vor?
Ko'rdingizmi, yaxshi qushlarni quvar o'z mulkidan,
Olti oy surgunda jon(i)vor, joni bezorincha vor.
Hosili: qish borni selob, yo'qlari Hijron qilur –
Bu sovuqning zulmi zolimlarning atvorincha vor.

OLLO(H) TAOLONING «QUDRATI»

Qodir Ollo(h), qodir Ollo(h) tog‘ni yaratdi,
Tog‘ning ichi qarong‘u deb oyni yaratdi,
Yaylovlarda o‘tlar chorva hayvonlar,
Bo‘ronlardan saqlansun deb soyni yaratdi.
Qo‘y-u qo‘zi, teva-sigir o‘tlar tog‘larda,
Minmak uchun ot-u eshak, toyni yaratdi.
Qorlar erub, oqar suvlar shovlab-shaldirab,
Shalolasi manzaralik joyni yaratdi.
Tog‘-u toshlar havosidur go‘zal, musaffo,
Shaharlarning tufrog‘i ko‘b – loyni yaratdi.
Kambag‘alni muhtoj qildi bir parcha nonga,
Katta-katta to‘y qilsun deb boyni yaratdi.
Kambag‘allar moshxo‘rdani yavg‘on ichadur,
Yog‘liq palov boy yesun deb moyni yaratdi.
Bechoralar go‘rdek tor uy-vayronda yashar,
Boylar uchun sirlik uylik joyni yaratdi.
Har kim keldi bu dunyoga bo‘lg‘usi Hijron,
Tangrim har ish oxirida voyni yaratdi.

MAKTAB

Firdavsi jinon maktab, nodonlara jon maktab,
Bilgan kishiga qadrin bir dorulomon maktab.
Ko‘ngul oshig‘i maktab, ruhing pishig‘i maktab,
Ilm-u adab o‘rgatgay, donanda, ko(r)don maktab.
Johillara g‘am maktab, yalqovlara kam maktab,
Husnixat kishilarga chin ruhi ravon maktab.
Har kim o‘qusa maktab, yo‘ldoshi bo‘(l)sa maktab,

Qandoqcha saodatdur, ey ahli zamon, maktab.
Dinning yozug‘i maktab, ruhning ozug‘i maktab,
Millat bolalariga ham osh ila non maktab.
Kimki o‘qumas maktab, kirmas-qaramas maktab,
Qilgay bu kishilardan faryod-u fig‘on maktab.
Jonom, o‘qungiz maktab, bor-u yo‘qingiz maktab,
Sizlar uchun, avlodim, bog‘i guliston maktab.
Manbayidur fan maktab, eng yaxshi chaman maktab,
Axloq-u odobsizga olmoqlig‘a kon maktab.
Guldastayi gul maktab, sunbul-u jambul maktab,
Bulbul kabi tolibga gulzori jahon maktab.
Milliy uyimiz maktab, to‘n-u to‘yimiz maktab,
Ta’lim uyidur, Hijron, eng yaxshi makon maktab.

TOG‘LARDAN BIR MANZARA

Turkiston tog‘lari to‘la kon emish,
Ichi, toshi butun osh-u non emish.
Nodonlikdan bizlar oni tosh derduk,
Kumush-oltin ichinda pinhon emish.
Jusha, zinnix, navshadil, oltingovut,
Tog‘ichinda tosh kabi qotgon emish.
Neft-u ko‘mir, paxta, sobunlar tog‘da,
Qo‘rg‘osh(in), qalay, mis, cho‘yan chandon emish.
Yovrupo ma‘danlarni istab topur,
Afsus, biz fan ilmini otgon emish.
Zar qadrini zargar bilar degandek,
Biz, nodon g‘am loyiga botgan emish.
Bizga dunyo ilmi kerak ermas deb,
Oxirat dunyoni biz sotgon emish.

Kecha-kunduz bizlar dard-u mehnatda,
Ilm ila yovrupolik xandon emish.
Nonimizni teva qilub berurlar,
Bizlar xo'b befarosat, nodon emish,
Onlar faqat ilma g'ayrat qulurlar,
Onlar – inson, bizlar ham inson emish.
Har millatning taraqqiysi ilm ila,
Nodon xalqning ko'zyoshi marjon emish.
O'qumasa, bilmasa har bir millat,
Hozirgi zamonda Hijron emish.

BECHORA CHOL

Bir faqiram, kunim o'tar kuch ila
Ishim yo'qtur go'sht-yog'-u guruch ila.
O'tun sotub, zo'rg'a avqot qilurman,
O'zimdan o'tganin o'zim bilurman.
Hech kim ogoh emas holi zorimdan,
Pushaymonman nodonlig'da korimdan.
Sovuq, sahar demay, tun-kun ishlaram,
Mehnat-mashaqqatda qoq non tishlaram.
Kunduzi oromim, kech rohatim yo'q,
Borgan sari rohat oz, kulfatim cho'q.
Bilmam, bu mehnatlar qaydan yopishdi?!

Qayga borsam, qayg'u-g'amlar topishdi.
Olimlarni ko'ram doim rohatda,
Johil qolib men benavo mehnatda.
Yoshligimda otam o'qutgan bo'lsa,
Olim bo'lub, qalbim nur ilan to'lsa,
Qaro kunlar tushmas edi boshimga,

Ranj-u mehnat kelmas edi qoshimga.
Qaro baxtim ibrat ko'zimni ochdi,
Hijron bo'lur, har kimki o'qurdin qochdi.
Shuning uchun o'quturman Ahmadni,
Ahmad o'qur man o'lgan so'ng rahmatni.

BOLAILA GUL

Bir bola yoz kunida bir bog'da
Sayr etardi kezub dil chog'da.
Ko'rdikim, bog'da gul turur ochilib,
Atrdek islari chiqar sochilib.
Gulni uzmoq uchun uzatdi qo'lin,
Uzubon iskamoqni tutdi yo'lin.
Egdi gul shoxini u bulbuli sho'x,
O'ylab erdi gulning tikoni yo'x.
Botdi nozuk qo'lig'a gul tikoni,
Gul kabi qo'lidan chiqordi qoni.
Boqdi gulg'a kulub, tabassum ila:
– Yo'q ekan senda hech rahm, siyla.
Yoshiribsan dilingda nashtari tez,
Suvrating yaxshi, nashtaring xunrez.
Zulm ermasmi bu ishing', ey gul?
Qo'nmasunmi shoxingga hech bulbul?
Qilmasunmi fig'oni faryodin,
Qo'rqlmayursanmi qahri Ollodin?
Bahramand o'lmasunmi sandin jon?
Siyrating – zahar, suvrating – jonon.
Qilmushingdan chekar hama ozor,
Dillarozordan xudo bezor.

Yarashurmi sanga shu badxo'ylik,
Esiz, ey gul, sanga u xushro'ylik.
Ot, chiqar dildagi tikonlarni,
Bo'lma xunrez, siqma jonlarni.
Bu ishingdur butun pushaymonlig',
Zulming so'ngi dog'i Hijronlig'.

BULBUL

Bahor o'ldi bu on bulbul,
Ochildi guliston bulbul.
Yuraging bo'ldi qon bulbul,
O'qu oromijon, bulbul.
Bahoring husni guldur, gul,
Binafsha, lola-yu sunbul.
Yuzing shaydosidur bulbul.
O'qu, har bir zamon, bulbul.
Bahor ovorasidursen,
Guling parvonasideursen,
Jahon afsonasideursen,
Eram taxtina xon bulbul.
Chaman kulgay gar o'lsa yoz,
Gulistonlar bo'lur xo'b soz,
Guling qadrin bilarlar oz,
Sen ul xo'b qadrdon, bulbul.
Yoz o'lmafsa, gul o'lmafsi,
Chaman ham bulbul o'lmafsi,
O'qugon johil o'lmafsi,
O'qu, ey xushfig'on bulbul.
Yozi suymas kishi yo'qdur,

Gul istamas kishi yo'qdur,
Valek bulbulda ortuqdur,
Gula eng mehribon – bulbul.
Bahor ayyomidur ayyom,
Demish shoir Umar Xayyom,
Ketur, ey soqi, gulgun jom,
Bo'lur Hijron chunon bulbul.

YALQOV

Uyon gaflatdan, uyqudan,
Cho'zilma, yotma qo'rquvdan,
Nasihat tingla haqgo'dan,
Qulq sol so'zima, yalqov.
Tasha katta dumog'ingni,
Daroz etma qulog'ingni,
Kechurma yosh chog'ingni,
Dedurma o'zinga «yalqov».
Cholishmoq jong'a rohatdur,
Cholishmaslik hamoqatdur,
Ham ofatdur, qabohatdur,
Zarardur o'zinga, yalqov.
Jadal qil, ilm uchun sa'y et,
Murod-u maqsadingg'a yet,
Ulug'larning yo'lidan ket,
Boq o'z ahvolinga, yalqov.
O'qub ilm-u adab o'rgan,
Yoqil, ilm o'tina o'rtan,
Avom insonmidur inson,
Davo qil dardinga, yalqov.

Hamisha xor – shaltoqlar,
O'qing, ey do'st – o'rtoqlar,
Nodonlik o'ylamang, yoqlar,
Jafodur joninga, yalqov.

G'AYRIJINS ITTIFOQ

(Krilovdan tarjima)

Bir kuni Toshbaqa, Baliq, O'rdak,
Qildilar maslahat uchi birdak,
Dedilar: Biz arobakash bo'lamiz,
Tortarmiz arbani va yo o'lamiz.
Yopishub bir arbaga mahkam,
Jon-dildan chekurdy uch hamdam,
Kuchlari arbaga yetushmas edi,
Arba bunlar yo'licha ketmas edi,
O'rdak osmon sariga tortardi,
Baliq esa yoniga tortardi,
Toshbaqa sudrar erdi orqa sori.
Yo'q, edi ittifoqning osori.
Qildilar qancha sa'y bebarakat,
Arba o'rnida turdi beharakat.
Munda kim ayb egasi, kim aybsiz,
Bir havodis¹ bizim uchun kayfsiz.
Bu ishi bir kishi go'zal biladur,
Arba hamon qimirlamay turadur.

¹ Havodis – hodisalar.

TULKIILA SERKA

(Krilovdan tarjima)

Tulki sakrab yurar edi cho'lda,
Bir quduq bor edi o'shal yo'lda.
Nogahon tushdi-ketdi gumburlab;
Choh ichinda o'tirdi g'ung'urlab.
Ul quduq tor edi, chiqolmaz edi,
Tulkining baxtiga suyi oz edi.
Serka o'tlab yururdi yiroqda,
Susabon su(v) qidirdi shul choqda.
Serka choh boshiga kelib oralab,
Ko'rdi Tulkini tepadan mo'ralab.
Tebratib to'rbadek uzun soqolin,
So'rdi Tulkini(ng) hol-ahvolin.
Serkag'a Tulki maxtadi su(v)ni,
Suv deganda toshardi nafsi uni.
«- Su(v) desang, tush, bu yerga, ulfat bo'l,
Su(v) degan bu quduqda erkan mo'l».
Serka otdi o'zin quduq sori,
Tulkining hiylasi bo'lib yori,
«Gum» etib tushdi Serka suv ichiga,
Suvlari sachradi quduq chetiga.
Tulki aytdi: «Ayo, uzun saqqol!
Duzg'a yetding sen yaqqol.
Suvni to'ygancha man ichub erdim,
Qolganin butun sanga berdim».
Sakrabon Serka ustiga chiqdi,
Andan irg'ib yuqoriga chiqdi.
Serkaning sohibi necha muddat,
Axtarubon bo'lub edi diqqat.

Oxiri bu quduqda ko'rdi oni.
Serkaning qolmish erdi yorti joni,
Ming mashaqqat bilan chiqardi bazo'r,
Serka bo'lgan edi cho'loq ham ko'r.
Sohibi Serkaning ko'rib holin,
Aytdi boshin silab, tarab yolin:
«Ey soqoli cho'q, aqli yo'q Serkam,
Qildi Hijron soddalik, erkam».

MAYMUNILA KO'ZOYNAK

(*Krilovdan tarjima*)

Juda qartaymish erdi bir Maymun,
Ko'zining nuri qolmab erdi butun.
Ul eshittdi bu dard uchun darmon –
Ko'zoynak tutar emish inson.
Pul yig'ub ko'zguni sotib oldi.
O'zini qayta(ga) zahmatga soldi.
Goh tutardi dumiga, goh ko'ziga,
Foyda bermasdi oynagi o'ziga.
Bo'ldi Maymun taqolmayin hayron.
Dedi: «Xo'b hiylagar erur inson,
Manga kim dedi ani olg'il deb,
Kim buyurdi ko'zingg'a solg'il deb.
Qursin oynak ko'zimni qildi xira,
Taqmazam oynakini endi sira.
Tuf! Bu dunyoni e'tibori yo'q,
Ochni holin biladurmi to'q?!

Sarf etar pulni yo'qg'a insonlar,
Qilmayur ko'r va shalga ehsonlar,
Kimga aytay bu dard-u hasratni,

Kim eshitgay bu qayg‘u, kulfatni.
Ko‘zlarim ojiz, o‘zim qariman,
Mustahiqman, kamina kamtarinman.
Hech kishi so‘rmayur bu ahvolim,
Ketdi quvvat, madorim, iqbolim.
Ko‘zgu ham menga qilmadi darmon,
Dilda hasrat, ko‘ngulda ko‘p armon.
Ko‘zguning xayri yo‘q ekan misqol»,
Deb otib toshga urdi ul darhol.
Oynagin parcha-parcha qildi o‘zi,
O‘rtanub der edi o‘zi bu so‘z(n)i:
«Oynak olmoq o‘zi ekan oson,
Mushkuli ani taqmog‘ida ekan».
Kimki haddidan oshub ish qilsa,
Oxirida bo‘lur shulay Hijron.

ITILA YO‘LOVCHI

(Krilovdan tarjima)

Kechqurun yo‘l ketardi ikki kishi,
So‘zlashuvdan yo‘q erdi o‘zga ishi.
Nogahon bir kuchuk chiqib bog‘dan –
Vovulladi bulara so‘l va sog‘dan.
It ovozin eshitdi boshqalari –
Keldilar, jam bo‘ldi yosh-u qari.
Yig‘ilub barchasi hujum etdi.
Yo‘lchilar aqli boshidan ketdi.
Yo‘lchilardan biri olib bir tosh,
Urmoq o‘lg‘onda aytdi bir yo‘ldosh:
«Qo‘y, qo‘ling og‘ritub nima qilasan,
Itlarning fe’lini o‘zing bilasan.

Hamla qilgang‘a vermayur rohat,
It guruhinda bo‘yladur odat».
Itlara solmayin qulog‘ onlar,
To‘g‘ri ketaverdilar iki jonlar.
Darhaqiqat, sekin-sekin hamasi.
Tarqalub ketdi, qolmadi birisi.
It degan itligin qilaberadur,
E’tibor etmasang ketaberadur.

QARG‘AILA ZAG‘IZG‘ON

Qarg‘a bir kun dedi Zag‘izg‘onga:
– Qoch, agar ovchi duch ke(l)sa sanga.
Ehtiyot et o‘zingni miltig‘dan,
Otsa poylab, yiqilmag‘il bordan.
Qarg‘aga Zag‘izg‘on dedi: – Nodon!
Go‘shtimizni yemas bizi inson.
Sen-u bizga kerak emas qo‘rqmoq,
Nega qo‘rqarsan, ey boshi to‘qmoq?
Ovchi ahmoq emas, biza o‘q otib,
Bizni otmoqg‘a bir o‘qin yo‘qotib.
Go‘shtimiz onlara halol ermas.

.....¹

Qarg‘a bu so‘zni ayladi takror:
– Dermusan odam o‘g‘lida rahm vor?!

Sen ajab bir qiziq so‘zi aytasan,
So‘zima kirmasang, o‘lub ketasan.
Boqmagaylar seni kalomingg‘a,
Go‘sht-mo‘sht-u halol-haromingg‘a.

¹ O‘qib bo‘lmadi.

Ishlaridur alarni qon to'kmak,
To'g'ri kelganni urmak-u yiymak.
To'g'ri kelsa, urar birini biri,
O'q-u nayza urish – alar hunari.
Onlari yo'q ishi fig'oning ila,
Xonavayron-u aziz joning ila.
Ko'rsaturlar sanga hunarlarini,
Bu hunardan chiqan unarlarini.
Hosili: Qoch, ko'randa inson, qoch!
Borma yoniga, garchi ersang och!
Onlaring kori-bori dushmanlig',
Hech yarashmas onlara insonlig', –
Deb so'zini tamom qilan yo'q edi,
Ovchidan bexabar, ko'ngul to'q edi,
«Tars» etub, ovchi Qarg'ani otdi,
Qarg'a, bechora tosh kabi qotdi.
Zag'izg'on ham yiqildi bir o'q ila,
Ikkisi ham ketishdi chag'-chug' ila.

QAMISHILA QOVG'A

Qovg'a ila Qamish bo'lub yondosh,
Ikkisi ham ko'targan erdi bosh.
Qildilar suhbat ikkisi bir kun,
Qizishub ketdi so'zлari ul kun.
Qamisha ta'n ayladi Qovg'a:
– Turmushingdur seni butun g'ovg'a,
Shaldirab lof urmog'a ketma,
Sen bo'yingg'a inonma, faxr etma.
So'rrayibsan, beling bukulmaydur,
Salla – boshda, bo'yin egilmaydur.
Ko'k choponingni yengi shalbirlar,
Boylaring to'nlaricha shaldirlar.
Savlating shayxdek, ichingdur bo'sh,
Yoqilursan o'tun bo'lub xomush.
Qomating to'g'ri, lek mevang yo'q,
Oning uchun dilingda qayg'ung cho'q.
To'g'ri so'zga Qamish sukut etdi.
Orodan bir necha zamon o'tdi.
Nogahon guldirab shamol yetdi,
Qamishing boshini uzub ketdi.
Qovg'a do'stindan ayrilib hayron,
Kim egilmas, dedi: – Bo'lur Hijron.

QUSHILA ILON

Er-u xotun bo'lub edi iki qush,
Yashar edi hamisha vaqtin xush.
Bir kuni avval bahor o'ldi.
Yer yuzi sabza – lolazor o'ldi.
Suv bo'yida daraxt shoxiga,
In qo'yub tuxm uchun butog'iga.
Shod-xurram uchar-qo'nar edilar,
Sayrashub, nag'malar qilar edilar.
Orodan bir necha zamon o'tdi,
Tuxmdan bolalar chiqub yetdi.
Bunlara bo'ldi ro'zgor katta –
Bola boqmoq kerakdur albatta.
Biri avqot uchun ketar erdi,
Biri uy ishlarin kutar erdi.
Bir kuni inida otosi(z) edi,
Bir ilon chirmashub chiqub keldi.
Dod-faryod qildi bechora,
Etjadi rahm anga yuzi qora.
Azroil qush bolalarin yutdi,
Otasi nola motamin tutdi.
Onasi keldi, ayladi faryod:
– Dod, zolimlarining alindan dod!
Aydi bu so'zni o'rtanub Hijron:
Uy buzuvchi bo'lur xonavayron!

VALINING JUM'A BAYRAMI

Man jum'ani suyurman,
Shod-u xurram bo'lurman.
Bu kun jum'a axshomi,
Erta bayram qilurman.
Ertaga erta turub,
Yuz-u ko'zim yuvurman.
Choyimni ichib bo'lub,
Biroz o'ynab kelurman.
So'ngra borub jome'ga,
Jum'a namoz o'qurman.
Qarindoshlarni ko'rub,
Uyga qaytub kelurman.
Otam, onam xizmati,
Bo'lsa ado eturman.
So'ngra saboqlarimni
Takror qilub bilurman.
Qur'on qilib tilovat,
Xufton o'qub yoturman.

GULISTONDAN BIR MANZARA

Sanoye' o'sturub alvon rang-barang gullar,
Qizil oq-u qaro turli-turli sunbullar.
Bularni manzarasi jonlara safo veradur,
Bo'lakcha ruh, bo'lakcha go'zal sabo veradur.
Yashilcha barg ichindan qizilcha g'unchalari
Bo'yin cho'zib chiqishi uyg'otur dushunchalari.
Oq ochilan guli oppoq go'zal qizi yuzidek,

Qizilcha qirmizi gul bargi yuzing ruhidek.
Sarig' guli ko'riyur ishq eli kabi Hijron,
Yuzi visoli tilab hajr o'tida sarg'aygan.
Nigorgul yuzin ustida qosha tortilgan,
Misoli o'sma kabi barggulga ortilgan,
Bu manzara, bu tamosho, bu qudrat – bori –
Yetishmayur biza, onjaq uyar g'amxori.

BAHOR KELDI

G'ofil qolma, keldi bahor,
Ekinlarni ekding, o'sor.
Bog'bon ekar gul bog'iga,
Bulbul qo'nar gul shoxiga.
Gul ochilur, bulbul sayrar,
Ko'ngillarni masrur aylar.
Gul ishqida sayrar bulbul,
Lekin bilmaydur muni gul.
Kecha-kunduz aylar fig'on,
Gul fig'onin bilmas bejon.
Bulbul gulning isin suyar,
Chumaki-la har kun tuyar.
Hech narsag'a yo'q parvosi,
Boshida gulning savdosi.
Kecha-kunduz tinmay o'qur,
Xat yozay deb gulni cho'qur.
Bahor o'tar, gullar – xazon,
Bulbul bo'lur yana Hijron.
Siz ham o'qing yosh chog'inda,
Umrangizning bahorinda.

Jadal qiling, vaqt o'tmasun,
Xazonning vaqt yetmasun.
So'nggi pushmon – jong'a dushmon,
G'ayrat qiling, bo'l mang Hijron.

ZULUKILA ILON

Bir kuni bir Ilon Zuluk ko'rdi,
Bu so'zni Zulukdan ul so'rdi.
Dedi: Hayron-da men, bu ishga, ajab,
Menga suvratda o'xshayursan hab.
Nima uchun seni suyar inson,
Meni ko'rsa, bo'lur joni larzon?
Nimaga suymayur meni birisi,
Seni siylab boqadur har birisi?
San-da sancharsan odami, man-da,
Na sabab bor, bilmazam munda.
So'zini sob qilub edi u Ilon,
Kulubon so'yladi Zuluk chunon:
– So'zlarining to'g'ridur, borisi – haq,
Haqqini so'ylayin senga onjaq.
Men tabiatda sancharam sendek,
Nashtar urmoqda ikkımız birdek.
Qay zamon sanchsang sen insonni,
U zamonda chiqar aning joni.
Men esa sanchuram ho'b ohista,
Sog'olur tishlasam qay-u xasta.
Menga boqmay senga boqarmu kishi?
Zulm hech kimsaga yoqarmu kishi?
Zulmdan doimo qochar inson,
Nashtaring jonlari qilar Hijron.

TULKIILA QARG'A

Bir kuni och qolib edi Tulki,
Ochlig'indan tolib edi Tulki.
Necha xil hiylalarni o'ylar edi,
Ochlig'in o'z-o'ziga so'ylar edi.
Hech kishi yetmas erdi dodiga,
Bir qiziq hiyla tushdi yodiga.
Bir chinorda bor erdi Laklak ini,
Uchta yosh bolasi bor erdi ani,
Tulki qurdi u domi tazvirin,
Ishlatur bo'ldi hiyla-tadbirin.
Oldi arra-teshasini ko'tarib,
Kesmaq uchun chinor tubiga borib,
Laklaka aytdi: – Ey, uzun bo'yluk!
Bizni yerda bo'lurmusan o'yluk?
Bu daraxt, yer meros manga otadan.
O'zga joyida in qo'yub yotasan.
Ket bu yerdan, bo'lak yera in sol,
Man kesarman chinorimni al-hol.
Laklak aytdi: – Birodarjonim,
Holima rahm ayla, jononim.
Buzub uyimni, qilmagil giryon,
Uyi yiqqanlar bo'lur xonavayron.
Marhamat qil bu yosh go'daklarima,
Mone' o'lma butun tilaklarima.
Bir bolamni beray, yebon to'yg'il,
Xonavayron qilma, tinch qo'yg'il.
Bir bolasini Tulkig'a otdi,
Bo'ldi ma'yus, qay(g')uga botdi.

Tulki qornini to'yg'azub ketdi,
Hiyla birlan murodiga yetdi.
Qarg'a voqif edi bu ishlardan,
Laklaka o'rgatay, dedi bir fan:
– Xo'b uzundur bo'ying-u, aqling oz,
Qishga yo'q toqating, tilarsan yoz.
Tulkining korimu o'tin kesmoq,
Shunga ham yetmas aqling, ey ahmoq.
Yo'qg'a bir bola aylading qurbon,
Befarosat, tushunchasiz, nodon.
Qarg'aning so'zлari qilub ta'sir,
Bildi, Tulki so'zлari ekan tadbir.
Ertasi keldi hiylagar Tulki,
Tama'yi qo'zg'alub chu avvalgi.
Yana osti chinoriga yetdi,
Ket, debon Laklakka xitob etdi.
Laklak aytdi: – Yo'qol, ayo xoin!
Ishla hiylangni san bilub joyin.
Qarg'aning pand bergenin bildi,
Ochlik bag'rini yana tildi.
Hiylasin Qarg'a soriga burdi,
Qarg'ani(ng) tutmog'a tuzog' qurdi.
Bir baland yerda yotdi o'lgandek,
Ko'zlarin yumdi murda bo'lgandek.
Qarg'a Tulkini o'luk guman aylab,
Qo'ndi boshining ustiga poylab,
Cho'qumoqchi bo'lub edi ko'zini,
Hiylagar Tulki tishladi o'zini.
Dodi faryodiga nazar solmay,
Qarg'ani(ng) Tulki boshladi yalmay.

Qarg'a chindan o'larini bildi,
Bu-da bir yaxshi hiylani qildi.
Tulkig'a: – Ey, birodarjonim!
Senga bo'lsun halol et-u qonim.
Bu baytni o'qub, yegil go'shtim,
Bu vasiyatni senga men qo'shtim:
«Bevatan, bego'r-u kafan Qarg'a,
Laklak(k)a yaxshilik edan Qarg'a!»
Tulki bu baytni o'qumoq uchun
Shavq ila yig'di tanda bor kuchin:
«Bevatan, bego'r-u kafan Qarg'a,
Laklak(k)a yaxshilik edan Qarg'a!»
Tulki «Qarg'a» deganda og'zin ochib,
O'q kibi Qarg'a chiqtி-ketdi qochib.
Tulki hayronda qoldi aqli shoshub,
Bo'ldi Hijron bo'g'umlari bo'shashub.
Hiylada mandan o'tdi Qarg'a debon,
O'kunub, xo'rsunub yedi pushmon.
Qarg'a maqsud-murodiga yetdi,
Hiylagar Tulki och qolub ketdi.

YOLG'ONCHI CHOPO'N

Bir kuni bir cho'pon qilub faryod,
«Bo'ri keldi!» – debon choqirdi dod.
Qishloqilar yugurdilar birdan,
Qo'ylari asramoq uchun bo'ridan.
Bunlari holini ko'rub Cho'pon,
Qahqaha ila kulub dedi: – Yoron!
Aldabon sizlarni chaqirmish edim,
Sinamoqg'a sizni baqirmish edim.
Aldanub qaytdilar alar ul on,
Ertasiga yana chaqirdi Cho'pon.
«Bo'ri keldi!» – debon fig'on etdi,
Bo'rilar qo'ylara kelub yetdi.
Eshit(g)anlar bunga inonmadilar,
Dodi faryodiga ishonmadilar.
Yedilar bo'rilar hama qo'yini,
Mana, jonim, yalg'onchilik o'yini!
Ko'rdingizmi yalg'onchilik zararin,
Bir yalon so'z yo'q etdi bol-u parin.
Bir yalonchi bo'lub edi cho'pon,
To'g'ri so'zlasa ham ko'rundi yalg'on.
O'g'lim, aytma yalg'on so'zi aslo,
Do'st tutmas yalg'onchini Ollo.
Hamda el ichra hurmati bo'lmas,
Xalq aro qadr-u qiymati bo'lmas.
Uyi kuysa yalg'onchini dedilar,
Ango hech kim ishonmayur edilar.
To'g'ri so'z qutqarur balolardan,
Dog'i Hijron va mojarolardan.

TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ¹

Men bu asari nochizona²mni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lif bermak ila barobar ulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarina taqdim qildim.

*Har kun o'luram shomg'acha men g'amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,
Men xastayam-u millatim o'lmish nega bemor?*

¹ 1917-yilgi 2-nashri (Toshkent, Nar. Sots. Rev. litogr.) asosida tayyorlandi.

² Nochizona – arzimas.

AXLOQ

Insonlarni(ng) yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgon kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'ilmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqror qilub, tuzatmakg'a sa'y va ko'shish¹ qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozisiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

*So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,
Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.
O'ylasang, yaxshi fikrlar o'yla,
Yo'qsa, gung bo'lmoqing erur yaxshi.
Ishlasang, ishla yaxshi ishlarni,
Yo'qsa, bekorlig'ing erur yaxshi.*

XULQ

Inson iki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikinchisi nafs-dur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rар. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon

¹ Ko'shish – harakat qilish, tirishish.

bo‘ladur. Jasadning surati hammaga ma’lum bir narsadurki, har vaqt ko‘zga ko‘rinib turadur. Ammo nafsning surati ko‘zga ko‘rinmaydurgon, aql ila o‘lchanadurgon bir narsadurki, buni xulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulub, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, «Allahu akbar», bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabitidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz:

«Bir tog‘ning o‘rnidan ko‘chub ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo‘ldi deb eshitsangiz, ishonmangiz», demishdur.

*Xulqi yomon yuz, go‘zalidin na sud,
Yuz, ko‘zli xulqni qilmas kashud.
Xulq mariziga¹ davo istasang,
Marg davosin berilur qistasang.*

*Xulqi yomonning ketrurar ko‘p zarar,
Xulqing o‘zi boshingga kaltak urar,
Xulqi fano bo‘lsa degi, alhazar,
Xor-u zalillikda qolur darbadar.*

YAXSHI XULQ, YOMON XULQ

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikiga bo‘lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg‘a tavsif bo‘lub «yaxshi xulq», agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlaydurgan bo‘lub ketsa, yomonliqg‘a tavsif bo‘lub, «yomon xulq» deb atalur. Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila

¹ Mariz – dard, illat.

bo'ladur. «Qush uyasinda ko'rganin qiladur». Inson javhari qo-bildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub, katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub o'ssa, Allohdan qo'rqlaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog'iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lub qolur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Imoni komil bo'lgan kishilar yaxshi xulqli bo'lurlar, sizning eng yaxshilaringiz xotunlariga yaxshilik qilganlaringizdur», – demishlar.

*Xudoning rahmat-u fayzi hama insonga yaksardur,
Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur.
Tug'ub tashlov bila bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.*

*Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lgusi zolim.
Yomonlarga qo'shuldi Nuhning o'g'li, bo'ldi beimon,
Yurudi Kaxf iti xo'blar ila bo'ldi oti inson.*

TARBIYA

Tarbiya – «Pedago'giya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda biroz so'z so'yaymiz. Bolaning salomi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyanı bolaning vujudidagi jahl maraz¹iga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qil-

¹ Maraz – dadr, illat.

mak lozimdur. Zeroki, «Hassanu axloqakum» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasи tarbiyadur.

Axloqimiz(ning) binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur. Ba’zilar «tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas»,

*Yomon xo¹ tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o‘lmas ip, rangi alvon ila.
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslini rangidan,
Va yokim ulangandagi zangidan», –*

demishlar.

Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta ta’siri bo‘ladur. Oramizda masal borki, «Sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu so‘z to‘g‘ridur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm o‘rgan», – demishlar. Bu hadisi sharifning ma’nosi bizlarga dalildur. Hukamolar dan biri: «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur», – demish. Shariati islomiyada o‘z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o‘z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur. Payg‘ambarimiz: «Bolalaringizni yetti yoshida namozga o‘rgatingiz. Agar o‘n yoshida o‘qumasa, uringiz», demishlar.

*Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,
Balki oxirida erur dorulamonni tarbiyat.*

¹ Xo‘ – xulq.

*Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara,
Gar desam bo'lmas xato jannat makoni tarbiyat.*

*E, otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,
G'ayrat aylang o'tmasun vaqt-zamoni tarbiyat.
Moyayi zilli humodur tarbiyatning soyasi,
Bizda anqo tuxmidek yo'q oshiyoni tarbiyat.*

TARBIYANING ZAMONI

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga, «Birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», – deb javob bersak, bir kishi deyurki, «Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarmi? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar», – der. Mana, bu so'z kishini yuragini ezar, bag'rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, «qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zları qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qutmak, tarbiya qilmak lozimdur», – der. Mana bu so'zni eshitgach, umid qo'llari qo'l tuqg'a urilur.

Xayr, bo'lmasa muallim-chi, desak, «qaysi muallim? Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumagan, «usuli ta'lim» ko'rmagan muallimlarni aytursizmi? Avval o'zları «dovulmuallimin»larda o'qimaklari, so'ngra dars bermaklari lozimdur», – der. Mana bu so'z insonni hayrat dar-yosiga g'arq qilur.

Mudarrislarga ne dersiz desak, «qaysi mudarris? Matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Bular o‘z vazifalarini bilub, nafslaridan kechub, zamonga muvofiq ravishda darslarini isloh qilub, imtihon birla o‘qutmaklari lozimdir», – der. Mana bu so‘z har kimni «Al-isloh» demakka majbur qilur. Bo‘lmasa, hukumat-chi, desak, «xayr, hukumat hammaning otasidur. O‘z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumati o‘gay bo‘lsak ham, har yerda bizlar uchun ham maktablar ochub, bolalarimizni tekin o‘qitur. Lekin o‘zimiz ish bilmagan, yalqov, uyda ona tarbiyasi, otadan pul tarbiyasi, muallimdan axloq tarbiyasi, mudarrisdan funun tarbiyasi ko‘rmaganimizdan, hukumat maktablaridan ham o‘z hissalarimizni ololmaymiz», – der. Mana bu so‘z bizlarni tarbiyadan mahrum, huquqning na ekanin bilmaganligimizni bildirur.

Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot¹, yo najot – yo halokat, yo saodat yo – falokat masalasisidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur», – demishlar.

*Agar bir qushning yosh bolasin olib,
Bo‘lur tarbiyat birla yolg‘a solib.
Onasin olib asrag‘on birla rom,
Qilmas, kishi sa‘y qilsa mudom.*

*Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug‘ bo‘lsa lozim kelur g‘am yemak.
Egur bemashaqqat kishi navdani,
To‘g‘unchi² egur kuydirib kavda³ni.*

¹ Mamot – o‘lim, vafot etish.

² To‘g‘unchi – temirchi.

³ Kavda – taqa.

BADAN TARBIYASI

Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lмаган insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidur. Biz sihatimizni saqlamak ila amr o'linganmiz, shuning uchun vujudimizni hifzi sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churutmakdan saqlanmakligimiz lozimdur.

Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikisi bir choponni o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdurdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo'lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do'xturga boqizmak kerak.

Imom Shofe'yi hazratlari: «Ilm iki xildur: biri badan ilmi, ikinchi din ilmi», – demishlar. Bunga qaraganda eng avval hifzi sihat qoidalarini bilmak, salomatlikga ters bo'lgan narsalardan saqlanmak ila bo'ladur.

Ichkulik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatlikiga zararli, og'ulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Har narsa ko'p ichganda mast qiladurgan bo'lsa, man sizni oning ozginasidan ham nahyi qilaman», – demishlar.

*Salomatlikni saqlov lozim ishdur,
Gunahdan saqla jisming yoz-u qishdur.
Kasal bo'lsang, bo'lur dunyo qorong'u,
Maishat talx¹ o'lub, hasrat chekishdur.*

*Harom-u shubhadan pok et o'zingni,
Bu dunyo aysh-u ishratdan kechishdur.
Hama ishratchi hijronlikda ketdi,
Bu olamda bir ish ishlab ketishdur.*

FIKR TARBIYASI

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidur. Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

Masalan, joy solinmagan yaxshi bir uyning ichida o'tirmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturushga yaramaydur. Basharti o'lturulsa, insonlar: «Eski uyg'a yangi zoldedor», «kir ko'ylakka jun jiyak», «mis qozonga loy tuvoq» deb hajv, kulgi qilurlar.

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.*

¹ Talx – achchiq.

*Fikring oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur.*

AXLOQ TARBIYASI

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdur.

Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlariliga omil bo'lub, shogirdlarga ham bergen darslari ni amal ila choqushturub o'rgatmamlari lozimdir. Bu ravish ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmayduran kishilar», – demishlar. Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur. «Domlaning o'zi falon joyda falon ishni qildi. Ammo bizlarga qilmanglar, haromdur, deb va'z etadur», – deb fikr va xayollariga bo'yла shak va shubha tushub qoladur.

Bayt

*Minbar uzra jilva aylab va'z etarlar qilma deb,
O'zlarin xilvatda ko'rsang, oni qilmoqda emish.
Ichma suv, derlar biza oltun-kumush asbobda,
Bilsamiz maqsudlari qo'ltiqg'a urmoqda emish.*

YAXSHI XULQLAR

Yaxshi xulq – bir qismi o‘z nafsimizga, bir qismini bir-biri-mizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat¹, diyonat, islomiyat, nazofat², g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm³, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat⁴, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo⁵, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munsilik, sadoqat, muhabbat va afvdur. Mana bu yozdig‘imiz yaxshi xulqlar aql va shar‘i sharifga muvofiқ, Alloh taolo ham bandalar qoshida maqbul va mo‘tabardur. Emdi bu yaxshi xulqlarni qo‘lga olmak uchun ota-onasini, muallim-ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog‘i birla tinglab, doim xotirda tutmak, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo‘lmak, axloqi buzuq yomon kishilardan qochmak lozimdir. Bizim shariati islomiyada «axloqi hasana»⁶ – yaxshi xulqlar ila xulqlanmak, har narsaga ibrat ko‘zi ila boqub, xulqini tuzatmak vojibdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam: «Islomiyatda buzuqlik yo‘qdur, buzuqlikniga ustiga oluv ham yo‘qdur. Islomiyatda eng mo‘tabar kishilar yaxshi xulq egalaridur», demishlar.

Bayt

*Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo‘lur,
Yursa nodonlar ila bir kun borib qotil bo‘lur.
Kattalar qilgon nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo‘lur.*

¹ Fatonat – o‘tkir zehn, ziyraklik.

² Nazofat – poklik.

³ Hilm – halimlik, muloyimlik.

⁴ Nazari ibrat – ibrat ko‘zi.

⁵ Rajo – umid, tilak.

⁶ Hasana – yaxshi, chiroylı.

FATONAT

Fatonat aql egasi bo‘luv demakdir. Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din-u e’tiqodini(ng) mahkam qilur, shariat hukmlariga bo‘yunsunar. Aqlsiz, jinni kishilar bularga bo‘yun qo‘ymas, shariatdan tashqari ishlarin ham qilur. Janobi Haq insonni hayvonlardan so‘z va aql ila ayirmishdur. Hayvonlar o‘zlariga bo‘laklar tarafidan keladurgan zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson janobi Haq tarafidan berilmish aql va idroki soyasida o‘ziga keladurgan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo‘yunidan boylab, iplarini uchini qo‘llariga bergen insonlarning aqlidur.

Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur.

Ilm o‘rganmak, olim bo‘lmak uchun mакtabga kirmak, muallimdan ta’lim olmak lozim, aqlsiz kishilar na maktabga kirar va na muallimni(ng) bilur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey insonlar! Aqlingizga tavoze’ qilingiz. Siz janobi Haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz», – demishlar.

Hukamolardan biri: «Agar aqlingni qo‘li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo‘llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko‘p bo‘lsa, bahosi arzon bo‘lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur», demish.

*Aqldek zebo sifatni ko‘rdi Haq, insonga eb,
Oqil insonlar bilan berdi jahon – olamg‘a zeb.
Aql nuri bir-la to‘ldi dunyoga ilm-u hunar,
Aqlsiz inson qachon bilgusidur naf‘-u zarar.
Aqlsizlar bilmagaylar din nadur, dunyo nadur?
Bo‘lmasa aqli bilurmi farz ila sunnat nadur?*

DIYONAT

Diyonat Alloh huzurina yaqin qiladurgan muqaddas e'tiqoddurki, olamda mundan suyukli narsa yo'qdur.

Din va e'tiqodi salomat bo'lмаган кишилар haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas, munday kishilardan na o'ziga va na boshqa kishilarga va na millatga tariqcha foyda yo'qdur. Din janobi Haq tarafidan bandalari uchun qurilmish to'g'ri yo'ldirki, banda dunyo va oxiratda bu yo'l ila sohili salomatga chiqar. Din ulamolari diniy kitoblarda Alloh taologa ibodat qilishni yo'l va qoidalarini bayon qilmishlar. Ibodat iki turli bo'ladur. Biri – tan ibodati, ikinchisi – ruh ibodati. Tan ibodati tahorat, namoz, ro'za, zakot, haj kabi amallardurki, bularning har birini o'z vaqtida shariatga muvofiq ravishda minnat qilmasdan, rivo qilmasdan dilni poklab, niyatni xolis qilub, shavq-u zavq ila ado qilmoq lozimdur. Ruh ibodati qalb ila ado qilinadurgan ibodatdurki, e'tiqodni mahkam, dilni pok qilub, Qur'on, Hadis, fiqh¹ kabi diniy kitoblar o'qilganda jon qulog'i ila tinglab asarlanmakdur. Bir kishi tan ibodatini qilub, ruh ibodatini qilmasa, yo ruh ibodatini qilib, tan ibodatini qilmasa, o'z vazifasini ado qilmagan bo'ladur. Aql din ila, din amal ila, amal taqvo ila kamol topar. Din insonlarning dilidan saxovat, marhamat, shafqat, ulfat, muruvvat eshiklarini ochub, saodat-u salomat bo'stoniga olib borur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallalohu alayhi vasallam afandimiz: «Allohnı ko'z oldingda ko'rub turgandek ibodat qil, zeroki, san oni ko'rmasang ham, albatta, ul sani ko'radur, nafsingni o'lgan hisob et», – demishlar.

¹ Fiqh – islomiy huquq ilmi.

Bayt

*Pok qilg‘il diningni, imoningni,
Qul huva-r-rahmon omanno bih.
Diningni yoqmasun havas zinhor,
Va qino, Rabbano, azoba-n-nor.*

ISLOMIYAT

Islomiyat butun insoniyatdurdur. Insoniyat esa yaxshi xulq-dan iboratdurdur. Islomiyatni rasuli akram sallallohu alayhi vasallam afandimizning yolg‘uz o‘zлari butun dunyo yuziga yaxshi xulqlari soyasida tarqatdilar. Sahobalar ham Payg‘ambarimizning orqalaridan ergashub, mahkam e’tiqodlari, yaxshi axloqlari, pok qalblari, o’tkur shijoatlari ila yer yuzuni titratdilar. Kundan kun islomiyatning shavkat va quvvati ortdi. Olamga madaniyat, ma’rifat, musovot¹, adolat urug‘lari Arabiston yarim otosidan² yoyildi. Buning sababi sahobalardagi metin e’tiqod, buzulmas ittifoq, sof qalb, yaxshi amal, xolis niyat, tunganmas g‘ayrat, go‘zal axloq edi. Har narsaning ofati o‘ldig‘i kabi zamonlarning o‘tuvi ila islomiyatning ittifoqina ko‘z tegdi.

Musulmonlar orasiga tafriqa tushdi. Hikmat egalari, funun sohiblari islomiyatdan quvlandi. Ilm-u hikmat xazinalari qulflandi. Jaholat, adovat hukm surdi-da, bo‘yla o‘ldi:

*Afsus ekinzorni selob olibdur,
Dehqonni falokat bosub, uyquda qolibdur.*

Musulmonlarning diliga ittifoq o‘rniga nifoq, adolat o‘rniga zulm, muhabbat o‘rniga adovat, g‘ayrat o‘rniga ato-

¹ Musovot – tenglik.

² Otosidan – orolidan.

lat¹, muruvvat o'rniga g'azab, saxovat o'rniga buxl², tavozu³ o'rniga kibr, sadoqat o'rniga iftiro⁴, shafqat o'rniga hasad, hilm o'rniga hamoqat, hurmat o'rniga xusumat, qanoat o'rniga tama', sabr o'rniga g'urur, iqtisod o'rniga isrof, afv o'rniga dahshat, sa'y o'rniga safohat⁵, g'ayrat o'rniga xurofot yershishdi. Mana, shul yomon xulqlari sababidin asri saodatdan buyon islomiyat keyin qarab ketdi. G'arib millatning chin xulafosi, ulamosi, hukamosi taxtindan, mansabindan mazhabindan suruldi. Odillar yerina zolimlar, olimlar yerina abujahllar, bulbullar yerina qarg'alar, qumrilar yerina boyqushlar, bilmam va hokimlar yerina kimlar o'turdi. Shul sabablara mabni⁶ islomiyat dunyosi inqiroz sahrosina yuzlandi. Islom hukumatlari-da birin-birin ko'zdin nihon o'ldi.

*Yetsa navbat o'lturar boyqush Sulaymon tomiga,
O'rmaguchlar⁷in qo'yar Afrosiyob ayvoniga.*

NAZOFAT

Nazofat deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilar.

Poklik zehn-u idrokingni keng va o'tkur qilur. Xalq orasida e'tibor-u shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasallardan qutulub, jonimizning qadrini bilgan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Pok bo'lmanan kishi Alloh ham xalq qoshida sevimsizdur. Yirtiq,

¹ Atolat – mutaassiblik.

² Buxl – baxillik.

³ Tavozu' – adablik.

⁴ Iftiro – bo'hton, tuhmat.

⁵ Safohat – aqlsizlik, nodonlik.

⁶ Mabni – asos, o'zak.

⁷ O'rmaguch – o'rgumchak.

eski kiyimlar kiymak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilub, yog‘ini chiqarub yurmak zo‘r ayb va gunohdur. Chunki bu ish shariatga ters, tarbiyati badanga zid, ajnabiylar ko‘ziga islo-miyatni chirkin qilib ko‘rsatmoq bo‘ladur, ham bir yilga yetadurgan kiyimlar olti oyga yetmay, qirqulub tamom bo‘ladur. Bu isrof, mol qadrini bilmaslikdur. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak. Bاليقning hayoti suv ila o‘ldig‘i kabi, insonning salomatligi havo iladur. Agar tan pok bo‘lub yuvilib turmasa, quloq kir bo‘lsa, eshitmagani kabi badan ham o‘ziga kerak bo‘lgan havoni ichiga ololmas, ichidagi rutubat ham kirdan o‘tub chiqub ketolmas, chunki badan elak kabi ko‘zlikdur. Agar ko‘zi kir olsa, un turub suv ham o‘tmas, shuning uchun tamiz bo‘lmagan kishilar qo‘rqinch kasallarga tezgina giriftor bo‘lurlar. Shodliqlari g‘amda, oltundan qadrli umrlari kasalxonalarda o‘tar. Mana shularni rioya qilub, shariatimiz bizga poklikni farz qilmishdur. Poklik musulmonlig‘ning ildizidur. Shuning uchun tani, kiyimi, joynamozi pok bo‘lmagan kishining ibodati ham durust bo‘lmaydur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Islom dini pok dindur. Bas, pok bo‘lingiz, pok bo‘lma-gan kishi jannatka kirmas», demishlar.

*Xalqi olam suygusidur tozalik va pokni,
Poklik ortturgusidur fahm ila idrokni.
Har kishini ko‘ksida poklik nishoni bo‘lmasa,
Tozalik maydonidan quvg‘aylar ul bebokni.*

SA'Y VA G'AYRAT

Sa'y va g'ayrat deb ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat birla ado qilmakni aytilar.

Shariat ham aql yuzasidan yalqovlik qilub, ishsiz, bekor yurmak durust emasdur. Zeroki, Qur'oni karim bizlarni sa'y qilmoqg'a amr etmishdur. Dangasalik har vaqt insonni xor, tama' balosiga giriftor qilur. Bir ishga mashg'ul bo'lgan kishilar vaqtini o'tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat o'tkarmak qiyomatdan qiyindur. G'ayrat vujudimizga quvvat, mas'ud¹ va baxtiyor bo'lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sartavatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub xorlikda qolurlar. Kishi yosh vaqtida ilm-u ma'rifat, hunar va san'atga bo'yin qo'ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo'lub qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo'lмаган xizmatlarni qilmak ayb emasdur. Agar bunga ham bo'yin qo'ymay bu ko'mirchilik, bu temirchilik, menga munosib ish emas deb, dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur. «G'ayratlikdan imon qutulmas» degan masal bor. Bunga qaraganda dunyo va oxi-ratimiz uchun g'ayratni qo'ldan bermaslik lozimdur. G'ayrat imona, salobati vijdona dalolat etar. Hazrati Umar eshik oldida bekor o'tirgan bir kishini ko'rub: «G'ayratsiz kishilardan Xudo bezor, islomiyat g'ayrat ila rivoj topdi, sendek yalqov kishilardan islomiyat hazar qilur», demishlar.

¹ Mas'ud – baxtli, saodatli.

*Haq buyurdi: «Laysa lil-insoni illo mo sa'o»,
G'ayrat ila o'tdi olamdan Muhammad Mustafo.
Biz-da ummatmiz, qilayluk sa'y ila xayr-u saxo,
Qilsalar shoyad shafoat sohibi ro'zi jazo.*

RIYOZAT

Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilar. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur. Insonlarni to'g'ri yo'lga solub, egri yo'ldan qaytarguvchi riyozatdurdur. Shul sababli riyozat qilg'uvchilar oqil va fozil bo'lur. Alloh ham xalq qoshida maqbul va mo'tabardur.

Yalqovlik, ko'p uxmlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtini bekor o'tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko'p oshamak, foydasiz so'zlar so'zlamak, samovarlarda, ko'chalarda aziz umrni bo'sh o'tkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi, Xudoning g'azabidur. Allohning buyrug'i, Rasulullohning sunnatlari, shariat qil degan ishlarni(ng) birin-birin o'z vaqtida qilmak ibodat ham riyozatdurdur.

Riyozatni rioya qilgan kishilar hech vaqt shariat yo'lidan ayrilmas, Alloh buyrug'idan chetga chiqmas va bu yo'l ila oxirat azobidan qutulur, rohat va rahmat saroyiga kirar, riyozatni rioya qilmagan kishilar Alloh taolonning rizosini topolmas, xor-zor bo'lub, oxiratda alamlik azobiga giriftor bo'lur.

Aflatun hakim: «Men riyozatdagi lazzatni hech narsada ko'rmadim, zeroki, vujudimning salomati, ruhimning saodatini riyozatda topdim. Shuning uchun riyozat ayni saodatdurd deyaram, chunki fikrning, tilning islohi badanning riyozatiga bog'lidur», demish.

Ibn Sino hakim: «Tan riyozatidan ko'proq ruh riyozati lozimdir. Mard kishi o'zini riyozat va adab ila ko'rsatsun, in-

son ila hayvon orasidagi farq yolg‘uz maishatda emas, yaxshi axloq kasb qilmoqdadur», demish.

*Riyozat mevasidur misli bodom,
Yuzi qattig‘, ichidur ishta in’om.*

*Kishin maqsudina eltar riyozat,
Riyozatsiz ish o’lgay besaranjom.*

*Agar sabr-u riyozat cheksang, ey jon,
Pishub oldingga tushgay mevayi xom.*

SHIJOAT

Shijoat deb botir va yurakli bo‘lmakni aytilar. Shaji¹ kishi hech narsadan qo‘rqmaydurgan botir va yurakli bo‘lur. Sa'y va g‘ayratning ziddi dangasa va yalqovlik o‘ldig‘i kabi shijoatning ziddi qo‘rqaqligidur. Qo‘rqaq savdogar foyda qilmas. Qo‘rqaq kishi o‘zini(ng) soyasidan hurkar, hech bir ish qilishga yuragi bo‘lmas. Ko‘p kishilar vahima va qo‘rqaqlilik orqasidan mollaridan, jonlaridan, vatanlaridan ayrilurlar. Shuning uchun har ishda shijoatni qo‘ldan bermaslik lozimdir. Shijoat insoniyatning sof oyinasi, iffat, g‘ayrat, istiqomat kabi yaxshi xulqlarning nuroniysidur. Shijoatning haqiqati qalbning matonatindan, ruhning salomatindan iboratdir. Hozirgi zamonda botirlik – boylikda, qaysi davlat va millatning davlati bo‘lsa, shul ustun bo‘lmakdadur. Chunki hukumat uchun xalq, xalq uchun hunar, hunar uchun ilm, ilm uchun oqcha lozimdir.

Sarvatli millatlar milliyatlarini yo‘qotmas, rohat va saodatda yashar. Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat

¹ Shaji' – shijoatli.

va sanoatga aylandurdilar va bu soyada bir-birlariga g‘alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrgar va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgarlik ila cholishkon¹ Yovrupa, Afriqo va Osi-yoni o‘ziga asir va musaxxar qilmakdadur.

*Bu zamonda fil ila jang aylamak erlik emas,
Er o‘shaldurkim tutar ilm-u hunarning yoqasin.
Beshlab, o‘nlab so‘m topishsa, ilm ila ag‘yorlar,
Biz bo‘lub hammol, olodurmiz tiyinlab choqasin.
Boshqalar san’at, tijorat-la taraqqiy aylasa,
Bizni el tortar ayog‘din o‘lgan otning toqasin.*

QANOAT

Qanoat deb janobi Haq tarafidan ihson bo‘lgan ahvolga yetishdug‘imiz ne’mat-u molga shukr, boshimizga kelgan faqr², musibat, falokatlarga chidab, sabr qilmoqni aytilur. Qanoat hasad, tama’, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning g‘ino³sidur.

Qanoat bir xazinadurki, naqdinasи kundan kun ortar. Bu xazinaga ega bo‘lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar. Buning ila barobar qanoatsizlikdan paydo bo‘ladurgan hasad degan jonning eng zo‘r dushmanidan qu-tulurlar. Chin insonlar kishining molina, mulkina, saodatina, maishatina hasad qilmas, qanoatdan ayrilmas, umrini rohatda o‘tkarur. Inson har bir ishga kuchi yetguncha cholishmoq, janobi Haq taqdirdagi narsasidan nimani bersa, shunga qanoat qilmoqi lozimdur.

¹ Cholishmoq – ishlamoq, mehnat qilmoq.

² Faqr – g‘ariblik.

³ G‘ino – boylik.

Zeroki, inson o‘z maishatini, nomusini saqlamak uchun fidoyi jon darajasiga borguncha sa'y qilmoqg‘a buyurilmishdur, lekin bu sa'yning mashruyi har bir ishda qanoatni qo‘ldan bermaslikdur. Olamda qanoat kabi dilni poklayduran narsa yo‘qdur. Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur. Hazrati Ali afandimiz: «Dunyoda sa'y-jadal ila maishat o‘tkargan qanoat egasi hech kimga muhtoj bo‘lmagan zo‘r boylar kabi rohatda, saodatda yashar», demishlar.

Aflatun hakim: «Insonning saodati qanoatini qo‘lda tutmakda, sarvat va maishat to‘g‘risida janobi Haqning taqdiriga rozi bo‘lmakdadur», demishlar.

ILM

Ilm deb o‘qumak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilar. Ilm – dunyoning izzati, oxirating sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliv va muqaddas bir fazilatidur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas’ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug‘iga, yor-do‘stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun, o‘z ustiga lozim bo‘lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qilolmas. Ilmning foydasi u qadar ko‘pdurki, ta’rif qilg‘on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong‘uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa mu-

habbat va e'tiqodimizni ortdirur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur. Payg'ambarimiz: «Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguchilardan bo'lmaningiz», – demishlar.

*Ilm bir daryo ichi to'lmish dur-u gavhar bilan,
Qiymat-u qadrin qachon bilg'on, ani johil yilon.*

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidur. Shariyatimizda qaysi ilmga muhtoj bo'lsak, shuni bilmak bizga farzdur. Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakg'a jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdu.

AQSOMI¹ ILM

Ilm diniy va fanniy qismlar ila ikiga bo'linur.

Diniy kishi bo'lmak uchun ulumi diniya o'qumak ila barobar hisob, handasa², tarix, hikmat, kimyo, tib, ziroat ilmlari kabi fanniy ilmlarni ham bilmak, chin olim bo'lmak lozimdu. Chunki bu ilmlarning ikisi ham dunyo va oxiratimiz, hayot va saodatimiz uchun eng kerakli narsalardur.

O'tkan zamondagi islom ulamolari har bir ilmga tish-tirnoqlari ila yopishdilar³, o'qidilar, o'qitdilar, ulum va funun soyasida islomiyat taraqqiy qildi, madaniyat tarqatdi, kitobxonalar,

¹ Aqsom – qismlar.

² Handasa – geometriya.

³ Islom ulamosindan Imom G'azzoliy hazratlari to'quz yuzga yaqin kitob tasnif qilmishlar. Imom G'azzoliy beshinchi asrning zo'r ulamosindandur. Tus shahridan bir faqir kishining o'g'lidurlar. Ko'b shaharlarni sayohat qilub, 55 yoshlarida 505-hijriyda vafot qilmishlar (*Avloniy izohi*).

qiroatxonalar, yetimxonalar, kambag‘alxonalar, kasalxonalar ochildi. Hozirgi musulmonlar taassub va jaholatlari ila maqtanuvlari kabi avvalgi zamon musulmonlari ilm va ma’rifat, kitob va asarlari ila maqtanurlar edi. Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlaring ilm va ma’rifatiga, hunar va san’atiga bog‘lidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz:

«Ilm o‘qumak har bir mo‘min er-u xotunga farzdur», – demishlar. Ajabo, Qur‘onimiz, Payg‘ambarimiz o‘qingiz, deb amr qilg‘on holda, bizlar na uchun harakat qilmaymiz, qimirlamaymiz. Boshqa millatlarning o‘g‘illari, qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo‘lida jonlarini fido qilub, quvushub, yugurushub, ko‘zlarimizni qamashdirub turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan, g‘aflatdan, jaholatdan boshimizni ko‘tarmaymiz, ibrat olmaymiz. Payg‘ambarimiz: «Olim bo‘l, ilm talab qiluvchi bo‘l yoki ilmni eshituvchi bo‘l, hech bo‘lmasa, shularga muhabbat qiluvchi bo‘l, beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lursan», – demadilarmu?

*Topar ilm ila odam o‘g‘li kamol,
Yeturmas kamola jamol ila mol.
Kerak o‘rtanur ilm uchun sham’dek,
Tanumoq Xudoni ilmsiz mahol.*

*Talabgor o‘lur ilma oqil kishi,
Sotar ilm bozori moli halol.
Talab aylamat farzdur bizga ilm,
Bu amr uzradur er-xotun, yosh, chol.*

SABR

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilar. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur. Chunki boshimizga keladurg'on balo va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasi janobi Haqning irodasi ila o'ldig'i uchun bularg'a sabrsizlik qilgan kishilar ajr va savobdan quruq qolurlar. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi Haq sobirlarni suyar. Qur'oni karim ichida ko'p yerda sabrni(ng), sobirlarni(ng) madh qilmishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazog'a sabr qilmoq farzi ayndur. Inson har bir ishni sabr va matonat¹ ila yurutsa, maqsudig'a tinch va rohatda borub yetar. Hamisha saodatda yashar.

*Sekin borgen kishi maqsudga yetgay,
Shoshub besabrlar kaj yo'lga ketgay.
Agar sabring bo'(l)sa, nafsingga yo'ldosh,
Seni tavfiq Rabboniga eltgay.*

Nafsi sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsi halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozu'ga, yomonlikni yaxshilikg'a aylandurmakg'a quvvati yetar.

Shul xususda so'ylanmish bir hadisi sharifning ma'nosi «ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat validi, afv ahavoni, sabr hokimi vijdonidur», – deyilmish. Arablar: «As-sabr-u miftohul-farah – sabr shodlig'ning kalididur»², – deyurlar.

¹ Matonat – bardosh, chidam.

² «As-sabr-u miftohul-farah» – «sabr najot kalitidur», – ham deydilar.

*Sabr ila har mushkil ish zoyil bo'lur,
Sabr edan maqsudina noyil bo'lur.
Har kishida bo'lmasa sabri jamil,
Nafs ko'yina yurub soyil bo'lur.
Sabr qilsang, g'o'rada halvo bitar,
Sabrsizlar o'z oyog'idan yitar.*

HILM

Hilm deb bo'lar-bo'lmas ishga achchig'lanmaydurgon, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo'lmoqni aytilar.

Hilm insonlarning tab'didan xusumat, adovat, g'azab, hiddat¹ kabi yomon xulqlarni yo'q qiladurgan har kimga maqbul bir sifatdur. Hilm ilmi axloq yuzasidan insonga eng kerakli narsadur.

Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vij-donning halovati halim tabiat bo'lmoq ila hosil bo'lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo'lsa ham, o'zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas. Fikri salomat kishilarning qalbi halim, tab'i karim o'lur. Zero-ki, vujudimizdan paydo bo'ladirgan af'ol va harakotimizning manbayi havas va orzudur. Bu havas va orzuga faqat hilm ila g'olib kelurmiz va bu vasila² ila to'g'ri yo'lga kirub, yaxshi xulq sohibi, din va millat xodimlaridan bo'lurmiz. Dunyoda chin inson bo'lmak uchun havasning qo'liga nafsning jilovini bermaydirgan, bo'lar-bo'lmas narsalardan achchig'lanmaydurgan, sovuqqonli, yumshoq tabiatli, muloyim so'zli, halim va sabrli bo'lmak lozimdir.

*Zotiga, hilmiyati mavsuf³ qilsa har kishi,
Iki olamda bo'lur rohat, halovatda ishi.*

¹ Hiddat – tezlik, o'tkirlik.

² Vasila – vosita.

³ Mavsuf – vasp etilgan, maqtalgan.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Al-hilm-u sayyidul axloq – Hilm xulqlarning sayyididur», – demishlar.

Suqrot hakim: «Shiddat ila muomala qilgan kishilarga man viqor va halimlik ila muqobila qilurman, chunki hilm shiddatni va xusumatni past qilur. Lekin kishini ojiz va xorlik darajasiga tushuradurgan halimlikdan man bezor», – demish.

Bu so‘zga qaraganda saxovatning ifroti isrof o‘ldig‘i kabi o‘rinsiz yerda hilm iste’mol qilmak insonning viqor va e’tiborini poymol qilur. Shuning uchun hilmiyat hududidan – chegarasidan chiqmay, g‘azab, hiddat kabi yerlarda hilm iste’mol qilub, nafsning haroratini past qilmalidur. Lekin temsila tebranmaydurgon, tursa ting etmayturgon bo‘lub, g‘ayrat, shijoat o‘rinlariga ham muloyimlik ishlatuv halimlik hududidan oshub, bo‘shlik, anqovlik dunyosiga chiqmakdur. Bunday halimlikdan qochmak, hazar qilmak kerak.

*Halimlikni qilsang agar ixtiyor,
Bo‘lur xalqi olam sanga do‘sit-u yor.
Bo‘lur mevalik shoxni boshi past,
Halim o‘lg‘usi oqili hushyor.*

INTIZOM

Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tartib berib yaratmishdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so‘zlamakdan ojizdur. Dunyoga kelgan payg‘ambarlarning har birlari din va shariatlarini tartib va nizom ila yurut-

mishlar. Xususan, islom dini mukammal ravishda tartib va nizomni rioya qilmishdur. Va bu soyada ozgina zamonda islom urug'lari butun dunyo yuziga yoyilmishdur. Islom davlatlarining barposi nizom va intizom ila o'ldig'i kadi barbod va inqirozi ham tartib va nizomsizlik ila bo'lmishdur. «Xayr, o'tkan ishga salavot». Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliy¹si ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartibi ila yurutmakh'a bog'lidur. Shogirdlar maktab va madrasalar-dagi zamonga muvofiq ravishda qurilmish nizom va tarablarni rioya qilmaklari lozimdir. Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlarini parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yurutgan kishilarning ishlari yerida, o'zlarini tinch va rohatda umr o'tkarurlar. Hozirgi zamonda bizning Turkiston boylarining ishlari to'xtab, sinuvlarining bиринчи sababi ishlarini axloqsiz, bilimsiz, musrif², yalqov kishilarga topshiruvlari ila barobar o'zlarining zamonga muvofiq tartib va nizomdan xabsizliklarining yemushidur. Payg'ambarimiz: «Kasblarning ortug'rog'i xiyonatsiz, yolg'onsiz qilg'on savdo va tijorat ila bandaning o'z qo'li birlan ishlagan ishidur», – demishlar.

*Davlatni koni, manbayi tartib-intizom,
Sarvatni poydori erur iqtisodi tom.
Muhtojlig' yuzini ko'rар deb gumon qilmang,
Tartibi bir-la yursa, kishining ishi mudom.*

¹ Taoliy – yuksaklik, ko'tarilish.

² Musrif – isrofgar.

MIQYOSI NAFS

Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o'lub-o'lmadig'ini vijdonomiz ila o'lchab ko'rmakni aytilur. Nafs o'lchovi haqiqiy bir o'lchovdurki, insonning o'z nafsi loyiq ko'rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg'a qo'ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o'lchovidan tashqari harakat qilmas.

Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonundan chet ketsa, bu qabohatini nafs o'lchovi ila bilub, ikinchi martaba qilmasga qasd va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig'idan chiqmaslikg'a sa'y va g'ayrat qilur.

Alhosil, nafs o'lchovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul buyuk bir fazilatdurdur.

Buyuk Iskandar: «Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidurki, bu mezonda zarra nuqson yo'qdur», – demish.

Ibn Sino hakim: «Insonning fazl-u kamolining o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur», – demish.

*Dunyoda har narsaning maxsus o'lchovi bo'lar,
Banda af'olini vijdoni ila tortib ko'rар.
Bir ishiga vaznda kelsa og'ir o'z nafsiга,
Ul ishing qandog' bo'laklarga ravo, loyiq ko'rар.*

VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv-tuymaqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur. Biz har vaqt af'ol va harakotimizni yaxshi va yomonlig'ini, foya va zararlig'ini onjaq vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu

tarozu ila o‘z kamchiliklarini o‘lchab bilmak ila barobar boshqalarning ham af’ol va harakotini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo‘lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur. Biz janobi Haqning amr va nahyini fikr va ruhimizning ma’naviy quvvati o‘lan vijdonimiz ila oyura bilurmiz.

Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o‘ldig‘indan vijdon sohiblari har bir ishni beg‘araz, xolis niyat ila ishlar.

Shul sababli har kim nazarida maqbul va suykli bo‘lur.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida, niyat va amallarida, do‘sit va oshnoliqlarida yashirin bir g‘arazlari o‘ldig‘indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig‘a griftor bo‘lurlar.

*Har bir insonning haqiqiy foili vijdonidur,
Mevasi yaxshi amaldur, hosili vijdonidur.*

Inson diniy vazifalarini uluvviyatini vijdoni soyasida taqdir qila bilur. Chunki, vijdoni salomat kishilar imon va e’tiqodlarini kamolga yetkurmak uchun janobi Haqning buyruqlarini, din va millatg‘a foydalik ishlarni shod va xurramlik ila ishlar.

Alhosil, vijdon har kimning af’ol va harakotini ko‘rsatadurgan musaffo bir oyinadurki, bu ko‘zguga chin nazar qilgan kishi o‘z ayb va kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo‘lub, boshqalarning ayb va qusurlarini oxtarmoqg‘a vaqt bo‘lmas. Bizim islomiyatda vijdon axloqining islohi uchun sa‘y-harakat qilmak lozim o‘ldig‘indan shul doirada harakat qilg‘on kishilar iki jahonda aziz va mukarram bo‘lurlar. Arastu hakim: «Ruhimizning ma’naviy quvvati o‘lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositayi idrokiya», – deyilur. Ya’ni hissiyotimizning ruhimizga ta’sir ettirg‘uvchi bir robitayi elektriqiyyasidur», – demish.

Ibn Sino hakim: «Vijdon ruh va fikrimizni tuyg‘un qilmak-g‘a birinchi vositadur», – demish.

*Sof vijdon kabi hech komila mezon o‘lmaz,
Kishi o‘z aybini bilmak kabi urfon o‘lmaz.
Shod-masrur o‘lur insof ila vijdonli kishi,
Kimki vijdonsiz esa, to‘g‘ri, chin inson o‘lmaz.*

VATANNI SUYMAK

Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortuq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridandan ayirilsa, o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas. Maishati talx bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘sasida o‘z vatanining muhabbati turar.

Biz, turkistonlilar o‘z vatanimizni jonomizdan ortuq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlарini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l», – demishlar.

*Men ayblik emas, ey Vatanim, tog‘larim,
Bevaqt tashlab ketdim ayo, bog‘larim.
Hijron qilodur meni judolig‘,
Do‘ndi g‘ama ro‘z-u shab chog‘larim.*

Hammaga ma’lumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz o‘lan Arabistonga bog‘larini, hovlilarini sotub, hijrat qilgan hoji-

larimizning aksari yana o‘z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya’ni bularni tortib keturgan quvvat o‘z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Hubbul-vatani minal-imoni – Vatanni suymak imondan-dur», – demishlar.

*Vatan, vatan deya jonio tanimdan o’lsa ravon,
Banga na g’am, qolur avlodima o’y-u vatanim.
G’ubora do’nsa g’amim yo’q vujud zeri vahm,
Charoki, o’z vatanim xokidur go’r-u kafanim.
Tug’ib o’san yerim ushbu vatan vujudim xok,
O’lursa aslina roje¹ bo’lurmi man g’amnok.*

HAQQONIYAT

Haqqoniyat deb ishda to‘g’rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo’stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdur. Janobi Haqning shu nomi muborakini muqaddas bilgan kishi hech vaqt haqqoniyatdan ayrilmas, chunki haqqoniyat nuri qaysi dilda jilvagar o’lsa, janobi Haqning tavfiqi Rabboniysi shu dilda nash’u namo qilur. Aql egalari, vijdon sohiblari har vaqt ko’rgan, qilgan va bilganlarini, haqiqatni va to‘g’risini so‘zlar. Ishda to‘g’rilik – birovning nafsiga, moliga xiyonat qilmov, so‘zda to‘g’rilik har vaqt rost so‘zlamaklikdur.

*Rostlig‘ Haqning rizosini topar,
To‘g’ri yo’lda yo’q bo’lurmu hech chopar?*

¹ Roje’ – qaytmoq.

Bizim shariati islomiyada agar bir kishining haqiga bo‘hton qilinub, qilmagan ishni qildi deb so‘z so‘ylansa, bilgan kishi rostini so‘zlab, shul kishini oqlamak vojibdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Annajotu fissidqi – najot rostlikdadur», – demishlar. Hazrati mavlono Rumi: «Islomiyat ayni haqqoniyatdurdur. Haqni qabul qiluvchilar huquqi shar‘iyani saqlamoqg‘a buyurulmishdurlar. Chunki shariat hukmlarining eng asosiy ildizi haqqoniyatdan iboratdurdur», – demishlar.

*Haqshunoslik o‘lmoq sharofattdur jahonda odama,
Haqni izhor aylamak birla ko‘ruk ver olama.
Yarashur insona sidq-u to‘g‘rilik gar ko‘rsa giriҳ,
To‘g‘rining yordamchisidir Haq taolo, g‘am yema.
To‘g‘rilarning maskani firdavs ayvonidadur,
Egrilar iki jahonda g‘am-alam konidadur.*

NAZARI IBRAT

Nazari ibrat deb har bir narsaga sinchiklab boqub, shundan o‘ziga bir hissa ibrat olmoqni aytيلur.

Xulqlarning eng afzali, insonlar uchun eng keraklisi nazari ibratdurdur. Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobindan o‘z qadr-hissasini bilub olmaki lozimdir. Ma’rifat sohibi bo‘lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo‘lmak kerak. Shuning uchun aql sohiblari, fatonat egalari o‘zlariga foydasi bo‘lsa-bo‘lmasa sinchiklab qaragan narsalaridan bir hissa olmay qo‘ymaslar. Hozirgi zamondagi taraqqiy qilgan millatlarning hunar va san’atlarining barchasi ilm va nazari ibrat soyasida namoyon o‘lub, olamni munavvar va musaxxar qilmishlar. Bizim shariati islomiyada har narsani e’tiborga olub, shundan ibrat hosil qilub, axloqini tuzatmak vojibdur. Hazrati Ali raziyallohu

anhu: «Dunyoda eng muntazam dorul-ulum nazari ibratdurdur. Ibrat ko'zlarining pardasi ochilmagan kishilar dunyo kitobida yozilgan haqiqatni ko'rolmaslar. Koinot kabi mukammal bir sahnayi ibratdan foydalanmagan kishi hech bir muallimi hikmatdan bahramand bo'lolmas», – demishlar.

Mavlono Rumiy: «Janobi Haqning osori qudratlarini basirat ko'z ila, nazari ibrat ila tamosha qilinsa, ko'p hikmatlar ko'rilur. Chunki haqiqat ilmining muallimi chashmi ibratdurdur. Haq chashmi ibrat ila mushohada qilinur», – demishlar.

Bir ko'r hazrati Luqmonning oldilariga kelub, «agar ko'zimni ochsangiz, men sizga qul bo'lurman», – demish. Hakim ko'rni ma'rifat sohibi ekanini bilub, «jonim, ko'zingni pardasini ochmoq mumkin, lekin nazari ibratni ochmoq qo'limdan kelmaydur», – demishlar. Ko'r: «Yo Luqmon! Sizing shuhratingiz faqat parda ochmoqdan iborat bo'lsa, sizni hakim demay tabib demak lozim ekan», – deb hazrati Luqmonning ibrat ko'zini ochmishdur. Janobi Haq biz muslimonlarning ham ko'zimizdan g'aflat pardasini ko'tarub, ibrat ko'zlarimizni(ng) ochsa edi.

*Och ko'zlariningi, bas, bu qadar g'aflat, ey ko'zim,
Umrинг g'animat, och nazari ibrat, ey ko'zim!
Ibrat ko'zingni ochmasang, atrofingga boqub,
Bir-bir ketar qo'lingdan uchub davlat, ey ko'zim!
Mol o'lsa barcha hamdam-u yor-u birodaring,
Qochgay urug'laring yo'q esa, sarvat, ey ko'zim!
Hosil: zamonda ilm ila davlatda e'tibor,
Sarmoyayi saodat har millat, ey ko'zim.*

IFFAT

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Bizlarni gunoh va ma'siyat¹dan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asraguvch faqat iffatimizdur.

Axloq sohibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton, molya'ni² kabi yomon so'zlardan saqlar.

Chunki insonga iffatidan ko'broq til iffati lozimdir.

Boshimizga keladurgan kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, andozadan ortuq so'ylaganimizdan kelur.

*O'ylamay so'ylagan og'rimay o'lar,
Fikr ila so'ylagan yig'lamay kular.*

Iffat erlardan ko'proq xotunlar uchun olmosdan qimmat, injudan qadrli ziynat va fazilatdurdur.

Iffatlari kishi har vaqt nazari ibrat ila harakat qilur. Kecha va kunduz fikri, zikri vatandoshlariga, qarindoshlariga yaxshilik, xayrixohlikdan iborat bo'lur.

So'zida, fe'lida sodiq bo'lub, vijdoniga ters, insoniyatga kelishmagan muomaladan hazar qilur. Hazrati Ali raziyalohu anhu: «Iffat xotunlarning eng ziynatli libosi, erlarning sarmoyayi uluvviyatidur», – demishlar.

Hazrati Luqmon: «Iffat nomusning eng mahkam suyan-chig'idur. Nafsning hujumiga shul quvvat ila muqobala³ qilinur», – demishlar.

Aflatun hakim: «Iffat xotundan ko'proq erlarga yarashadurgan bir sifatdurdur. Xotun iffati adab va nomusini saqlovdurdur.

¹ Ma'siyat – gunoh ishlari.

² Molya'ni – ma'nosiz.

³ Muqobala – qarshi chiqish.

Erlarning iffati butun insoniyat adablariga shomil¹dur. Iffat-siz inson yalang‘och jasad kabitur», – demishlar.

*Zotingga ziynat o‘lan iffatni dilda saqlagil,
Shahvat-u nafsing sani bo‘lg‘usidur aqlingg‘a qul.
Har kishining dunyoda yirtilsa iffat pardasi,
Nafsi shaytondek ani bir kun solur bo‘yniga g‘ul².*

HAYO

Hayo deb ishda, so‘zda adabni rioya qilmakni aytilar. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyosiga muhtojdur. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamak – g‘iybat, hajv, masxara, safsata, so‘kuv kabi odamlarning nafsigi, iffatiga tegadurgan adabsiz so‘zlarni so‘zlamak zo‘r hayosizlikdurdur. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodur.

Shuning uchun har bir harakatimizda, so‘zimizda hayoni qo‘ldan bermaslik lozimdurdur. Hayo pardasi ila o‘ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas va bu chodir shunday muborakdurki, ancha-muncha sahv³-xatolarni berkitub yo‘q qilur.

Ibn Sino hakim: «Insonda doim turadurgan husn va latofat hayo ila iffatdurdur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabitur», – demish.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Alhayo minnal-imoni» – «Hayo imondandur», «Iza lam tastah fasna’ moshi’ta» – «Hayo qilmaz esang, istagan ishingni ishla», – demishlar. Muhyiddin: «Insonning suratidagi qizillik sekin-sekin ketar, hayo qizilligi aslo ketmas. Yoshlik husnining qizil rangi hayo ila ziynat-u latofatga ega bo‘urlar», – demishlar.

¹ Shomil – yoyilgan, umumga tegishli.

² G‘ul – kishan.

³ Sahv – xato.

Suqrot hakim: «Xotunlarning eng go‘zali hayo va iffat pardasiga o‘ralganlaridur», – demish.

*Hayo, nomus-u imona dalildur,
Hayosiz doimo xor-u zalildur.
Uyalma ma’rifat hosil qiluvdan,
Maorifsiz kishilar murda dildur.*

IDROK VA ZAKO

Idrok va zako deb ochuq fikrli, xushtabiat, ziyrak bo‘lmakni aytilur. Idrok va zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko‘zlarining nuri rahmoniysidur.

Chunki idrokli kishilarning har bir maqsadini(ng) ostida yashirin o‘lg‘an zamirlarining ma’nolari na yerdan borib chi-qishini bilur. Ilm-u ma’rifat sohibi bo‘lmak uchun sa’y va g‘ayrat kerak o‘ldig‘i kabi zehn va idrokning ham salomat bo‘lmog‘i shartdur. Shuning uchun yoshlikdan boshlab zehn va idroki-mizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o‘yin-kulgi, saf-sata, molya’ni kabi behuda so‘zlar ila o‘tkarmay, har xil kitob, g‘azita va jurnollarni o‘qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdir. Zehnsiz kishilarning o‘lchovsiz so‘zları o‘zlarini uyaltirgoni kabi eshituvchini ham zeriktirur.

*Har kishining fikr, idrokin so‘zi bildurg‘usi,
Pistayi bemag‘z, agar lab ochsa, rasvo bo‘lg‘usi.*

Idrok sohibi o‘zini fozil va ulug‘ bilub, hamjinslariga haqorat ko‘z ila boqub: «Bilasanmi? Man qanday boy va obro‘li kishi-man», deb maqtanub, o‘zini katta qilub ko‘rsatmas. Ustiga yuklangan diniy, milliy va maishiy vazifalarini har birini o‘z vaqtida ado qilur. Mana shunday kishilar iki dunyoda obro‘lik bo‘lub, o‘lganlaridan so‘ng «falonи xo‘b, yaxshi zot edi, Xudo

rahmat qilsun, millatga ko'p xizmat qildi, xalqg'a foyda yet-kurdi», – deb boshqalar tarafidan maqtalurlar.

Hushyor va ziyrak kishilar kuch va quvvatlari bor vaqtida keladurgan zamonlarini tushunib, pul va mollarini o'rinsiz yerlarga, to'y va ma'rakalarga haddan ortuqcha isrof qilmaslar, o'zlarining rohati, bola-chaqalarining saodati uchun kerak bo'ladurgan yer va bog'larini sotmaslar, zamonaga muvofiq kishi qilmak uchun bolalarini o'qitmak va tarbiya qilmak to'g'risida oqchalarini aslo qizg'onmaslar.

*Idrok ila aqling-la ayur yaxshi-yamonni,
Behudaga sarf etma shu qimmatli zamonni.
Sa'y et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.*

HIFZI LISON

Hifzi lison deb har bir millat o'z ona tili va adabiyotini(ng) saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur. Hayhot! Biz, turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan kun unutmak va yo'qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiyligi, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdir. Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur.

Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqub ketduk. «Yaxshi qo'shningdan olguncha, yomon uyingni qidir»,

– demishlar. Bobolarimizga yetushg‘on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O‘z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo‘qolganlarini ham topurmiz. «Yo‘qolsa yo‘qolsun, o‘zi boshimga tor edi», – deb Yovrupo qalpog‘ini kiyub, kulgi bo‘lmak zo‘r ayb va uyatdur. Payg‘ambarimiz: «Erlarda jamol lison va tildur», – demishlar.

*Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, Rahmonim,
Tug‘dig‘im kundan aylading ulfat,
O‘lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilm-u adab san o‘rgatding,
Chin adib, muallimim, shonim.
Millating ruhini ko‘targuchisan,
Ey muqaddas karamli sultonim.*

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og‘iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir. Chunki so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurgan tarozusidur. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar: «Quruq so‘z quloqg‘a yoqmas», – demishlar.

Agar so‘z aql va hikmatga muvofiq bo‘lub, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgan bo‘lmasa, asalarilari orasida g‘ung‘urlab yurgan qovoqari kabi quruq g‘ung‘urlamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattig‘ kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Ko‘p o‘yla, oz so‘yla», – demishlar.

Tillarning eng yaxshisi so‘zga usta til, so‘zlarning eng yaxshisi bilub va oxirini o‘ylab so‘ylangan so‘zdur.

*Go'zallik yuzda ermas, ey birodar,
So'zi shirin kishi har kimga yoqar.
So'zing oz bo'lzin-u, ma'noli bo'lzin,
Eshitkanlar qulog'i durga to'lzin.
So'zing bo'lsa kumush, jim turmak oltun,
Misi chiqg'ay, so'zing ko'p bo'lsa, bir kun.
Ko'paygan so'zni bo'lg'ay to'g'risi oz,
Shakarning ko'pidan ozi bo'lur soz.*

IQTISOD

Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilar.

Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas. Saxovatning ziddi ba-xillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdir. Alloh taolo isrof qilg'uchilarni suymas. Iqtisodni rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yasharlar, arilar qish kunida yemak uchun bol yig'ganidek, boshlariga keladurgan qora kunlarni o'ylab, oq pul yig'urlar. «Toma-toma ko'l bo'lur», – demishlar. Har narsa ozdan ko'payur.

*Ko'pni ozaytirg'uchi xotun kishi,
Ozni ko'payturmak erur er ishi.*

Hozirgi zamonda maqsudga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmaq, xalqg'a maqbul bo'lmaq uchun ilm va mol lozimdir. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanadur. Har yerda boy millatlar og'ir kelub, pallani bosub, xo'ja o'lganidek, faqirlari yengil kelub, qul va asir bo'lub, osilib qoladur. Mol topmakning eng barakatli yo'llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bular-

ning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur. Bobolarimizning «Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «Bilgan bitar, bilmagan yitar» zamonini keldi. Amerikalilar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yovrupalilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz, osiyolilar, xususan, turkistonlilar, dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berub, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz. So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tu-ganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «So'ng zamonlarda dinni saqlamak mol ila bo'lur. Iqtisod uzra harakatli kishilar faqir bo'lmas», – demishlar. Yana: «Har narsada o'rta iqtisod yo'lini tutmak lozimdur. Ifrot va tafritdan ihtiroz¹ qilmak kerak, hatto din amrinda ham bir odam ortuq so'fiylik sotsa, oxirinda o'zi mag'lub bo'lur», – demishlar.

*Xalq ichinda mo'tabar bir narsa yo'q davlat kabi,
Bo'lmag'ay davlat jahonda quvvat-u sihhat kabi.
Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,
Yaxshi ne'mat yo'q kishiga sa'y ila g'ayrat kabi.*

VIQOR

Viqor deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z nafsi saqlamakni aytilur. Viqor shar' va hikmat yuzasidan inson uchun eng kerakli yaxshi xulqlarning biridur. Viqorsiz odam e'tiborsiz boyga, kibrli kishi illatlik faqiriga o'xshaydur. Har kimning qadr va e'tibori nafsining viqori ila o'lchanadur.

¹ Ihtiroz – saqlanish.

Vuqur¹ kishilar kibr-u g'ururga aslo yaqin yurmaslar. Chunki g'urur, manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq orasida bee'tibor qilur, har qancha ilm va davlat sohibi bo'lsa ham, bir pulcha qadr va qimmati bo'lmas. «Mani bilursanmi? Munday qilurman, unday saxovat qilurman», – deb o'zini(ng) o'zi maqtamoqlik, riyokorlik, zo'r ayb va viqorsizlikduri.

Viqorlik kishi yomon xulqlardan pok, ishida adolatlik, so'zida to'g'ri, shafqat va marhamatli, o'z dindoshlariga xayrixoh, millat foydasiga tirishuvchi, sof qalbli, arslon yurakli bo'lur. Hazrati Ali: «Vuqur kishi kibr va g'ururdan pok bo'lur. Viqor odamgarchilikning madori, iftixori, insoniyatning homiyi e'tiboridur. Lekin viqorning haqiqiy darajasiga yetmak uchun ilm va ma'rifat lozimdir», – demishlar.

*Afsus, bu zamonda bizim e'tibor yo'q,
Yosh-u qarida g'ayrat-u, nomus-u or yo'q.
Fisqi fujur ila giriftor barcha jon,
Ilmi amalda bizda sabot, viqor yo'q.
O'tmoqda umr hoyi havas birla barhavo,
Millat g'amini o'ylag'uvchi hushyor yo'q.*

XAVF VA RAJO

Xavf va rajo deb Allohdan qo'r quoq va umidvor bo'lmoqni aytilar. Banda har ishda janobi Haqdan qo'r quoq ila barobar umidini ham uzmaslik lozimdir. Chunki janobi Haqdan qo'r quoq'an inson hech narsadan qo'r quoqmas. Har vaqt janobi Haqning lutf va marhamatiga umid ko'zlarini tikub turar. Xavf va rajo shunday bir yaxshi sifatdurki, bu xislatni o'ziga hamroh qilgan kishi eng fozil, hech narsadan qo'r quoqmaydurgan sher tabiatli, arslon yurakli bo'lur. Hazrati Ibrohim alayhissalomni

¹ Vuqur – bardoshlilik.

Namrud otashka tashlay deb turgan zamonda: «Yo Ibrohim! Siz meni bu haroratli otashimdan qo'rqmazsizmi?» – demish. Hazrat Ibrohim: «Ey zolim! Alloh taolodan qo'rqtan kishi Namrudning otashidan qo'rqarmi?» – demishlar.

*Hech kishidin qo'rwmag'ay Tangrisidan qo'rqtan kishi,
Otasha yondursalar, bo'lg'ay umid birla ishi.*

Dunyoda umiddan yaxshi narsa yo'qdur. Hamma insonlar umid orqasida yasharlar. Noumid shaytondur, umidsiz kun kechirmak mumkin emasdur. Boylar mol umidida, shogirdlar ilm umidida kecha-kunduz tirishurlar. Agar boylik, olimlik umidi bo'lmasa edi, kecha-kunduz jonlarini fido qilub, ko'zlarining nurlarini umid orqasida to'kmas edilar.

*Umid gar o'lmasaydi, hech hayotga qiymat o'lmazdil,
Nizom-u intizom-u tarbiyat ham davlat o'lmazdil.
Jahon ayvoni bo'yla zinatoro bo'lmag'ay erdi,
Hukumat, taxt-u baxt-u sa'y birlan g'ayrat o'lmazdil.*

ITOAT

Itoat deb bo'yinsunmakni aytilur. Alloh taoloning amriga bo'yinsunub, ibodat va itoat qilmak farzi ayndur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taoloning amriga muxolif bo'lgan holda hech kimning amriga itoat qilmak vojib emasdur», – demishlar. Ota-on, ustod, muallim kabi o'zidan ulug' kishilarga bo'yinsunub itoat qilmak eng yaxshi sifatlardandur. Bu sifatga ega bo'lmak uchun har vaqt bularning foydalik kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmak lozimdir. Chunki onlar dunyoga bizdan ilgari kelganlar, bizdan ko'broq tajriba hosil qilganlar, vatan va millatning holiga oshno

bo'lganlar. Tabiblar dardlarga davo hozirlagandek, bular ham tur mush va yashamakni ofati bo'lgan faqirlik, yalqovlik, nondonlik kabi vujudimizni churitadurgan marazlarga davo hozirlaganlar. Shuning uchun bizga qilgan xolisona, beg'araz nasihatlari hozirda og'ir va achchig' ko'rinsa ham, oxiri rohat va totli bo'lub chiqar.

*Nasihat bo'lsa xoli gar g'arazdan,
Ach(ch)ig' doru kabi saqlar marazdan.
Biza lozim erur bilmoq, eshitmoq,
Ziyondan boshqa bir shay yo'q g'arazdan.*

HAQSHUNOSLIK

Haqshunoslik deb bir kishining qilgan yaxshiligini unutmaslikni aytilur. Butun olamdagi insonlar haqshunoslik va do'stlik orqasida yasharlar. Qars iki qo'ldan chiqar. Sharia tda yaxshilik qilgan kishiga yaxshilik qilmak vojibdur. Hukamolar yomonlik qilgan kishiga ham yaxshilik qilmak lozimdir, derlar. Hosil, yaxshilikdan zarar ko'rgan, boshi yorilgan kishi yo'qdur.

Yaxshilikdan do'stlik, mehribonlik tug'ar, iki ko'ngil orasida ulfat va muhabbat cho'juqlari yugurishur, quvushurlar. Bu do'stlikni jamol va kamoli haqshunoslikdurki, birovdan ko'rgan yaxshilikni unutmay, shuning barobariga biz ham o'z vazifamizni ado qilmak lozim ekan, hech bo'lmasa, taqdir qilmak ila birodarlik va do'stlik hurmatini ado qilmakimiz lozimdir. Chunki mo'min birodari mo'mindur.

*Dildan dil uzra ochiladur iki xil yo'li,
Mehra mehr yo'li ochilur, kina kin¹ yo'li.*

¹ Kin – dushmanlik.

Ma'lumdurki, har bir millatning taraqqiy va taoliysi o'z millatiga jon, mol, qalam ila ishlagan kishilarning xizmatlarini taqdir qilub, vazifalar, haykallar, qalamlar ila yod qilub, o'tub ketgan bahodir, olim va shoirlarini(ng) ruhlarini shod qilub, ishlovchi kishilarning g'ayrat va jasoratlarini ziyoda qilmakda ekan. Afsus, bizlar taqdir qilmak bir tarafda tursun, tahqir, masxara, hatto takfir¹ qilmak ila qarshu olurmiz.

*Yaxshi ishdur haqni taqdir aylamat har xizmata,
Haqshunos o'lmaq haqiqiy bir quvvatdур millata.
Haqshunos o'lmaq-la mashhur erdilar Payg'ambarim,
To'g'ri yo'lni tashlamak aslo yoqishmas ummata.*

XAYRIXOHLIK

Xayrixohlik deb, nima ila bo'lsa bo'lsun, bir-birimizga foya'da yetkurmakni aytilar. Xayrixohlik bir-birimizga qarshu ishlatiladurgan bir vazifayi insoniyadurki, kishi o'z nafsiga loyiq ko'rmagan bir ishni boshqa bir kishiga munosib ko'rmasdan egri yo'llardan, yomon ishlardan kuch yetganicha qaytarmak va yordam qilmak lozimdur. Janobi Haq insonlarni birini digar²ining yordamiga muhtoj qilib yaratmishdur. Shuning uchun yer yuzidagi insonlar zamonaning qurban nizom va qonuni uzra biri ikinchisining yordami ila umr o'tkarur. Bir kishi har qancha boy va e'tiborli bo'lsa ham, hech vaqt muhtojlik balosidan qutulolmas.

*Hammol(n)ing og'ir bo'lsa yuki, mehnati ortur,
Har kimki ulug' bo'lsa, bo'lur kulfati oson.*

¹ Takfir – kofirga chiqarish.

² Digar – boshqa.

Boy faqirga, faqir boyga, muallim shogirdga, shogird mu-allimga, ota-onा farzandga, farzand ota-onaga muhtoj-dur. Shuning uchun har kim o'z ustiga yuklangan vazifasini to'g'rilik va xayrixohlik ila ado qilmak lozimdir. Shariaatda imonlik kishilarga dunyo rohati va oxirat saodati uchun qo'lidan kelgancha milliy xizmat va yordam qilmak vojibdur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasal-lam afandimiz: «Alloh taologa imon keturdikdan so'ngra, amallarning afzali bandalar bir-birlariga muhabbat etmak(i) dur», – demishlar.

*Xayrixohlik xolisona bo'lmasa bekordur,
Manfaat yo'q aylagan nazr-u niyozingdan sani,
Bir ko'ngilni shod qilmak ne'mati ehson ila,
Yaxshidur har damda ming rak'at namozingdan sani.*

MUNISLIK

Munislik deb har kim o'z tengi, maslakdoshini topub, ul-fat bo'lmaknı aytilar. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilmakdan iboratdir.

Ilmi axloq yuzasidan chin do'st va yori sodiq ila ulfat qil-mak lozimdir. Chunki ba'zi kasallarning yuqishi bo'lganga o'xhash nodon va ahmoq kishilarning urf-u odatlari va yomon xulqlarining ta'siri, siroyati yuqishi muqarrardur. Ba'zi do'st suratida ko'rinnish ikiyuzlama, munofiq¹, dushmanlar ham ko'p bo'lurlar. Shuning uchun har bir kishiga sinamasdan, bilmasdan do'stlik qilmak, sir aytmaq zo'r aqlsizlikdur. Chin do'st bo'lgan kishi boshingga kulfat va qayg'u kelgan vaqtarda san bilan barobar qayg'urur. Xotirangdag'i qayg'uni bo'lushub olur. Siringni noahil va nodon kishilarga aytmas, aybingni

¹ Munofiq – nifoq soluvchi.

orqangdan so'ylamasdan yuzingga aytur. Shodlik vaqtingda san ila barobar shodlanur. Yolg'on do'st sandan bir foyda umidida yoki o'z boshiga kelgan zararni qaytarmak uchun munofiqona do'stlik qilur. Siringni noahil kishilarga so'zlab, qadr va e'tiboringni poymol qilur. Bunday kishilarga do'st bo'lmasdan dostsiz (o'tmoq) yaxshiroqdur.

*Yaxshi do'st aybi yor-u do'stini
Ko'zgudek ro'baro'sida so'zlar.
Yomon o'rtog' tarog'cha ming til ila
Orqadan birmalab terib so'zlar.*

SADOOQAT

Sadoqat deb kishi o'z vazifasini to'g'rilik ila ishlamakni aytilar. Sodiq kishi din va millatiga, vatan va davlatiga to'g'rilik ila xizmat qilub, obro' va mukofotlar olur. Sadoqat gulshani salomat, bo'stoni najotdur. Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo'ldug'i kabi rostlikdan foyda, xiyonatdan zarar hosil bo'lur.

Janobi Haq sodiqlarni suyar. Yolg'onchilarni suymaz. To'g'rilikdan yo'qolgan kishi yo'q, xiyonatdan yo'qolganlar cho'qdur. Rostlik ila xiyonat ikisi jam' kelmas.

Agar bir kishining diliqa to'g'rilik tuxmi ekilsa, har qancha och va suvsiz bo'lsa ham to'g'rilik o'sar. Xiyonat ko'karmas. Axloq yuzasidan to'g'ri faqir yolg'onchi boydan e'tiborlidur. Chunki sodiq kishi ahdig'a vafo qilur. Yolg'onchi esa va'dasida turmay o'zini xijolat, boshqalarni ovora qilur.

Sadoqat bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidur.

Hazrati imom Husaynga hazrati Ali: «So'zingda to'g'ri bo'l, yolg'onchilar kabi munofiq o'linmassan», – deb nasihat

qilmishlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «To‘g‘rilikni ixtiyor qilingiz, agarchi halokat kabi ko‘rinsa ham, najot to‘g‘rilikdadir. Har qancha najot kabi ko‘rinsa ham, yolg‘ondan saqlaningiz, zeroki oqibati halokatdur», – demishlar.

*Sidq-u safoyi rostlig‘ o‘lsa qarobating,
Shuldur jahonda rohat, fayz, saodating.
Olamda to‘g‘rilikcha yo‘q odamni(ng) ziynati,
Qalbing alifdek o‘ldimi, ayni sharofating.*

ADOLAT

Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qilmakni aytilar.

Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Adolat va marhamatli kishilar o‘ziga loyiq ko‘rmagan bir ishni o‘zgalarga ravo ko‘rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg‘uz o‘zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas. Balki o‘zi bilan barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo‘lga sa’y qilmak ila ado qila bilur. Adolatni rioya qilgan kishilar hech bir kishiga jabr-u zulmni xohlamas va jonlik narsalarga bekorga ozor bermas. Aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qilur. Jabr-u zulm ila boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo‘lidan qutula olmas. Zero, janobi Haqningadolati zolimlarning jazo va sazosini bermakdadur. Rasuli akram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh rizosini istar esangiz, bolalarning haqqinda ham adolat qilingiz!» Yana: «Mazlum kishining duosindan kofir ham bo‘lsa, saqlaningiz! Chunki mazlumning duosi doimo maqbuldir», – demishlar. Har bir

millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamog‘i adolatga bog‘lidir. Adolatdan ayrılgan podshohlarning davlatlari yo‘q bo‘lub, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaga bilgulidur.

*Adl o‘lsa podshohning, oyog‘ ostida palos,
Boshingda bo‘lg‘usidur oning toji barqaror.
G‘olib bo‘lurga chiqsa, agar yengidan qo‘li,
Bo‘lg‘ay nasib gardanig‘a hiyladan tumor.*

MUHABBAT

Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilur. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasida ishlarlar. Muhabbatsiz kishi hech bir ishni ishlamakg‘a g‘ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne’matidan lazzat ololmas. Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtaha ila o‘qumasa, maqsudiga yetolmas. Yer yuzidagi insonlarni urushma-taloshmalarga qovushdurgan, siynalarini dushman o‘qig‘a nishona qildurgan narsa din va millatlarning, vatan va davlatlarning muhabbatidur. Kishini kecha va kunduz tindurmasdan qul kabi mehnat va mashaqqatlarga ko‘krak berub ishlatadurgan narsa vatan va bola-chaqalar ning mehr-u muhabbati emassi? Qush yaxshi ko‘rgan donasiga qiziqub, tuzoqg‘a ilinub qolg‘ani kabi inson suyukli narsasiga boylanub, asir bo‘lub qolmog‘i tabiiydur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «O‘z nafsing uchun qaysi narsani suyar esang, shul narsani boshqa kishiga ham suy», yana «Ota muhabbatini saqla! Agar san otag‘a bo‘lgan muhabbatni uzsang, Alloh taolo sani har turli fayzlardan mahrum qilur», – demishlar.

*Muhabbatlik bahorning kuz xusuli hech oz o'lmas,
Muhabbatsiz kishining ko'ngli qishdur, asli yoz o'lmas.
Suyub ilm-u funun tahsil edan uchgay havolarga,
Qay-u baxti qaro johil qolur, dasti daroz o'lmas.*

OLIYHIMMAT

Oliyhimmat deb din va millatga foydali ishlarni mol va jonila ishlar makni aytilar.

Himmat shunday bir oliyjanob fazilatdurki, insoniyatning koni yaxshi xulqlarining posboni demak joizdur. Himmat sohiblari karim sifatlik, rahim tabiatlik bo'lur. O'z jihsining avlodidan har vaqt yordamini ayamas. Xayr-u saxovatlik ishlardan o'zini tortmas. Pul va molini millat yo'lida sarf etmakan dan qizg'anmas. Oliyhimmat kishi soyasi latif, mevasi laziz daraxt kabidurki, bu soyaga yaqin bo'lgan kishilar har vaqt foydalanurlar.

Himmatlik inson lutf-u marhamati ila dunyo yuzida jilvagar o'lur. Olamni ravshan qilguvchi gunashning quvvat va fayziga zarar yetmagani kabi himmat arbobining ham, sarf va xarojot ila sha'n va molina zarracha xalal yetmas. Insonning mohiyati vijdonidan bilinur. Vijdon esa faqat oliyhimmat kishilardan topilur. Alhosil, himmat insonning kamoloti, taraqqiy va madaniyatining olatidur. Har ish himmat soyasida yuzaga chiqar. Oliyhimmat va xolis niyat ila ish ishlagan kishilar tavfiqi Rabboniyga rafiq, rahmati Rabboniyga shafi' bo'lurlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Ulуввил иммати минал имони», – demishlar. Но'shiravon: «Inson oliyhimmat vazifasi ila mu-kallafdur. Oliyjanob o'lan bir hakim ko'rgan bemorni davoyi himmat ila darmonlayur. Jahoning kasbi umroniysi oliyhimmatlar soyasidadur», – demishlar.

*Ibrat ko'zingizni ochingiz, «Yo, ulul-absor»,
Himmat-la tikilmish shu go'zal masjidi dildor,
Jur'at-la muzayyan o'lur olam, yashar inson,
Himmatli qo'ling suygusi har yerda xaridor.*

AFU

Afu deb kechurmakni aytilur. Bir kishi qilgan kamchiliklari bo'yning olub, o'kunub, kechurmakni so'rasha, afu qilmak lozimdir. Chunki afu yaxshi xulqlarning afzali, insoniyatning akmalidur. Janobi Haq Qur'oni karimda afuni maqtab, madh qilmishdur. Oliyjanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qu-sur va qabohatini bo'yning olub, uzr etsa, afu qilur, kechurur. Kattalik va ulug'likning lazzati birovdan o'ch olmakda emas, balki afu qilmakdadur.

Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub, dili-ni og'ritdi. Mahmud Ahmaddan o'chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o'ldi? Holbuki, har ikisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikisi ham g'amlilik va parishon bo'ldi. Bir yomonlik iki bo'ldi. Agarda Ahmadning qabohatiga Mahmud afu mukofotini bersa, ikisi ham shod-u masrur o'lur hamda Janobi Haq afu qiluvchilarni(ng) suyar. O'zi ham afu va mag'firat qiluvchidir. No'shiravon: «Bir gunohkorni afu qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman», – demish.

*Ulug'larning ishi afv aylamakdur,
Kichiklar uzr uchun bel boylamakdur.
Musulmonlig'da yo'q kin-u adovat,
Dila afv-u,adolat joylamakdur.
Bizim ishlar hasad, bug'z-u xusumat,
Hududdan chib-chiqub, chet poylamakdur.*

*Butun af'olimiz bir-birga zidlik,
Urub-tortub, og'izni moylamakdur.*

YOMON XULQLAR

Insonlarni(ng) saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masnum¹ bo'lgan axloqi zamima²lar: g'azab, shahvat, jaholat, safihat, hamoqat, atolat, hasosat³, raxovat⁴, anoniyat, adovat, namimat⁵, g'iybat, haqorat, jibonat⁶, hasad, nifoq, tama', zulmdur.

Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini onglab, hazar qilmak lozimdir. Zeroiki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so'zlarni eshutub va ko'rub hissa olmak, yomon va zararliklarini o'qub bilub, o'zini tiymak, qo'ldan kelgancha xalq va millat foydasiغا tirishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmakdadur. Chunki har narsaning haddan ortuqchasi isrofdur. Lekin yaxshilik va yaxshi sifat qancha ko'p bo'lsa, shuncha mamduh va maqbuldur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sal-lallohu alayhi vasallam afandimiz: «Bandalarning yaxshirog'i bandalarga foydali bo'lganidur», – demishlar.

*Yaxshilik bozoridur dorulomon,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilmas ziyon.*

¹ Masmum – zaharlangan.

² Zamima – yomon, tuban.

³ Hasosat – hushyorlik, ziyraklik.

⁴ Raxovat – tanparvar, dangasa.

⁵ Namimat – chaqimchilik.

⁶ Jibonat – qo'rqaqlik.

*Maktab-u dunyoda kasb et yaxshi xulq,
Farz, vojib, sunnat, istihbob¹dan ber imtihon.
Qilma makruh, harom, kibr-u g'urur manmanlig'ing,
Chaqma inson jismini yo mor, yo misli chayon.
Yaxshilik, adl-u saxovatlar sani(ng) yoring esa,
G'ibta² aylarlar sanga ins-u malak, hur-u jinon.*

G'AZAB

G'azab deb bir kishi ikinchi ila shiddat va hiddat ila muo-mala qilishmakni aytilar. G'azab insonga maxsus bir quvvayi mudofaadurki, tabiatda mavjud o'lan g'azab tuyg'usi ila boshqalar tarafidan keladurgan zarar va halokatdan o'z naf-sini faqat shu soyada saqlar. Lekin g'azabning jabr va zulm tariqi-la ishlatsmakdan nihoyatda ehtiyyot bo'lmak lozimdir. Nafsning g'ururidan paydo bo'lgan g'azab insonni(ng) alamlik azoblarga giriftor qiladur. Chunki bu shiddat va haroratning ta'siri vujuddagi qonni buzub, harakat qildurub, dimog'iga hujum qilub, aqlni parishon qilur-da, kishini(ng) ixtiyorini qo'lidan olur. Va bu soyada o'zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qilur. G'azablik kishilar qancha aql va idrok sohibi bo'lsa ham, g'azab qoni qo'zg'algan zamonida o'zini to'xtatolmas, aql va idrokidan ayrılib, bir yomon ishni qilub qo'yar-da so'ngidan pushaymon bo'lur.

Suqrot hakim: «G'azabning avvali junun, oxiri nadomat-dur», – demish.

Imom Shofe'i hazratlari: «Qilich va nayza ila hosil bo'lma-gan ko'p ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil bo'lur. G'azabning zarari egasiga qaytur», – demishlar.

¹ Istihbob – sevish, ma'qullash.

² G'ibta – orzu qilish.

Aflatun: «Hayajon ila paydo bo‘lg‘on bir hol, albatta, pu-shaymonlik ila tamom bo‘lur. G‘azab g‘azab qilinuvchidan ko‘proq g‘azab qiluvchig‘a zarar qilur. Aqlni g‘azabga soluv-chi inson nafsin haroratlik o‘tga yoqmish o‘lur. Nadomatdan avval matonatni ixtiyor qiluvchilar hech bir tahlika va azob-ga duchor o‘lmaslar», – demish.

Suyutiy: «G‘azab va shiddat vujud iqlimining dahshatli bir ofatidur. Buning daf‘i va chorasi topilmasa, u iqlimni(ng) xarob qilur. G‘azab bir illati muhlikadurki, yagona davosi sabr va tahammuldan iboratdur. Tadovi¹ etilmagan bir maraz insonning hayotini mahv va barbod etar, hazar qilmak lozimdir», – demish.

*G‘azablik bo‘lmag‘il, bo‘lg‘il muloyim,
Bo‘lursan shod-u xurramlikda doim.
G‘azab o‘tdur, yoqodur jism-u joning,
G‘azab barbod etodur xonumoning.
G‘azablik o‘tni bo‘suv past qilg‘ay,
G‘azabni jinni yoki mast qilg‘ay.*

SHAHVAT

Shahvat nafsning taayyish²indan, taaddisindan hosil bo‘ladurgan bir quvvatdur. Hikmati tabiiyya qonunining ahkomi azaliyasina qaraganda, hissiyoti shahvoniya baqoyi hayotga maxsus bir quvvayi fatriyadur. Shahvat insonning xazinayı zi qiymati o‘ldig‘i uchun surati mashru’ada sarf qilinsa, vujudning zakoti, balki bani bashar naslining madori hayotidur. Har ishda ifrot³ va tafrit maqbul bo‘limgani kabi bu xususda ham xasislik ila isrofdan saqlanmak lozimdir.

¹ Tadovi – davolash.

² Taayyish – aysh qilish, rohatlanish.

³ Ifrot – haddan oshish.

Agar shahvatni g‘ayri mashru’¹ bir yo‘lda suiiste’mol qilinsa, amonatga xiyonat qilingan bo‘ladur. Zero, yemak uchun yaratilgan bir ne’matning qadr va qiymatini bilmasdan, xorlab, o‘rinsiz yerlarga tashlamoq, oyoq osti qilmoq zo‘r kufroni ne’matdur. Yaxshi xulqlarning ichida farishlarni(ng) g‘ibta qildurganlari shahvatni(ng) mashru’ yerlarga sarf qilmakni riroyat²dan iboratdur. Shahvat inson uchun yaratilmish bir siloh³durki, agar o‘rniga iste’mol qilinsa, vujudimizni har xil taarruz⁴lardan saqlar, o‘rinsiz yerlarga sarf bo‘lsa, insonning iffatini barbod qilmak ila barobar hayotini xarob qilur. Bir kishi qo‘lidagi asbobiga mag‘rur bo‘lub, nobob yerga ursa, ul asbobni o‘tmas qilg‘ani kabi mas’uliyatdan nafsin ham qutqarolmas. Afsus, bizim yoshlarimizning aksarlari shahvat g‘alabasi-la nafsi ammoralarina mutbalo bo‘lub, siflis, zaxm marazlarina giriftor bo‘lurlar. Qancha mehnat va mashaqqat ila topkan oltunlarini boquzmak uchun sarf qilub, oltundan qadrli aziz umrlarini kasalxonalarda isrof qilurlar. Ulamordan biri: «Hayot ibodatning asbobi o‘ldig‘i kabi shahvat ham ubudiyatiya xizmat vazifasini ado qilur va bu vazifalar haq ila ado qilinmasa, insoniyat ila hayvoniyat orasida nima farq bo‘lur», – demish.

*Agar shahvatka dil bersang, bo‘lur qalbing qaro, kam-kam,
 Ketar nasling o‘qi, bel quvvati, ko‘zdan ziyo, kam-kam.
 Tamomi ixtiyorning nafsi badni ilgina bersang,
 Marazlarga duchor aylar, bo‘lur ranging fano, kam-kam.
 Buzuq yo‘llarga isrof aylasang, molingni, joningni,
 Qo‘lingdan din-u dunyo, ish ketar, charming, hayo kam-kam.*

¹ Mashru’ – qonuniy, ruxsat etilgan.

² Riroyat – e’tiborga olish.

³ Siloh – qurol, aslaha.

⁴ Taarruz – qarshilik ko‘rsatish.

AQSOMI JAHOLAT

Jaholat iki qismdurki, birini «jahli basit», ikinchisini «jahli murakkab» deyilur. «Jahli basit» maraziga mubtalo bo‘lgan kishilar bir narsani bilmasalar ham bilmaganliklarini iqror va e’tirof qilurlar. Shuning uchun buning davosi oson: faqat bilmak va o‘rganmak yo‘lida jahd-u jadal qilmak ila bo‘lur.

«Jahli murakkab» maraziga mubtalo bo‘lgan kishilar bir narsani bilmas, bilmaganini ham bilmasdan bilaman, deb da‘vo qilur. Bizda munday kishilarga «o‘zboshimcha» va «o‘zim bilarmon» ismini berurlar. Bu dardi bedavoning iloji janobi Haqning lutf-u inoyati ila hal o‘linmasa, tuzalmog‘i mushkul va og‘irdur.

JAHOLAT

Jaholat deb o‘qumagan, bilimsiz hech narsaga tushunmay-durgan nodonlig‘ni aytilar. Jaholat insoniyatning eng zo‘r dushmani va yomon xulqlarning boshlig‘idur. Maorifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat pan-jalarini(ng) orasida xamir kabi ezilgandek, af’oli zamimadan ham o‘z nafsi(ng) yoqasini bo‘shatolmas. Ilm va ma’rifat sohiblari, fazl-u kamollari soyasida har bir ishni tadqiq va mushohada ila qilurlar. Ammo johillar esa bir narsaning mo-hiyatini mushohada qilurg‘a aql va farosatlari yetmas. Chunki jahl xudbin va zohirparastdan iboratdur. Har bir narsaning haqiqati aql va irfon, ilm va donish sohiblarina maxsus bir maziyyat¹, johil va nodonlara zo‘r aziyyatdurdur. Jaholat arbobi qay-u yerda bo‘lsa bo‘lsun, loyiqi e’tibor o‘lmaq sharafindan mahrumdur. Moddiy jihatdan qancha boy va sarvatdor bo‘lsa, ma’naviy jihatdan shuncha faqir va zalil hisoblanur. Zeroki,

¹ Maziyyat – ortiqqlik, ziyodalik.

jaholat eng qo'rqinch faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatdur. Aql ila ilmnning yaxshiligi va fazilati qancha baland bo'lsa, jaholatdan tug'uladurgon yomonliklar balolari shuncha ostin va xorlikdur. Hazrat Ali: «Arbobi fazl-u kamol johildan qancha izo va jafo cheksa, johil ham aql va irfon sohibidan shuncha mutaassir bo'lur», – demishlar.

Bayt

*Suymagay fazl egasi johilni,
Johil ahli uluma dushmandur.*

Suqrot hakim: «Dunyoda eng hazar qilinadurg'an illat jahldur. Men johilga achinganimdek ko'rga achinmayman, zeroki, johilning o'z ixtiyori ila qilgan harakoti a'moning ixtiyorsiz qilgan harakotidan mening nazarimda xunuk», – demish. Arablar: «Al-johil-u mayyitul ahyo – nodon kishi tirik o'luk», – deyurlar. Bizlar esa «do'sti nodondan, dushmani ziyrak yaxshi», – deymiz. Ba'zi oqil dushmanlar bo'lurki, keturgon zararlari nodon do'stlarning foydalaridan natijada yaxshi va foydalik bo'lib chiqadur.

Aflatun hakim: «Johilning yaxshi niyati fozilning xusumatidan zararliroqdur. Inson eng yuqishlik bir kasaldan saqlangan kabi jahldan hazar qilmak lozimdir», – demish.

Alhosil, jaholat insoniyat nomina yarashmagan bir sifat o'ldig'indan baqadri hol ilm yo'lida harakat qilmak, aqli salim sohiblarining hikmatli so'zlaridan hissalanmak, aziz jonimizdan azizroq (avlodlarimizni) jaholat va nodonlik balolaridan qutqarmak uchun jonimiz boricha, kuchimiz yetkuncha cholishmoqimiz lozim va lobud¹dir.

*Ey jaholat nori birla yondi jismi pokimiz,
Ilmsiz qolduk oyog' ostida misli xokimiz.*

¹ Lobud – majburiy, kerak.

*O'sdi ilm-u ma'rifat-la boshqalar ar-ar kabi,
Tarbiyatsiz majmayil monandi zangi tokmiz.
Jismun axloqin tuzatdi noslar, tannoslar,
Kir chopon, ko'krak ochuq, yaxtak yaqosi chokmiz.
G'ayrilar tashlab jaholat bodasin g'amdan xalos,
Biz esa masti jaholat ko'knori, taryokmiz.
Aysh-u ishrat bo'lsa har qancha qilurmiz bemalol,
Diniy ishlardan, ibodatdan qochar bebokmiz.
Dori dunyo ilm ila purnur o'lan bir vaqtda,
Jahl vodiysinda yotkandur xotun, erkokmiz.
O'ylamak lozim emasmi, ey Muhammad ummati,
Farz-u sunnatdan chiqub, bizlar qayon ketcokmiz?
Johilon bilgaymi, naf'i, sudini, ey olimon?
Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz.
Ilm yaxshimi, jaholatmi tushunmaymiz hanuz,
Aqlimiz yo'qmi bizim, Majnunmi yo tentokmiz?
Ichkuluk «Ummul xabois», – dedilar payg'ambarim,
Kecha-kunduz xo'b icharmiz, johili nopokmiz.
Basdur, ey Hijron, jaholatdan gapurmak shunchalar,
To'g'ri so'z tuvg'onga yoqmaydur degon o'rnochmiz.*

SAFOHAT BALOSI

Safohat deb buzuq va g'ayri mashru' yerlarga sarfi umr-u mol qilmakni aytilar. Safohat eng yomon xulqlardan sanal-gan bir sifati zamimadurki, kishini duchori ya's-u nadomat etmakdan boshqa, shuhrat va e'tiborini yer ila yakson qilur va o'rinsiz yerga sarf qilingan narsaning qiymatini qaytarub olmaq mumkin o'lmadig'i (kabi) safohat dunyosiga isrof qilingan aziz umr va hayotningda iodosining imkon yo'qdur. Inson harholda o'z nafsining idorasini ta'min qilub, baxti-yorona bir maishatga qodir bo'lsa, haqiqatan mas'udiyati insoniyasini yo'lga solgan bo'lur. Safohat yolg'uz bir oila-

ning emas, butun bir qavmning mol va sarvatini mahv etmaka qodirdur. Hatto nomus va fazilatiga maxsus bo'lgan hurmat va rioyatini ham barbod qilur. Shuning uchun inson ko'rpasiga qarab oyog' uzatmasa, daromadiga qarab xarojat qilmasa, iqtisod yo'lini rioyat qilmasa nafsining yoqasini safohat qo'lidan qutqarolmas. Mol va hayot qadrini bilmagan va ko'rnamaklik qilgan bo'ladur. Safohat balosiga mubtalo bo'lgan kishilarning boshlariga shunday bir qaro kunlar keladurki, «Oh, safohat, ofatijon, baloyi mol ekansan», – deb fig'on qilmak foyda bermaydur. Afsuski, manbayi vujudimiz bo'lgan yoxud haqiqiy onamiz bo'lgan vatanimiz, ya'ni tuprog'imizni ozgina bahoga sotub, puchak pullar olg'animizga o'xshash, osori atiqalarimizni(ng) evazina soxta ash-yolara molik o'ldig'imiz kabi bisotimizda bor ilm va ma'rifatimiz, mol va sarvatimizni(ng) havoyi nafsoniyamiz uchun «gardkam» urub, boy berub, ko'zimizga ziynatlik libosga o'ralmish fohisha xotun kabi jilvagar o'lub ko'ringan safohat bozoridan buzuq va fasod ishlarin sotub olurmiz.

Hosili kalom, inson umrindan bir daqiqasini, molindan birgina chaqasini o'rinsiz va g'ayri mashru' yerlardan biringa sarf qilsa, bu dunyoda xor, oxiratda alamli azobga giriftor bo'lishida shubha yo'qdur.

Bayt

*Safohat ofatijondur jahonda,
Safohat bizdadur ushbu zamonda,
Yuqumlik bir marazdandur safohat,
Yuqub ondin tug'ulur har falokat.
Safohat mahv etar umring, hayoting,
Umid etma safohatdan najoting.
Safohat aylagay molingni toroj,
Bolursan oxiri nomarda muhtoj.*

*Berubdur Haq senga juz ixtiyori,
Rizo ermas, buzuq koringga bori.
Aziz umringni g'aflatda kechurma,
Safohat jomini nafsa ichurma.
Shariat yo'lida qil istiqomat,
Safohat oxiri hasrat, nadomat.
Dushun, joni azizing ehtiyyot et,
Musaffo yo'l Pay(g')ambar ortidan ket.
Safohat, o'ylama, oromi jondur,
Butun vijdon ila jonga ziyondur.
Faqirlikni pula sotub olursan,
Dushungil, dushmana muhtoj qolursan.
Safohat dushmani nomus, shoning,
Buyuk bir ofati ruhi ravoning.
Qabohatdur, safolatdur safohat.
Na «Hijron»lig' falokatdur safohat.*

HAMOQAT

Hamoqat aql va ma'rifatning kamlig'indan hosil bo'ladur-gon eng yomon xulqlarning biridur. Hamoqatning ma'niyi lug'aviysi balohat¹ga yaqin o'ldig'indan ba'zi hukamo ah-maqlarni(ng) jahli murakkab ashobindandur, demishlar. Ah-maq kishilarni(ng) bir ishda aqliy va naqliy dalillar ila ko'ndurub bo'lmas, hamon o'z bilarmanlig'laridan ayrilmaslar.

Ibn Sino hakim: «Ochuq va moddiy dalil ila isbot qilinmag'an bir narsani inkor qilmak asari hamoqatdur. Oqil inson bir masalaning har bir jihatini o'ylar, tadqiq va taftish qilur, qat'iy hukm qilmoqda shoshmas, ma'naviy jihatini ham tu-shunar. Dalilsiz, hujjatsiz bir jumlaning qiyosini rad yo qabul qilmak ahmaqlikdan hisoblanur», – demish. Ahmaqlik davo-sini topmak mushkul bo'lgan bir illatdur. Luqmoni hakim:

¹ Balohat – ahmoqlik.

«Man bir marazning daf’ini va chorasini topdim, faqat ahmaqlik davosini topolmadim», – demish.

*Har bir kasalning davosi vordur,
Ahmaq kasalini(ng) yo‘q davosi.*

Suqrot hakim: «Ahmaq kishi sukut ila ahmaqligini yopsa, o‘rtacha oqillardan hisoblanur edi. Lekin ahmaqlik ila sukut ikisi bir odamda jam kelmas», – demish.

Axloq ulamolari qoshinda hamoqat jaholatdan yomon-roqdur. Zeroki, johilda faqat bir jahl bor. Ammo ahmaqda bir necha sohibi aqlni aldaydurgon yolg‘on-yashig‘ so‘zlar bo‘lurki, ko‘p kishilarni aldab yo‘ldan chiqaradur. Jaholatning davosi ilm o‘ldig‘i kabi hamoqatning darmoni aql va fikrdur. Inson o‘z nafsigiga jabr etub bo‘lsa ham, nazari diqqat ila ibrat ko‘zini ochmak uchun sa’y va g‘ayrat qilsa, ahmaqlik balosidan qutulur. Tarbiya nazariyadan mahrum bo‘lgan inson har vaqt falokat va hasrat tuzog‘iga tutilur.

*Dorusi yo‘q dedi hukamolar hamoqating,
Sud-u ziyonni bilmagay ablah qiyofating.
Har kim o‘zini bilmasa, bilgaymi o‘zgani?
Qayg‘usina tushunmagay afrodi millating.
Jahl o‘lsa bir balodir-u, ahmaq bedavo,
Har ikisidur ochg‘uchi olam-u g‘urbating.
Ahmaq bilurmi, din ila millatni qadrini?
Ablah bilurmi qiymati mehr-u muhabbatting?*

ATOLAT

Atolat deb dangasa va yalqovlikni aytilur. Atolat insonning saodatligini(ng) zo'r ofatidur. Tanparvarlikdan paydo bo'ladurgon yomonlik maishat jihatidan naslga ham ta'sir qiladur. Har xil fayz va kamolotdan mahrum qilub, kishini xor va zalil yashatmak ila barobar umrini safolat chuquriga irg'i-tadur. Kishi hayoti boricha, kuchi yetkuncha cholishmoqg'a mukallafdur. Lekin dunyoda har bir sa'ydan maqsud bo'lgan samara darhol hosil bo'lmaydur. Halvo degan ila og'iz suchimaydur. Shuning uchun sa'y va g'ayrat as'hobi har vaqt jiddiy harakatda bo'lub, doimo sa'y mashru'ada, sabot va matonatda shavq va zavq ila davom qilurlar. Har bir sa'yning mukofot va natijasini ko'rmak mumkin bo'lsa ham, ul mukofotning zohir bo'lishi, ko'rinishi yetushgan vaqtdan ma'lum bo'ladur. Masalan, bir daraxtning mevasi to'rt-besh yil tarbiya qilingandan so'ng, meva yetushdurgoni kabi bir shogirdning maktab va madrasada sakkiz-o'n sana doimiy sa'y qilganidan so'ng, yemish va hosiloti ilmiyasi zohir va mushohida o'lunur. Shunga o'xshash har ishning samarasi bir necha vaqt cholishmoq va sa'y qilmak so'ngidan zohir va huvaydo¹ bo'lur. Alhosil, yalqov va ishsizlikka xo'y qilg'on kishilar dunyo va oxiratda moddiy va ma'naviy saodati insoniyadan mahrum va bebahra qolurlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey, Alloh! Sanga sig'inaman, qayg'u va hasratdan, dovdirab qoluv va yalqovlikdan, baxillikdan va qo'rkoqlikdan, qarz og'irligidan ham odamlarning ustin bo'luvindan (saqlagaysan)», – demishlar.

¹ Huvaydo – oshkor, ayon.

*Atolat dushmani jondur, yomondur,
Chaqar jismingni, bir af'i¹ yilondur.
Magas² quvg'in yegay yalqovlig'idan,
Ari mehnat qilur oromi jondur.
Bu dunyoga kishi ishlovga kelgan,
Tuzuk tikmasa, kosibg'a ziyondur.*

XASOSAT³

Xasosat deb tama' va zillatni bo'yniga yuklab, ortuqcha hirsini dunyoga qo'ymakni aytilar. Hirs va tama'ga ifrot darajada yuztuban ketgan baxil, qancha shon-u sharaf sohibi bo'lsa ham, nafsining yoqasini faqirona bir mazallatdan va xorlikdan qutqarolmas.

Faqir va muhtojlikdan saqlanmak fikri ila baxil va xasislik yo'lini tutgan kishilar aql va irfon sohibi sanalmaslar. Zero-ki, xasislik soyasida janobi Haqning razzoq va xalloqi olam o'ldig'ini yodlaridan chiqarub, zo'r xatolarga duchor o'lular. Xasis o'lan inson qancha zillat ila jam qilgan sarvatindan zakot va ushrini ado qilmakdan ojiz, saodati insoniyadan mahrum bo'lub, jazoyi abadiyga mahkum bo'lur. Ipak qurti pilla ichida o'ralub, hayotini mahv qilur. Qancha mehnat va mashaqqat ila hosil qilgan ipagidan boshqalar foydalanurlar. Shunga o'xhash xasis inson mol va dunyo jam qilmak ila o'ralub, ovora va sargardon bo'lub, aziz jonini boshqalar uchun fido qilur. Dunyo izzatidan, hayot lazzatidan bebahra ketkonи kabi vafot vaqtidagi nadomatidan ham foyda yo'qdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Bor davlati ila ahl-u ayoliga torlik qilgan kishilar yomon kishilardur», – demishlar.

¹ Af'i – zaharli.

² Magas – chivin.

³ Xasosat – tama' qilish, pastkashlik.

*Xasislik birla yig'gan mulk-u moling,
Hamach¹dek to'plagan ashyo, manoling²,
Lahad kirsang, qolur vorislaringg'a,
Nechuk kechgay seni ul kunda holing?
Kitobingdan hisobni san berursan,
Xalos o'lmak bayidi ehtimoling.*

RAXOVAT

Raxovat deb tanparvarlik, g'ayratsizlikni aytilur. Umid va sa'yning eng zo'r dushmani raxovatdurki, hissiyoti g'ayratparvaronamizni mahv va barbod etar va bir necha ma'yusona fikr va xayollarga duchor va giriftor etar.

Ibn Sino hakim: «Sa'y va harakat ila o'lilik, mavti musammo³dur. Raxovat ila jon bermak, ajali qazodur. G'ayratsizlik tirik o'lukdan iboratdur. O'luklarning makoni tiriklar orasida emas, tuproq orasidadur», – demish.

Luqmon hakim: «Tanparvarlik umid va muvaffaqiyatning quvvatini kesadurgan bir marazdur. Saodati insoniyadan mahrum bo'lub, ma'yusona yashamak raxovat, g'ayratsizlik asaridur», – demish.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Allohga sig'inizing! Faqirlikdan ham muhtojlikdan, ham kishiga zulm qilmakdan, o'zingizga zulm qildurmakdan (saqlaning)», – demishlar.

*Kishiga dangasalik sha'n-sarofatmi verar?
Yalqov inson kishiga xayr-u saxovatmi verar?
«Bo'limg'onlarga bo'lishma», – deydilar bobolariz,
Bo'lsa g'ayratsiz agar millata xizmatmi verar?*

¹ Hamach – ziqna, xasis timsoli.

² Mano – boylik.

³ Musammo – sharafli o'lim.

ANONIYYAT¹

Anoniyyat deb xudbin, mutakabbir, manmanlikni aytilar. Manmanlik johilona kibr-u g'ururdan paydo bo'ladurgan eng yomon xulqlarning biridurki, kishini har yerda ma'yus va mahjub qilur. Kerak inson o'zini olamga tonutmasun, kerak bo'lsa olam o'zini tonub olsun. Bu sifat esa yomon xulqlardan huzur qilgan kishilargagina tuyassar bo'ladur. Kekkayub o'sub ketgan daraxt yaxshi meva qilmagani kabi kibr va manmanlikdan fazilat hosil bo'lmas. Axloqi yaxshi insonlar o'zlaridagi fazl-u kamolot asarini xaloyiqg'a xush xulqlik va tavozi ila ko'rsaturlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Ibodatning afzali tavozu'dur», – deb, bizlarga kibr-u manmanlikni qanday zillat va xorlik o'ldig'ini bayon qilmishlar. Alhosil, kibr va manmanlik balosiga giriftor bo'lg'an kishilar qay-u yerda bo'lsa bo'lsun, duchori ajz²-u haqorat bo'lurlar.

*Azozil kibr qildi, bo'ldi shayton,
Takabburlik qilurmi oqil inson?
Tavozu' pesha qil, aslingni qil yod,
Vujuding xok erur, ey odamizod!*

ADOVAT

Adovat deb birovga xusumat va dushmanlik qilmakni aytilar. Adovat vijdonni(ng) behuzur qiladurgon eng yomon xulqlardan o'ldig'ini inson yaxshi bilsa edi, hech vaqt aziz jonini alamlik azobga giriftor qilmas edi.

Suqrot hakim: «Man dushmanim bo'lg'on bir odamga adovat qilmayman. Zeroki, maning adovatim dushmanimning

¹ Anoniyyat – manmanlik.

² Ajz – kuchsizlik.

xusumatini ziyoda qiladur. Man adovatga qarshi do'stlik ila muqobala qilub, xusumatni(ng) muvaddat¹ga aylandurub, dushman kishilarni o'zumga el qilaman», – demish.

Aflatun hakim: «Dildagi adovat temirdagi zangg'a o'xshar. Zang temirni yegani kabi adovat qalbni azobga soladur», – demish. Hazrati Muhyiddin: «Xusumat va adovatdan qu-tulmoq, birovga jabr-u zulm bo'ladurgan ishdan ehtiyyot bo'lmak, dushman paydo qiladurgon harakotdan ehtiroy qilmak ila bo'ladur. Man hech kimg'a adovat qilmoqg'a luzum ko'rmadim. Chunki hozirgacha man hech dushmanga uchramadim», – demish.

Alhosil, yomon xulqlarning yomoni bo'lg'on adovat shunday bir yomon sifatduri, barcha buzug' ishlarni(ng) tug'ub, katta bo'lub chiqadurgon yeri adovatdur. Adovat esa nafsoniyat²dan paydo bo'lur. Nafsoniyat esa farishtalarning ustodi o'lan Azozilga Shaytonur-rojim ismini bergan shoyoni ehtiroy bir sifati zamimadur. Adovat ila nafsoniyat ikisi tarbiyasiz dilga hosil bo'ladurgan bir illati jismoniyadurki, buning birinchi iloji vijdon va insof uzra hakimona tadbir va harakotimizga bog'lidur. Hamaga ochuq va oydindurki, adovat daraxti xusumat mevasini chiqarur. Agar adovatni kesub tashlab, o'rniga muxolasat³ novdasi ulansa va bu soyada muhabbat va ulfat mevasi nishona qilur. Rasuli akram nabiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Allah taoloni suymagan odam xusumat va da'vosinda qattig'lik qilgan odamdu», – demishlar.

*Adovat balosi bizlarni netdi,
Adovat qilma deb Haq bizga aytdi.*

¹ Muvaddat – do'stlik.

² Nafsoniyat – o'z nafsiga tortish.

³ Muxolasat – samimiylit.

*Zidlik qilduk, mol va davlatlar ketdi,
Moldan o'tub, oxir jonlarga yetdi.*

NAMIMAT

Namimat deb so'z yurutmak, choqimchilikni aytilar. Namom'lilik fasodi axloqdan tug'uladurgon yomon xulqlarning biridur. Nammomlik nifoq va fasadning asosi o'ldig'i uchun bu yomon sifatni o'ziga maslak qilgan kishilar xalq nazarida munofiq yod o'lunurlar. Iki mo'min arosida so'z yurutub, biringi-biriga dushman qilub, iki aroga nifoq va adovat otashlarini solub, bir-biridan judo va xonavayron qilmakni dilida zarra qadar imon va insoniyati bor insonlarning vijdonlari aslo qabul qilmasa kerak. Ba'zi adovat va hasadchi kishilar birovning sha'nida yo'q so'zlarni iftiro va bo'hton qilub, ul kishini(ng) qadr va obro'sini to'kmak va e'tibordan tushurmak niyatida har kimga so'zlab yururlar. Munday kishilarning shariatda shahodatlari maqbul emasdur, hamda uydurma so'zlarining haqiqati bilinub qolub, birovga qazigan chuqurlariga o'zları yiqilub, xalq orasida choqimchilik ismi ila yod o'lunub, tezgina qadr va e'tibordan tushub qolur. Qalbi pok va vijdoni salomat o'lan inson bu kabi hiyla va tazvirdan tilini tiyar. Chunki munday fasod axloqg'a mubtalo bo'lgan arbobi nifoq faqat xalq qoshida emas, janobi Haq nazarinda ham suyumsizdur.

Nammom va g'iybatchi kishilar daraxt ildiziga tushgan buzog'bosh kabi xalq orosida ittifoq va ulfatning kovokini kemurub, umumiy xalq va millatning yashamog'i uchun lozim bo'lgan muhabbat daraxtini yemururlar. Birovni yomonlamak, yolg'on so'yalamak, haqiqatni berkitmak, mudo-

¹ Nammom – chaqimchi.

hana¹ yo‘lig‘a ketmak, shar‘an harom bo‘lgan g‘iybatni irtikob² qilmak bo‘ladur. Shaxsiy g‘araz yoxud manfaati shaxsiyasi uchun bir kishidan eshitgan so‘zini o‘z maqsadiga muvofiq bir necha turli ma’nolar ila buzub so‘ylamak zo‘r ayb va gunohdir.

Hosili kalom, o‘z jinsiga yomonlik qilmak va yomon so‘zlar ila yod qilmakni odat qilgan kishilardan qochmak va hazar qilmak lozimdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «As’habimdan biri ikinchisining so‘zin keturmasun, zeroki, man Sizga sadrim salomat, qalbim rohat o‘ldig‘im holda uchramakni suyaram», – demishlar.

Hukamolardan biri: «Mol va ashyo o‘g‘rilaridan ko‘proq odamlar orasidan do‘stlik, ulfat, muhabbatni o‘g‘irlaydurgan odamlardan saqlanmak lozimdur», – demish.

Bayt

*Choqimchilar buzar ulfat hisor³in,
Nifoqa o‘g‘ratur millatni korin.
Choqimchi til yomon ajdar tilidan,
Solur jong‘a alamlik zahri morin.
Yomon til ming tilim bo‘lg‘oni yaxshi,
Sochar ummat aro kin-u niqor⁴in.
Yomon til sohibining dushmanidur,
Yo‘qotgay sha’n-u shavkat e’tiborin.*

¹ Mudohana – laganbardorlik.

² Irtikob – kirishish.

³ Hisor – qo‘rg‘on, qal’a.

⁴ Niqor – dushmanlik.

G‘IYBAT

G‘iybat deb bir kishining kamchilik va qusurini orqasidan so‘ylamakni aytilur. G‘iybat so‘ylamak harom o‘ldig‘i kabi eshitmak ham haromdur. Kishi o‘z nafsga lazzat umidi ila birovni(ng) g‘iybat qilub, etini chaynamak gunoh ham insoniyat nomina yarashmagan eng yomon axloqiy zamimalardandur.

Inson boshqa gunohlarni nafsining lazzati uchun qiladur. Ammo g‘iybat sohibi lazzat o‘rniga o‘z boshiga yoki bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki so‘z borub g‘iybat qilinmis kishining qulog‘iga yetar. G‘azab qoni harakatga kirar. G‘iybatchidan o‘ch olmak fursatini poylar. Shunday qilub, g‘iybat soyasida iki musulmon orasiga zo‘r dushmanlik tushar. Oxiri o‘limgacha borub tiralur. Shul tariqa g‘iybatdan tug‘ilgan adovat cho‘zulmoqg‘a oid bo‘lub, dushmanlik zo‘rayub, o‘z oralaridagi xususiy janjallar ila aziz umrlarini uzdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlanadurg‘on milliy ishlardan mahrum bo‘lmaklari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo‘qaluviga sabab bo‘lurlar.

Alhosil, qaysi bir millatning orasida birlik ko‘tarilub, niifoq va adovat hukm surgan bo‘lsa, ul qavmnинг inqiroz dunyosiga yuzlanganlig‘i tarix sahifalaridan ma’lumdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «G‘iybatdan saqlaningiz, g‘iybat zinodan ham yomonroqdur», – demishlar.

*Agar jurm-u gunah bo‘lsun desang oz,
Tilingni saqla g‘iybatdan qish-u yoz.
Qulog‘a paxta tiq, g‘iybat eshitma,
Shikoyatchi kishiga bo‘lma damsoz.*

HAQORAT

Haqorat deb bir kishining nafsigiga, iffatiga tegadurgan so'zlar ila qadr va e'tiborini tushurmak niyatida yomon muomala qilmakni aytilar. Ulamolar diniy kitoblarda: «Tashbih zino gunohi kabira¹dur – birovni haqorat qilmak ulug' gunohlardandur», – demishlar. Lekin bizlarning oramizda xotun-qizga borushub, bir-birimizni haqorat qilmak odat hukmig'a kirmishdur. Buning sababi axloqsizlik, gunoh va savobni farq qilmag'onimizning samarasidur. Haqorat tahqir qilingan kishining diliga o'rashub, shunday yomon jarohatlarni ochurki, fursatni g'animat topub, o'ch va intiqom olmaguncha tuzalmaydurdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Iki odam bir-birini so'ksa, gunoh boshlovchiga bo'lur. Magar qarshi bo'lgan kishi ortuq ketsa, har ikisi ham gunohda o'rtoq bo'lurlar». Yana «Mo'min qarindoshini so'kmak fosiqlik, onlar ila urushmak kufrdur», – demishlar. Shul xususda Mirzo Bedil:

*Zi harfi no muloyim zahmati dilho mashav Bedil,
Ki har jo jinsi sangi hast, boshad dushmani ayno.*

Tarjimasi:

*Yomon so'zlar ilan dillarga zahmat bermagil, Bedil,
Ne yerda toshni jinsi bo'lsa, bo'lg'ay shishaga dushman*

– deb insonlarning dilini shishaga, haqorat va yomon so'zlarini toshga tashbih qilub, yomon so'z kishining shisha kabi nozuk dilini parcha-parcha qiladur, – demishlar.

¹ Kabir(a) – katta, ulug'.

QARIMTALIK DUNYODUR

Mol va dunyoga mag'rur bo'lib, har kimga haqorat ko'z ila qaragan kishilar tezgina o'zları ham xor va haqoratga duchor bo'lurlar. Haqorat va birovni xo'rلlamak so'z va ish ila o'ldig'i kabi qalam va yozuv ila ham bo'ladur. Ba'zi adab va tarbiyadan mahrum muharrir va shoirlar bo'ladurki, dillariga kelgan narsalarni qaytarmasdan, axloq va odobni rioya qilmasdan, xulqdan ibo qilmasdan, bachcha va juvonlar sha'niga muvashshaxmi yoki bir mo'min birodarlarning haqida hajv va istehzomi yozub, matbuot va adabiyot dunyosini iflos va mulavvas¹ qilmak ila barobar o'zlariga hamsuhbat bo'ladurgon yoshlarning axloqini buzulmog'iga sabab va namuna bo'lurlar.

*Ko'p o'turma yomonning suhbatida,
Pok bo'lsang, seni qilur iflos.
Ko'r, nechuk oftob ravshandur,
Xira qilsa bulut, ko'rub bo'lmas.*

JIBONAT

Jibonat deb qo'rkoq va yuraksizlikni aytilur. Qo'rkoq kishilar vahm va xayolot asiri bo'lub, bir ishni ishlamakg'a jasorat qilolmaslar. Qo'rkoqlik eng yomon xulqlarning biridur. Chunki qo'rkoq kishilarning so'z va va'dalariga ishonub bo'limgani kabi yo'l va safarda ham hamroh bo'lmak xatodur. Zeroki, yuraksiz kishilarda sabr va sabot, jur'at va matonat kabi yaxshi sifatlar bo'lmaydur.

Qo'rkoqlikni(ng) boshi tarbiyasizlik o'ldig'i kabi oxiri o'lumdur. Birdan bir narsadan qo'rquq, yuragi yorulub, o'lub

¹ Mulavvas – ifloslangan.

qolgan qo'rqaqlar ham bo'ladur. Shul xususga biz, turkistonliklar, hech ahamiyat bermaymiz. Bolalarimizni yaxshi tarbiya qilmaymiz, «ana, ola bo'ji kelvotti» deb qo'rqaq va yuraksiz qilub o'sturmiz. Shuning uchun bizlarning bolalarimiz hech narsaga jasorat qilolmaydurgon, kech bo'lsa uydan eshikg'a chiqolmaydurgon, hatto o'zining soyasidan qo'rqaqdurgan yuraksiz bo'lub o'sadur. Bular kishi bo'lganda ham foydalik ishlarni ishlovdan mahrum bo'lub, faqir va muhtojlikda qolurlar. Bas, qo'rqaqlik soyasida o'zlariga yeng bo'lмаган yuraksiz kishilar din va millatga bo'y bo'lomasliklari tabiiydr. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Dunyolar yig'durub, oh-voh chekdurub qayg'uga soladurgan baxillik kabi yuragi yorilur darajada qo'rqaqlik kabi er kishida bo'lgan sifatlarning yomoni yo'qdur», yana: «Qo'rqaq savdogar har zamon foydadan mahrum bo'lur. Jasoratli, bahodir savdogarlarning doimo rizqi ortar», – demishlar.

HASAD

Hasad deb bir odamga janobi Haq tarafindan berilgan ne'mat va davlatning zavolini tilamakni aytilur. G'iybat, bo'hton, suizan kabi yomon xulqlar hasaddan tug'ilur.

Hasad axloqi zamimalarning eng zararligidur. Janobi Haq Qur'oni karimda «Va min sharri hosidin izo hasad» deb hosidning sharrindan o'ziga sig'inmoqni amr etmishdur. Hukamolar hasadni(ng) otashga o'xshatmishlar. «Otash o'zidan o'zi yonub kul bo'lgani kabi hasudlarning jasadi hasad o'ti ila erub mahv va barbod bo'lur», – demishlar. Hasadning yomonlig'ining sababi Alloh taologa qarshu e'tiroz o'ldig'in-dandur. Zeroki, hasadning «Oh! Falonching mol va davlati, izzat va saodati manda bo'lsa, rohat va safoni man sursam

edi», zimnindagi xayoloti harisona¹si janobi Haqning o'lchab bergen rizqiga qanoatsizlig‘ining nishonasidur. Holbuki, janobi Haq bir ne'matni birovga abas va bekorga ehson qilmaydur. Buning sir va hikmati o'zining ilmi azaliysiga ma'lum shaylardandur. Banda hasad qilgani ila yo'q, yordam qilgani ila bor qilolmaydur.

Alhosil, hasad doimo ya's va hasrat orasida umrguzaronlig‘ qilur. Qancha mol-u dunyoga molik bo'lsa, yana hasadindan farog‘at va rohat yuzini ko'rmasdan dunyodan ketar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Mo'min g'ibta qilur, munofiq esa hasad qilur», – demishlar.

G'ibta deb bir odamning daraja va molini(ng) zavolini orzu qilmay, «koshki men ham shunday bo'lsam edi», – orzusida bo'lmoqni aytilar. G'ibta esa mazmum² emas, mamduh³ bir sifatdurdur.

Inson dunyoda yaxshi ishlarga g'ibta qilub, o'rnak olub, o'zini saodati abadiyaga erishdirur. Hazrati Ali: «Hasad hosidning adovatindan, kibr va shaqovatindan paydo bo'ladurgon axloqi zamimadur. Shuning uchun hasud doimo azobi ruhoni yichinda yashar. Bir kishining saodatini ko'rgon zamon hasad otashiga yonar. Hosidga mundan qattig‘ jazo bo'lurmi?» – demishlar.

Suqrot hakim: «Hasadchi kishi bir on va bir zamon rohat va farog‘at yuzini ko'rmas. Dunyoda qancha mehnat va musibat bo'lsa, barchasi ul bechorani o'ra olmishdur», – demish.

Arastu hakim: «Dunyoda hammadan hosidning yuki og‘irdur, chunki ul bechora butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg‘ularini o'z ustiga yuklab yuriydur», – de-

¹ Harisona – ochko'zlarcha.

² Mazmum – yomonlangan.

³ Mamduh – maqtalgan.

mish. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi va-sallam afandimiz: «Hasad qiluvchilar, so'z yuritkuvchilar, g'aybdan xabar berguvchilar mandan, man ham onlardan emasman», – demishlar.

Bayt

*Butun bo'lmas hasudning parcha noni,
Kuyar hosidning doim jism-u joni.
Hasadchi xoh faqir o'lsun va yo boy,
Hasad nori-la yongay ustixoni.
Ochar doim kuyub maqsuda hosid,
Chiqar tandan aziz ruhi ravoni.*

KIZB

Kizb deb yolg'on so'zni aytilar. Yolg'onchi kishilarni kaz-zob¹ deyilur. Payg'ambarimiz: «Alkazzobu lo ummati» – «yolg'onchi mening ummatimdan emasdur», – demishlar. Janobi Haq Qur'oni karimda: «Kizbni imoni yo'q kishilar so'ylarlar», – demishdur. Oqil va diyonatlik kishilarga yolg'on so'zlardan tillarini saqlamak ila barobar avlodlarini yolg'onga odad qildurmasdan tarbiya qilmaklari eng muqaddas vazifayi insoniyalaridur.

Ba'zi o'g'rilikka odad qilg'on o'g'rilar bo'lur emishki, birovning molini o'g'irlamoqqa qodir bo'lmasalar, o'z mol-larini(ng) o'g'irlar emishlar. Shunga o'xhash yoshlikdan yolg'onga xo'y qilgon va yolg'ondan lazzat olgon kishilar birovni aldamak gunohligini bilsalar ham «tarki odad amri mafhuminchalik tillarini yolg'ondan tiyolmaslar.

Ba'zi vaqtarda o'z oilalarini ham vayron va parishon qilmakdan tortinmaslar. Hech bo'lmasa nammomlik va mudo-

¹ Kazzob – yolg'onchi.

hana yo'llariga iki mo'min orasiga nifoq va adovat solub, hatto butun bir oilaning buzulishiga sabab bo'lurlar.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasal-lam afandimiz: «Yolg'ondan saqlaningiz, chunki yolg'on imondan yiroqdur», – demishlar. Payg'ambarimiz faqat uch yerda yolg'onning muboh¹ligini bayon qilub, «biri muhoraba² zamonida, ikinchi er va xotunni rizo qilmoqda, uchunchi iki mo'min orasini tuzatmakda yolg'on so'ylov joizdur», – demishlar.

Bayt

*Agar qilsa kishi yolg'onga odat,
Razolatda yashab chekg'ay nadomat.
Xaloyiq ichra bo'lmas e'tibori,
Tegar boshiga cho'q sangi malomat.
Kiming bo'lsa agar yolg'onchi ismi,
Bu ismi o'zga bo'lmas to qiyomat.
Ishonmas el yolg'onchining so'ziga,
Agar bo'lsa so'zi kashf-u karomat.*

NIFOQ

Nifoq deb kishining oldida bir xil, orqasidan boshqa xil so'zlanadurgon so'zni aytilar. Munday so'zlarni so'zlovchi ikiyuzlama kishilarni(ng) munofiq deyilur. Ba'zi hiylakor, ko'rnamak, yolg'onchi munofiqlar bo'lurki, manfaati shaxsiyalari uchun sizni qurban qilur. Osh va noningizni yemak uchun oldingizda izhori do'stlik va minnatdorlik qilub, orqangizdan sirr-u asroringizni dushmanlaringizga eltub, g'iybat va shikoyatingizni qilub, alardan ham o'z nafsiga bir hissa chiqarur. Munday munofiqlar do'stlik va ittifoqning dushmani

¹ Muboh – ruxsat etilgan ish.

² Muhoraba – urush, jang.

o'ldig'indan dunyoda izzat, oxiratda rohat yuzini ko'rmaslar. Har vaqt insonlar orasida to'g'ri so'zlik, oqko'ngillik yaxshi kishilar o'ldig'i kabi munofiq, ikiyuzlik kishilarning bo'lishi tabiiydur. Shuning uchun harholda aql va tajriba soyasida ehtiyyot uzra harakat qilmak, oq ila qorani, yaxshi ila yomonni, do'st ila dushmanni ayurmak, qalbi pok, xulqi toza, axloqi yaxshi kishilar ila hamnishin bo'lmaq, ikiyuzlama, axloqsiz, harom-harishni farq qilmaydurgon munofiqlardan hazar qilmak va jirkanmak lozimdir.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Bir odam ikiyuzlik bo'lса, qiyomat kunida tili o'tdan bo'lur», yana: «Qaysi kishi musulmonlar orasiga judolig' solsa, bizdan emasdur», – demishlar.

Bayt

*Munofiq yod olunsa ismi poking,
Jahon bo'lgay jahim¹i havlnok²ing.
Hayoting ranjish-u kulfatda barbod,
Tuzalmas to qiyomat bag'ri choking.
Kezarsan darbadar g'urbat chekib zor,
Belingga yetmagay aslo etoking.*

TAMA'

Tama' deb birovdan bir narsa umidvor bo'lmakka aytيلور. A'zo va javohirlari salomat, kuch va quvvatlik kishilarga tama' qilmak harom, ojiz va notavon, kuchsiz kishilarga mubohdur.

Tama' balosiga giriftor bo'lgan kishilarda nomus va hayo degan yaxshi sifatlar bo'lmaydur. Hozirgi zamonda oramizda tama' noni birla qorin to'yg'uzadurgon kishilarning hisobi yo'qdur. Agar bularning biridan: «Birodar, saning oyoq-qo'ling

¹ Jahim – jahannam.

² Havlnok – qo'rqinchli.

butun, taning sog‘, tama’ qilmak sanga harom emasmi?» – deb savol qilinsa, «Qandog‘ qilay, ota-bobomni(ng) kasbi tilanchilik edi, man ham tama’ orqasidan ovqat qilurman», – deb tama’ni kasbga isnod berub, turluk-turluk bahonalar bayon qilur. Shariatda munday kishilarga tama’ orqasidan kasb qilmaklari mamnu¹dir. Alhosil, tama’ noni ila suyagi qotgan, ish va kasbga bo‘yin qo‘ymay, dangasa va yalqovlikka o‘rgangan va odat qilgan kishilarning o‘zlaridan yaxshilik umidi o‘lma-dig‘i kabi bolalaridan ham yaxshilik ko‘rib bo‘lmaydur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohi alayhi vasallam afandimiz: «Kishi qo‘linda bo‘lgan narsaga qiziqma! Tama’dan saqlan! Zeroki, tama’ o‘zi hozir bir faqrudur. Namozingni ado qil! So‘ngindan uzr istarga to‘g‘ri keladurgon ishlardan saqlan», – demishlar.

Bayt

*Bo‘lmagil mubtaloyi duchor tama’,
Aylar insonni xor-u zor tama’.
Yo‘q qilub himmat-u qanoatni,
Oladur aldan ixtiyor tama’.
Noni minnat uchun egur bo‘yuning,
Qiladur ko‘zni intizor tama’.
Yuzdan otkay hayo-u sharmingni,
G‘ayrating kuydirar nor, tama’.
Hirsi dunyo qiladi Qorundek,
Hotam isming yutar mori tama’.*

¹ Mamnu’ –man etilgan.

ZULM

Zulm deb birovni(ng) joniga yoki moliga zarar yetkurmakni aytilur. Janobi Haq butun yer yuzidagi insonlarni huquqda musovan – barobar qilub yaratmishdur. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga mag'rur bo'lib, birovning haqig'a taarruz va tajovuz qilmak zulmdur.

Kattalikning izzati zulm va taaddi¹da emas, shafqat va marhamatdadur. Kichiklikning lazzati nafrat va qarshulikda emas, sadoqat va hurmatdadur. Shul xususda Shayx Sa'diy:

*G'ami zeri doston bexo'r, zinhor,
Batars az zabardasti ro'zgor.*

Tarjimasi:

*Quvvatsizlar g'amin yeb yur hamisha,
Quvvatliklardan etgil xavf pesha!*

deb kichiklarni izzat qil, kattalarni hurmat qil, maolindagi hikmat va ibratlik she'ri balig²asini so'ylamishlar.

Dunyoda mazlumning ohi(dan) o'tkur narsa yo'qdur. Mazlumning duosi ijobatga yaqindur. Qo'rwmak va hazar qilmak lozimdir. Bobolarimiz: «Pichoqni o'zingga, og'rimasa, boshqaga ur», – demishlar.

Bir kishi zulmning yomonlig'ini bilmak uchun boshqa bir odam tarafidan o'z nafsi qilinsa, chekadurgon azobini o'ylasa, yomon fanoligi ochiq ma'lum bo'ladur. O'tkan zamonlarning hukumatlarning barposi adolat ila poydor o'lqidig'i kabi, inqirozi va barbodi ham zulm ila poytaxtga yetub va ul zolim

¹ Taaddi – zulm qilish.

² Balig' – nafis, silliq.

hukumatlarning tarix sahifalarida faqat ismlari qolganlig'i hammaning ma'lumidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey bandalar! Allohdan qo'rqingiz, Allohnin ismi ila ont ichamanki, bir mo'min bir mo'minga zulm qilsa, Alloh taolo qiyomat kunida ul odamdan o'ch olur», – demishlar.

Bayt

*Adolat obi hayot-u, sitam erur zulumot,
Bu zulmat ichra kiranlarga yo'q hayot va najot.
Xazon zamoni kelsa, guliston yo'q o'lgondek,
Na yerda hukm surar zulm, mahv o'lur barakot.
Xarobazora do'nur zulm ila bilod obod,
Yashar u manzili vayronada boyqush, hasharot.
Agarchi shoh-u gado ikisi olur bir go'r,
Kafandan o'zgag'a yetmas butun kuch-u harakot.
O'zingdan ojiz-u kuchsizlara sitam qilma,
Kimki zolim erur, ko'rmagay ulug' darajot¹.
Hazar qil ohidan, afg'onidan u mazluming,
Bir oh birla solur boshingga butun arasot².
Xudoni yodida bo'l, bo'lmagil dilozori,
Elan Allohingga, Hijron, talab qilub, hajot.*

Kotib:

*Abdulmannon ibn Abdulkadir
(Uyg'ur)³*

¹Darajot – martabalar.

²Arasot – maydonlar.

³Uyg'ur – Mannon Uyg'ur (1894–1955). O'zbek teatrining asoschilaridan, rejissyor, aktyor, dramaturg, O'zbekiston Xalq artisti (1932). «Turkiy guliston yoxud axloq» asarining 1917-yilgi nashri M. Uyg'urning mohir xattot bo'lganligiga ham guvohlik beradi.

BIR-IKI SO'Z

Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlar-
rimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va ja-
sorat qilmish edim. Alhamdulilloh valmanna ikinchi tab'in-
da muvaffaq o'ldum.

Chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozil-
mis mukammal «Axloq» kitobining yo'qlig'i afrodi millat-
ning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i, o'zum
muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'-
lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adi-
bi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqchi, garchi og'ir
ish bo'lsa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq, bu
kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim.

Va shul maqsadga mabni har bir so'zning oxiriga iki-uch
band she'r ham yozdim va bu yozgan she'rimning orasida
ba'zi arabiyl, forsiy she'rlarning tarjima va mazmuni ham
ko'rilur.

Maorifparvar muallim birodarlarim meni bu asari ojizo-
namni iltifotsiz qoldurmay, bu xizmati nochizonamni ko'zdan
kechurub va bundan so'ng ham qalamim ila nashr o'linajaq
kitoblarni lutfan maydoni ta'lima qo'ymaq ila barobar tabiiy
o'lan nuqsonlarini tanbeh va tanqid qilmakda himmati mao-
rifparvaronalarini bandadan darig' tutmasalar edi.

*Toshkand, Abdulla Avloniy,
taxallus «Hijron»*

Bularning nazarida advokat bir ariza yozuvchi kishi

ADVOKATLIK OSONMI?¹

(Bir pardalik kulgi)

Turkiston turmushidan olinub yozilmishdur.

O'YNOVCHILAR

Davronbek – musulmon advokat, 24 yoshinda.

Xudoyerdi – yer sotg'on chol, qulog'i kar, 55 yoshinda.

Xushvaqt – ot yo'qotgan tojik, 30 yoshinda.

Haydarali – mol yo'qotgan dudug', 24 yoshinda.

Rapoil – nasiyag'a mol sotg'on, 60 yoshinda.

Egamberdi – to'y qilub qarzdor bo'lg'on arobakash, 35 yoshinda.

Mehrinisho – eri bilan urushub, chiqmoqchi bo'lg'on xotun, 32 yoshinda.

Abdujabbor – xizmatchi, qiziq, 22 yoshinda.

Parda ochilur, mukammal yovrupocha bejalg'on uy. Bir tarafda qozuqlarda osilg'on kamzul, shim, shlafalar turar.

Ustol-ustullar mukammal suratda tuzalg'on bo'lur.

Davronbek. Man bu dunyodan xabarsiz musulmonlar-ning ahvolig'a juda hayronman. Man bu yerdan o'qumoqg'a ketg'onimg'a yetti yil bo'ldi. Man Yovrupoda o'qub yurg'onimda Turkistondan chiqg'on g'azitalarni(ng) ko'rub yaxshigina xursand bo'lur edim. Bizning xalqlarning ham ko'zлari ochilub, dunyodan xabardor bo'lg'onlardur deb o'ylar edim. Le-kin kelub ko'ramanki, yana eski hammom, eski tos, turgan yeridan zig'ircha ham qimirlamag'on, ilgari bosmag'on, ilm

¹ Ayrim qisqartirishlar bilan olindi.

va maorifdan asar yo‘q. El butun toshdek qotg‘on, taraqqiyot, madaniyatdan nishon ham yo‘q. Xalq taassub chuquriga qarab yuz tuban ketg‘on. Oh... Koshki men qaytub kelmog‘on bo‘lsam edi. Bu qayg‘ulik hollarni ko‘rmag‘on bo‘lar edim. (*Eshik taqillar.*) Abdujabbor, chiqib qara, kim keldi.

Abdujabbor (*masxara qilib, kulib*). Bir chol kelibdur, kirsunmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Xudoyberdi eshikdan kirub advokat ila ko‘rishur, uzundan uzoq duo qilur.

Davronbek. Bo‘ldi-bo‘ldi, otajon, ko‘b cho‘zmang. (*Joy ko‘rsatur.*) Qani, otajon, nima xizmat?

Xudoyberdi. Ey... Bolam qo‘y. Mani qilgan ishimni asti so‘rama. (*Cho‘ntagini kovlab, vasiqasin chiqarub, o‘qumoqg‘a boshlar.*) «Zikri hududi yaki qit‘az Mir darmurg‘ dam oriq dumaxona daftarinda 182-raqamda sharqan tamoman payvasta bamulki Dodajonboy 479 gaz arshin va g‘arban tamoman payvasta bamulki Abdulkarim oqsoqol 596 gaz arshin, januban tamoman payvasta bamulki varasayi Abdumavlonboy 484 gaz arshin, shimolan tamoman payvasta ba haqira hayi oyima 487 gaz arshin chahor tarafash ma’lum shud».

Davronbek. Juda yaxshi ma’lum shud, otajon. Manga bu vasiqani(ng) nimaga o‘qub bervotsiz? Man bu o‘qug‘onlari-ningizdan bir narsa ham anglamadim. Maqsadingiz nima? Maqsadg‘a keling. Faqat «Ma’lum shud» degan so‘zdan boshqasi-ga tushunganim yo‘q.

Xudoyberdi. Shoshma bolam, hamma maqsad shulda – vasiqaning ichida. Man o‘qub tamom qilay, san yaxshilab qulog solub tur. «Chahor tarafash ma’lum shud...»

Davronbek. Otajon! Manga bu vasiqani(ng) o'qub berganignizdan hech bir foyda yo'q. Man bu sizning «ma'lum shud – pa'lum shud»laringizg'a tushunmayman. Maqsadg'a keling! Bu yerg'a kelmog'ingizdan maqsadingiz nima?

Xudoyberdi. Bolam, man sho'ri qaynog'onman. Shul sanga o'qub berg'on vasiqadagi otamdan qolg'on iki tanob joyimning bir tanobin to'rt yuz so'mg'a bir boyga sotg'on edim. Olti oyda «kupchuk» qilib beraman, deb notarusda «oldim-sotdim» xat qilub, iki yuz so'm big' puli olub, agarda vaqtida «kupchuk» qilub berolmasam, to'rt yuz so'm qilub qaytaraman, deb o'zim xat bilmaganim uchun notarusni(ng) mirzosiga qo'l qo'ydirub ketgan edim. Ey... bolam, jon... bolam! Man qurg'ur «tana-man», deb beparvolik qilub, olti oy muhlat o'tub ketub, endi boyning oldiga borsam, manga dag'dag'alar qilur. Notarusga kelsam, tezlik ila olg'on iki yuz so'mni(ng) to'rt yuz so'm qilub olub kelub bermasang, yering xatlanub, so'tda sotiladur, deydur. Yaqinda sudya-pristo'f borub yeringni xatlab keladur, deydur. Jon bolam, oppog' bolam, san shunga bir iloj qilmasang, boshim g'ovlab, juda dovdirab qoldim.

Davronbek. Man musulmonlarni ishiga juda hayronman. Ish bilmaganlikdan, dunyodan xabarsizlikdan ishni pachava qilub qo'yadur-da, eshikma-eshik sudralub yuradur. Xo'sh, endi nima qilmoqchi bo'lasiz? Mani oldimg'a nima uchun keldingiz!

Xudoyberdi. Jon bolam, oppog' bolam, tuproq olsang, oltun bo'lsun, mendan qaytmasa, bola-chaqalaringdan qaytsun. Shuni bir ilojini qilg'il.

Davronbek. Otajon, buni iloji faqat iki yuz so'm olg'on oqchangizni to'rt yuz so'm qilub qaytarasiz. Bo'lmasa yeringiz so'tda sotiladur. Mundan boshqa iloji yo'q.

Xudoyberdi. Yo'q, bolam, buni ilojini san qilasan. (*Cho'ntagani kovlar.*) Pulim ham uyda qolibdur. Jon bolam, bir so'lkavoy

beraman. San manga bir yaxshilab ariza yozub berasan. Shul arizada aytasanki, Xudoyberdi Topildiboy o'g'liga sudya-pristo'f yana olti oy suruk bersun. Ana undan keyin man bu olti oy ichinda «kupchuk» kirfichini bitqazub beraman.

Davronbek. Otajon, meni hozir boradurg'on joyim bor. Peshindan keyin soat 3 da keling.

Xudoyberdi. Jon bolam, oppog' bolam, hozir yozib bera qolsang bo'lmasmi? Naki mo'ysafid holimcha ovora qilub yurmasang? Jonim bolam, tuprog' olsang, oltun bo'lsun, hozir yozub bera qol.

Davronbek. Otajon, men sizg'a aytvotman-ku, hozir vaqtim yo'q. Bir joyga boradurg'on zarur ishim bor. Soat 3 da keling.

Xudoyberdi (*o'rnidan turib, achchig' ila*). Hmm... bolam! Nimaga muncha zarda qilasan? Man sanga teking'a ariza yozub ber devotmanmi? Yozganda pulg'a yozub berasan. Jahling chiqadurg'on bo'lsa, advokatlik qilma!.. Hmm... bolam, advokatlik osonmi? (*Ketar.*)

Abdujabbor (*orqasidan kulub*). – Hmm... ota! O'risga yer sotub, xat qilub bermoq osonmi? (*Davrond'a qarab*) Qalay, xo'jayin, karquloq cholni(ng) xo'b kuzatub yubordimmi? Cho'nchagini kavlavotuvdi, bir narsa berdimi?

Davronbek. Bor ishing'a, ko'p gapurma. (*O'rnidan turib yurub*) Man munda kelub ish boshlag'onimg'a 7–8 oy bo'ldi. Kelgan kishilarning hammasi mana shunga o'xshagan kishilar. Bular bilan so'ylashmoqg'a bir qop jon kerak. Ish bilmag'on va so'zumg'a tushunmag'on odamga jigaringni xun qilub, bir soat-iki soat vaqtingni bekor o'tkarmoqdan boshqa bularning ahvoliga kuyub, sil bo'lishdan boshqa natija chiqmaydur. Bularning nazarida advokat bir ariza yozuvchi kishi. Har kuni munaqangi odamlardan 20–25 kelub, yo'q yerga miyangni achitub, qoningni buzub, jigaringni ezub, chiqub

ketadur. Bul ham kamlik qilub, bir soat umr yoshin fotiha bilan o'tkaradur.

Eshikning qo'ng'irog'i jing'irlar.

Abdujabbor, chiqub qara, tag'in qaysi bir dardi bedavo keldi.

Abdujabbor (kelub). Xo'jayin, bir sallasi katta, juda bir qiziq (*kular*), juda bir g'alati tojik keldi. Valdir-vuldur qiladi. Tiliga tushunmadim, kirsunmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Xushvaqt (kirar). Assalomu alaykum, xo'jayin, akunki sanga abdivakat bo'lg'onsan, biz saning oldingga kelg'onmuz. Akunki, xo'jayin, maniki ot yo'qotg'on. San bilganki, tavoq-dek yag'iri(ng) bor. Yag'iringni ustingga, zang'ar, yog'ingdan surg'onsan. Buku... kun uch kun bo'ldi, qaysi go'rga ketg'o-nigni bilmaymuz. *Qidirasan*, qidirasan – topilmaysan. Agar topib berasan, besh tanga suyunchi berasan.

Abdujabbor. Suyunchini kim beradi? San berasanmi, xo'jayin beradimi?

Davronbek (kulur). Otni kim yo'qotg'on, kim qidirg'on? Suyunchini kim beradi?

Xushvaqt (achchig'ila). Akunki, abdivakat bo'lg'onsan, gapga tushunmaysan. Otingni man yo'qotg'onsan, man qidirg'onsan, san suyunchi berasan.

Abdujabbor (kulib). Kim suyunchi beradi? Xo'jayin sanga beradimi, san xo'jayinga berasanmi?

Xushvaqt (Jabborning yoqasidan tutub, har ikisi bo'g'ishur). Akunki, sanki, abdivakat yo'qsanki, yurmaysan. San bilan ishing yo'qsan, akunki san masxaraboz qilasan, kulasan.

Davronbek (o'rnidan turub ikisin ajratub qo'yar). Qani, sho pochcha, gapur! Munda nima uchun kelding? O'turub gapur!

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, man kecha folbinga, ayuzo-yimkashg'a borg'onsanki, kaftingga bir so'lkavoy qaytarg'on-man. Kitobingni varaqlab-varaqlab aytg'onsanki, oting arusni qo'liga balnitsaga tushg'on. San bukun balnitsaga borg'on-muz. San arusni tilingg'a bilmag'onsan. Balnitsaxonada arus ayg'onsanki, arus tilini biladurg'on odam olib gaplasan yoki ariza yozub olub gaplasan, degansan.

Abdujabbor. Hali qarab turing, ot ni keyindan ikingiz ham kasalxonaga borasiz.

Davronbek. Juda yaxshi bo'lubdur, oting balnitsaga tushgan bo'lsa. Borub unda do'xturlikni o'rganivotkandur.

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, oting do'xtar yo'qsan oyg'ur (ayg'ir).

Davronbek. Yaxshi, do'xturxonadan borub, otingni xabarini oldingmi? Oting bor ekanmi?

Xushvaqt (achchig'lanub). Do'xturxonaga man borasan, san bormaymuz, kasal bo'lg'oning yo'qsan.

Abdujabbor (kulub). Do'xturxonaga ikalangiz birga borasiz. Ikovingizni ham boqizmoq kerak.

Xushvaqt. San haromzodag'a gapurmaymiz. San nimaga bizning so'zingg'a aralash bo'lasan. (*Jabborga qarab yugurar.*)

Abdujabbor qochar.

Davronbek (Xushvaqt ni qo'ludan ushlab kelub, o'tqazub). Qani, sho pochcho, uni qo'yaber, gapurgin-chi, munda nimag'a kelding? Nima qilmoqchisan? Maqsading nima?

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, munda gaplaganga maqsading shul bo'lg'onsan. Man arus tilingni bilmaymiz. Bir so'lkavoy xizmat haqingni beramuz. Mani ila birga balnitsag'a borub otingni arusni qo'lidan gaplashub olib beramuz.

Abdujabbor (kulur). Mana endi ikingiz balnitsaga bora-dig'on bo'ldingiz. Tezroq-tezroq bormasalaringiz kasalingiz zo'rayub ketadur.

Davronbek. Sho pochcho, biz tilmochlikni tashlab yuborg'onmiz. Tezroq bor. Bir odam topub balnitsaga borgin, otingni tezroq ajratub olg'il.

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, o'zing bormaysan, xizmatko-ringni buyurasan, birga borub otingni arusni(ng) qo'lidan olub bermasang bo'l maysan.

Abdujabbor (kulur). Sho pochcho, balnitsaga man bormayman, o'zing bora ber, man kasal bo'l ganim yo'q.

Davronbek (achchig'lanub). Sho pochcho, meni zarur ishim bor. Bir joyga boraman. San ham tezroq borub, otingni ajratub ol. Ko'p gapurub munda maynabozlik qilub o'lturma.

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, sanki abduvakot bo'lg'onsan, man sani arus tilingni bilmaymuz, bo'lmasa bir yaxshi ariza yozub berasan. Arusing'a olub borub beramuz. Otingni balnitsaxonadan ajratub olamuz. (*Yonidan belbog'idan hamyonini olub bir so'm chiqorub bermoqchi bo'lar.*)

Davronbek. Sho pochcho, puling yoningda tursun. Hozir-da meni bir yerda zarur ishim bor. Soat uchda kelg'il. Juda yaxshilab ariza yozub beraman. Borub otingni ajratub olasan.

Xushvaqt (achchig'lanub). Gapurasan, gapurasan, ish qilmaysan. Juda dangasa bo'lg'onsan. Hozir yozub bermaysan. Odamni ovora qilasan (*o'rnidan turub*). Hmm... Abduvakot bo'lg'oning osonmi? Soat uchda kelamuz, yozub berasan, al-damaysan! (*Chiqub ketar.*)

Abdujabbor (yaqun kelub). Xo'jayin, hamyonini kovlavotgan edi, pul-mul berdimi? Bizga iki oydan beri moyana tegmay yotihti. Kecha ukam kelgan edi. Otam tayinlab yuborg'on ekan, uyimizda go'sht, yog', gurich, sovzi, piyoz, o'tun-ko'mur, tuz,

chirog‘ butun odosh bo‘lg‘on emish. Shunga pul kerak edi, pul. Xo‘jayin, bir nimarsa qilub, bir ilojini qilmasangiz, ulay-bulay qilub, u yog‘-bu yog‘ingizni kovlab, amal-tamal qilub bir oqchani(ng) tadorikini qilub, loaqol iki oylikni berolmasangiz ham biror oylikni marhamat qilmasangiz, bo‘boydan baloga qolamiz.

Davronbek. Biroz sabr qil, sanga nima bo‘lsa-da, oqcha topub berurman. Shoyad biror bir durustroq ish kelub qolsa. Juda bo‘lmasa ishkof-fishkoflardan birortasini sotub seni haqqining berurman. Bor, xabar ol, choy tayyor bo‘lg‘on bo‘lsa olib kel. (*Abdujabbor ketar.*)

Oh, koshki men advokat bo‘lg‘uncha do‘qturlik ilmin tamom qilub, do‘qtur bo‘lg‘on bo‘lsa(m) edim. O‘zim uchun ham yaxshi bo‘lub, xalq uchun ham foydalik bo‘lur edi. Men jigarimni xun qilub o‘qub yotg‘on vaqtimda ba‘zi yor-do‘stilarim menga aytgan edilar: «Sen advokatlikdan ko‘ra do‘qturliqg‘a o‘qug‘il». Man o‘ylag‘on edim, huquqdan mahrum, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning oz-moz bo‘lsa-da, qo‘limdan kelg‘oncha huquqlarin himoya qilsam. Xalqg‘a manfaat yetkursam, degan edim. Meni ul umidlarim bo‘shg‘a chiqdi. Mana ko‘rasiz, xalq mandan, man xalqdan bezor bo‘ldim. Endi ochuq manga ma’lum bo‘ldiki, umuman xalq orasinda ilm va ma’rifat tomir yoyub, madaniyat taraqqiy qilmag‘uncha manga o‘xhash bir-iki odam xalq orasida ishlab, xalqni ko‘zin ochamiz, huquqin mudofaa qilamiz, demak, yerdan turub yulduzlarg‘a qo‘l uzatmoqg‘a o‘xhash xayoliy bir nimarsa ekanlig‘i emdi ochiq va aniq ma’lum bo‘ldi. Mana ko‘rasiz, yonimg‘a kelgon kishilarning hammasi bir-biridan battar sahroyi va baqiroq, quruq fotihadan boshqa bir narsa yo‘q. Yetti-sakkiz oy ichinda bor-yo‘qni yeb bitirdim, emdi novbat uy asboblarig‘a yetdi. Yaxshisi

shulki, esing borida etagingni yop degandek, taxta-o'qlog'ini yig'ishtirub biror kanturg'a kirub xizmat qilmasam, bu yo'lda borganda sil bo'lmoqdan boshqa natija chiqmaydurg'ong'a o'xshaydur. (*Abdujabbor choy keltirar.*)

Abdujabbor. Xo'jayin, hech kim kelgani yo'qmi?

(*Eshik qo'ng'irog'i jing'irlar.*)

Davronbek. Jabborqul, chiqub qara, qaysi oliyhimmat keldiykin?

Abdujabbor (*kirub, zo'r berub kulur*). Olaverasiz, xo'jayin, bir g'archcha yog', bir juda soqoli uzun juhut kelubti, kirsunmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Rapoil eshikdan kirar. Salom berar. Davronbek alik olar, yer ko'rsatur.

O'ltirar. Yonidan veksil olub, ustol ustiga qo'yari.

Rapoil. Garamjon, man bir odamg'a bir yil va'dag'a yuz so'mga nasiyaga mol sotib edim. Garamjon, akun juda muttaham odam ekan. Hozirda iki yil yaqin bo'ldiki, mani pulimni bermaydur. Garamjon, vekslim oq veksil edi, notarug'a borsam ariza bilan qo'shub berg'il deydur. Garamjon, bir so'm pul berayin, yaxshilab bir ariza yozub bersangiz, shu muttahamdan pulimni undirub olsam.

Davronbek. Qarzdor odam qarzidan oz-moz to'laganmi yoki butun hammasini talab qilasizmi?

Rapoyil. Garamjon, bir-iki karra besh-o'n so'mdan bergen. Qirq so'm to'lagan, oltmish so'm qolgan.

Davronbek. Siz bir odamg'a agarda molni nasiyag'a sotadur-g'on bo'lsangiz, oltmish so'mlik molni yuz so'mg'a bersangiz yaxshi. Endi nima qilmoqchi bo'lasiz? Shu veksil yuzasidan yuz so'm talab qilasizmi yoki qolgan oltmish so'mni so'raysizmi?

Rapoil. Garamjon, juda muttaham odam ekan, mani ovora qildi. Albatta shu veksildagi yuz so'mni(ng) beraberadur.

Davronbek. Man bunday ishg'a ariza yozmayman. Siz boshqa bir odamg'a borub yozdiringiz. Olasining oltmisht so'mi qolg'on bir kambag'al bechorani kuydurub yuz so'm olmoqchi bo'lasizmi?

Rapoil. Garamjon, siz ba'zi boylarning qiladig'on ishinden xabaringiz yo'q ekan. Bir boshpo'tg'a iki qat hujjat qilib oladurlar. Masalan, bir veksil olub, yana bir tilxat qildirub oladurlar. Agar vaqtida to'lay olmasa ham veksilg'a, ham hujjatg'a oqcha oladurlar. Bir odam bir yuz so'm qarzdor bo'lsa iki yuz so'm to'laydur. Yana ellik so'm xarajot to'lasa, iki yuz ellik so'm to'laydur. Man garamjon, unaqa qilvotg'onim yo'q-ku? Nihoyati oltmisht so'mni yuz so'm qilib olaman. Yozabering, xizmat haqingizni yaxshi beraman, garamjon.

Davronbek. Yo'q, man munday xiyonat aralashadurg'on ishlarg'a ochdan o'lsam ham aralashmayman. Siz borub bir boshqa odamga yozdiring. Agarda xohlasangiz man faqat oltmisht so'mning o'zigagina yozaman.

Rapoil. Xayr... xayr... garamjon. Siz xafa bo'l mang. (*Cho'ntagini kovlar, pul olib bermoqchi bo'lur.*) Mana, garamjon, yak so'm, arizani juda yaxshilab yozingiz.

Davronbek. Hozirda meni zarur yumush bilan boradurg'on yerim bor, soat uchda keling.

Rapoil. Garamjon, mani ovora qilmang, soat uchda mani ham ishim bor. Do'konim ochiq qoladi. Hozir yozib berasiz, mo'ysafid holim bilan mani ovora qilmang.

Davronbek. Aka domullo, so'z degan bitta bo'ladi. Hozir mani ariza yozmoqg'a vaqtim yo'q, sudg'a baradurg'on ishim bor.

Rapoil (*o'rnidan turub*). Garamjon xafa bo'l mang, bo'lmasa soat uchda kelaman. Tog'in va'dangizg'a xilof qilmang. Al-

batta soat uchg'a kelaman. Siz ham borg'on yeringizdan soat uchdan kech qolmay keling.

Davronbek. So'zni ko'p cho'zmang, gap degan bitta bo'ladi.

Rapoil. Garamjon, hmm... advokatlik osonmi? Man sizga bekorga ariza yozib bering devotmanmi? (Chiqub ketar.)

Abdujabbor orqasidan masxara qilub, kulub qolar.

Davronbek. Birni ko'rub fikr qil, birni ko'rub shukr qil demishlar. To'g'ri so'zdur. Man musulmonlarning hol-ahvollarin ko'rub xafa bo'lsam, juhudlarning orasida ham shunaqa ezma kishilar bor ekan. Albatta dunyodan xabarsiz, ilm-u maorifdan xabarsiz qavmlarning hol-ahvollari shunday bo'ladur. Faqat bularning ishlari bir-birlarin aldamoq va bir-birlarin tuzoq qo'yub tutub oshamoqdur. Bularning orasiga ilm va madaniyat nurlari yoyilub, inson qatorig'a kirmaguncha o'zlari eshikma-eshik ovora bo'lganlari bir sari, manga o'xshag'on o'z elimg'a, xalqimg'a foyda yetkurarmukinman, degan kishilarning miyasini qoqub, qo'lig'a berub, oz fursatda jinni qilishlari tabiyydur. (*Eshik qo'ng'irog'i jing'irlar.*) Abdujabbor, chiqub qara, tag'in qanaqa dardisar kelgan ekan.

Abdujabbor (chiqub kirar, suyungan holda). Xo'jayin, damingizni chiqarmang, bir juda yasang'on xotun, bir juda katta boyni xotunig'a o'xshaydi.

Davronbek. Bor, ko'p sergap bo'lma, chaqir, kirsun.

Mehrinisho (eshikdan kirar, so'rashur. Advokat joy ko'rsatur, o'ltirar). Jonginam, opaginang aylansun, sani daragingni eshitub oldingga a keldim. Bizani mahallani yaqinidagi Rustambekni o'g'li ekansan. Opaginang aylansun, man boshimdan o'tgan sarguzashtlarimni sanga birin-birin so'ylab bera-yin, san yaxshigina quloq solub, tinglab, xatga yozub turgin. Opaginang aylansun, qo'lingg'a qalam-qog'ozingni ol.

Davronbek. Xolajon, avval gapiradurg‘on gapingizni cho‘zmasdan qisqagina qilub gapirung. Qog‘oz, qalamga navbat keyin keladur.

Mehrinisho. Opaginang aylansun, dunyoda mani hasratimga qulq soladurg‘on odam ham bor ekan. Dod-faryodimga yetadurg‘on kishini endi topdim. O’n besh yildan beri man baxti qaro sho‘rlik...¹ degan bir qimorbozni qo‘liga tushub, o‘tga yoqilub, toshg‘a chaqildim. Kuyub-o‘rtanub cho‘b-ustuxon bo‘lub ketdim. Rahmatlik ota-onam bor vaqtida bu yigit o‘lgur erim manga muncha zulm qilolmas edi. Ular (o‘l)gandan keyin ayniqsa bu sho‘rlik boshim to‘qmoq ostida qoldi. Har kun ichg‘on oshim zahar-zaqqum, ko‘rg‘on kunimni it ham ko‘rmasun. Mani muttaham erim qurgur bir kun qimorg‘a yutqizub kelub, alamini mendan olsa, bir kun mast bo‘lub kelub, man sho‘rlikni boshiga qiyomat kunini soladi. Ichg‘on oshim – zahar-zaqqum, ko‘rgan kunim – jahannam!

Davronbek. Xolajon, bu yerga kelishdan maqsadingiz nima – shundan gapuring, gapni ko‘b cho‘zmang.

Mehrinisho. Opaginang aylansun, jonginamni qoqay. Mani hasratlarim juda ko‘p. Bir boshidan sanga tushuntirma-sam, maqsadimga yetmayman, alamimdan chiqmayman. «Etni tutog‘i bit» degandek, mani qimorboz okam qo‘yarda-qo‘ymasdan, ota-onalarim mung‘a bermaymiz, desalar ham yolg‘on-yashiqlarni gapurub, maqtab, shu zolimni qo‘lig‘a mani asir qilub qo‘ydi. O’n besh yildan beri it azobin tortaman, dard-u hasratlarimni aytayin, desam hech bir jonkuyarim yo‘q. Bir necha martaba qozig‘a borub arz qilg‘on edim, yigitgina o‘lgur erim ma’ruzmi, rivoyatmi, allanima balolar qilub, yana uyiga haydab olib keldi. Manga yo‘l-yo‘ruq

¹ O‘qib bo‘lmadi.

ko'rsatadurg'on bir jonkuyar bo'lmadiki, u zolimning qo'lidan man mushtiparni ozod qilsa!

Davronbek. Xolajon, endi nima qilmoq bo'lasiz, eringizdan chiqmoqchisiz?

Mehriniso. Opaginang aylansun, ilojini topsam ul zolimni uyida bir nafas ham turmayman.

Davronbek. Eringizni sizg'a jabr-zulm qilishig'a mahalla-nigizni domla-imom, ellikboshilari sizni(ng) tarafingizdan guvohlik beradilarmi?

Mehriniso. Opaginang aylansun, ijoraxo'r imom ila poraxo'r ellikboshi qachon man mushtiparni tarafi bo'ladi deysan. Qozixonaga borganda hammahallalari muttaham erimni tarafi bo'lib ketdilar.

Davronbek. Bo'lmasa endi eringiz urgan vaqtida qo'nish qoshtalarigizdan iki kishini guvoh qilib manga keling, man ilojini qilaman.

Mehriniso (*boshini ochub, yarasini ko'rsatur*). Opaginang aylansun. Mana o'tgan kuni urgan. Yarasi hali ham tuzalgani yo'q.

Davronbek. Mana, man sizg'a katta ko'chadagi do'xturxonag'a qog'oz yozub beraman. Olub borsangiz, qo'lingizg'a guvohnoma qilub beradur. Soat uchda shu guvohnomani olub keling, man sizg'a tegishlik joyga ariza yozub beraman. Tez fursatda zolim eringizdan qutulursiz.

Mehriniso. Opaginang aylansun (*o'rnidan turub*), advokatlik oson ish emas, manga o'xshag'on g'arib-benavolarni(ng) dodiga yetmoq kerak (*chiquq ketar*).

Abdujabbor (*orqasidan*). Qimorboz erga tegub, kaltakini yeb, boshlarni yorub yurmoq ham oson emas.

Davronbek (*o'rnidan turub jiddiyat ila*). Oh, zolim madaniyat, bizim turkistonliklarning orasig'a qachon kelub tomir

yoyasan?! Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilsan?! Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotun-qizlarimiz ilm-u maorif ila nurlanmag'uncha, bizning oramizda shunday ko'ngilsiz hollar davom etsa kerak. Mana bu xotun bechorni erga berg'on vaqtlarida o'z xohishi bilan, o'zining rizolig'i bilan, o'zi ko'rub xohlag'on eriga bermasdan hayvon kabi kuchlab, qo'lidan tutub bir zolimning qo'lig'a bergenlar. Bu mushtipar ma'sumaning butun umri azob-mehnatda, qayg'u va kulfatda o'tub dunyog'a kelg'oniga-da ming marotabidan pushmon yeb, g'am zindonida yashag'on. Mana bizning oramizdan munday ko'ngilsiz hollarni(ng) yo'q qilmoq uchun butun kuch-quvvatimizni(ng) xotun-qizlarimizni(ng) o'qutmoq, maorif va madaniyat ila oshno qilmoq yo'linda sarf qilmog'imiz lozimdur. Shundagina bizlar ham boshqa qavmlar orasinda o'rtoqchasig'a yashamog'imiz mumkindur. (*Eshik qo'ng'irog'i jing'irlar.*) Abdujabbor, chiqub qara, yana kim keldi.

Abdujabbor (zo'r berib kulur). Xo'jayin, bo'lib qoldingiz, g'archcha moy, beliga qamchin qisturg'on bir aravakash, kirsunmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Egamberdi (kirub, advokat bilan ko'rishib o'ltirur). Mullo aka, man bechora juda og'ir kunga qoldim. Barakallachilarning so'ziga kirub, o'z holimg'a qaramasdan katta to'y qilub, qarzdor bo'lub, bir parcha hovlim qarzimg'a xatlanub, yaqinda sotiladurg'on bo'lib qoldi. Xotunim, to'rt adad yosh go'dak bolalarim ila ko'chada qoladig'on bo'ldim.

Davronbek. «Ena – o'ltirishingg'a qarab chena» degandek, kambag'al odam nima uchun o'z holingizg'a qarab to'y qilmadingiz, nima uchun ko'rpangizga qarab oyoq uzatmadingiz?

Egamberdi. Mulla aka, aslo qo'yavering, «jin charchaganni urar, dev tegirmonchini», – degandek man sho'rlikni jin ur-

masa ko'chadagi «barakallachi»larning so'zig'a kirarmidim. To'y qiladig'on vaqtimda qarindosh-urug'im, yor-do'stim juda ko'payub ketdi. Har biri manga to'yni katta qilmoq uchun nasihatlar qila boshladilar. Ularning so'zlariga uchub, mani qarasangiz hotamtoy bo'lib ketdim. O'zimcha bir qozonchada osh qilub kesdirmoqchi edim. Betahorat benamozni bo'yniga qo'ygandek iki kun osh berishni gardanimg'a qo'ydilar. Undan qarasangiz, xotun «aka» janjal qilub, bir kun «xotun oshi»ni bo'ynig'a qo'ydi. Shunaqangi qilub Aminjon boyni nevaralari uch kun osh berdilar-da, kafangado bo'ldilar.

Davronbek. O'zingiz tuppa-tuzukkina tushunadirg'on odam ekansiz, nima qilub ularning so'ziga aldandingiz? To'yni o'z o'ylaganingizcha qila qolmadingiz?

Egamberdi. Ey, mulla aka, man-ku man. Ularning gapurg'on gapiga siz bo'lsangiz ham aldanar edingiz. Qo'ynimni puch yong'oqqa shunday to'lg'azdilarki, bor-yo'g'imdan ayrilgan-dan keyin ko'zim moshdek ochildi.

Davronbek. Bobolarimizning «o'tgan ishga o'kinma», «ke-yingi pushmon joningga dushman» degon hikmatli so'zları bor. Endi nima bo'lsa, bo'lib o'tmishdur. Asosiy maqsadg'a keling. Munda kelmoqdan maqsadingiz nima? Hovlingiz xatlangan ekan, endi nima qilmoqchi bo'lasiz?

Egamberdi. Mulla aka, nima qilmoqchi bo'lar edim. Man bir aravakash odam munaqangi ishlarga aqlim yetadi deysizmi? Miyasini yegan ahmoq bo'lmasam, «barakallachi»larning so'ziga kirub shu holga tusharmidim. Endi bu xususda maslahatni o'zingiz berasiz. Shul to'y to'g'risida mahallamizdag'i Orifjon boydan veksil berib, pul qarz olg'on edim. Vaqtida to'lommadim. Besh-olti kun bo'ldi, hovlimni, uy asboblarimni, xotunimni mollarigacha sudya-pristo'v olub kelub xatlab ketdi. Sho'rlik boshim, nima qilishimni bilmay, sizning qoshi-

ngizg'a keldim. Endi sizdan yordam bo'lmasa, mani hech bir jonkuyar, yo'l ko'rsataturg'on kishim yo'q.

Davronbek. Hovlingiz o'zi necha sarjin?

Egamberdi. Hovlim qirq sarjincha bor.

Davronbek. Yigirma sarjinni xotuningizni mahri deb ko'r-satmoq mumkin. Onangiz bormi?

Egamberdi. Yetmush yashar bir mushtipar onam ham bor.

Davronbek. Qolgan yigirma sarjinini onangizning mahri deb ko'rsatiladur. Boshqa xatlang'on mollaringizning ham xotuningizning moli deb ko'rsatmoq mumkin. Boy sizdan hech narsa ololmaydur.

Egamberdi. Jon mulla aka, bu ishlarni(ng) nima bo'lsa ham o'zingiz to'g'rilaysiz, munaqa narsalarga mening aqlim yet-maydi.

Davronbek. Siz bo'lmasa soat uchda keling, yaxshilab man sizga ariza yozib berman. Shul ariza bilan hovlingiz sotilish-dan to'xtaladur.

Egamberdi. Xudo xayr bersun, mandan qaytmasa bolas-chaqalaringizdan qaytsun. Manga o'xshagan yo'lda qolg'on odamlarga sizdek o'qig'on-bilg'on kishilar dastgirlik qilmasa, kim qiladur. Advokatlikam oson ish emas. Manga o'xshag'on g'arib-benavolarg'a rahnamolik qilmog'ingiz kerak. (*O'rnidan turub.*) Bo'lmasa soat uchda kelaymi? (*Keta turub.*) Albat-ta soat uchda kelaman. Jon mulla aka, arizani juda yaxshilab yozib berasiz (*chiqub ketar*).

Davronbek (Abdujabbori chaqirub). Bir istakon choy olub kel, choyim hamsovub qoldi.

Abdujabbor (Istakonda choy olub kelub qo'yar). Xo'jayin, hech narsa chiqdimi? Bu keladig'on sirrival-qayrog'lardan loaqla bizning moyanag'a yetadurg'on pul-mul kelsa edi, yax-shi bo'lar edi.

Davronbek. Ko'p sergap bo'lma, gap degan bitta bo'ladi. Har narsa qilsam ham, sani bugun bo'lmasa erta, o'zimni hindig'a garov qo'ysam ham, oqcha topub beraman. Bor, o'z ishingg'a bor.

Abdujabbor chiqub ketar.

Mana, ko'rasanki, bu dunyodan xabarsiz, ilm-u maorifdan mahrum, madaniyatdan uzoq yashagan bizning xalqimiz hali qanday qizg'onch, qanday qo'rqinch, qanday tahlikali ekanlig'i oftobdan ham ravshan ko'rinub turadur. Bir kambag'al arobakash nodonlik soyasida bid'at to'y uchun butun boryo'g'idan ayrilub kafangado bo'lgan. Bir necha yildan beri topgan, bolalarin o'qutmak uchun kerak bo'ladurg'on oq-chasidan ayrilmoq ila barobar bir parcha hovlisi ila mol va ro'zg'oridan ham butun mahrum bo'lub, jaholat va nodonlik yo'lida butun oilasi ila qurban bo'lg'on. Munday bid'at va isroflarni(*ng*) yo'q bo'lmog'i xalqimizning maorif va madaniyat ila taraqqiy qilmog'iga bog'liqdur. Agarda biz hozirgi ilm va urfon taraqqiy qilub, butun dunyog'a nur sochib turg'on bir zamonda eng muhim vaqtlarimizni ana shunday bid'at, quruq o'yin-kulgi, tortish va talashlar birla o'tkarsak, dunyo yuzindan inqiroz olamig'a qarab ketmog'imizga shak va shubha yo'qdur. Munday bid'at va isroflarni(*ng*) oromizdan yo'qotmak uchun yoshlarimiz butun kuch va quvvatlarini(*ng*) ilm va maorif yo'liga sarf qilmoq ila barobar tish va tirnoqlari ila butun quvvatlarini(*ng*) bu bid'at ishlarini(*ng*) yo'q qi(l)moq yo'lida tirishmoqlari lozimdur. (*Eshik qo'ng'irog'i jing'irlar.*) Abdujabbor, chiqub boq, tag'in qaysi bir bosh og'rig'i keldi.

Abdujabbor (kelub, zo'r berub kular). Xo'jayin, xo'jayin men... juda bir qiziq... juda bir g'alati... hali kelsa ko'rarsiz, kula-kula o'larsiz.

Davronbek. Ko'p sergap bo'lma, bor chaqir, kirsun.

Haydarali (kirar). Aaaassalom alaykum!

Davronbek. Vaalaykum assalom, xush keling, o'tiring. Qani, nima xizmat?

Haydarali. Mmmm...an bbbbukun uuuuuch iki... un bbb..o'ldi. Uuu...yimdan mol o'g'urlatg'on eee..dim. Bugun daragini ttopdim. Mmmani molimni olgan odam qozog' ekan. Endi yugurib sizning oldingizg'a kkkeldim. Iiiloj qilub shul odamdan mani molimni olub berasiz.

Davronbek. Yaxshi, o'rtoq, ma'lum bo'ldiki, siz mol yo'qotgan ekansiz. Molingizni olgan odam qozog' ekan. Daragini topibsiz. Munda nimaga keldingiz? Endi nima qilmoqchi bo'lasiz?

Haydarali. Nnn...ima qilmoqchi bbb... bo'lardim, shshsh... ul odamdan mmmanni mmm... olimni olib berasiz.

Davronbek. Man qozi emasman yoki bir amaldor emasman. Birovni molini birovga olib bermoqg'a mani kuchim yetmaydi. Siz molingizni olg'on odamni topsangiz, qoziga chaqirtiring, qozi hukm qilub, molingizni olib beradur.

Haydarali. Mmmul odamni tttonimayman, Illekin bbbir odamdan eeeshitdim, dddaragini ttopdim.

Davronbek. Bir odamni(ng) o'g'ri qilmoq uchun birovdan eshitgan gap kifoya qilmaydur. Mol ila ushlarloq kerak yoki ko'rg'on-bilg'on guvoh-isbot kerak bo'ladur. Munaqangi ko'rma-ko'raki bir odamni(ng) o'g'ri qilub bo'lmaydur.

Haydarali. Ggguvohlarim bbbor, bbbo'lmasa siz manga qqozig'a bir ariza yozub bering.

Davronbek. Guvohlaringizni otini, otasini(ng) otini bila-sizmi?

Haydarali. Yyyo'q, bbbbilmayman.

Davronbek. Bo'lmasa, borub guvohlaringizni nomlarini, otasini otini ham turadurg'on joylarini, hamda molingizni olg'on odamning otini va turadurg'on joyini yaxshilab bilub keling.

Haydarali. Mmmen xxxat bilmasam, hhammasini otini esimdan chiqarub qo'yaman. Mmmang'a shshogirdingizni qo'shasiz. Mmmen bilan bbborub yozub olub kkkeladur.

Davronbek. Shogirdim sizdan ham battar, xat yozishni bilmaydi.

Haydarali. Bbbo'lmasa o'o'o'zingiz bbborasiz, bbbiz sari qadam bbbosganingizg'a sizni quruq qo'ymayman.

Abdujabbor. Xo'jayin, bo'b qoldingiz, bora qoling, o'zingiz ham juda zerikib o'turub edingiz, o'ynab kelasiz, ham pul topasiz.

Davronbek. O'rtoq (*kulub*), mani juda ishim ko'b, siz bilan bormoqg'a qo'lim tegmaydur. Ko'b gapni cho'zmang. Borub, guvohlaringizni yaxshilab bilub, soat uchda keling. Man sizga juda yaxshilab ariza yozub beraman, molingiz tezda qo'lingizga kiradur... (*jiddiyat ila o'rnidan turub*). Mana ko'rasiz, bizning xalqning holi! Hammasini(ng) yig'ishtirib kelsangiz, bir pichoqg'a sop bo'lmaydur. Bir tarafdan, bularning nodonliklarig'a va ahvoli olamdin xabarsizliklarig'a ich-ichingdan yonsang, ikinchi tarafdan bularning yana ketayotgan vaqtlarida ham «...advokatlik osonmi?» deb masxara qilub ketishlari jigarimni boshini ezadi. Yo'q, hali ham bo'lsa tezda jinni bo'lmasdan ilgari bu taxta-o'qlog'ini yig'ishtirub, birorta kanto'rg'a xizmatg'a kirmasam, yaqin fursatda bu johil va nodon, o'z haq va huquqini anglamagan xalqlarga foyda yetkuraman, deb o'z jonimg'a jabr qilmoq ham durust emas. Shul to'g'rida bobolarimizning hikmatli so'zlari bor: «Qaromug' donasi bo'lg'uncha, bug'doyning somoni bo'l, yamonning

yaxshisi bo'lg'uncha, yaxshining yamoni bo'l». Albatta, bu so'z to'g'ri so'zdir. (*Oynaga qarab, u yog'-bu yog'ini tuzatub, soatig'a qarab.*) Soat bir bo'lub qolubdur. Har nima bo'lsa ham bir daf'i savdo uchun shahardan tashqari birorta o'rtog'imning bog'iga borub, yuragimni chigilini yozub kelmasam, sil bo'lishumga sag'al qolur. (*U yog'-bu yog'ini tuzatub, Abdujabborni chaqirub.*) Abdujabbor, san hech yoqg'a qimillama, boyagi iki odam guvohnoma olib kelsa, olib qol, boshqalari kelsa, aytgilki, advokat bugun juda uzoq bir joyg'a mehmon bo'lub ketdi, ertaga keling, deb jo'natib yubor. Tag'in eshikda mani poylashub o'tirmasun. Man kechqurun soat beshda kelaman (*chiqub ketar*).

Abdujabbor. Bu bizni advokat xo'jayinimizni o'zi ishni ko'zini yaxshi bilmaydi. Xalqni aldab, pulini olish ilmini o'rgangan emas. «Lo'lini eshagini sug'or, pulini ol» degan eski zamondan qolg'on gapga ham aqli yetmaydur. Oldiga kelg'on odamlarning bariga unaqa qil, munaqa kilub kel (deb), hammasini oldidan quruq chiqarub yuboradur. Ularg'a to'g'risini gapuraman deb, unaqangi-munaqangi deb ertalabdan kechgacha boshlarini qotirub o'tiradur. Bizning odamlarga unaqa-munaqa deb falsafa sotish kerak emas, ish qilmoq kerak, ish ko'rsatmoq kerak, yo'l topmoq kerak. Pul, ey qurbaning bo'lay oqchajon, to'ram, sira pul bechora Abdujabbor akangg'a ham yuzingni ko'rsatasanmi, yo'qmi?.. Shoshmang, mana, man hozir pul topishni hiylasini topdim. Ko'rasiz, man advokat bo'lsam, pulni nishobini qanday o'zimg'a og'dirar edim. Bizning advokat tog'omiz o'zi ishning ko'zini bilmaydur. Mana, man hozir advokat bo'laman, ko'rasiz; man qanday pul topaman (*yugurib borub osig'liq turgon advokatning eski kiymlarin kiyub, advokat bo'lub o'ltirub, papirosh chakur*).

*Yuqorida zikr qilinmish kishilar birin-ketin kelub, ariza yozdirurlar.
Har birlarining arizalarin juz'iy chaqiruq qilub, chizub konvertg'a
solub, qo'llarig'a berub, jo'natub, har birlaridan bir-iki, uch, turt
so'mdan pul olur.*

*Abdujabbor (o'zidan o'zi kulub, suyunib). Mana ko'rdingizmi,
bizning advokat o'zi ishning ko'zini bilmaydur. Ul ertalabdan
beri jigarini xun qilub, bir tiyin ham topgani yo'q edi. Man
yarim soat ichida yigirma so'mga yaqin pul topdim. Har nar-
sag'a ham hunar kerak, hunar!*

*Shul vaqt eshikdan hamma ariza yozdirg'onlar kelub, advokatning
xizmatchisi ekanini anglab, yaxshilab ururlar.*

Parda tushar.

Madaniyatga
kiringiz,
maktab
solingiz,
o‘qungiz,
taraqqiy
qilingiz

MADANIYAT TO'LQUNLARI¹

I

Har kimga ma'lumdirki, dengizlarning to'lqunlari bir tarafdan ikinchi tarafg'a ko'chub yuriydir.

Bu kun bir tarafda to'lqun bo'lsa, ertasi ikinchi tarafda boshlanub, avvalgi shovullab, qichqirub, shodligindanmi yoki boshqa bir sababdanmi bir necha sajin yuqoriga sakrashub turgon yerlari sukut va sokit bo'lub qoladir. Shunga o'xhash Bani bashar² (Odam bolalari) orasida ham madaniyat to'lqunlari quvishub va surishub yuriydir. Bir asr ichinda taraqqiy va madaniyat dunyosinda g'o'ta³ urub, suzishub yurgan bir qavmni ko'rasanki, ikinchi asrda tanazzul dunyosiga yuzlanub, vahshiylig olamining eng og'ir nuqtasiga borub yetadur. Buning sababi ijтиҳод⁴ va g'ayratning ozayuvi, ittifoq, insof vaadolatning yo'qoluvi, xalqning ilm-u ma'rifatdan uzoqlashub, buzuq ishlarga mayl va rag'batlari ortuvidir.

Har bir millat maishat tarafindan taraqqiyga yuz qo'ymasa, ma'naviy tarafdan, ya'ni ma'rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas, bir kishining o'z maishatiga yetarlik mol-u ashyosi bo'lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa, moddiy va ma'naviy ishlarni qilmoqdan ojiz qolur. Va bunday och-u yalang'och o'z avqotini o'tkaraolmayturgan bir xalqga ma'rifat, madaniyat, ulum va funundan dars vermak munosib bir ish o'lmasa kerak, chunki faqir xalqlarning kecha-kunduz fikri-zikri non topmak va bola-chaqasining qornini to'yg'uzmakdir. Taajjubki, mamlakatimizning yerlari, o'simlik tup-

¹ «Madaniyat to'lqunlari» maqolasi «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914- yil 25-aprel va 11-may sonlaridan olindi.

² Bani bashar – Insoniyat.

³ G'o'ta – suvgaga sho'ng'ib chiqish.

⁴ Ijтиҳod – tirishish.

rog'i barakatlik bo'lib turub, yerli xalq och va yalang'och, boyqush kabi vayronalarda umr o'tkaradirlar.

Qariya¹ va qishloq odamlarini bir tarafga qo'yub turib, shahardagi madaniyalarimizga ko'z solsak, madaniyat to'lqunlari bizlarni kemalarimiz ila qay-u yerga olib ketub turg'onlig'i ochiq ma'lum bo'ladir. Xalqimizning yuzdan to'rtini boyga, ikisini ulamoga, uchini eshonga, beshini dehqonga chiqarsak, qolgan 86 si ko'mirchi, temirchi, yamoqchi, fanarchi va qorovulchilik kabi eng past xidmatlarda turub, kunlik avqotlarini zo'rg'a o'tkazadilar. Bularning orasida oyda, yilda bir martoba go'sht, yog' ko'rmay umr o'tkaradurg'onlari, butun yilni(ng) birgina kiyim ila o'tkaradurg'onlari, hifzi sihhat² qaysi, madaniyatni na ekanini tushunmaydirganlari ko'bdir. Bularga oni tushundirmak, yerdan turub, yulduzlarga qo'l so'zmak ila barobardir.

Bu taraqqiy zamoni va madaniyat asri, bilmam, bizni na yerga olib borajak, ibrat ko'zi ila Eski shahrimizning musulmon dahalariga nazar solgan kishi har mahallada yuzdan to'qson xonalarni(ng) buzilgan, yorilgan, vayrona va inqiroz dunyosiga yuzlangan bir holda ko'radir. Go'yo bu xonalarning devorlari, tomlari lisoni hol ila bizni ilmsizlik, tarbiyasizlik, to'y deb minglarcha aqchalarni behuda isrof qilmak, to'ylarda jomafurushlik³ qilmak vayrona va xarobazorlikg'a soldi, deyurlar. Emdi, vayrona sohiblarini faqir va xorlikda yashagan, bola-chaqalarini qo'l kuchi ila to'ydiradirgon, to'y degan yerda muqaddas Vatanini sotub, sarf qilmoqdan tortinmaydirgan «hoziram huzuram», – deb istiqbolini o'y-lamagan va bolalarining saodatini tushunmagan bir qavm-

¹ Qariya – ovul.

² Hifzi sihhat – sog'liqni saqlash.

³ Jomafurushlik – kiyim sotish.

dan qanday taraqqiy, madaniyat va ma'rifat kutmak kerak? Och-yalang'och, kulfat, mehnat va zahmat balolari orasida o'ralib qolgan bir qavmga: «Madaniyatga kiringiz, maktab solingiz, o'qungiz, taraqqiy qilingiz» kabi so'zlarning foydasi o'lqidig'i oftobdan ham ravshandir. Bu faqirlikning eng qo'rquunch to'lqunlari orasida ezilgan xalqimizni to'y marazidan qutqarurga tirishmak va iloj istamak lozimdir.

Buning davosi va chorasi uchun hech bir tabibga muhtoj o'lmasdan, balki biroz orqa-o'ngg'a qaramak, hamyonning og'zini mahkam qilmak, iqtisodni rioxaya qilmak, isrofdan saqlanmak lozimdir. Ajabo. Bu isrof to'lqunlari bizlarni na yerga olub boradir?.. «Dard ustiga chipqon» degandek, kundan kun bid'at ustiga bid'at ortmakda. Ulamo, fuzalo va eshonlarimiz zikr va tasbeh o'rniga «to'y ustiga to'ylar bo'lsun» so'zini virdi zabon¹ qilmakda. Ag'niyo va sarvatdorlarimiz to'y poygasi qilub, bir-birlarining bor-yo'qlariga qaramasdan, faqir va kambag'allarimiz uylarini, bog'larini, otlarini, to'nlarini sotub to'yga sarf qilmakdadurlar. Bir tarafdan, madaniyat to'lqunlari shoshirmoqda, ikinchi tarafdan faqirlik va miskinlik ko'paymakda, yana bid'at ustiga bid'at ortmakdadir. Mundan besholti yil muqaddam eng sarvatli kishilarimiz uch kundan ortiq osh ham yigirma-o'ttizdan ortiq chopon bermas edilar. Hozir bu tarafdan ko'b taraqqiy qilib, olti-yetti kun osh va yuzlab chopon bermakdadirlar. Avvalda bir yarim – iki so'mlik chopon beradigan kishilarga, hozir 20–25 so'mlik zarrinlar, baxmallar berurga boshladilar. Mana shul tariqada biz keyinga qarab taraqqiy qilmakdamiz, bilmam, bizim bu isrof va bid'atlarimiz qachon yo'q bo'lib ketar?!

*Hama poyon ba bolo metariqad,
Man az bolo ba poyon metariqam.*

¹ Virdi zabon – tilda takrorlash.

II

Muhtaram o'quvchilarga ibrat uchun madaniyatning koni, manbayi va chiqg'on yeri o'lan Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim otosini go'starajagam. Oltinchi asrda dini mubiyn Islom ila barobar madaniyat dengizlari harakat qildi. Va bu qit'ada yashamish arablar o'zлari borgan mamlakat va qit'alarga madaniyat suvlarini ham surub bordilar. Oradan bir asr o'taro'tmas madaniyat to'lqunlari Osiyodan ko'chub, Ovrupo qit'a-sini bosdi. Ovrupolilar hozirgi yigirmanchi asrgacha madaniyat to'lqunlari ichra yashadilar va bu cholishqon ovrupolilar madaniyat to'lqunlaridan qo'rqedilar, qochmadilar, harakat qildilar, asbob va mashinalar hozirladilar. Va bu madaniyat to'lqunlarini o'zlarig'a asir-u musaxxar qilub oldilar. XV asrda madaniyat suvlarini surib, Amriqo qit'asig'a olib bordilar. Amriqoning yerli vahshiy xalqlari «eshiklaridan oqg'on suvning qadrini bilmadilar», madaniyatga kirishmadilar, qabul qilmadilar. Ota-bobolaridan qolg'on odatlarini tashlamadilar, o'zlaricha vahshatda avrat¹larini yaproqlar ila o'rtub, boshlarig'a tovus patlarini sanchub, yalang'och goh daraxtlar ustida, goh kafalarda, goh yerto'lalarda do'mbira va chirmandalarni cholub, yashay berdilar, madaniyat orqalaridan quvdi, qochdilar. Na yerga borsalar, madaniyat ham bordi, qochib qutulolmadilar, oxirida madaniyat g'alaba qilib, inqiroz dunyosig'a kuzatub yubordi. Mana shu jumladan, yarim-yorti vahshatda yashash O'rta Osiyoga, Turkistonimizg'a Rusiya hukumati ila barobar madaniyat suvlari kelub kirdi. Hozir yarim asrdurki madaniyat bizni orqamizdan quviyur. Biz qirdan qirg'a qochurmiz, qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqub hujum qilur, o'ngimizdan bilimsizlik va jaholat kelub, jonlarimizni

¹ Avrat – inson badanining nomahramlarga ko'rsatilishi mumkin bo'limgan a'zolari.

siqur, so'ngimizdan musriflik, faqirlik va bid'atlar chiqub yo'limizni to'sur. Dangasalik, yalqovlik, ishsizlik ustimizdan bosub bo'g'mak istar. Ajabo! Bizlar hamon bu eskincha romka orasidan chiqub qochmak istamaymiz. Biroz tushunmak va o'ylamak lozimki, bu romka orasidan chiqub qochmak va qutulmak mumkinmi? Yo'qmi? Bizim fikrimizcha, qochmoqning imkonи yo'q, qutulmak-u xalos bo'lmaoning faqat birgina chorasi bordurki, madaniyatni qabul qilmak va madaniyatga kirishmakdir. Lekin kirishganda ham madaniyatning haqiqatini bilmak va haqiqiy madaniyatga kirishmak lozimdir. Ba'zi yoshlarimizga o'xhash usti yaltiragan, ichi qaltiragan bo'lub, boshlariga Yovrupo qalpog'ini kiyub «Madaniyat!», «Madaniyat!» deb og'izlarini ko'purturub, oz-moz muslimoncha, chala-yarim ruscha so'ylashub kulgu bo'lib yurmak madaniyat bo'lmay, masxarabozlikning bir shu'basidur. Agarda tabiatning jilovini nafsimiz qo'lig'a bersak, ul bizlarni na yerga olub bormasun? Chiroylik va chikka bel qizlari ila o'ynashmakni, resturan va fivaxonalarga borub, qimor o'ynamak va ichkulik qilub, tong otquzmakni, biroz qizishgandan so'ng odobdan tashqari madaniyatga yarashmagan so'zlarni aytishmakni, hatto urushmakni, jabr va zulm qilmoqni xohlaydir. Lekin madaniyat qonunida (ustofida) munday fano va buzuq ishlар bo'lmasa kerak. Madaniy bo'lmak va madaniyatga kirmak uchun unday yomon sifatlardan saqlanmak va hazar qilmak ila barobar haqiqiy madaniyat ilmi, maishiy va axloqiy ishlар ila uch qismg'a bo'linadir. Agar millat bolalari bu xislatni mu-kammal suratda o'zlariga darbar olsalar, mana shul vaqtida biz «madaniyatni qabul qilduk, madaniy bo'lduk» deb lof ursak, maqtansak, kulgi bo'lmaymiz.

Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limg'a mo-

hir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariiga mohir kishilar yetushub, zamonag'a mu-vofig ravishda ish yuritsa, tartiblik «Dorul-yatim» – yetimxonalar, «Dorul-ojizin» – kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (tovarishistvo)lar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonag'a lo-yiq ulum va funundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtida eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohili salomatg'a chiqg'on bo'lur eduk. Sohili salomatg'a chiquvimiizga zamon musoyid verurmi, vermasmi bilmaymiz.

*Ilm ila olam musaxxar bo'ldi, biz johil hanuz,
Xobi g'aflat boshimizg'a yetsa ham g'ofil hanuz,
Ochmayin ibrat ko'zin biz uyqug'a moyil hanuz,
Ilmi hikmatlarga bizlar bo'lmaduk qobil hanuz*

she'rini virdi zabon qilmakdan boshqa choramiz yo'q.

TIYOTR XUSUSIDA MUNOZARA¹

I

Kunlar bahor fasli o'ldig'indan daraxtlar uyg'onub, yafrog'lar orasidan rang-barang gullar chiqarmish, yer olti oydan beri qornida saqlagan alvonlarini yuzaga chiqarub, ko'm-ko'k baxmal kabi yozmish. Har tarafga qishning zulmidan qochgan qushlar kelub, har xil ovozlar ila nag'ma va

¹ «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil to'rtinchi va o'n beshinchi aprel sonlaridan olindi.

faryod boshlamish. Go'yo butun olam uyqudan uyg'ongan kabi har birining yuzidan yangi bir «his» – tuyg'u va hayot asari ko'rinxur edi. O'lтурган yerim bir yaqin do'stimning bog'i o'lub, mendan boshqa iki mehmon ham kelub qoldi. Salomlashub hol so'rashub o'lтурduk. Do'stim xonasida yo'q o'lдug'idan biroz kutmakg'a to'g'ri keldi. Kelgan mehmonlarning biri mullogina, ahvoli olamdan xabardor bir kishi ekanligi so'zi va qiyofasidan ma'lum edi. Ikinchisi esa, o'qu-magan, chapan, qiziqroq bir kishi ko'rinxurdi. Suhbat orasida so'zdan so'z urunub ketub tiyotr xususida so'z ochilub ketdi. Bularning munozaralariga biroz quloq solmak menga lozim bo'ldi.

Chapan(i): Mullo aka! Man ul kuni tiyotrga borib edim. Xo'b yaxshi tomosha bo'ldi. Keyinroq borib qolgan ekanman, arzon bilet topolmay, iki yarim so'mga bilet olib kirdim, siz ham borib edingizmi?

Mullo: Man ham borgan edim, o'yinlari ko'b yaxshi chiqdi. Hech bir tiyotr o'ynamagan kishilar qanday bo'lur ekan? Boshqa millatlar nazarida kulgi bo'lub qolmasalar edi, deb xavotirda eduk. Juda xursand bo'lduk. Boshqalar qoshida butun musulmonlarni obro'larini olub berdilar. Tiyotr ko'ngildagidek bo'lub o'tdi. Shul tiyotr xususida Toshkand odamlari yetmish firqaga bo'lindilar. Ba'zilari: «Tiyotr harom, tiyotrdan kelgan oqcha ham harom», – derlar. Holbuki, tiyotr harom ermas, bid'at. Bid'at bo'lsa ham «bid'ati hasana». «Bid'ati sayyia»lardan emas. Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo'q qilmak uchun, o'zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg'on oyinasidir. O'shal harom degon kishilarning o'zлari madrasa va yo mehmonxonalarda birovni qizdan sulu(v) bolasini ko'zlaridan mo'ldir-mo'ldir yoshlarini oqizib, boshiga kokil solub, «aylansun-o'rgulsun»

deb yurgan kishilar! Yoki dallol va yallochilarni(ng) o'ynatub, tishlarini oqini ko'rsatub, tanga tashlatub turgan kishilarga bilmayman, nima uchun bul ibratxona ma'qul bo'lmasdir.

Chapan(i): Yo'q, mullo aka, tiyotr harom bo'lmasa kerak. Mani bir akam hajga borgan edi. Istanbul, Misr, Quddusi Sharif, Qozon, O'rungurgni uch-to'rt yil yurub, sayohat qilub keldi. Tiyotr to'g'risida aning birlan ham so'zlashgan edim. Ul Qozon, Misr, xususan, Istanbul tiyotrlarini ko'b maqtaydir. O'zing borub, ko'zing birla ko'rmaguncha, gafurub bergen birlan tushunmaysan, deydir. Agar harom bo'ladirgan bo'lsa, Qozon, Misr, Istanbul ulamolari nima uchun man' qilmaganlar? Ul yerlardagi ulamolar bizning Toshkand ulamolarini bir cho'qishda qochiradirlar, deydir. Uni-muni qo'ying, shul kuni tiyotrdan qancha foyda qolibdir?

Mullo: Salkam bir yarim ming so'm sof foyda qolibdir.

Chapan(i): O... Askiyochilari... O'zлari o'n besh kishicha bor edilar. Bir kechada har birlari bir yuz so'mga yaqin tushurub-durlar. Mendek odam bularni bir kechada topgan pullarini bir yilda qancha mehnatlar qilub zo'rg'a toparman.

Mullo: Bular o'z nafslarining foydasiga o'ynaganlari yo'q, millat foydasiga, ya'ni jamiyatni xayriyaning foydasiga o'ynaganlar. Tiyotrdan kelgan sof foydani, o'zлari bir tiyin olmay, hammasini jamiyatga beribdurlar. Avvalgi Tomosha bog'idagi bo'lgan tiyotrni ham, ramazonda mozorda bo'lgan Sharq kechasidan kelgan oqchalarni(ng) ham jamiyatga bergen edilar.

Chapan(i): Aytgandek, esimda borida sizdan so'rab qolayin, Tomosha bog'idagi tiyotrga ham borgan edim. O'shal kuni ham tomoshada xalq ko'b edi. Mullolar, boylar ham bor edilar. Nimaga o'shal tiyotr harom bo'lmay, puli ham halol bo'lub, hech kim lom-lum demasdan o'tub ketdi. Emdi bul tiyotr nimaga durust bo'lmay, puli ham harom bo'lub chiqdi. Munda nima sir bor, bilasizmi?

Mullo: Man sirini yaxshi bilmayman, lekin eshitamanki, ba'zi firqalar bizlarning ota-bobomizdan qolub kelgan odatiy to'ylarimizni she'rga solub o'qub, hajv qildilar, chilonbonka¹ deb boylarimizni masxara qildilar, bolangni o'qutmasang, qorning yorulub o'lasan, deb kulgi qildilar, der emishlar.

Chapan(i): Men bir kun Piyonbozorga chiqub edim, bir baqqolni do'konida bir necha kishi jam' bo'lub, so'zlashub turubdirlarki, «Kuryer» gazetada Qur'oni karimni bir juhud she'r birla hajv qilub yozibdur, deb. Mana ul, tiyotrda bizni hajv qildi, deb ul bechoralarga tish-u tirnoqlari birla yopishgan botirlar, Qur'oni karimni hajv qilg'on juhudni tegishlik joyda so'rалмоқ учун биргина ариза ham qilub bera olmadi-lar. Munga nima dersiz?

Mullo: Ey birodar, «Yamonni kuchi yapaloqg'a yetar» de-gan so'z to'g'ridir. Ul juhud, bular o'z musulmonlaridir. Biz, musulmonlar har vaqt bir-birlarimizni chinishmoqdan boshqa qo'limizdan bir ish kelmaydir.

Chapan(i): Mullo aka, o'shal kuni yana millat, millat deb bir she'r o'qudilar. Shul so'zga yaxshi tushunmadim, lekin qulog'imga yaxshigina kirdi. Biroz yig'lab ham oldim, yonimda o'lturgon ba'zi mulla va boylar ham firq-firq yig'lashub o'lturdilar. Ammo ba'zi shul siz aytgan qo'r umachilarmi yo tosh yuraklarmi qiqir-qiqir kulishub o'lturdilar. Shunday achchig'im chiqdiki, qo'limdan kelsa hammasini tiyotrdan chiqarub yuborur edim.

Mullo: Bizlarning millatimiz islom millati, ruslarniki na-soro millati, juhudlarniki yahud millati deb aytilur! Shul kuni bizlar nimaga boshqa millatlardan keyin qolduk, nimaga harakat qilub o'qumaduk, hammaga oyog'osti bo'lduk, dunyo-da yashamoqchi bo'lsak, har xil ilmlarni o'qiylik, har xil yangi

¹ Chilonbonka – bank a'zosi.

hunarlarni o'rganayluk, biz ham boshqa millatlar birla bir...¹
ketayluk, degan mazmunda she'r o'qig'on edilar.

Chapan(i): Balli taqsir.

Bayt:

*Qaromug' donasi bo'lguncha, bug'doyni somoni bo'l,
Yamonni yaxshisi bo'lguncha, yaxshini yamoni bo'l, -*

degon baytni bir mullo o'rtog'im o'rgatub, har vaqt mullo-lar birla hamsuhbat bo'l, chapanilarga jo'raboshi bo'lganining-dan mullolarga oshfazlik qilganing yaxshiroqdir. Chunki mullolardan hikmatlik so'zlar eshitub, yaxshi xulqlik kishi bo'larsan, chapanilardan bachchabozlik, ichkulik, qimorbozlik, samovardan samovarga yurub, safsatabozlikdan boshqa nimani o'rganursan, deb edi. Hozir man sizning oldingizda tavba qildim, emdi aslo mullolarning suhabatidan ayrilmas-man. O'zum muslimmon bo'lub turub, hozirgacha birgina millat degan so'zga tushunmaydurgon darajada nodon va johil bo'lub yurgan ekanman. Afsus, o'tgan umrlarimga emdi siz guvoh bo'ling, millat degan joyda jonimni ham ayamasman, dedi. Kun kech bo'ldig'indan boshqa firqalar xususida ma'lumot bermoqni mullo boshqa bir kunga va'da qildi. Bir-birimiz ila xayrashub, bog'dan chiqub ketdik.

II

Axshom soat beshda mullo va chapan birodarlarimiz to-pushub, ikinchi bir o'rtog'imizning bog'iga borduk. Borgan bog'imiz Toshkandning eng havodor, eng yaxshi yerlaridan baland bir tepalik usti bo'lub, atrofining manzarasi (ko'ri-

¹ Gazeta sahifasining shul joyi uringan, o'qib bo'lmadi.

nish) go‘yo boshqa bir olam kabi yoxud Isvichra¹ mamlaka-tining manzarasi kabi ko‘rinur edi. Ro‘baro‘mizda o‘n to‘rt kechalik oyning bizning majlisimizga elektr kabi ishiq va ziyo verishi, bir tarafdan, tog‘larning ustida cho‘kub yotgan bam-bayoz² qorlarning, iki(nchi) tarafdan, ko‘m-ko‘k daraxt-larning orasidan namoyon bo‘lishi ko‘k baxmalga o‘ral-mish mahbub kabi ko‘rinur edi. Bir tarafdan, katta bir nahr – yilg‘aning suvi oyning shu’lesi ila oppoq sut kabi bo‘lub, chog‘laya-chog‘laya oqub kelishi, janobi Haqning qudratini isbot etmakda, tabiatni(ng) xursand qilmoqda edi.

Mullo:

«Ajab ibratnomadir bu jahonning bog‘-u sahrosi,
To‘lin oy sayr etadir-da, it hurardin yo‘qtu(r) parvosi», –
deb so‘zga kirishub, bu baytni o‘qidi:

«Umrинг o‘tsa, xush o‘tsun, dunyoda ahli dil ila,
Mehnati jondir, vale o‘lturma noqobil ila».

«O‘xshatmay uchratmas» deganlaridek, biz bir-birimiz ila
xo‘p yaxshi tanishdik, tez-tez suhbat qilishub, dillarimizning
chigilini yozishib turayluk.

Chapan(i): Avvalgi majlisda menga tiyotrdan tushkan oqchalarni jamiyatga berurlar, deb edingiz. Ul qaysi jamiyat? Rusning jamiyatimi yoki musulmonlarning o‘zları boshqa bir jamiyat ochkanlarmi?

Mullo: Voy-bo‘y! Hozirgacha bilmas ekansiz, bu yil besh yil bo‘ldi, musulmonlar o‘zlariga maxsus «Jamiyat xayriya» ochganlar. Tiyotrdan tushgan oqchalarni shul jamiyatga berurlar.

Chapan(i): Jamiyat bu oqchalarni olub, qay-u yerlarga va nimalarga sarf qiladir?

¹ Isvichra – Shveytsariya.

² Bam-bayoz – oppoq.

Mullo: Jamiyat tarafidan ochilgan kambag‘alxonalarga, beva-bechoralarga, maktab va madrasalarga, muhtoj o‘quv-chilarga yordam qiladir va shularga o‘xshash yerkarta sarf qiladir.

Chapan(i): Oy... durust. Qalandarxonaga yaqin ko‘nka¹ yo‘lida ochilgan kambag‘alxona shul jamiyatnikimi? Bir kun borib ko‘rgan edim, besh-olti ko‘r, shol va kambag‘allar yotar ekanlar. Har birlariga alohida karavat, joylari ozoda, har hafta kiyimlarini yuvdurub, o‘zlarini hammomga olib borib turar ekanlar. Maxsus bir xizmatchi har kuni palov-osh qilib berur ekan. Ittifoqo, bir kuni boshqalarini so‘zlari ila xidmatchi so‘k oshi qilib bergan ekan, bir ko‘r «Man so‘k oshingni ichmasman!» – deb arazlab ketibdir. Xidmatchi borub, oni Xadradan zo‘rg‘a qaytarub, olib kelibdir. Munday yaxshilikni ko‘rlarga otalari ham qilgan emasdir. Taqsir, bu jamiyatning boshliqlari kim?

Mullo: Raisi hurmatlik Boqixonboy Dodaxonboy o‘g‘illari. Muovin: Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li. Xazinador: Ilhomjon In’omjon o‘g‘li, muovini Husanxo‘ja Dodaxo‘ja o‘g‘li. Sarkotib: Bashirilloxon Asadullaxo‘ja o‘g‘li. Muovin: Abdusami’ qori Hidoyatboy o‘g‘li. Idora a’zolari: hurmatlik Abduvali hoji Abdulmalikboy o‘g‘li, hurmatlik Tojimuhammad Isomuhammad o‘g‘li, Munavvarxon Abdurashidxon o‘g‘li, Nizomiddin qori Mullo Husayn o‘g‘li, Ubaydullaxon Asadullaxo‘ja o‘g‘li, Karimqori Ko‘chakboy o‘g‘li, Abdusami’ qori Hidoyatboy o‘g‘li, Karimbek Norbek o‘g‘li va mullo Abdulloh Avloniylardir. Taftish a’zolari: hurmatlik Koshifxon eshon, Orifxo‘ja qozi va Toshhoji Tuyoqboy o‘g‘lidirlar.

Chapan(i): Balli, taqsir, jamiyatni yaxshi bildim, Xudo xohlasa, qo‘limga pul tushsa, olti so‘m berub, man ham a’zo

¹ Ko‘nka – tramvay.

o'lurman. Emdi tiyotrga qarshu boshqa firqalardan ma'lumot beringiz.

Mullo: Tiyotr xususida ba'zi firqalar sham' kabi o'z etlarini o'zлari yeb, kuyub, о'rtanub, ichlaridin qirindi o'tub yurgan emish. O'zlarining kuyub о'rtanganlari bir sari, tiyotr o'ynovchi bechoralarni ham tinch qо'y may, qora qо'ng'iz kabi har bir yerda sosub, kurakda turmaydurgon so'zlar ila maktublar yozub, ul bechoralarni(ng) yaqin kishilariga maxfiy tarqatib yurgan emishlar. Hozirda bularning qо'llariga ul vijdonsizlarning yozg'an xatlaridan yigirmaga yaqin tushgan emish. Ul maktublarni kimlar yozg'anlig'i, konvertlarini qay-u yerdan oling'anlig'i, adreslarini kimlar yozg'anlig'i sezilub qolibdur. Ammo bular har bir ishni ochuq-oydin va oshkor qilub yurgan kishilar o'ldig'indan bu ishni ham teyishlik joylarda maydonga chiqarsalar kerak.

Chapan(i): Men ham eshitgan edim, tiyotr o'ynagan kishilarning haqlarida yamon so'zlar yozub, uyot joylariga til tekizibdurlar.

Mullo: Nima dedingiz?

Chapan(i): Uyot joylariga til tekuzubdurlar....Til! ... Taqsir! Mullo bo'lub turub shunga tushunmaysizmi? Ya'ni yamon joylariga og'iz solub, chaynamishlar. Bularni qо'ya bering, o'zlaridan o'zлari kuyub, kul bo'lub yoki sil bo'lub, o'lub keturlar. Boshqa firqalardan so'ylangiz.

Mullo: Ba'zi firqalar tiyotrlarning harom ekanlig'iga fatvo so'rab, eshik baeshik sargardon bo'lub yurgan emishlar. Ammo tiyotr o'ynovchi kishilarning qо'llarida Toshkandning mashhur muftilari tarafidan qilub berilgan fatvolari bor emish. Mard kishi maydonda saylansun! Mana hozirda, nufus¹i Toshkandda turki tilda chiqadurgon gazetamiz iki bo'ldi, banim

¹ Nufus – aholi, xalq.

fikrimcha kuchlari bo'lsa, qorong'u va hech kishi yo'q uyda turub baqirmsadan, matbuot vositasi ila ko'ngildagi g'arazi habjo'shonalarini yoxud xayoli fosid¹onalarini jaridalarga yozub, ochuqdan ochuq so'zlasalar, yaxshi bo'lur edi.

Chapan(i): Taqsir! Qorong'u uyda so'zlamay, ochuqdan so'zlasunlar, deysiz. Tovushimni odamlar eshitsunlar, deb uyni tomini ochub so'zlaguncha, eshiklarini ochub so'zlasalar, bo'lmasmukin?

Mullo: Yo'q, so'z unda emas, bug'doyda. Tiyotr o'ynovchi kishilar Janob gubernatoridan ijozat olub, bosh hokimlari ning farmoyishlari ila so'zlaydirg'on so'zlarini e'lomnomaga yozub chiqarub, har kimga ma'lum va oshkora qilub so'zlamishlar.

Chapan(i): Ul qorong'u hujrada xat yozgan kishilarning so'zlari ham ma'lum va oshkor bo'libdurki, mana, siz eshitubsiz, men eshitubman. Boshqa odamlar ham eshitgandir. Hukumatimiz ham eshitgan bo'lsa kerak. Munga e'lomnoma nima kerak, e'lomnoma yozub, chiqarub qorong'u hujrada maymun o'ynatib beradirlarmi?

Mullo: Man sizga qachon hujra dedim? Man uy desam, siz hujra deysiz?

Chapan(i): Taqsir! Uy nima, hujra nima? Ikisi bir ma'ni. Ya'ni masalan: uy biroz kattaroq, hujra biroz kichikroq bo'ladur. Ammo uy biroz yorug'roq, hujra biroz qorong'uroq bo'ladur. Siz qorong'u deganizingiza manim xayolimga hujra kelub, og'zimdan hujra chiqub ketibdur. Afu qiling, aybga buyurmang, taqsir!

Mullo: Ayb siz va bizda emas, Indamasda. O'tgan majlisda o'zaro so'zlashgan so'zumizni oquzmay-tomuzmay, hammasini «Sadoyi Turkiston» jaridasiga yozib chiqaribdir.

¹ Fosid – fasod tarqatuvchi.

Ul maxfiy maktub yozg'uchilar eshitib qolub, bizlarga ham maktub yozsalar, nima qilurmiz?

Chapan(i): G'am chekmangiz! Alarning yozadurg'on xatlari menga ma'lum. Konverti sarig', markasi yo'q, adrisi ham bilinib turadir. Olmaymiz – qo'yamiz!

Mullo: Bizga yozmasa, Indamasg'a yozar, Indamas jaridaga yozar, onda nima qilurmiz.

Chapan(i): Yozsa yozaversun! Bizga nima g'am. Bizlar qorong'u uyda so'z so'ylashib turganimiz yo'q, op-ochuq sudek oydinda so'zlashub turubmwiz.

Mullo: Bilaman, bizlarga g'am yo'q, lekin bizni «xafa qilaman» deb, maktub yozgan kishilarga achinaman. «Qing'ir ish qirq yildan so'ng ma'lum bo'lur» degan so'z bor. Bir kun emas, bir kun qilgan ishlari yuzaga chiqub qolub, «bizlar uchun qazigan chuqurlariga o'zlarini yiqilub ketmasalar edi», – deb qo'rqaman.

Chapan(i): G'am yemang, taqsir! Tiflisda chiqadirgan «Mullo Nasriddin» degan bir jurnal bor. Shuning bir muxbiri ba'zi vaqtarda jahannam chuquriga tushub turub, xat yozadir. Bu maxfiy xat yozadirgan kishilar ham «Asfalasofilin»ga tushub ketsalar ham xatlarini yoza beradirlar. Bularni qo'yo bering, emdi ikinchi tiyotrning bo'lishidan so'zlang!

Mullo: Ikinchi tiyotr yaqinda bo'ladir, hozir muni qo'yub turayluk, o'tub ketgan bir tiyotr munozarasini shuncha cho'zub, xayoliy so'zlar ila umrimizni o'tkazduk. Emdiki majlisimizda so'zlanadurgan so'zlarimizni milliy, adabiy, fanniyl, ilmiy va axloqiy so'zlarga olishtirmog'imiz lozimdir, deb so'ziga xotima chekdi. Bir-birimiz ila «Axshomingiz xayrli o'lsun!» deb bog'din chiqub ketduk.

KIM NIMANI YAXSHI KO'RAR?¹

Ehtimol, bizning xalq ilm-u ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rар, deb o'ylaydurg'ondur-siz? Yo'q, bu fikringiz yonglish. Eshonlarimiz toat va ibodat, pand-u nasihat, zikr-u tasbeh o'rnig'a to'ylardan to'n kiyub, ko'b oshab, ko'p uslashni yaxshi ko'rurlar. Ulamolarimiz dars-u ta'lim o'rnig'a, bir-birlari ila o'run talashib, mukarrir va mudarris bo'lishni, o'zлari bo'lolmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzishni yaxshi ko'rurlar. Imomlarimiz, xaloyiqg'a va'z va nasihat o'rnig'a, to'y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko'rurlar. Boylarimiz orqa-o'nglarig'a qaramasdan, foya va zararlarini oyirmasdan bir-birla-riг'a raqobat qilaman deb, «bonka» va «kredit»larini ko'pay-turub, do'ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning mollari-ni bukub-sinishini yaxshi ko'rurlar. Mo'ysafidlarimiz namoz va niyoz o'rnig'a, masjid eshigiga yig'ilub o'turub, har kimni g'iyat va shikoyat qilishni yaxshi ko'rurlar. Muallimlarimiz bir-birlaridan qizg'onishub, bolalarni arzon o'qitaman deb, bir o'zlariga yuz, yuzdan ortuq bola yig'ub, o'zлari to'y va ma'raka-larda bolalarning umrini bekor o'tkarishni yaxshi ko'rurlar. Savdogarlarimiz: «To'ylikni to'yi o'tar, to'ysizni kuni o'tar» degan so'zga amal qilmay, qaysi mahallada to'y bo'lsa, das-turxonchilik qilishni yaxshi ko'rurlar. Muazzinlarimiz azonni yaxshilab adoyi maxraj qilub aytishni o'rganmay, bir joyda to'y bo'lub qolsa, «Falonchinikiga oshga-ho!» deb qiroat ila qichqi-rishni yaxshi ko'rurlar. Do'kondorlarimiz ishlarini tartib-la sol-may, zamonag'a muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg'on eski do'kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko'rurlar. Onalarimiz bilim va tarbiya o'rnig'a erlari ila urushub-ta-

¹ «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 17-dekabr sonidan olindi.

lashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar. Otalarimiz bolalarig'a o'qutmak va ta'lim bermak o'rnig'a «O'g'lum emdi kattakon yigit bo'lding, shuncha o'quganing yetar, pul top!» – deb «tashishka» – hammollik qildirishni yaxshi ko'rurlar. Kosiblarimiz bir-biridan mollarini arzon sotaman deb, tezgina yirtiladurg'on, tikishlar undan urub, mundan chiqg'on, suvni yetti chaqirim yerdan chaqiradurg'on mahsi va etiklar tikub, sotishni yaxshi ko'rurlar.

Zargarlarimiz yigirma tiyinlik kumush, o'n tiyinlik tillo orasig'a mum va saqichlar joylab, ismini qiz hayron, zebigar-don qo'yub, besh-o'n so'mga sotishni yaxshi ko'rurlar. Tabib-larimiz dolchin, zanjabil, hubbul malik, filfil kabi bir necha attorni qutisida yo'q narsalardan murakkab doru va ma'junlar yasab, bechora nodon xalqni pulini olishni yaxshi ko'rurlar. Mashshoq va hofizlarimiz to'y va bazmlarga bir mardakni(ng) ismini bachcha qo'yub, o'zлari ila barobar olib yurub, «milliy adabiyot» o'rnig'a «Xonim yalola, begim yalola» deb bach-chaga tashlanayotgan pullarni bo'lub olishni yaxshi ko'rurlar. Savodxonlarimiz jarida va jurnallar, tarix va ro'monlar o'rnig'a Daqyonus zamonidan qolg'on, xurofotlar ila to'lg'on «Andog' urdilarki, gard-gard bo'lub ketdi», – deb loflar yo-zilg'on kitoblarni og'izlarini qufurturub o'qumoqni yaxshi ko'rurlar. Yigitlarimiz milliy majlis va suhbatlar o'rnig'a to'kma va samavarlarda, rasta va do'konlarda o'lturub, «Fa-lonchining o'g'li xo'b yaxshi bola bo'lubdur, kecha falon-chining mehmonxonasiq'a qamab, qiyqirtirub bazm qilduk. Emdi falonchining o'g'lini(ng) ham bir bazm qilsak, dunyo-dan armonsiz ketar eduk» deb, islomiyatdan uzog' insoni-yat nomiga yarashmagan ishlarni qilmoq va so'zlashmoqni yaxshi ko'rurlar. Yoshlarimiz ilm va ma'rifatli bo'lishni, hu-nar, san'at o'rgonishni o'rnig'a, o'zlariga zeb berub tor shim

ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo'yishni yaxshi ko'rurlar. Ishchilarimiz ilm va hunardan mahrumligi sababli boshqa millatlar ilm-u ma'rifatlari soyasida kuniga 4–5 so'm ishlab turgan bu zamonda kuniga uch tangag'a mardikorlikni, oyig'a o'n besh so'mg'a qorovullikni, yigirma so'mg'a fanar yoqishni, o'n so'mg'a ko'nka yo'lini tozalashni va shularga o'xshash eng past va og'ir xizmatlarni yaxshi ko'rurlar. Bolalarimiz otalarimizning ilm qadrin bilmagan, ilm uchun pulni ko'zları qiymaganlik sababli o'qumoq va o'rganmoq o'rniga «Oh pul, jonim pul», – deb «tashishka» – hammollikni yaxshi ko'rurlar. Muharrirlarimiz ko'b-ko'b oqcha olib, oz-oz yozishni yaxshi ko'rurlar. Mushtariylarimiz foydali maqolalar o'rnig'a xabarlarni yaxshi ko'rurlar. Dumalarimiz majlisga kelub, ustulga suyolub farog'at qilub turg'on vaqtlarida, bir tarafdan qattig'roq tovush chiqsa cho'chib uyg'onishni yaxshi ko'rurlar. Shoirlarimiz milliy she'r va adabiyot yozishni o'rnig'a muvashshahmi yoki «qoshingdan, ko'zingdan», – deb, javonlarni maqtab fasod axloqg'a sabab bo'ladurg'on she'rlar yozishni yaxshi ko'rurlar. Ammo men bo'lsam, hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko'rurman.

O'Z SHAHRIMDA SAYOHAT¹

Ko'ramanki, ba'zi odamlar sayohat qiladilar. Jarida va jurnallarga qilgan sayohatlarini, ko'rgan-kechirganlarini oqizmay-tomizmay, ignasidan ifigacha yozadirlar. Man ularning yozganlarini ko'rub, achchig'im chiqub aytur edimki, «sayohat nima degan gap, mundan nima ma'no chiqar?» deb. Emdi biroz aqlimni boshimga yig'ib o'ylab ko'rsam, tushunsam,

¹ Maqola «Sadoyi Turkiston» gazetasining 6-yanvar sonida sarlavhasiz bosilgan. Mazmunidan kelib chiqib shunday nomladik.

ko'z oldimga allaqancha foydali ishlar va manfaatlik shaylar kelub chiqdi. Masalan, bir kishi o'z shahridan chiqub, o'zga bir viloyatga borsa, ul yerdagi insonlarning turmushidan, ilm va ma'rifatidan, hunar va san'atidan, til va adabiyotidan, qiyofat va hay'atidan, sha'n va shavkatidan, hol va qutidan, qadr va qiyamatidan, savdo va tijoratidan xabardor bo'lub, o'ziga va o'z millatiga foydalik allaqancha hissa va ma'lumotlar olur ekan. Emdi men ham o'zumga jazm qildimki, bir sayohat qilsam deb. Lekin bir tarafdan yo'qligim, ikinchi tarafdan yordamsizligim asar qilub, bir tarafga bormoqg'a yo'l bermas edi. Himmelik bir kishi yo'qli, «Mana, Indamas afandi, bu oqchani ol, sen ham bir sayohat qilib kel!» – desa. Emdi, nima qilay, boshqa viloyatlarga bormoqg'a kuchim yetmasa, Xudo bir mo'may-roq pul berganda qilarman-de. Ungacha hech bo'lmasa o'z shahrimni aylanub, sayohat qilub turay, deb, uyimdan chiqub, rasta va bozorlarni aylanmakchi bo'ldum, yo'lda ketaturub, ko'nka arobasiga tushtum. «Yurganda yuragim elanur» deganidek shundog' qattig' sovuqda ko'kragi va yelkalari ochuq bir necha musulmonlarni ko'rub onlarga boqub:

Bayt:

*Diningiz Islom-u ismingiz musulmon sizi,
Shaklingiz insoniyatdan qancha o'zg'ondir sizi, –*

deb, ko'nkadan tushub yo'limga jo'nab ketdim.

Andog' narirog' borsam, qaysi ko'z ila ko'rayki, bir musulmon bir baqqol ila yoqalashub, mushtlashub xotun demay, qiz demay, og'iz demay, bo'g'iz demay so'kishub turib-durlar. Va bir necha musulmonlar orachilab o'rtaga tushub, olarni zo'rg'a ajratub qo'ydilar. So'radimki, baqqol aka, nima talashub urushdingiz?

Baqqol: Ey o'rtoq, nima so'raysan? Olti oy bo'ldi, nasyag'a mol olg'onig'a, emdi pulni ber desam, yoqalashub ketdi.

Bayt:

*Birovga nasya qilma, ey do'kondor,
Olur vaqtingda mushtlashmoq na darkor, –*

deb, yo'limg'a jo'nab ketdim. Mundan narirog' borsam, bir sa-mavar – choyxona ichi to'la musulmon, bir-birlari ila chag'ir-chug'ir so'zlashurlar, og'izlarig'a bodi kirib, shodi chiqadur. So'zlashvotgan so'zları avbosh¹ning kafshiga o'xhash poy-ma-poy.

O'yla bir «yaxshi» va «mazali» so'zlar so'zlashurlarki, kurak bir tarafda tursun, zanbilda ham turmaydir. Xayr, bizim millatning yoshlaringin ahvoli shunday bo'lsa, kimdan yax-shilik umid qilamiz.

Bayt:

*Millating avlodi sizlar bo'lsangiz, ey yoshlar,
So'zlarizingizg'a yilonlar po'st tashlarni boshlar –*

deb, yo'limg'a jo'nab ketdim. Mundan biroz yurub, bir madrasaning eshikiga borib yetdim. Madrasaning ichiga kirib bir mullabachchalarning ahvolini, dars va munozaralarini, tak-ror va mutolaalarini, imtihon va mukolama²larini ko'rmoqchi bo'ldim. Madrasaning hujralari butun mullabachchalar bilan to'lg'on, har bir hujralardan munozara va mukolama qilg'on mullabachchalarning tovushlari quloqlaringizni jangarlatub yuboradur. Butun hujra gumbazlarini boshlarig'a ko'taradirlar. Bir hujraning eshikig'a borub, quloq solsam, birgina «alif-lom» to'g'risida allaqancha janjal va munoqashalar chiqarurlar.

¹ Avbosh – bebosh.

² Mukolama – suhbata.

Biri: «Bu yerdagi alif-lom «ahdi xoriji», bri deyurki yo‘q, «ahdi zehniy», bri deyurki, «yo‘q, jins», yana bri: «yo‘q, bu yerdagi alif-lom «istig‘roq», – deb, har birlari o‘z so‘zlarin maqbul qilmak xususida qancha dalil va misollar keltirar edilar. Ikinchi hujraga borub quloq solsam, bir jumla xususida bir necha mullabachchalar sug‘ro¹ va kubro²lar tartib etub, munozara va munoqashalar qilur edilar. Mundan borub darsxona eshikig‘a quloq solsam, domla hazratlari bir necha mullabachchalarga «Sharhi mullo»dan butun xavashlar ila jihor qiroat³ qilub, dars berib turubdirlar. Va ul dars o‘qub turgon mullabachchalarning aksari ila tonishdig‘im borlig‘idan quvvayi ilmiyalari manga ma’lum, faqat matn o‘qumoqg‘a zo‘rg‘agina kuchlari yetadurg‘on kishilar edi. Domla hazratlarining berub turgon darslari qozoqg‘a Bedil o‘qub bergen qabilinda o‘lsa kerak, deb xayolimg‘a kelub turg‘on vaqtda, bir mullabachcha yonimga kelub: «Kimda ishingiz bor, nima qilub yurubsiz?», – dedi. Man mulлага: «Madrasangizda fiqh, hadis kabi ulumi diniyadan dars etadirg‘on domla bormi?» – desam, mullabachcha: «Yo‘q, birodar bizlar avval shul siz aytgan ilmlarning arra-teshasini, ya’ni asbobini o‘quymiz. Bizlar shul nahv⁴, sarf ilmini yaxshilab bilub alsoq oyat, hadislarg‘a ham ma’no berub ketaberamiz», – dedi. Man: «Mulla aka, shul siz aytgan darajada bilabilmak uchun necha yil o‘qumoq kerak?» Mullabachcha: «Agar Xudo loyiq ko‘rgan bo‘lsa o‘n besh, yigirma yilda tamom qilamiz». Man: «Nimaga bиргина nahv-u sarf uchun shuncha ko‘b umr kerak bo‘lsun, tezroqda tamom qilib bo‘lmaymi?» Mullabachcha: «Bizning yigirma yil deganimiz «hisobda bor, hamyonda yo‘q» qabilindan bo‘lub, faqat yil hisobi ilagina yigirma

¹ Sug‘ro – kichik.

² Kubro – katta, ulug‘.

³ Jihor qiroat – Qur‘on suralarini ovoz chiqarib o‘qish.

⁴ Nahv – morfologiya.

bo‘ladir. Ammo kun hisobig‘a kelganda hisobimiz chatoq». Man: «Nima uchun chatoq bo‘lsun, bir yil o‘n ikki oy, qamariy hisob birla 354 kun, shamsiy hisobi birla 366 kun bo‘ladir-da». Mullabachcha: «Ey birodar, bir yil 366 kun bo‘lishini bizlar ham yaxshi bilamiz. Siz butun yil, butun oy va tun-kun o‘qiydir deb o‘ylaydirg‘ondirsiz, yo‘q, bizlarda olti oy tahsil, olti oy ta’til, ya’ni haftada to‘rt kun tahsil, uch kun ta’til degan gap bor. Mana shul to‘rt kun ichida har kun bir soatdan dars o‘qusak, bir yili komilda necha kun dars o‘qug‘on bo‘lamiz?» Man: «Olti oy, haftada to‘rt kun, har kun bir soatdan dars o‘qusangiz, bir yili komilda 136 soat dars o‘qur ekansiz. Ammo tartibli madrasadarda bu sizning bir yilda o‘qug‘on darsingiz haftada olti kun, har kun olti soatdan o‘qub, to‘rt haftada tamom qilurlar». Mullabachcha: «Birodar, bu aytvotgan so‘zingiz tushingizmi, o‘ngingizmi? Qayda ul siz aytgan madrasalar? Bizning Toshkand madrasalarining har birida shul tariqa o‘qiladur. Balki Buxoriyi sharifda, Ho‘qand, Andijonda, Marg‘ilonda, Namanganda ham shunday tartib birla o‘quladur?» Man: «Mulla aka, man sizga Turkiston madrasalarini aytmayman, Qozonda, Ufada, O‘rinburg‘da, Istanbulda, Misrda, Makkayi Mukarrama, Madinayı Munavvarada ham shul tariqa haftada olti kun, har kun olti soat dars beradiring‘on tartiblik madrasalar bor. Mana ko‘b uzog‘ga ketmasdan yaqing‘ina hukumatimiz o‘lan Rusiya maktablarining ham ibtidoyisidan boshlab to dorilfununlarig‘acha haftada olti kun har kun 5-6 soatdan dars o‘quladur». Mullabachcha: «Birodar, siz manga rus maktablarini ko‘rsatasiz, man ruscha o‘qimoqchi emasman, avval siz aytgan Qozon, Ufa madrasalarida ham ruscha o‘qitiladir deb eshitaman. Ammo man ruscha o‘qub tilmoch bo‘lmoqchi emasman. Xudo xohlasa, o‘quшимни tamom qilub, mullo bo‘lg‘onimdan so‘ngra bir yerga imom bo‘lmoqchiman», – de-

di-da, nafasini ichiga olub, uzun bir oh tortub yubordi. Man: «Xayr, janobi Haq umringizga, ilmingizg'a barakat bersun, tezgina tamom qilub maqsudingizg'a yetingiz».

Bayt:

*Har kimni ishi emas ulog' ovlamoq,
Madrasada yotub tuprog' yolamoq, –*

deb, indamasdan to'g'ri uyimga qarab jo'nab ketdim.

KAYFIM UCHDI¹

Bir kun tomosha bog' yonidagi Kaufman gubirnaturning haykaliga yaqin bir chorpojada hushum og'ub o'l turub edim. Toshkandimizning mashhur boylaridan birining bir aqllik oti bo'lur ekan. Mazkur boyning bankg'a to'laydurg'on «platuji» bo'lur ekan. Boy afandi shul kuni to'lovni esidan chiqarub, to'ydam, ziyo fatdami to'lovdan ko'ra oshovni g'animat bilib, kayfi safo qilib yurgan bo'lur ekan. Jonivor o'rgangan ot ni ko'rsangiz, «vaqt o'tmasun, veksil natariusga chiqmasun», – deb, quruq kalaskani taraqlatub olib qochub, kelib to'g'ri podshohlik bankining eshidiga to'xtadi. Insof qiling. Boy afandi to'yda yursa, to'lovga to'laydirgan oqcha uyda tursa, jonvor aqllik ot Hulokuning itidek yugurub yursa, borsa-yu veksilning muddati o'tub, protes bo'lub qolsa, bechora otning chekkan mehnati bekorg'a ketarmukin? – deb munda bir «hangim uchdi».

O'l turgan yerimda o'zumdan o'zim dunyoning bevafoli-g'idan, hozirgi zamonda ba'zi boylarimizning makkorlig'idan shikoyat qilub turub, yuqorida mazkur boy afandining oti

¹ «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 11-iyul sonida bosilgan.

quruq kalaskani olib qochganiga o'xshash meni ham xayol olub qochub, uyqu dunyosining eshigiga olub borub to'xtabdur. «Belboqsizni tushiga ikki qari(ch) bo'z kirar» deganlaridek, tushimda ajib bir voqeani ko'rdimki, shunday bir qiziq voqeani jonli suratda ham ko'rganim yo'q edi. ... – Boy... – Boy o'g'li degan bir boy hamma yor-u birodarlarini chaqirub, ulug' bir ziyofat qilub, iltimos qiladirki, «Birodarlar! Meni holim tang, bu passajim bitkuncha yordam berishing, hasharga ishlashing, bo'rkingizda bilingki, qarashmasangiz kuchlab ishlataman», – deb turgan bir zamonda guldiros ila passaj og'anab ketdi. Va bu passajning soyasida o'Iturgan ziyofatxo'r bir necha boy va boyvachchalarni bosub, ezub suyaklarini sindirub, mayda-mayda qilub yubordi. «To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq barobar yonar» degandek bularning kuyishi, ko'zum uyquda bo'lsa ham manim ustixonimni o'rtadi. Ajabo, tushimmi, o'ngimmi, – deb munda bir «uyqum o'chdi». Shul vaqt yonimg'a bir mirshab kelub: «Tur! Burda o'turma!» – deb siyosat qildi. Munda bir «kayfim uchdi».

Xayr, mundan borub «ko'nka» ila Piyonbozorga tushdim. Bir chorpojada o'Iturub, xafalig'im shoyad tarqalsa, deb «Sadoyi Farg'ona» jaridasini olub mutolaa qildim. Munda ham nimani ko'rayin «Mullo A. A. qoriga idora javob yozmoqchi bo'lgan ekan, qalami o'rgumchak og'iga ilinib qolibdur. Ho'qand ulamolari ajratib olishdan ojiz bo'lub, O'rburg'dan Rizo qozini chaqirubdilar. Agar, bordi-yu, Qozi afandi iltifot qilmasalar, qalamlarini kim oyurub olur ekan?» deb munda bir «kayfim uchdi».

ZAKOT¹

Hozirda ramazonchilik, hamma ro'zador, hech kimning qu-log²iga gap kirmaydurgon vaqt bo'lsa ham vaqt o'tmasun deb, ustimizda farz bo'lgan ulug' ibodatlarning to'rtinchisi bo'lgan zakot xususida biroz so'ylamakni munosib ko'rduk. Chunki bizim Turkiston boylari mol va dunyolarining hisob-u kitobini ramazon oyiga to'g'ri kelturub, faqir va miskinlarga beradigan zakotlarini(ng) ham ramazoni sharifda berib, gardanlariga yuklangan farzi Allohni ado qilmak harakatida bo'lurlar.

Hammaga ma'lumdurki, janobi Haq bizlarga bir yil bir martaba qarzdan va hojati asliyadan, ortuqcha pul va mollardan va hayvonlardan har qayusini o'z nisobi ila zakotini chiqarub musriflariga, ya'ni egalariga topshurmakni ustimizga farz va lozim qilmishdir. Farzlig¹iga hammamiz iqror va lekin chiqorub bermak ba'zi himmatlik boylarimizga oson bo'lsa ham ba'zi qurumsoq boylarimizga og'ir va qiyinlik qiladir. Faqir va bechora, beva va yetimlarning haqiga katmon² qilib ustlariga adosi lozim bo'lgan zakotni bermasdan, dunyoni qizg'onub, fuqarolarning haqiga jabr qilmak ila barobar o'zlarini azobga giriftor qilurlar. Ba'zilari hiyla va firibgarlik ila beva va bechoralarning haqiga jabr qilib, «Oldingmi? – Oldim. Sotdingmi? – Sotdim» qabilida o'lukg'a davra qilg'ondek qilib, mollarining chiqindisi – chirki o'lan zakotni o'zlariga qaytarub olub qolurlar. Ajabo! Shul mudbir zotlar bilmaslarmiki, janobi Haq hiyla va tadbir qiluvchilarning hiyla va tadbirlarini biluvchidir. Yohu, hiyla ila farzi Allohni ado qilib bo'lurmi? Jabbori A'zamning qiyomat azobidan tadbir ila qutulub bo'lurmi? Vaholanki, janobi Haq munday hiylagarlarhi(ng) qiyomatda shishaga solub azob qि-

¹ «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 18-iyul sonidan olindi.

² Katmon – yashirish.

lur emish. Dod, faryod qilsalar farishtalar: «Nimaga dod-vovaylo qilursan, bizlar sizni kuydirvotganimiz yo'q, shishani kuydirvotmiz», – deb xitob qilur emishlar. Har narsaning ifrot-u tafriti durust o'lmadig'i kabi zakotning ham birdan birovga qirq so'm chamasida ko'plab bermoq yoxud ba'zi boylarg'a o'xhash bir tiyiniki tiyinlik oyinami, o'lukg'a yirtish bergandek bir gaz, yarim gaz chitmi va shularga o'xhash oz baholik va hech narsaga arzimaydigan narsalarni bermak durust bo'lmasa kerak. Chunki janobi Haq sadaqayı fitrani(ng) har bir kambag'alga ovqat bo'lub qorni to'yodurgon darajada buyurmishdir. Zakotning ham eng ozi hech bo'lmasa, bir kambag'alning bir kunlik ovqatiga yetadurg'on bo'lqa, toki ul bechora yeb-ichib qorni to'yub, bir kunlik ochlik balosidan qutulub, zakot beruvchining haqiga duo qilsa, yaxshi va savobliroq bo'lur edi. «Jondan kechmasang, jonona qayda», – deganga o'xhash kishi sadaqa qilg'onda ham eng yaxshi ko'radirg'on narsasini sadaqa qilmak lozimdur. Hammaning ma'lumidirki, dunyoda hammaning yaxshi ko'radirgan narsasi puldir. Yetti yoshardan yetmish yoshargacha pulni yomon ko'radirgan kishi dunyoda yo'q. Ham «Oh pul, jonio pul», – deb pulning hajrida o'zini qurban qiladir. Shuning uchun muhtaram zakot beruvchilar, faqir-u miskinlarga bir miri, yarim mirilik o'taro'tmas mol berib, kambag'al bechoralar ul molni ko'tarib, bozorg'a olub borib, bir kun ishdan qolub o'n tiyinlik molni bir miriga sotub, sarson-u sargardon bo'lub yurganlaridan ko'ra osongina hamda savobi ko'proq bo'lgan pulginaning o'zini berib qo'ya qolsalar, o'zlariga oson, ojizlarga sevinch va shodliq bo'lur edi. Janobi Hofiz Sheroziy debdirki:

Bayt:

*Bar in ravoqi zabarjad navishtand bezar,
Ki, juzi nekuyi ahli karam naxohad mond.*

Tarjimasi:

*Zabarjad toq uza oltun bila bu so'z yozilmishdur,
Karam ahlining ehsonidin o'zga qolmag'ay boqiy.*

SANOYE NAFISA¹

Inson bolalari eng eski zamonlarda yirtqich hayvonlardan o'zlarini saqlamoq uchun tog' teshuklarida, g'or (mog'ora) larda yashagan vaqtlarida tinch yotmaganlar, jim turmaganlar.

Sekin-sekin tog' teshuklaridan boshlarini chiqarib, tabiatning yasagan va o'sdirgan, vujudga chiqargan jonliq va jonsiz narsalarini sinchiklab tekshirib qaray boshlaganlar. Ko'ngillariga yoqishgan, ko'zlariga yaxshi ko'rungan hayvon va boshqa narsalarning rasm, haykallarin (*gavdalarin* – A. A.) qanday qiyinchiliqlar bilan bo'lsa-da, toshlarga, toshlaridan va temirlardan cho'kichlar yasab, suratlarini, rasmlarini o'yanlar. Kelgusi uchun yodgor qoldirganlar.

Masalan, iki kiyik bir-biri bilan suzishib turganligi yoxud bir tog' takasining semirub ko'grab yurganligi yoki bir tog' buqasining baqirub, hayqirub, dumini xoda qilub, ozod va sarsin yurganligi yoki yirtqich hayvonlarning boshqa hayvonlarga qilib turgan zo'rliq va yirtqichliqlarin ko'rganlarda, mutaassir bo'lganlar. Mana bu dillaridagi ta'sir va hissiyotni to'xtata olmaganlar va shu hissiyot to'lqunini o'zlaridan so'ng qoladirgan bolalariga anglamoq niyati bilan ming mashaqqatlar bilan toshlarga o'yib qoldirg'onlar. Mana bu gavda (*haykallar* – A. A.) lar bizlarga ishlangan (*yodgor* – A. A.) eskartmalardir.

¹ Ushbu maqola «Inqilob» jurnalining 1922-yil 1-sonidan olingan. Uni adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov nashrga tayyorlagan.

*Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor,
Har varaqash tabiat ro'zgor¹ –*

Mana bu dunyo yuzida inson bolalarining sanoye nafisaga qo'ygan birinchi odim (*qadam* – A. A.)lari hisoblanadir.

Olar shuning bilan to'xtab qoldilarimi?
– Yo'q!

Yana shul tekshirish, sinchiklashdirishlarinda davom qildilar. Hayvonlarni tekshiruvdan so'ng qushlarni surishdirishga o'tdilar. Bahor mavsumlarida chechaklarning hajrida mast bo'lib sayragan qushlarning yoqimli tovush (*sado* – A. A.)lari hushlariga o'tirdi-da, onlar ham ixtiyorsiz ravishda shu qushlarga tovushlarin o'xshatmoq, go'yo qush kabi sayramoqchi bo'ldilar.

*Sayra bulbul, sayra, chinorni shoxi sinsun,
Yor ayrilaman dedi ayrilib ko'ngli tinsun –*

deyub ular ham nag'ma ashula qila boshladilar. Mana bu davrni sanoye nafisaning adabiyot davri deyilur. Lekin avvalgi san'atlariga qaraganda so'nggi san'atlari avvalidan muhimroq va yaxshiroq bo'lib, mutaassir bo'lmoq har kimga nasib bo'lmas edi.

Uzoq yerdarda yashovchi o'rtoqlari kelub ko'rmoqlari lozim kelardi. Ammo bul ikinchi ishlab chiqargan san'atlarin shundog' qulayligi bor edikim, tildan tilga, og'izdan og'izga, eldan elga ko'chub yurardi.

Shundog' qilib, shodlik kunlarin shodlik qo'shiqlari bilan tasvir qilsalar, g'amlik kunlarin qayg'uliq ashulalari bilan izhor qilar edilar:

¹ Daraxtlarning har bir yashil bargi Hushyor nazarida, bu turfa olamning varaqlaridur.

*Bulbulim uchdi qo'lumdan qayda mehmondir bukun,
Bulbulimni yo'qotib, ko'nglim parishondir bukun.*

Go'zallaridan, mahbubalaridan, borlaridan ajralganliklarin boshqa o'rtoqlariga ham ma'lum qilar edilar. Bora-bora shunga ham qanoat qilmadilar.

Daraxtlarning shoxlariga ilinib qolg'on hayvonlarning ichaklarin havoning ta'siri bilan qurib, shamolning ta'siri bilan «ting'ir-ting'ir» qilgan tovushi (*sadosi* – A. A.) ko'ngullariga o'turdi, xush keldi.

O'zlarining ashula va qo'shiqlariga jo'r-jo'ravoz qilmoq uchun hayvon ichaklaridan «tor» yasab musiqiy asboblarin yuzaga chiqardilar. Bu san'atlari avvalgilariga qaraganda eng nafis, eng muhim, eng ruhlik bir san'at bo'lib chiqdi.

Lekin onlar bu san'atlarni tekshiruv va qayg'iruv orqasida chiqordilar-da, bizlarga yodgor o'laroq qoldirib, o'zlar ko'zdan nihon o'ldilar.

«*Inqilob*» *jurnali*, 1922, 1-son, 41-bet.

Bizim
ko‘hna
paraxo‘dimiz
dushmanning
to‘rt soatlik
yog‘dirgon
o‘qiga
chidash berdi

AFG'ON SAYOHATI¹

1336-hijriy 16-ramazon
1919-milodiy 15-iyun

1919-milodiy 15-iyunda kech soat 6 da Toshkandan Afg'oniston²ga qarab harakat qilduk. Bizim ila birga mashhur mustashriq²lardan o'rtoq Brovin ham bor edi. O'rtoq Brovin bir necha Yovrupo tillarin bilmoq ila barobar mukammal forsi tilini (ham) bilurdi. Bizlar ila birga Turkiston Jumhuriyatining «voyenni attashe» – harbiy qo'misari o'rtoq Ivano'f, savdo va tijorat sho'basi tarafindan o'rtoq Kuliko'f, siyosiy

¹ 1978-yilda Avloniy tavalludining yuz yilligi munosabati bilan shoirning shaxsiy arxivini ko'zdan kechirar ekanmiz, Afg'oniston safari kundaliklariiga duch kelib qoldik. Abdulla Avloniy respublika partiya va hukumatining topshirig'i bilan 1919-yilda RSFSR Tashqi ishlar xalq komissariatining vakili N.Z. Brovinga muovin tayinlanib, Afg'onistonga borgan. O'sha yili sentabrda afg'on hukumati bilan olib borilgan muzokalararning barchasida ishtirok etgan. 1919-yilning 26-oktabridan 1920-yilning 28-iyuliga qadar Sho'rolarning Hirotdagi muxtor elchisi bo'lib turgan edi. Bu ma'lumotlar shoir tarjimayi holida, shaxsiy arxividagi qator hujjatlar, xususan, Afg'oniston safariga oid rasmiy hisobotlarida bor edi, albatta. Chunonchi, Avloniy va uning hamrohlari Toshkentdan Kobulga 68 kun deganda yetib borganliklari, yo'lda juda qattiq qiyinchiliklarga duch kelganliklarini bilardik. Shunga qaramasdan, kundaliklarning topilishi katta voqeа bo'ldi. U avvalo, xalqimiz, mamlakatimiz tarixida g'oyat og'ir bo'lgan 1919-yil voqealarni, ochlik, vayrongarchilikni samimiyl va ro'yি-rost yetkazgani bilan muhim edi.

Ikkinchidan, kundalikning uzoq vaqt yorug'lik ko'rmay kelganligi sabablari ham anglashilgandek bo'ldi. Muallif milliy munosabatlarda o'sha paytlari ko'zga tez-tez tashlanib qoladigan shovinizm xususida fikr yuritgan edi.

«Afg'on tufrog'iga o'tgandan so'ng o'zini jenerol-chor noil e'lon qilgan», «xatti-harakatidan Nikolayning generallari raftorindan» qolishmagan N.Z. Brovin hamda bolshevik libosidagi kolonizatorlar TurkMIK raisi A.A. Kazakov va XKS raisi K.Ye. Sorokinlar haqida keskin fikrlar aytgan edi.

Eng muhimi, ozodlik va tenglik va'da qilgan rus inqilobining riyokorligini, sho'ro hukumatining xiyonatini fosh etgan edi.

«Afg'on sayohati» qora muqovali qalin daftarga qizil siyohda muallifning o'z qo'li bilan yozilgan. Hajmi 79 bet. Qo'lyozma musavvada – qoralamaga o'xshaydi. Tuzatish va kiritmalar, takrorlar, sahifalarni raqamlashda chalkashliklar ancha bor.

Undan lavhalar dastlab «O'zAS»da (1989-yil 35-son, 25-avgust) e'lon qilindi. So'ng «Sharq yulduzi» journalida (1990-yil 7-son) juz'iy qisqartishlar bilan chop etildi (182—200-betlar). Kundaliklar muallif qo'lyozmasi asosida nashrga tayyorlandi.

² Mustashriq – sharqshunos.

qo'misar o'rtoq Ziboro'flardan boshqa bir necha texniklar, havo tilgiromchilari, aftomobil ustolari, o'n bir nafar qizil askarlar ham bo'lub, bular(ning) 9 nafari musulmon edi. Bulardan boshqa Afg'onistonidan, Turkistonga kelmish afg'on hay'ati vakolasindan Abdulrahimxon ila birga elli(k) afg'on askari va bir sartarosh ham bor edi.

- 1) Abdulrahimxon valad¹i Abdulqayyum – amir(n)ing mirzosi;
- 2) Qandilxon valadi Mehrdilxon – amir(n)ing mulozimi;
- 3) Sohibxon valadi Abdulkarimxon – amir(n)ing mulozimi;
- 4) Usto Abdulg'ani valadi Abdulrahmon – amir(n)ing sartaroshi.

Bulardan boshqa hind inqilobchi firqasindan Z.X. Zikriyo afandi-da bizlar ila yo'ldosh edi. O'rtoq Zikriyo afandi lisoni forsni(ng) mukammal bilmog'i ila barobar inglizcha mukammal so'zlasha bilardi, oz-moz ruschada so'yplashurdi.

16-iyunda kech soat 8 da kelub, **Xavos** istansasida qolduk. Yo'llarda bo'(l)sun, istansalarda bo'(l)sun, yalang'och, avrotlari ochuq, kiyimlari pora-pora musulmon xotin-qizlari, yosh-yosh bolalar ko'rildi. Albatta, ilmsiz va tarbiyatsiz, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning hol-ahvollari birgina O'rta Osiyo yo'linda emas, butun Turkistonning hamma o'lkasinda sho'yla fano va ayanch holda ekanlig'in hech kim inkor qilmaydi... Bizim Turkistonda har yerda hozirda ish boshinda o'lturgon rus tovarishlarimizning o'zlari ish boshig'a o'lturub olub, o'zlari oshalab, biz musulmonlarga yalatuvlarining natijasidur.

Mazkur aholilardan so'ralganda, alhamdulilloh, bu yil bulturgiga qaraganda hollarimiz yaxshi. Bu yil faqat yalang'och bo'lsamiz ham biroz yemaklikg'a gadolik va tilanchilik qilub umr o'tkaramiz. Agarda bultur kelgan bo'lsangiz edi, bul yo'lda

¹ Valad – o'g'il, farzand.

«oh, non!..» deb jon berib yotgan musulmonlarni ko'rар edi-niz, deya bu hollariga ham shukur bayon qilardilar.

17-iyunda saboh soat 8 da Xavosdan **Samarqandg'**a qarab ravona bo'lduk. Bizim bu mingan madaniyat ayg'irimiz pishqira-pishqira ravon bo'ldi. Hozirda Turkistonda yer moyi – dugut – qora moy oz o'ldig'indan o'tun yoqilub yurardi. Bu madaniyat moshinamizg'a o'tun yoqiladig'indan bu ayg'irning og'zidan yo'lning har iki tarafiga o'tlar sochilurdi. Yo'lning iki tarafida oftobning harorati ila qoq bo'lub yotgan o'tlarni(ng) gurullatib yondurub yuborurdi. Xususan, kechalari yo'lning iki tarafidagi o'tlarning moshinadan tushgan uchqundan yonmog'i-la charog'on bo'lur edi. Nogahoniy o'laroq bizim moshinamizding o'ti so'nub, iki soat yo'lda to'xtab qoldi. Shul vaqt bir necha bizim qirmizi askarlar ila (Ap...)¹ vagon xizmatchilari ro'baro'mizdagи faqirgina bir odamning bog'iga devoridan oshub tushub, o'ruk va olmalarin olub, yemoqg'a boshladilar. Bir necha xotunlar kelub, yig'lashub, «Biz faqirlarning ozgina mevamizni(ng) sizlar yeb ketasiz, bizlar qish kunida nima yeb ovqat qilamiz», – desalar-da quloq soladurgon kishi yo'q edi. Rahm qilmoq o'rnida hatto xotun bechoralarni(ng) mushtlab urardilar. O'rtoq Brovin yonimg'a kelub:

– Avloniy afandi, siz ijroiya qo'mita a'zolaridansiz², yuring, birga borub, onlari firtaqo'l qilamiz, – deya, ikimiz birga onlarning qoshiga boruvimiz ila yerlarina qaytdilar.

17-iyunda kech soat 4 da **Samarqand** shahriga yetushduk. Bu kecha Samarqand istansasida qolduk. Ertasi Toshkandan o'rtoq Ivano'f o'rtoq Kazako'f ila yetub keldi. Chunki bu(n)-lar bizdan bir kun so'ng Toshkandan chiqg'an bo'lsalar-da, bularning mingan madaniyat ayg'irlarining yemi yer

¹ Muallif qisqartmasi, tushunib bo'lmadı.

² 1919-yil 7-31-martda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston Sovetlarining Fav-qulodda VII syezdida Avloniy Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti (TurSIK) a'zosi qilib saylangan edi.

moyi o'ldig'indan tez chopar emish. Shuning uchun iki kunlik yo'lni bir kunda tay¹ qilmishlar. Kech soat 4 da Buxoroga qarab jo'naduk.

18-iyunda kech soat 4 da **Buxoroga** erishduk. Bu kecha Kogonda qolduk. Kech soat 9 da Kogon ijroya qo'mitasining idorasida maxfiy majlis bo'ldi. Bu majlisda aksari Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining a'zolari hozir edilar. Majlisga raislikni Kazako'f ado qildi. Majlis yopiq o'ldig'indan bu majlisda hal qilingan masalalarni(ng) ochiq yozmoq mumkin emasdir.

19-iyunda saboh soat 10 (da) butun **Kogondagi** qizil askarlarning ko'rigi bo'ldi. Turkistonda bиринчи о'лароq барпо qilingon boyevoy poyezd – harb otash arobasining yo'lga qo'yiluvi munosabati ila hamma hukumat arboblari tarafindan turli mavzu'da nutqlar so'ylandi. Hamda buradagi qirmizi askarlarg'a TurSIK tarafindan qizil alvon bayroq taqdim qilindi. Soat 11 larda Marida burada² Toshkanda muallimlik vazifasida ko'p vaqtdan beri xidmati ila tanilg'on uch turk zabit(lar) ining qo'lg'a tushub, turmada yotganliklarin xabarin manga erishdirdilar. Buradan jo'namog'imiz soat 12 da o'ldig'indan bir soat ichinda qo'limdan kelg'uncha harakat qilsam-da, onlarni(ng) borub ko'rmoqg'a mumkin o'lmadi. Bul xususda Kogon prezidenti Pechyoniko'fg'a, Kazako'fg'a uchrab, mazkur mahbuslar xususida so'ylashdim. Onlardan olg'on javobim «Bu ish osobiy otdelni(ng) ishi, bizlar qo'ldan kelguncha harakat qilub, bu(n)laring ishlarin tez ko'rilub, tamom qilinmog'iga harakat qilurmiz. Siz xotirjam bo'lingiz!» – deya meni quruq so'z ila qanoatlantirdilar. Faqat nachora, quruq so'zga yupanub, vaqtim o'lmadig'indan soat 12 da madaniyat yo'rg'amizga minub, Kogondan harakat qilduk.

¹ Tay – yurish, o'tish.

² Burada – bu yerda.

Biroz yurgandan so‘ng yo‘lishlab yurgan bir necha qafqazlik birodarlar vag‘onimizning moshinasini(ng) oldini(ng) to‘sub to‘xtatdilar. Kazako‘f tushub, onlar so‘ylashgandan so‘ng manga qarab, «O‘rtoq Avloniy, borub onlar ila so‘ylashub keling, bularning orasida nima bo‘lgan ekan», dedi. Man borub, uzog‘da turgan buxoroliklar ila so‘ylashg‘onimda, ma’lum bo‘ldiki, o‘tin ila yuradirg‘on moshinadan o‘t chiqub, buxoroliklarning birmuncha bug‘doylarini (yo)ndurub yuborgan ekan. Shul sababli Buxoro fuqarolari temiryo‘l ishchilaridan iki boshliq(lar)ini tutub, qamab qo‘ygan ekanlar. Manim tarjimonim Abdulmatlab afandi ila ikimiz borub, ko‘b so‘zlar (bilan) buxoroliklar qo‘lindan iki qamalgan kishini(ng) qutqarub olduk. Buxorolikdan birini chaqirub kelub, Kazako‘f oldida Buxoroga, Kogonga tilgirom ila ahvolni(ng) ma’lum qilub, «Ayb bu ishchilarda emas, otash arobaning moshinasiда – bul ahvolni(ng) ma’lum qilamiz. Kogondan komissiya kelub, bug‘doylaringizni baho qiladur. Turkiston Jumhuriyatি zarar-burdingizni to‘laydi», – deb jo‘nab ketdik. Kech soat 12 da Chorjo‘yga yetushduk. Bu kechani Chorjo‘yda o‘tkarduk.

20-iyunda kunduz soat 10 da paraxo‘dga o‘lturub, **Karkiga** qarab jo‘namoqg‘a hozirlanduk. Paraxo‘dimiz o‘ziga kerakli nimarsalarin hozirlag‘uncha soat 2 bo‘ldi. Bizim bu suv ayg‘iri baqira-baqira janubga qarab so(at) iki yarimda jo‘nadi. Bizim bu tushgan paraxo‘dimiz nihoyatda eski bo‘lub hamda orqasida askar va urush asboblari yuklangan «barja» ismli o‘zi yuralmaydirg‘on dumi ham bor edi. Bu orqasiga boylab olgan dardi bedavo dumini Daqiyunus zamonasidan qolgan eski va churuk arqonlar ila boylab olg‘on edi. Chorjo‘ydan Karkiga borish bizim bu ko‘hna paraxo‘dimiz ila besh kunlik yo‘l bo‘lub, Karkidan Chorjo‘yga kelish iki kunlik yo‘l emish. Chunki dar-

yoning manba’iga qarab yurmoq bu ko’hna paraxo’dimiz uchun og‘ir o‘lub suvning mansabiga – oqadurg‘on tarafiga qarab yurmoq yengil emish. Bu Omu(r) daryoning borguncha iki taraf sohili kichik-kichik qishloqlardan iborat bo‘lub, yerning aksari Buxoro xonlig‘iga tobe’dur. Bu yerda vatan qilub o‘lturg‘on xalqlarning aksari turkmanlardir. Turkmanlar tabiat jihatindan nihoyatda g‘ayur va jasur, xudroy, ilmsiz, ... tutgan yerini kesadirgon xalqdirlar. Tabiiy daryo sohili o‘ldig‘indan yeri nihoyatda o‘sumlikdir. Har xil ekin va mevalar o‘sadi. Xususan bu daryo lablarida bitgan qobun butun dunyoga shirinlikda mashhurdur. Havosi mo’tadil o‘ldig‘indan odamlari nihoyatda sog‘lomdurlar.

21–22-iyunlarni(ng) daryo sohilinda kemamizni(ng) langarandoz qilub o‘tkazduk. Bizim bu kemamiz ko‘b eski o‘ldig‘indan ko‘b yeri suvg‘a botub yurar edi. Shul sababli ko‘b yerlarda daryoning sayoz yerig‘a to‘g‘ri kelub, qumg‘a o‘lturub qolub, kemachilar bir soat, iki soat ovora bo‘lub, bu «boboy kema»ni qumdan arang xalos qilurdilar.

23-iyunda kech soat 8 da eng xavflik atalg‘on **Burdaliq** ismli yerga yetushduk. O‘rtoq Ivano‘f ila o‘rtoq Brovin mening qoshimg‘a kelub, «Birodar Avloniy, Siz afg‘onlar ila bu qishloqg‘a borub, ahvolot olib keling. Chunki eng xavflik hisoblangan joy ushbu yerdir», – dedilar. Kech soat 9 da man, hindistonlik Zikriyo afandi hamda to‘rt afg‘on mehmonlar ila barobar Burdaliq qariyasiga borduk. Bir necha qo‘rg‘onchalar-ga borub, xabar olduk. Bu yerda Karki beklarining barmoqlari ila to‘plangan, bizim qarshimizg‘a hozirlang‘on askarlarining bor-yo‘qlig‘indan ma’lumot olg‘onimizda ma’lum bo‘ldiki, bul yerda bizimcha xavf qilingan dushmanidan asar yo‘q. Iki soat chamasida yo‘l yurub qishloqlardan iki tovuq, yigirma besh dona tuxum sotub olub, paraxo’dimizga qaytub kelduk.

Ulardan olg'on ma'lumotni(ng) kelub, o'rtoq Ivano'fga bayon qilduk. Bu kecha xotirjam Burdaliq sohilinda yotduk.

23-iyunning tongi otdi. Bizim-chun bu kung'i tong(ning) eng xavflik, eng dahshatlik edigi aytishindan ma'lum bo'lub turar edi. Saboh soat 4 da paraxo'dimiz Karki tarafiga qarab ravona bo'ldi. Yarim soat chamasida yo'l yurgandan so'ng o'ng tarafimizdan tu(r)kmanlar tirboron qilmoqg'a boshladilar. O'rtoq Brovin ila o'rtoq Ivano'f mening qoshimg'a kelub «Avloniy, siz borub, afg'onlar ila ul turkmanlardan ahvolot olub kelingiz!» – dedilar. Man mehmon afg'onlar hamda hindistoniy Zikriyo afandini(ng) olub, Abdulmatlab afandiga oq bayroq ko'tartirub, to'g'ri turkmanlarning arkoni harblariiga borduk. Bizlarni yirog'dan ko'rgan hamon iki otliq arkoni harbdan chiqub, bizim qarshimizga keldilar. Bul kishilarning ikkisi(n)da oltmis yoshlarinda, qo'llarinda miltiq, bellarinda qilich turkman beklarindan edi. Otlarindan tushub, bizlar ila ko'rishdilar. Hol-ahvol so'rashgandan so'ng, man:

– Bizlar sizlarg'a mehmonmiz. Daryo uzorindan Karkig'a borub, uradan Afg'onistonga o'tub ketamiz. Balki sizning askarlaringiz bizning kimlar ekanlig'imizni(ng) bilmasdan, balki bizlarni(ng) dushman hisoblab, otish ochgandirlar?

Turkman beklarindan biri:

– Bolam, siz bilganni(ng) biz ham bilamiz. Bizlar ruslar ila qirq yildan beri yashab, do'st kelduk. Ammo shul kunlarda oromiz buzuldi. Karkida ruslar bizlarga ko'b jabr-u zulmlar qildilar, bir necha beklarimizni tutub o'ldirdilar. Uylarimizni yondirdilar. Bola-chaqamizni ham o'ldirmoqdan toymadilar. Bizlar insoniyat nuqtayi nazarindan bunday xo'rliqg'a chidashg'a toqatimiz qolmadi. Hukumatg'a qarshu qiyom qilmoqg'a majbur bo'lduk. Yo najot, yo o'lim deya ishga kirishdik. Yo ishimizni(ng) o'ngg'arub olamiz, yo barimiz qirilub bitamiz.

Man:

– Sizlar Buxoro xonlig‘ina tobe’ kishilarsiz. Buxoro hukumatи bizlarg‘a tazminot¹ berub, yo‘lda sizlarga hech xavf-ha-ros yo‘qdir. Agarda sizlarga biror nimarsa vuqu’ bo‘lsa, bizlar javobgarmiz, degan edi. Bobo, sizlar nima uchun xonlari-ningizg‘a itoat qilmaysiz, oq bayroq ko‘tarub ketub yotgan bi-zim paraxo‘dimizg‘a otash ochdingiz?

Turkman begi:

– Bolam, bizlar qat’iyan qaror qilg‘animizki, Chorjo‘y ta-rafindan kelgan paraxo‘dni Karkig‘a o‘tkazmaslikg‘a. Bul xu-susda Buxoro amirining farmoni bo‘lsa ham itoat qilmasmiz. Bizlar qaydan bilamiz, ehtimolki, sizlar paraxo‘dda Karkig‘a yordamg‘a o‘q-yaroq olib ketayotgandirsiz.

Man:

– Bobo! Agarda sizlar paraxo‘dda yaroq-o‘q bor deb xavf qiladirk‘on bo‘lsangiz, ruxsat beringiz, bizlar qayiqg‘a tushub o‘tub ketayluk.

Bek:

– Yo‘q, bolam, daryo ichindan qayiq turub, chibinni(ng) ham o‘tkarmasmiz!

Man:

– Bobo! Bo‘lmasa, bizlar Afg‘onistonq‘a qandoq qilub ke-tamiz?

Bek:

– Bolam! Agarda sizlar xohlasangiz, sizlar bizlarning meh-monimizsiz. Elchiga o‘lim yo‘q! Sizlarning hammangizni biz-lar boshimizg‘a ko‘taramiz. Ot ila, aroba ila bir qo‘ndirub, er-tasi kun Afg‘oniston chegarasiga yetkurub qo‘yub kelamiz. Agarda bizim so‘zimizg‘a inonmasangiz, xat qilub muhr ham bosub beramiz. Sizlarning birortangizni burningiz qonasa, bizlar javobgardirmiz!

¹ Tazminot – kafolat.

Man:

– Biz ila birga ketub borayotgan bir necha ruslar ham bor, ularga nima deysiz?

Bek:

– Bolam, boy a senga elchiga o'lim yo'q, dedim. Kim bo'lsa bo'lsun, bizlardin ayirmasig'a qaramasdan, necha kishi bo'lsangiz, hammangizni o'tkazub yuboramiz.

Man:

– Bobo! Agarda bizlarg'a to'g'ri paraxo'd ila daryodan o'tub ketuvga ruxsat bersangiz bo'lmasmi?

Bek:

– Bolam! Man sanga bog'ona¹ dedim-ku, hech mumkin emas. Agarda bizlar o'tqarub yuborsak-da, yo'lda boshqalar bor. Alar o'tkarmaslar. Ushbu yerdan boshlab to Karkig'acha daryoning har iki tarafida askar bor. Mutlaqo sizlarni(ng) o'tkargani qo'ymaslar. Agarda mening so'zimg'a kirmasdan ilgari qarab yoursangiz, bekorg'a ovora bo'lasiz. Albatta, biroz yurgandan so'ng keyin qaytmoqg'a majbur bo'lasiz.

Man:

– Otajon! Bo'lmasa, man sizdan olgan ma'lumotni(ng) paraxo'ddag'i o'rtoqlarg'a borub so'ylayin, onlar nima maslahat ko'rsalar, shunga qarab ish qilurmiz. Balki tez yana yonningizg'a kelurman, – deya xayrashub, paraxo'dimizg'a qaytub kelduk. O'radan oling'on ma'lumotlarning hammasini kelub, paraxo'ddag'i arkoni harb va Afg'oniston hay'ati vakolasin jam' qilub, birin-birin so'ylab berdim va o'z fikrimcha, bek boboning so'zi to'g'ridur. Nima bo'lsa ham qaytmoq maslahat. Menimcha, o'tib ketmoq mahol ko'rinur, – dedim. Majlis mening fikrimg'a qo'shulmadi. Nima bo'lsa ham qat'iyan daryoni(ng) yorub, kuch ila bo'lsa-da, o'tub ketmoqg'a qaror

¹ Bog'ona – boy a, hali.

qildilar. Majlis asnosinda ba'zi o'rtoqlar, Kazako'f bizlarga har nimarsa bo'lsa ham ish qilub, urishsangiz ham daryodan Karkig'a bir iloj qilub o'tushga harakat qilingiz, degan edi. Turkmanlarda nima quvvat bor deysiz. Qars-qurs besh-o'n o'q otgan ila bo'ldi-qo'ydimi? Nariroq borub to'pdan, pulemyotdan, bo'mbamayotdan, miltiqdan bir otash¹ ochsak, turkmanlar o'zлari qochurg'a joy topolmay qoladirlar, deya so'zlagan kishilar-da bo'ldi. Soat tom bir edi. Paraxo'd ichida hamma askarlar mukammal yarog'landilar. Bizim bu iki paraxo'dimizda bir to'p, bir pulemyot, bir bo'mbamayot, yuz kishi internatsional Astriya – Major askarlardan boshqa bizlar ila birga Afg'onistong'a ketub borayotgan 11 kishi – firqa oloyi va bir necha paraxo'd xodimlari, qariyb bir yuz qirq kishi, hammasi mukammal yarog'landi. To'p va pulemyotlarning atroflari toylangan paxta ila o'raldi. Hamma askarlar-da o'zlarini paxta toyлari ila ihota² qildilar-da, paraxo'dimiz hushtagini chaldi-da, «har chi boda bod»³ deya ravona bo'lduk. Bizlar borub so'ylashg'on turkmanlar daryoning o'ng sohilindan kemamiz yiroq o'ldig'indan otgan o'qlari yetushmas edi. Onlar o'qlarining yetgan-yetmaganiga qaramasdan paydar-pay o'q ravon qilmoqda edilar. Tole'ga qarshu bizim paraxo'dimiz borgan sari daryoning siqiq yeriga borur edi. Bora-bora o'ng tarafдан o'q yetadirgon yerga borib qoldi. Soat 3 dan 20 minut o'tgan edi. Daryoning so'l sohilindan Oqtepa ismli yerdan qumlik baland-baland tepalar ustidan durbin ila qaralganda, o'rma-lashgan turkman askarlari ko'rina boshladi. Kemamiz besh daqiqa chamasi ilgari ketgan edi. Birdan o'ng tarafдан hamda so'ldan otash ochdilar. Bu nogahoniy iki tarafдан birdan ochilgan otashning o'rtasida qolgan bir hovuch inson kattasi o'zini

¹ Muallif «otash ochmak» shaklida qo'llagan.

² Ihota – o'rab olish.

³ «Har chi boda bod» – nima bo'lsa bo'ldi.

yiturub, aqlini shoshirmog'i tabiiydur. Bizim qo'manda hay'ati bizim tarafdan otish ochmoqg'a paraxo'd hushtagini ta'yin qilmishdi, tole'ga qarshu birdan bir o'q kelub kemamizning par qozonini teshub yubordi. Bir tarafdan do'l yoqg'ondek o'q paraxo'dning moshinaxonasiga qarab kelsa, ikinchi tarafdan kayut(a)larga qarab chizillab o'qlar kelmoqda edi.

Paraxo'dning par qozonining teshilushi-da bizim uchun bir balo bo'ldi. Butun kemadagi kishilarining quloqlari(ni) shavullab, garang qilib yubordi. Quлоqlarimizg'a paxta tiqub qo'ysak-da chidab turmoq imkon xorijinda edi. Shul vaqt ovozi xasta bo'lgan odamg'a o'xhash kemamiz uch marotaba xirillab yubordi. Bizning askarlar tarafindan-da otash dushman tarafig'a qarab ochildi. Lekin tole'ga qarshu ish ishdan kechgan edi. Chunki bu vaqtida o'rtoq Ivano'f ila askar boshlig'i va ulardan boshqa 22 kishi majruh bo'lub, 3 kishi o'lgan edi. Bizim kayutamizda bizlardan boshqa to'rt rus, avstriya(li), arman o'rtoqlar-da bor edilar. Bunlarning hammalari angliski beshotar miltiqlar ila qurollangan edilar. Faqat man ila birodarim Abdulmatlabg'a vintovka yetushmay qolg'on edi. Bu bizim bahodir o'rtoqlarimiz «Sizlar miltiq otishni(ng) bilmaysiz. Hali qarab turing, bizlar qanaqangi dushmanni uramiz», - deya avvalda yarog'langan vaqtlarida maqtanub-da qo'ygan edilar. «Mard kishi maydonda shaylansun» fahvosincha, birdan (bir) bizim kayutaning tepasida otishub turg'on avstriya(li)-ga o'q tegub, bizning kayutaga yumalab tushmasinmi. Buni ko'rgan zamon hamma o'rtoqlarimizning g'ayrat va bahodirliklari suvg'a urub ketdi. Bo'g'umlar bo'shashub, taruzlari qo'l tuqlaridan tushub, ikinchi miltiqni(ng) qo'llariga olishga holatlari qolmadi – jur'at qila bilmadilar. Faqat birgina Grisha ismli o'rtoqdan boshqalari kayutadan yuqoriga chiqmoqg'ada jur'at qila olmadilar. Bizning ila birga ketayotgan avstriya(li) doqturimizda hech nimarsani(ng) bilmaydirg'on, vaqt

g‘animatda o‘zining nomin do‘qtur qo‘yub olg‘on bir kishi ekan. Kayutamizg‘a yumalab tushgan avstriya(li)ning qoni butun xonamizni(ng) qonga bo‘yagandan so‘ng, arodan bir soat kechgandan so‘ng o‘larcha mast holatida kelub, bechorani(ng) yarasini bog‘ladi. Yarani(ng) bog‘lagan vaqtida bir fi(l) shir do‘qturimizning kamoli mastlig‘idan qo‘ltug‘idan ko‘tarub turardi. Agarda o‘z holina qo‘ysa, yiqilub ketuvi shubhasiz edi. Harna o‘lsa, ish ishdan kechmish edi. Paraxo‘dimiz borgan sari so‘ng (so‘l) tarafimizdagi dushmanning eng quvvatli otishining ostiga yaqinlasha borur edi. Tole‘ning badlig‘ina qarshu shu asnoda bizim paraxo‘dimizning orqasiga bog‘langon barjamizning bir arqoni uzilub, birgina arqoni qolgan edi. Agarda ikinchi arqoni-da uzilsa, bir kemamiz – qancha asbob, qirq-ellik chamasida odam, bir to‘p, bir bo‘mbamyot dushman qo‘liga tushgan bo‘lur edi. Ish o‘ngidan kelmasa, sho‘yla bo‘lar ekan. Pulemyotimiz-da «tit-tit» deya uch-to‘rt o‘q chiqorub, bir to‘xtab, tuzukkina otilmadi. To‘pimiz-da besh-oltidan ortuq o‘q chiqara olmadi. Bo‘mbamyot esa iki yoki uchdan ortuq o‘q uzolmadi. Tabiiy, inson jonidan umid uzbekdan so‘ng ko‘bda qo‘rqmas ekan. Paraxo‘d ichidagi insonlarning hammasida butun ish qo‘ldan ketganlig‘in sezgan edilar. Paraxo‘dimiz bo‘lsa, qoq dushmanning uyasi bo‘lgan qumlik tepaning tagina borgan edi. Shul vaqt paraxo‘dning ustiga chiqub qarasam, bir-iki kishi mastsho, hama suvgaga urub ketubdur. Har zamonanda bir bizning tarafda-da o‘q otilub qo‘yadur. Tezdan dushman qo‘lig‘a hammamizning asir tushajagimiz muqarrar edi.

O‘rtoq Grishani(ng) chaqirub dedimki, «o‘rtoq Brovin qay-u yerda bo‘lsa, borub ayt. O‘rtoq Ivano‘f majruh bo‘lub, o‘zi ila o‘zi ovora, Avloniy aytadurki, tezlik ila siz rasfarajeni qiling. Paraxo‘d keying‘a qarab qaytmasa, qolganlarimizdanda ayrılamiz», – degil deya o‘rtoq Brovinga o‘rtoq Grishani yubordim.

Tezdan o'rtaq Grisha «Sening so'zingni borub o'rtaq Brovinga aytdim, maqbul bo'lди. Paraxo'dning qaytmog'iga buyruq qildi», – dedi. Demak, paraxo'dimiz sekin o'ng tara-fina burilub, suvning oqishiga qarab, ma'yusona ravona bo'la boshladi. Harif¹ dushman qaytsak-da, otishni shiddadlandirur edi. Soat 4 dan 30 daqiqa o'tgan edi. Demak, ma'yusona bir suratda keyin qarab chekildik va dushmanning otgan o'qlarining aksari «razrivnoy» bo'lub, oxirgi vaqtarda ko'proq «boyevoy» o'q yog'dira boshlagan edi. Tabiiy, dushman tara-fida-da zoye'ot bizim tarafdan iki hissa hisob qilinurdi. Dushman bizning keyin qarab qaytuvimizdan istifoda qilub, yarim soatlik yo'lg'acha otish ila kuzatub keldi-da, jim bo'lди. Demak, bu bizim ko'hna paraxo'dimiz dushmanning to'rt soatlik yog'dirgon o'qiga chidash berdi. Oling'on ma'lumotlarga binoan, dushman tarafinda rus ofisarlari o'lmak ila barobar inglis agenlarida borlig'i ma'lum bo'lди.

Toshkandan Afg'onistong'a hay'at ila birga ketadirg'on mu-sulmon firqa oloyindan 2 si og'ir, 2 si yengil yaralanmish edi. Hisom Jaloliy ila Valixo'ja o'g'li yengil, Mustafo Tillobek o'g'li ila Avaz Samad o'g'li og'ir yaralanmish edilar. Paraxo'dning atrofidagi dushman o'qindan urilgan teshuklar bir mingdan ziyoda edi. Bizim bu ko'hna paraxo'dimiz keyin qarab qaytish-dan suvning oqimiga qarab yurganligindan avvalda yuqori qarab bir kun yurgan yo'lini 3 soatda tay qildi. Demak, kech soat 8 da daryoning o'rtasida bir otog'a langarandoz o'lди. Dar-yoning ba'zi yeri chuqur, ba'zi yeri sayoz o'lдиг'indan kechalari yurmoq mumkin emas edi. Kunduz kunlari-da ba'zi vaqtarda daryoning sayoz yeriga to'g'ri kelub qolub, «boboy kema»miz qumg'a o'lturub qolub, bo'kura-bo'kura bir soat-ikki soat sarsonlig'dan so'ng bazo'r qumning qo'lindan yaqosin qutqarub,

¹ Harif – qarshi.

ravona bo'lurdi. Shul sabablara mab¹ni agarda sohilda qaror olsa, ehtimol, dushman tarafidan yanada hujum bo'la qolsa, yaqosin sohildan qutqarmoq og'ir bo'luvi ehtimoli bor(e)di. Hamda dushman ila bizim oramiz 3 soatlik suv yo'li o'ldig'in-dan, ehtimol, dushman bizim ortimizdan quvib kelub, kechasi birdan nogahoniy hujum qiluv ehtimoli-da bor edi. Mana shu hollarni(ng) e'tiborga olub, kemamiz daryoning o'rtasidagi orolda langarandoz o'ldi. Bu eng xavflik kechani(ng) daryo yuzinda, orol yoninda o'tkarurga qaror qilduk. Kechaning soat 4 inda otoga qo'yilgan qorovulimiz «Turkman keldi!» – deya amon qichqirdi. Butun askarlar to'pdan, pulemyotdan, to'fangdan otoga qarab otash ocha boshladilar. Yarim soatdan so'ng otish to'xtadi. Taftish asnosida turkmanlarning yurak qilganliklari ochiq ma'lum bo'lmadi. Yarador bo'lg'on askar boshlug'ining o'rniغا yangi tayin bo'lg'on komandirimizning yarim soat miyonasida otilgan 4–5 ming chamasida o'qning havoga ketganlig'i ochiq ma'lum bo'ldi. Tong yorishar-yo-rishmas, paraxo'dimiz Chorjo'yg'a qarab ravona bo'ldi. Bu bizim paraxo'dimiz hazrati No'hning kemasи ila shovla yegan eng eski «sistema», 1900-yilinda Petrog'radda yasalg'on, har odimda bir to'xtaydirg'on paraxo'd edi. Lekin suvning oqishi-ga qarab yurganda uchar qush ham yetolmas edi.

Bayt:

*Gunbazi davron kabi ayrilmading bir nuqtadan,
To'rt kecha-kunduz yurub, Chorjo'y qaytib keldimiz, –*

deya 24-iyunda soat 4 da yana o'zimizning to'rt kun ilgari chiqub ketg'on Chorjo'yimizg'a qaytub kelduk. Bukun kech-g'acha yaradorlarimizni(ng) Chorjo'y xastaxonasiga izvosh-

¹ Mab – binoan.

chiklar ila uzatduk. Bu kecha(ni) Chorjo'y istansasining shi-mol tarafinda, taxminan, istansadan 7 chaqirim yiroqlikda paraxo'd ichinda yotduk.

25-iyunda kech soat 4 da paraxo'ddan ashyolarimizni(ng) chiqorub, vag'ona o'lturdik. Bizim bu madaniyat yo'rg'asi kech soat 5 da **Asxobod** tarafiga qarab ravona bo'lди.

26-iyunda soat birda «**Anninka**» istansasiga yetushduk. Yo'llarda qaysi ko'z ila ko'rayluk, yo'llarning har iki tarafı butun xarobazor. Vayrona bo'lgan xonalar, buzilgan vago'nlar, burda-burda bo'lub yotg'on temirlardan boshqa har bir odimda hayvon o'lumtiklari. Yaqin-yaqin yerda inson mozorlari. Nazari diqqat ila boqqan insonga jigarso'z bu qumlik go'yo mahshargoh kabi ko'rurdi.

Bu manzarani ko'rgan inson:

(rubo'iy)

*Gullar xazon o'lmish, tikoni qolmish,
Bog'lar barbod o'lmish, xazoni qolmish,
Zolim falak bu ellarga qahr etmish,
Xonavayron, singan qozoni qolmish, –*

demakg'a majbur bo'lurdi.

Yo'llarning har iki tarafidagi qirg'iz uylar(i), turkman xonalarindan asar o'laroq xaroba ayvonlar, buzilgan devorlar, qoraygan o'choqlar qolmish. Bizi mingan vagonimiz ham bu dahshatlik Ishqobod muhorabasiga ishtirok etgan(i) sababli eshiklari buzilgan, oynalari singan, suvxonalari xarob bo'lganliqindan mariz kishidek sust harakat qilurdi. (Poyezd) «**Anninka**» istansasinda biroz istirohat qildi-da, Marig'a qarab sekin harakat qildi.

27-iyun kunduz soat 12 da **Mariga** kelub to'xtadi(k). Mari istansasinda bizlari(ng) rus va musulmon o'rtoqlar musiqa ila

qarshu oldilar. Soat 2 da Marining maxsus hukumat bog'inda bizlar uchun bir ziyofat verdilar. Bu ziyofatda Turkiston jumhuriyatining Ishqobod muhorabasiga maxsus arkoni harb a'zolari hozir edilar. Ziyofatdan so'ng Afg'onistondan kel-mish vakillarning Turkiston Jumhuriyati nomindan bir necha o'rtoqlar otashin nutqlar ila qarshu oldilar. Bularga javoban Mirzo Abdulrahimxon nutq so'yladi. Turkman atamanlarindan O'roz so'fi so'z olub, «Men afg'on birodarlarimizning Turkistong'a qadam bosub, Afg'onistong'a hamhudud o'lan Turkiston Jumhuriyati ila do'stlashmak niyatinda kelarin tabrik etaram», – dedi. Majlis tamom bo'lgandan so'ng o'z yotoqxonamiz o'lan vag'onimiza kelub yotdu.

28-iyunda kech soat 8 da vag'onimiz sekin **Kushkag'**a qarab harakat qildi. Kech soat 10 da **Kushka(ga)** kelub to'xtadi. Buradagi rus, musulmon o'rtoqlar bizi musiqa ila qarshu oldilar. Afg'on hukumatining sarhad hokimi Yormuhammadxon tarafindan kelub bizlari(ng) kutub turg'on chopar – otliq askar Abdulrahimxondan maktub olub, biz 22 kishi uchun ot va boshqa kerakli ashyolar – nimarsalari(ng) ro'yxatin oldi-da, ravona bo'lди.

29-iyunda qiladurgonishimiz yo'qlig'indan **Kushka** qal'alari va boshqa kerakli yerlari(ng) aylanub, tamoshlo qilduk. Kushka qal'asi Turkistonning Afg'oniston hududi o'ldig'indan eski hukumat zamoninda «tilsimot» qilub ishlanmishdur. Mundin tashqari, qal'a kichik bir tog'ning vodisinda bino qilindig'in-dan atrofindagi tog'lar tabiiy bir buyuk istehkom xidmatin ado qilur. Burada simsiz tilg'irop – havo tilg'iropi radi(o) ham mav-juddir. Havosi go'zal, yeri o'sumlikdir. Oqar suv o'lmadig'in-dan tog' etaklarindan chiqadirg'on bulog' – chashmalarning bir nechasin simint¹ ila ishlab, bir yerda jam qilub, vodofrovod

¹ Simint – sement.

– yer ostindan yuradig‘on suv ijro qilinmishdir. Shimol tarafindan oqadirgon Kushka irmoqi o’lsa-da, shahar balandlikda bino qilindig‘indan tubanroqdagi qariyalari(ng) sug‘orur. Bul yerdagi musulmonlar ramazon ro‘zasin Toshkandan bir kun so‘ng ushladig‘indan iydni(ng) 29-iyunda dushanba kuni yasadilar. Bu kun kech soat 2 da bir necha rus o‘rtoqlar ila birga afg‘on fuqarolarindan biri bizlari(ng) ziyofatga chaqirdi. Afg‘on xalqi turkistonlik kabi bisyor mehmonnavoz emish. Ziyofatdan qaytub, xonamiz o‘lan vag‘onimizg‘a kelduk. Bu vaqt bir necha rus o‘rtoqlar Mirzo Abdulrahimxoniga ariza olub keldi. Burada Afg‘on fuqarolarindan jamshidiy ismli bir qabila bor ekan. Mazkur jamshidiylarning bir qismi Turkiston tufrog‘inda turub, o‘g‘rilik va qaroqchilik ila ish ko‘rur ekan. Rusiya tufrog‘inda ayog‘lik mollari(ng) haydab ketub, afg‘on tufrog‘idagi sheriklarina berub, Kushka atrofidagi sheriklarini afg‘on tufrog‘idagi o‘rtoqlari har xil ayog‘lik mollari(ng) kel turub berub, sho‘yla o‘g‘rilik ila kasbi maishat qilur ekanlar. Yaqin zamonda Kushka atrofindagi xoxullar(ng) uch yuz qadar qo‘yini haydab, afg‘on tufrog‘iga o‘tkazub yubormish ekanlar. Mana shul xususda mazkur xoxullar yo‘qolgan qo‘ylarin borasida ariza kelturmishdi. Abdulrahimxon xoxullar qo‘lidan arizani olub, tezdan bu arizani(ng) yerina yetkurnoqni va’da qilub, xoxullari jo‘natdi. Buradagi ruslar sarhadga yaqin yashadiqlarindan Afg‘onistonning lisoni umumiysi o‘lan forsi-cha tilni(ng) mukammal suratda bilurlar.

Toshkandan chiqg‘ondan buyon hamma yerda bizim majlislarimiz qiziq va maroqli borurdi. Chunki aromizda turli-turli millatlar o‘ldig‘i kabi turli-turli lisonda so‘ylashuvlari ila barobar to‘rt xotun kishi o‘ldig‘indan ko‘b vaqtarda majlisimiz gullab-qizub ketar edi. Ba’zi majislarda bir tarafda bir-iki kishi inglizcha so‘ylashsa, bir tarafda bir-iki kishi

forsiycha so‘ylashur. Bir tarafda bir-iki kishi ruscha so‘ylashsa, bir tarafda bir-iki kishi nemischa so‘ylashur. Bir tarafda xotunlar bir-birlari ila harzago‘ylik qilsalar, bir tarafda bir-iki kishi turkcha gaplashur edilar. Ba’zi vaqtlarda bir lissonda so‘ylanub turgan so‘zni(ng) ikinchi lisong‘a tarjima qildurur edilar. Aksar vaqt bir lissondan ikinchi lisong‘a tarjima qildirmoqg‘a aromizdag'i xotunlar sababchi bo‘lur edilar.

29-iyunda kech soat 4 da ujin – kechlik yemak vaqtinda o‘rtoq Brovin Mirzo Rahimxon‘ga xitoban forsiy lissonda «Man siz xalqni yaxshi bilurman, siz ko‘p hiylakor odamlarsiz, so‘zlariningizni e’tibori yo‘q. Chunki uch kun bo‘ldi hamon bizlarning ketmog‘imiz uchun ot va boshqa ashylolar hozir o‘lmadi», – deganda g‘azavangir¹ning biri o‘lan siyosat dun-yosindan tariqcha xabarsiz Mirzo Rahimxonning ranglari o‘chib, yeb turg‘on taomi talx bo‘lub, rangi o‘zgardi-da va u bir kalima o‘lsun, javob bera bilmadi. Faqad «soib, meoyad, meoyad»² ila kifoyalandi. Agarda Abdulrahimxon o‘rninda ahvoli olamdan xabardor bir kishi bo‘lsa edi, sho‘yla javoblari verur edi: «Tovarish, Brovin! Boshqa kishi so‘ylasa ham sizdek mustashriq bir kishi bo‘yla so‘zlarni so‘ylamasangiz kerak edi. Chunki siz bizim Afg‘onistonning yo‘llari ila tonish kishi edingiz. Bizning yo‘llarni yaxshi bilasizki, tog‘lik, cho‘l-biyobondir. Sizning Turkistoningizg‘a o‘xshash bu cho‘listonda aftomobil yoki otash arobamiz yo‘qli, sizni(ng) darhol o‘tqazub olub ketsak. Yoki siz 3–4 kishidan iborat emassizki, darhol 3–4 ot tayyor qilub, mindurub ketsak. Siz 24 kishidan iborat hay’ati vakolaning minmagingiz uchun 24 ot, olub boradirg‘on yuklariningiz uchun 30 ot, sizlarga yo‘lda tikmak

¹ G‘azavangir – g‘azabli.

² Soib, meoyad, meoyad – keladi, keladi, sohib.

uchun 15 chodir-xayma¹ uchun 15 ot, har xil asbob va taomlari(ng) yuklab yurmoqg'a 15 ot, sizlari(ng) muhofazat qilub ketmoqg'a, oz bo'lg'onda 50 otliq askar, bularni(ng) bir yerga jam qilg'onda 134 «begun» ot hosil edar. Bu otlar ila boshqa ashyolari(ng) hozirlamak uchun bizim bu qishloq sipohdor hokimina, eng oz bo'lg'onda, 3-4 kun vaqt lozimdur», – deb javob vera bilurdi.

30-iyunda Mirzo Rahimxonning kuchi faqat o'ziga yetdi-da, kech soat 5 da yoniga 2 afg'on askarin olub, sarhad hokimidan xabar olub kelmoqg'a jo'nab ketdi. Soat 8 da bizim uchun hamma ashyo va otlar hozirlik xabarin olub keldi va Hirot noib al-hukumasi tarafindan yuborilgan forsi maktubni(ng) o'qub berdi.

Kelgan maktubning qisqacha mazmuni shundan iborat:

Muhtaram aziz mehmonlar!

Sizlar uchun sarhadga ot, hayma va xidmatkorlar, askarlar yuborildi. 1-iyulda saboh soat 8 da Kushkada hozir o'lsa kerak. Siz, azizimonlar, shunga qarab hozirlanuvitingiz matlubdir.

Imzo:

Hirot voliysi.

1-iyulning tongi otdi. Turkistondan Afg'onistoniga boradirg'on hay'ati vakolaning dilindagi eng qiziq ishtaholardan birinchisi ot ila safar qilmoq bo'lsa, ikinchisi, Afg'oniston sarhadindan kechub, Afg'oniston tufrog'in ko'rmaq, askar, ta'limot va tartibotlarin mushohada qilmak edi. Arolarinda bir-birlarig'a bu qumlik, tog'lik sahro uzorinda afg'onlar bizlarg'a qay-u tariqa mehmon dorlik qilurlar ekan, deya o'z arolarinda so'zlashub-da qo'yarlar edi.

¹ Xayma – chodir.

Vaqtiki, soat saboh 8 ni so'qmish edi, Kushka istansasinda bir yuz otliq afg'on askari, 60 adad egarlanmish otlar hozir o'lqidig'in ko'rdik. Mol va ashyolar ortmak uchun teva qavmiga o'xhash qavm urilgan otlarga yuklarimizni bir onda ortub, tayyor qildilar. Bizlarga minmak uchun kelturgan otlarining ustidagi egar-jabdug'lari tom yovrupocha o'lub, otlari-da eng yaxshi otlardan edi. Soat 10 da otlarga minduk-da, Kushka shahriga xayr, deya Afg'oniston hududiga qarab ravona bo'lduk.

Yo'lda bizim ketishimiz juda maroqli va qiziq ketish edi. Oldinda hay'ati vakola, orqada yuz adad musallah¹ afg'on askari, uning orqasida 30 otg'a yuklang'on ashyolarimiz kelardi. Biz ila birga kelayotgan afg'on askarlarining hammasi kavalerski miltiq ila musallah o'lub, otlari ham yaxshi, kiyimlari Avstriya askarlarining kiyimlarining xuddi o'zi edi. Faqat rangi malla. Oyog'larida yaxshi botinka, iliklarida malla rangda chulg'ov chulg'ong'on edi. Bosh kiyimlari ham malla rangda bo'lub, o'ng tarafiga afg'on tamg'o o'tkuzulg'on edi. Bul askarlarning kiyimlarining Afg'onistonning o'z korxonasi-da ishlangan ashyolaridan o'lqidig'i o'z-o'zidan ma'lum edi. Bu Osiyo azamatlarining turmushlari yovrupalik o'rtoqlarimizning nazari diqqatlarin jalb qildi.

Ichimizda umrinda ot minmagon, ot ila safar qilmag'on kishilar hamda blr necha xotunlar o'lqidig'indan masofasi 3,5 tosh bir yo'l ni(ng) tay qilg'uncha, ona sutlari og'zilarina keldi. Yo'l uzorinda ba'zilar otdan yumalab-da tushdi. Biri yiqi-lub, qo'li chiqdi. Xotunlardan biri-da otdan bir yumalab oldi. Ketub borayotgan yo'limizning iki yoni past-past tog'lardan iborat bo'lub, yo'l bu tog'larning adirida edi. Yo'lning bir tarafida kichkina suv ham oqub turar edi.

¹ Musallah – qurollangan.

Alhosil, soat bir yarimda **Chihlduxtaron** ismli bir manzilga erishduk. Chihlduxtaron ila Kushka (va) Shayx Junayd¹ arosi 22 chaqirimlik masofadir. Chihlduxtaron xususida so'rag'onimda, Toshkandagi Chihlduxtaron xususida mardumlar qiladur-g'on naqliyotni(ng) ayni o'zin so'y lab berdilar. Burada bizlar uchun 15 adad xayma-chodirlar tikilg'on keng bir ko'kalamzor maydonga kelub tushduk. Bu maydonning har tarafida faxsa devordan yasalg'on qal'a bor. Bizlar uchun turli-turli taomlar hozirlang'on, har bir ishga boshqa odamlar – xidmatkorlar tayin qiling'on edi. Chodirlarni(ng) ichiga kirub, istirohat qilduk. Bu chodirlarning ignasidan ifigacha o'z korxonalarinda yasalg'anligi ustindagi tamg'alarindan ma'lum bo'lub turar edi. Biroroz istirohat qilganimizdan so'ng hozirlanmish taomlarni(ng) alohida taom chodirina muhayyo qildilar-da, bizlarga «Marhamat kuned, non tayyor shud», dedilar.

Boqing, bo'yla ko'histonda bizlar uchun 7–8 turli taom hozirlamishlar. Oshubtalag'on vaqtimizda Kushkada Abdulrahimxonni(ng) xafa qilg'on o'rtoq Brovin og'ziga taomlar totti, lazzatlik kelub, mundan iki kun ilgari qahr-u g'azab ila so'y lag'on so'zlarin unutdi-da, beixtiyor, «Abdulrahimxon soib², afg'onho bisyor xo'b taom puxta mekunand»³, – deb yubordi. Bizlar-da, bergen Xudoga yoqibdi, deyincha, iki kun ilk zaharlik majlisning zaqqum taomlarin, og'u kabi so'zlarin eshitgan bukun tamiz sufra ustida, g'ariz taomlar oldi-(miz)da shirin so'zlar so'ylanganiga taajjub xandalarimiz keldi-da, qah-qah urub kulishub yuborduk.

¹ Mari ila Kushka arosinda Junayd ismli mazor o'ldig'indan qadimdan afg'onlar buralari(ng) Shayx Junayd ismi ila yuritular ekan.

² «Soib» kalimasi aslida «Sohib» o'lub, Afg'onistonda Turkiyaning «afandim», Turkistonning «taqsir», Totoristonning «hazrat», Xitoy musulmonlarning «xojam» kalimasi o'rnida iste'mol qilinur (*Avloniy izohlari*).

³ Afg'onlar ovqatni juda yaxshi pishirishadi.

O'rtoq Brovinnning rangi biroz o'zgardi-da, bizlara xitoban: «Charoxanda mekuned?»¹ – deb qo'ydi.

2-iyulda saboh soat 8 da buradan harakat qilduk. Soat 11 da **Chordara** ismli manzilga yetishduk. Bizlar kelub yetushgancha, xaymadorlar bizdan ilgari kelub, chodirlari(ng) tikub, taomlarini(ng) hozirlab qo'ymishlar edi. Afg'onlaring tezkorligi va chidamli(li)gi, fidokor, ozg'a qanoat qiluvchi, tabiiy va jiddiy, jangovar bir xalq ekanlig'lari yurish va tushindan, ish va harakatlaridan ma'lum bo'lub turar edi.

Bu iki manzil orasi 18 chaqirim masofadir.

Chordara kichik bir qishloq. Aholisi dehqonchilik, chorvachilik ila kasbi maishat qilurlar.

3-iyul

3-iyulda buradan harakat qilub, soat 9 da Xoja Milol ismli qishloqg'a yetushduk. Bu qishloqning-da aholisi ekinchilik, chorvachilik ila tirikchilik qilurlar. Bu iki manzilning orasi 18 chaqirim masofadir. Bu qariyada Xoja Milol ismli bir kishining maqbarasi o'ldig'indan bu qishloq shul mazor ismi-la tasmiya qil(in)mishdir.

4-iyul

4-iyulda saboh soat 4 da buradan jo'nab, soat 12 da **Parvona** ismli qishloqg'a yetushduk. Burada bizlarni bir yuz qadar muntazam afg'on otliq askari naqoralar, naylar ila qarshu oldi(lar)². «Bu qishloqni(ng) qadim zamonalarda Farg'onadan kelmish bir zot bino qildig'indan bu qariyaning ismi ila tasmiya qilinmishtir. Bu qishloqda Farg'ona otaning maqbarasi-da vordir. Afg'onlar «sohib»ni(ng) «soib» deb yuritganlaridek, «Farg'ona» otani(ng) «Parvona» deb yuriturlar

¹ Nega kulyapsizlar?

² Naqoralar bizim Turkistonning buyuk naqoralariga o'xshash otning egarining qoshiga o'mashdirilgan, atrofiga qizil baxmaldan o'rov o'ralgan, surnaylari esa, Yovrupo surnaylaridan edi (*Avloniy izohi*).

emish. Bu askarlarning orosida turkmanlardan ham bor edi. Turkmanlarning biridan «Nechuk siz afg'onlarning orosida yurubsiz? Sizlar na vaqt buraya keldingiz?» – deb so'rdig'imda sho'yla javob berdilar: «Vaqtoki, Eron shohlarindan Nodirshoh turkmanlarni(ng) taxti idorasig'a olg'ondan so'ng turkmanlardan askar yasab, Afg'onistoniga hujum qilub, Afg'onistonni(ng)da taxti himoyasini olg'on vaqtida bir ming uylik turkmanlari(ng) ko'chirib kelub, yerlashdirmishdir». Bu tu(r)kmanlar afg'oncha so'yasha biluvlari barobarinda o'z otalarini(ng)-da unutmamishlar.

Bu iki manzil orosi 45 chaqirim masofadir. Bu iki manzil orosi butun tog' ila cho'lmdir. Yo'lida tog'ning tor yerlari – darbandlari bordirki, yoz kunlarida ulov ila yurmoq mumkin o'lsada, qish kunlarida yurmoq chetan va xavflikdir. Bu tog'ni(ng) afg'onlar Ko'hi Bobo – Bobo tog'i atarlar. Bu tog' buradan boshlanib Afg'onistonni(ng) sharq tarafin ihota edan tabiiy istehkomlardan o'lub, shunaqasi Kobuldan 4 tosh beridan o'tub ketub, Hinduston chegarasiga borub tiraladur. Bu tog' Turkiston uchun Afg'oniston'a bir sadoyi sangindir, ham-kandadir. Bu tog'ning yo'lida – darbandida Istanbul bo'g'ozining quyrug'idan bu tog' orosinda (o'tgan) yo'l uzorinda eski zamonlar turklar tarafindan bino qilinmish Chuqurqal'a isminda bir qal'ani(ng) xarobasi vordur. Bu qal'a yerdan qirq gaz chamasinda kovlanib, yer ostiga bino qilinmishdir. Tebasida yerdan yigirma gaz chamalarida yuqori ishlangan tarzi me'mori Turkiston madrasalarining peshtoqlarining ko'fiya nusxasidir. Ichkarisiga qirq zina ila tushiladir. Bir tarafı hujralardan iborat o'lub, hammasi pishgan g'ishtdan yasalgan. Ba'zi taraflari buzilg'on yemrlig'on holda turgan kishiga go'yo bo'ynini egub, «Ey, turk urug'lari, (man) sizlari uchun aytarlik tuhfalar(in)danmi?» – deya salom bergan kabi qiyshayub,

kulimsirab turar edi. Bu qal'ani yonida bir irmoq bo'lub, bu irmoq ustiga ayni zamonda ishlangon, ko'frukning ustunlari eng qadim asrlardan ekanligin ma'yusona izhor qilur edi.

Bu qal'anining sharq tarafinda 3 chaqirim qal'adan yiroqlikda davrasи 15 gaz chamasida bir minora vordir¹. Bu tog'ila Farg'ona ota orosi 22 chaqirim masofa o'lub, Turkistonning Mirzacho'liga o'xshash toshlik, qumlik bir cho'ldir. Bu cho'lning o'rtasida yo'lovchilar uchun yasalmish kengligi 12 gaz, bo'yи 20 gaz chamasida quduq vordurki, bu quduq(ning)-da yuqorida mazkur qal'alarning binosi ila bir zamonda bino qilinmis, ubti pishgan g'ishtdan gunbaz qilinub yopilmishdir. Bu quduqning suvi bu cho'lда safar qilg'on kishilar uchun nuql obihayotning o'zginasidir.

5-iyulda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 8 da Hirot shahriga yetushduk. Bul iki manzil orosi 18 chaqirim masofadir. Kushkadan to Hirotg'acha bu yo'ldan boshqa yana bir yo'l bordur. Chihlduxtarondan chiqub Do'g'i Rabotiga kelinur. Bul iki manzil orosi 24 chaqirim masofadur. Hirot ila Kushkaning orosi butun tog'lik o'lub, yo'l bu tog'larning darbandlari orosindan ketadur. Buralaring yeri aksar qumlik, toshlik o'ldig'indan o'sumlik yerlari ozdur. Unda-munda kichik qishloqlar o'lub, uylar loydan yasalg'on past-past imoratlardan iborattdur. Bularidan boshqa, unda-munda ovul tikub o'lturg'on ko'chmalari-da bordur. Ekinlari: bug'doy, arfa, jo'xori, tariq. Ba'zi yerlarda beda ham ekar ekanlar.

Buraning aholisining bir qismi ekinchilik ila qolganlari ayog'lik mol-chorbochilik ila kasbi maishat qilurlar. Tog'larning ustlarida, adirlarida o'tlab yurg'on teva, ot, qoramol, qo'y, echkular har odimda ko'zga to'da-to'da uchrardi.

¹ Bu osorlari(ng) afg'onlar Shohrux podsho bino qilmish, deya so'layurlar (*Avloniy izohi*).

Hozirda Turkistonda ayog'lik mollarning urug'i qurug'onlik-dan bir necha yildan beri bo'yla podalarni(ng) ko'rmagonlig'imizdan, jin ko'ziga chaqa childirma ko'ring'onidek, bizim ko'zimizga bir turli bo'lub ko'rinxur edi. Ixtiyorsiz, «Oh!.. Turkiston! Bu Yovrupo qonxo'rlarining olamso'z, otashfishon jahon muhorabalari natijasida na hola kelding?!» – deya xo'rsinub-xo'rsinub qo'yardik. Ba'zi yerlarda qovun, handalak, bodringlar suvsiz bitar ekan.

Buradagi muqim xalq jamshidiy hamda hazora, biroz afg'onlar-da vordir.

Turkistonning sarhadi o'lan Chihlduxtaronda afg'on hukumat tarafindan bir risolador ila 400 chamasida askar turadir.

Hirot ila Parvona orosi-da tog'lik yo'ldir. Bu tog'lar orosidan chiqg'onimizdan ko'zimizga 9 adad minor ko'rindi. Bu minoralarning-da bir qismin Shohruh, bir qismin Mir Husayn bino qildig'in so'layurlar. Bu minoralarning bir tarafida bino qiling'on madrasa – zamonasining dorulfununlarining Hirot shahrining qo'rg'onidan tashqarida o'ldig'indan marhum Abdulrahmonning zamonida inglizlar, «Ruslar Kush(ka)dan hujum qilsa, bura onlar uchun ol-verishli», – deya hammasini(ng) buzdirub yubormishdur. Bu minoralarning balandlig'i 22 gaz, aylanasi 20 gaz chamasidadur. Sar to po¹ lojuvardiy naqshinkorlik o'lub, juda eski o'ldig'indan naqshlari yemirilub, barbod o'lmish esa-da, ba'zi yerlarda xatti ko'fiy ila yozilmish oyatlar kishi onglamaslik darajada yaltirab turadur.

¹ Po – boshdan oyoq.

HIROT

Hirot shahri eng qadim bir shahar o'lub, Hiriro'd nahri bo'yiga aylanasi bir tosh – 8 chaqirim, eski zamonda tu(r)klar tarafindan (475-hijriyda saljuq turklaridan Jaloliddin Muk-dashod) yasalmish, qo'rg'on ila ihota, atrofi tog' bir vodiyiga bino qilinmishdir. Yaqin zamonlarda afg'onlar bul eski qo'rg'onnинг tashqarisidan yangi usulda yana iki qat devordan qo'rg'on yasamishlardirki, balandligi 2 gazdir. Bu devorlarning tashqarisiga chuqurligi 10 gaz o'r – xandaq qazib qo'ymishlar.

Hirot Afg'onistonning mashhur shaharlarindan o'ldig'in-dan bura bir noib-al-hukuma (gubernator) tarafindan idora qilinur. Askariy ishlar idorasini(ng) noibi solor (voyennuy gubernator) idora qiladir.

Hirot, bir tarafdan, Eron sarhadi, ikinchi tarafdan, Turkiston chegarasiga yaqin o'ldig'indan tinch zamonlarda (mirnoye vremya) 7–8 ming askar tutiladir. Burada bir yuzi o'ttiz otish to'pi vordurki, bulardan 84 (tasi) qadim zamonlar dan qolmish og'zindan o'qlanadurg'on (dahanpur), qolq'on 70 adadi yangi usulda (sistemada) yasalmish turli to'plar va pulemyotlardan iboratdir. Burada Yovrupo muhorabasi zamonida Girmoniyadan oling'on 40 ming 11 otar miltiq (vintovka)dan to'rt mingi o'lub, qolq'onlari Kobul korxonasida ishlang'on birotar (berdanka) ila musallahdirlar.

Askarlar maishati:

Afg'onistonning askar oluv usuli umriydur, hozirda askar ga otliq bo'lsa, bir oyga 32 rupiya, piyodag'a 20 rupiya oq-cha, 2 pud bug'doy berilur. Otliq askarlarg'a ot yemiga 3 pud arpa berilur. Agarda otlar o'la qolsa, tamg'a bosilg'on ot terisini(ng) hukumatg'a olub kelub ko'rsatub, otning yarim-yorti oqchasini(ng) hukumatdan olub, yetmaganini(ng) o'z yoni dan qo'shub, boshqa ot olurlar.

Kiyimlari:

Askarlarning kiyadurg'on kiyimlari o'z yonlarindan o'lub, faqat vaqt safarda yoki manevra – ko'ruk zamonlarida hukumat amboridan (intendant) kiyim berilur. Askar safarg'a chiqg'on vaqtida qay-u yerg'a borsa, hukumat tarafidan qo'yulg'on kadomdordan arzon baho ila ozuq olurlar.

Afg'on xalqi:

Umuman afg'on xalqi jangjo'y, urushqoq bir xalq o'ldig'indan ahlining yaroq-aslahasizi yo'q hukmindadur. Miltiq, taponcha olmoqg'a kuchi yetmaganlarining qilich, shof va xanjarlari bordur. Bularga qodir bo'lмаганларининг qo'llariда oybolta yoki shashvar, juda yo'qlarining qo'llarida «marhabo tayoq»лари bordur.

Kiyimlari:

(Afg'on) milliy kiyimlari uzun ko'ylak, keng ishton, kaltagina surtuqcha (jiletka) ila salladan iboratdir. Ba'zilari 20 gaz ishton, 12 gazdan ko'ylak qilib kiyadurg'onlari-da vor. Xotunlari bizim Turkiston xotunlari kabi satrga o'ralub yururlar. Lekin satrlari bizim Turkiston faranjisiga o'xshamay, qora fardadan iboratdir. Yuzlariga oq ifdan to'qulg'on to'r tutarlar. Afg'onistonda, ko'pdankim, soqol, mo'ylab baxshina xotima verilmishdir. Yovrupo libosini(ng) kiymak odat hukmina kirmishdir. Ulamolaridan tortub, avomlariga qadar kalta kiyim, boshlarina shlafa qo'yarlar. Qo'llarini(ng) feshonalarina ko'tarub, salom verurlar. Bizim Turkistonning mutaassib ulamolari Afg'onistong'a sayohat qilsa, foydadan xoli bo'lmas edi.

Kasb-u maishatlari:

Afg'on xalqining ko'bi dehqonchilik, chahorpochilik¹ ila kasbi maishat qiladur. Turkistonda o'sadurg'on har xil g'al-

¹ Chahorpochilik – chorvachilik.

la va mevalar mavjuddir. Atrofga mol olub borub, oluv-sotuv ila kun kechuradurg‘onlari-da cho‘qdur. Har xil qo‘l hunarlari ila-da umr o‘tkaradurg‘onlari-da oz dagildir. Ba’zi amaldorlarining qiladurg‘on ishlari bizim marhum...¹ zamonidan qolishmaydur. Otlarining oldida yayov bir-iki «shotir» ismli insondan murakkab «hayvon» chopub yuradir. Kattaroqlarining otlarining jilovida jilovdor, iki taraf uzangilarining yonida «rikobdor» ismli «hayvon»lar ot chopsa, chopub, yo‘rtsa, yo‘rtub ketadur.

Aksari yerlar tog‘lik-toshlik o‘ldig‘indan o‘sumlik yerlari ozlik sababli och-yalang‘och xalq nihoyatda ko‘pdur.

Afg‘on xalqi mazorlarga ixlos qiladirk‘on, mazor ustlariga qo‘chqor shoxi qo‘yadirk‘on, oq-ko‘k lattalar boylaydurg‘on, tumor va bozuband toqadurg‘on emishlar. Ba’zi katta-katta «kirnilmirnil»laringda bilaklariga tumor va bozuband toqilg‘onin ko‘rub hayron qolduk.

To‘g‘ri kelub, Qal‘ayi Tuproqqa‘rg‘on ichiga kirdik. Burada bizim Hirot noibal-hukumasi ila noib us-solor bir ming qadar musallah askar ila 7 marotaba to‘f oto‘b qarshu oldi. Bu askarlarning hammasi 11 otar miltiq ila musallah edilar. Bular ila salomlashgandan so‘ng qal‘adan 2 chaqirim yiroq tog‘ yaqinida bizlari(ng) Bog‘i Shohiy ismli bog‘lariga olub borub tushurdilar. Bu bog‘ning janub tarafiga muntazam sharq usulida yasalgan iki qat imorat, ichi 4 botmon chama-sida mevazor, gulzor, bir tarafi faxsa devor ila ihota, farah-baxsh bir bog‘ edi. Bu bog‘ning o‘rtasida biridan biriga suv oqadurg‘on 4 hovuz o‘lub, bu hovuzlar ichida qirmizi baliqlar bir-birlari ila o‘ynashub yururdi. Hammamiz shu bog‘dag‘ xonalarg‘a o‘rnashduk. Taom vaqtি yetdi. Turli-turli taomlar, har xil mevalar hozirlasha edilar. Yeb-ichub, o‘z xonamiza murojaat qilduk. Istirohat qilduk.

¹ Joy qoldirilgan

7-(iyul)

7-iyulda hukumat poytunlarig‘a minub, bozor tamo(sho)-sig‘a ketduk. Bozorlarining rastasi u qadar torki, bizim Turkiston arobasi yurmog‘i mumkin emasdir. Buralarda aroba degan nimarsa mutlaq yo‘q hukmindadir. Faqat hukumatg‘a maxsus bir-iki poytun ila 5–4 ho‘kuz arobalari vordir. Alhosil, bozor ichiga poytun ila kirmoq mumkin o‘lmadi. Orqamizda birga kelgan askarlarning otlarig‘a minub yurmoqg‘a majbur bo‘lduk. Rastalari-da muntazam o‘lmayub, dag‘doshning kafshiga o‘xshash poyma-poy edi. Bir do‘kon chitfurush, yonida kafshfurush, uning yonida attor, uning yonida baqqol – aralash-quralash edi. Ko‘chalar butun hifzi sihhatg‘a mug‘oyir¹, iflos, chang-g‘ubor. Odim yerda ko‘cha tarafga xonadonlardan chiqorilgon (a)(xla)(t)larning bo‘yiga inson bolasi toqat qilub yura bilmaydi. Tilanchilik u qadar ko‘bki, boz u ko‘chalarda sizni(ng) ko‘z ochirgoni qo‘ymaydur. Bizim yo‘lboshchi afg‘on birodarimiz bozor ichidan dalag‘a olib chiqub keta boshladi. Man to‘xtatub, «Mirzo soib, bizlar(ni) qayon olib borursiz, bizlarning bozordan oladig‘on nimarsalarimiz bor», – desam, ul manga qarab: «Soib! Bizim Afg‘onistonning rasm-u tao-mili sizning Turkistonning rasmiga o‘xshagan emas. Chetdan kelgan kishilar kim bo‘lsa bo‘lsin, bozordan mol oladurg‘on bo‘lsa noibi soibdan ruxsatsiz olomaydir. Bir boshqa kuni noib-al-hukumadan ijozat olub, so‘ngra kelub olursiz», – dedi. Men hamrohlarima ruschalab ahvolni ma’lum qildim. Onlar-da taajjubg‘a qolub, ikinchi yo‘l ila «Jannatda ko‘rmak bor, yemak yo‘q ekan», – deya manzilimizg‘a murojaat qilduk.

8-(iyul)

8-iyulda noibal-hukumaning huzurina mehmon bo‘lduk. Chahorbog‘ ismli hukumat o‘rdasida bizlarni(ng) 300 munta-

¹ Mug‘oyir – begona.

zam askar ila qarshu oldilar. Tarzi me'mori sharq usulida yasalgan Chahorbog' ichida xonada bizlar uchun ulug' zi-yofat verildi. Butun Hirotning hukumat arboblari ushbu osh majlisina chaqirilgon edilar. Oshdan so'ng siyosat olamindan so'zlar bo'lub, bizlar biroz nutqlar so'ylashduk. So'ngra majlisga xotima verildi. O'z manzilimiz(ga) qaytub kelduk.

10-(iyul)

10-iyulda noibal-hukuma bizim manzilimizg'a mehmon bo'ldi. 2 soat o'lтуруб, bizlar ila birga borg'on xonimlарg'a bir necha adad tarixiy, eski zamonlardan qolgon broshka va tangalar hadya qilub xayrbod qilub qaytub ketdi. Maqsadi aslimiz o'lan Kobulg'a jo'natmoqg'a bir kun mullo Brovin borub noibdan so'rasha-da, ketmog'imizg'a to Kobuldan farmon kelmag'uncha, yurmog'imizning mumkin emaslig'in xabarin olub keldi. Kobul xabarin kutub, bir necha kun munda qolduk.

22-(iyul)

22-iyulda Kobuldan bizlarning yurmog'imizg'a farmon keldig'in noib tarafindin ma'lum qilindi.

23-(iyul)

23-iyulda majruh bo'lub, Chorjo'y kasalxonasida qolg'on o'rtoq Ivano'f iki yovari ila yaxshi bo'lub kelub qoldi.

23-iyulda noibal-hukuma kelub, yana bizlar ila ko'rihub, so'ylashub, xayrlashub ertasi kung'a safarga hozirlik ko'rmog'imizni(ng), afg'on hukumati tarafidan hamma hozirlik mukammal suratda tayyorlandig'in ma'lum qilub, bizlar ila birga ketmoqg'a Abdusattorxonni(ng) mehmondor¹ tayin qiling'onligin ma'lum qilub, jo'nab ketdi. Bukun ham-mamiz-da maqsadi aslimiz o'lan Kobul jo'namoqg'a hozirlanurdik. Bu kecha yo'l xususida muzokaramiz o'ldi.

¹ Afg'on hukumatining hamma shahrinda-da maxsus hukumat tarafindan tayin qilinub qo'yiladurg'on mehmondor bo'lur ekan. Mehmondorning idorasinda oshga qaraydirg'on «oshdor», choyga qaraydirg'on «choydor», ko'rfaga qaraydirg'on «far-roshboshi», otlarga qaraydirg'on «miroxo'r'boshi» bo'lur ekan (Avloniy izohi).

Hirotdan Kobulg'a uch yo'l o'lub, birinchisi Kandahor yo'lidirki, 56 manzil (rabot) o'lub, masofatan 1846 chaqirimdir. Ikinchisi, Hazora yo'lidirki, 31 manzil (rabot) o'lub, masofatan 1000 chaqirimdir. Uchinchisi Mazori Sharif yo'lidirki, masofatan 1556 chaqirim o'lub 46 manzil (rabot)dir. Boshqa yo'llarga qaraganda Hazora yo'li tog'lik va xavflik o'lsa-da, yaqin o'ldig'indan, har chi boda bod, deya Hazora yo'li ila ketmoqg'a jazm qilduk.

24-(iyul)

24-iyul saboh soat 6 da harakat qilub, soat 10 da **Poli piri** ismli Rabotg'a borub tushduk. Bu Rabot ila Hirot orosi 4 tosh 32 chaqirim, 8 quru bo'lur. Bizim bu safarimiz haqiqiy hamda eng maroqli bir safar edi. Chunki 25 hay'ati vakola(t)-dan boshqa bizlarg'a tayin bo'lg'on mehmondorning taxti idorasinda 5 choydor, 7 oshfaz, 4 farrosh, 6 mehtar, 4 taxta ravanchi, 5 kadam dor (bor) edi. Mundan boshqa bizlar ila birga ketmoq uchun tayin bo'lg'on qo'mi(n)don apisarning taxti idorasinda 25 otliq askar-da vor edi. Mundan boshqa yuklarimizni(ng) ortg'on korvonning 45 oti o'lub, jam'an 128 otliq birdan harakat qildimiz ekan.

Bizim bu kelub tushg'on manzilimiz iki tanob – 800 murabba' sarjin chamasida o'lub, bir tarafi mehmonxona o'lub, o'rtasidan devor ila ayrilg'on, ikinchi tarafi otxona o'lub, bu(ning) bir tar(z) hukumat tarafidan g'alla-ozuqalar saqlanadurg'on kadom omborxonadan iborat edi. Tarzi me'mori bizim Turkistonning madrasalarining hujralarining aynidir. Buralarda yig'och kamyob o'ldig'indan binosining hammasi xom g'ishtdan, toming ustida gumbaz qilinub yofilmishdir. Bu Rabotlarning hammasi bir suratda, bir qolibda, bir usulda ishlanmishdirki, birindan ikinchisiga ko'chub borg'on kishi avvalg'isindan ikinchisini(ng) ayirmoqg'a buyuk zehn sohibi

o'lmog'in taqozo etar. Har bir rabotda hukumat tarafindan qo'yilmish bir arbob, bir kadomdor va har birining xidmatinda bir necha xidmatkorlar vordir.

Arbobi hukumat soliqlarin xalqdan yig'ub, kadomdor qo'liga topshurar. Kadomdor bu yig'il mish ozuqa va boshqa nimarsalarini(ng) hukumat tarafindan yuradurg'on kishilarg'a va xususiy yo'lovchilarga qat'iy hamda arzon baho ila sotub, oqchasini(ng) hisob yuza hukumatg'a topshurar ekan.

Afg'on hukumatin «kazonniy» nimarsalarining ismini(ng) «sarkori» ismi ila yuritur ekan. Masalan, otlarini «aspi sarkori», idishlarini «zurufi sarkori», chodirlarini «xaymayi sarkori» kabi.

25-(iyul)

25-iyulda saboh soat 4 da buradan chiqub soat 10 da **Turon** ismli rabotg'a borduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh 12 kuru, 48 chaqirim yo'ldir. Bizim yo'l uzorinda ketuvimiz go'zal bir ketish, suyumli bir yurish, maroqli bir sayohatlar edi. Chunki bizlar turli-turli millatlardan murakkab o'samiz-da, aromizda muhabbat va muvaddat barpo o'ldig'indan bir shokilayi inson o'lan, bir to'da inson yug'untasi tashkil edan yurish har xil nazariyotlari peshgohi nazarg'a kelturadi. Xususan, otlar(n)ing ayog'larining tog'laring toshlarri(n) gumburlatub uran zamonlarda chiqg'on sadolar, ko'z va niyatlar olam-bashariyat(i)ning hissiyati ijtimoiyyasin na qadar go'zal, na qadar suyumli o'ldig'in bir misoli mujassam edi. Bu ko'ruviyatlar, bu sadolar, bu gulduroslar sho'yla chuqur-chuqur hissiyotlar sezdiradi. Go'yo biza:

«Ey, muxtalif¹ odam bolalari! Na uchun siz bu qadar bir-biringiza dushman o'ldingiz? Tokayg'acha bir-biringizni qonlaringizi ichajaksiz? Tokayg'acha bir-biringiza dush-

¹ Muxtalif – turfa xil.

manlik va haqorat nazari ila boqajaksiz? Tokayg'acha hayoti ijtimoiyyaning yo'llarina xobil o'lajaksiz?! Yo'q! Bu fikringizdan qaytingiz! Bu raftoringizdan o'soningiz! Bu mutaassiblik, bu jaholatingizi beraqingiz! Bir kun kelur, bu edig'ingiz, badkirdoringizdan pushaymon o'lajaksiz! Lekin so'ng o'ngajagingiz foyda vermaz!» – sadolarin anglatadur:

(nazm:)

*Na ko'rди dunyoda inson buzuq bu ixtilofindan,
Tug'uldi turli sho'rishlar maishat ixtilofindan.
Bo'lub bir-birga dushman kun kechurdi, ko'rmadi rohat
Qirildi, mahv o'ldi, kechdi ulfat ittifoqindan.
Oyildi mol-u sarvatdan, qarib o'ldi shaqovatga
Yiroq ketdi adolatdan hama millat xilosindan.*

Banda Hirotdan chiqg'on kundan boshlab og'rimishdim.

Ikinchi kuni ot ustida yurmoqg'a dard yo'l vermadni. «Taxti ravon»g'a tushub yurmoqg'a majbur o'ldim. Bu afg'onlaring taxti ravon ismli arobalarini Turkistonning o'luk ko'taradurg'on anbarlarin o'zg'inasidir. Faqat ayirmasi uzun-qisqalig'in dadur. Bu arobaning bo'yи-da, eni-da bir yarim gaz o'ldig'in dan inson ichinda ayog' uzatub yotmoq(i) imkon xorijindadir. Bu arobaning oldi ila ortig'a iki ot qo'shilub «ravon» qilinur ekan. Mabodo bu otlar yo'rta qolsa, ichindagi odam sog' bo'lsa, og'rub, og'riq bo'lsa, o'sal bo'luvi tabiiydur. Bu «rohatijon mao-fa»da bir kun yurg'ondan so'ng tavba va tazarru'lar ila ertasi ot minub yurmoqg'a majbur bo'ldim.

26-(iyul)

26-iyulda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 12 da «Mizvo» ismli rabotg'a tushduk. Bu iki manzil orosi 7 tosh, 14 kuru 56 chaqirim bo'lur.

27-(iyul)

27-iyulda saboh soat 4 da buradan chiqub soat 10 da «**O’bi**» yoki «**Ho’bi**» ismli rabotg‘a tushduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh, 12 kuru, 48 chaqirim bo‘lur.

28-(iyul)

28-iyulda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 11 da «**Shoilon**» ismli rabotg‘a tushduk. Bu iki manzil orosi 5,5 tosh, 11 kuru, 44 chaqirim yo‘ldir. Buradan Huboni sangi kirdor ismli mazor vordir. Afg‘onlaring naqllaricha, mundan 7 yuz yillar muqaddam burada bir «ajdaho» paydo bo‘lub, ko‘b kishilar(ng) nobud qilmish. Oxirda bu mazor sohibi bir necha kishi ila kelub, falaxmon tosh ila urub o‘ldirmishdir. Bu mazor(n)ing ustiga afg‘onlar o‘n put chamasida keladurg‘on yumoq bir toshni(ng) kelturub qo‘ymishlar. Bu Rabotning ismini(ng) «**Shoilon**» qo‘yiluvin shul sababi mabnii deya so‘yladilar.

Bu rabotning bir yonindan katta suv o‘tdig‘indan chiqub, to‘fang va bo‘mba ila baliq ov qilduk. Bir bo‘mba o‘rtoq Ivano‘fning yovari o‘lan avstriya(li) Volpramning qo‘linda portlab, o‘ng oyog‘indan majruh bo‘ldi. Ivano‘fning ikinchi yovari Afashtin og‘riq bo‘lub, 2 o‘z askarimiz, 2 afg‘on askari ila Hirrotg‘a «taxta ravon» ila qaytub ketdi.

29-(iyul)

29-iyulda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 11 da **Xojayi Chashtga** yetishduk. Bu iki manzil orosi 5,5 tosh, 11 kuru, 44 chaqirim yo‘ldir. Bu Rabotdan bir tosh masofada Xojayı Mavdud ismli mazor vordir. Ushbu mazor(n)ing bir tarafinda sangi marmar uzorina ushbu bayt yozilmishdir:

*Ey dil, ba xush boshki, odam tamom raft,
Pir-u javon, shoh-u gado, xos-u om raft¹...*

¹ Ey dil, hushyor bo‘l, dunyo bari ketdi (kelganlar ketdi); Yosh-u qari, shoh-u gado, xos-u om – hammalari ketdilar.

Bu zotning laqabi Chashti o'lub «Xoja Chashti» ismila ma'ruf o'ldig'indan bu qariya hamda bu yerdagi rabotning is-mida Xojayi Chashtiy ismi-la yuritilmishdir.

Burada eski zamonlarda jahongir turklar tarafindan yasalgan minoralar, madarasalar, masjidlar, sharq usulida bino qilingan qo'rg'onlaring xarobalari vordir. Bu xarobalaring ilk zamonda turklar bino qildig'in shul qariyaning mo'ysafid odamlari so'yladilar.

Bu qabrnning bosh tarafina sangi marmar uzorina ushbu satrlar muhrdur:

(nazm)

*Oftobi sipehri fazlulloh
Orifi barguzidan ma'bud.
Sarvari oli sayyidi kavnayn,
Sadri sulton Qutbiddin Mavdud.
G'av sul A'zami amin hazrati haq
Qutbi din, podshohi sohibi jud.
Shayxi olamki, az jaloli sharaf,
Xayma zad barfarozi charzi kabud.
Xojayi Mavdud Chashtiy, onki, falak
Peshi qadrash nihodi sar ba sujud,
Xisravonash g'ulomi dargohash,
Xast chun arshi ka'bayi maqsud.
Muxlisonash ba har du kavn aziz
Munkironash zi fazli Rab mardud.
Oyati arjayi z-haq chu chashid,
Murg'i ruhash ba sadri bol kushud.
Sad fig'on az jafo-u javri sipehr
Ki ba kas juz jafo vafo na namud.
Az xirad just soli favtashro
Soramiy in bino chu mefarmud.*

*Dod fosihi xirad zi-rizvon guft:
Qoddasallohu ollo sirrah-u Mavdud¹.*

tarixi vafoti 555

Qabrning ayog' tarafina sangi marmar uzorina ushbu satrlar muhrdur:

(nazm)

*Shoheki aziz karda ma'budast,
G'avseki amin ofiyat mahmudast.
Shayxeiki darash ka'bayi maqsudast.
Sulton Sayid Qutbi din Mavdudast.
On xojaki, miri koinot az judast.
Mahbubi iloh in zamin mavjudast.
Chashtastki hojatgahi har neku rost
Chun ruhi malak ravzayi on pursud ast.
Ey Soramiy, az himmati sultoni jahon
Dar ro'yi zamin Chasht yaqin donki behisht asr².*

Bu qabrning uzorina yig'ochdan yasalmish fanjara mun-dan 783 yil ilk o'lса-da, holo bir yeri-da buzilmamish hamda

¹ Ilohiy fazilat osmonining quyoshi, tangrining tanlagan orifi, ikki dun-yoning ulug' sarvari, sultonlar sardori Qutbiddin Mavdud Allohning ulug' va ishonchli madadkori(dir).

Dinning qutbi (ustuni), saxovat olamining podshohidir. Shon-shuhrati ko'kkacha yoyilgan shayxi olamdir. Falak u kishining – Xoja Mavdud Chash-tining qadri oldida sajda qiladi. Podsho (xisrav)lar maqsad ka'basi arshi singari (uning) dargohining qullaridirlar. Uning muxlis (murid)lari har ikki dunyoda azizdurlar, munkirlari ilohiy rahmatidan mahrum. Haqdan ajal oyati yetgach, ruhi qushi ulug'lik tomon qanot qoqdi. Falakning jabr-u jafosidan dodkim, kishiga vafosi faqat jafo bo'ladi. Soramiy aqlga murojaat qilib, vafot yilini so'radi. Aql nuktadoni jannatdan nido berdikim, (ta'rifi) «qoddasa Alloh sirrahu Mavdud» (Alloh Mavdudning sirlarini muqaddas qilg'ay).

² Alloh aziz tutgan shoh (bu) maqtovlarga sazovor, ishonchli madadkor, eshigi maqsadlar ka'basi bo'lgan shayx, sayyidlar sultoni Qutbiddin Mavdud-dir. Saxovat olamining amiri bo'lgan bu Xoja Allohning yerdagi mavjud suyuklisidir. Yaxshilik va to'g'rilik hojatgohi Chasht u (Xoja)ning ravzayi (qabrlari) tufayli maloyik ruhi singari purfayzdir. Ey Soramiy, shuni bilgilki, Chasht ja-hon sultoni (Mavdud)ning hikmatidan yer yuzidagi behishtdir.

oyina kabi yaraqlayur. Bu fanjara ul vaqt dagi ustolaring so'ng daraja nafiskor va mohir o'ldiqlarin anglatadur.

30-(iyul)

30-iyulda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 11 da **Xori zor** ismli rabotga tushduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh, 12 kuru, 48 chaqirim masofadur. Bu rabotda Brovin hay'ati vakolaga Toshkandan tarjimonlik sifati ila chiqg'on Hindistonning haqiqiy sotsialistlarindan o'lan mavlaviy Zikriyo afandini(ng) arzimagan ishdan sabab topub, ichkari hovlidan tashqariga quvlab chiqordi hamda ko'b o'rinsiz haqoratlar qildi. Banda Toshkandan chiqg'ondan Zikriyo afandi ila unsiyat paydo qildig'imdan hamda to ushbu manzilg'acha bir(ga) yotub, bir(ga) turib keldig'imdan bu xo'rlikg'a men-da sherik o'ldim-da, men ham Zikriyo afandi ila tashqari xonaga chiqmoqg'a majbur bo'ldim¹.

31-(iyul)

31-iyulda saboh soat 3 da buradan chiqub, soat 12 da **Tangi azob** ismli rabotg'a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 9 tosh, 18 kuru, 72 chaqirim yo'ldur. Bu iki manzil olis o'ldig'i ila barobar, hammasi baland-baland tog'lardan iboratdir. Boshqalarg'a qaraganda bu manzilning yiroqlig'in sababi, bu tog'larning orasida rabot solishga layoqatlik yer o'lmadig'i hamda buralarda qariya, qishloq yo'qlig'idir². Birdan bir kunda dam olmasdan ot ustida bir olturgancha 9 tosh yo'lni bosmaklik naqadar og'ir o'ldig'i tabiiy o'ldig'indan bu kechadan bir necha kishilarim(iz) og'rub chiqdilar.

¹ Buradagi ichkari xonalar deganimiz rabotlarning bir burchidan ulug'mehmonlar uchun devor ila aylanturub ajratilg'on besh xonadan murakkab tarkib topgan bir hovlichadir.

² Hama rabotlar yo'chlilarga ozuqa va boshqa nimarsalar topilmog'i oson o'lson uchun yo'lak hamda qishloq yaqiniga bino qilinmishdir.

Bu manzildan taxminan 3 chaqirim yiroqlikda tog'ning tefasida Bandi Jamshidiy isminda bir yer vordirki, 3 murabba' sarjin bir tosh uzorina ibroney xati ila yozilmish bir maktub vordir. Mundan 4 yil muqaddam Germaniya tarafindan kelgon hay'ati vakola (posol)lar bu xatning ko'fiyasini(ng) surf ila olub ketmishlar. Bu tosh tog'ga muttasil¹ bir tarafa moyil o'ldig'indan hamda cho'q eski zamondan qolnish asar o'ldig'indan hamda ustina ko'b zamonlar qor-yomg'ur-lar yog'a-yog'a harflaring ba'zi yerlari o'qub bo'lmaslik dara-jasig'a kelmishdir. Ammo ba'zi harflar ochiqdan ochiq xatti ibroney o'ldig'ina musabbat²dir.

1-(avg'ust)

1-avg'ustda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 8 da **Guzarfam Changalbod** ismli rabotg'a borib tushduk. Bu iki manzil orosi 3 tosh, 6 kuru, 24 chaqirim yo'ldir.

2-(avg'ust)

2-avg'ustda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 10 da **Guzarfam** ismli rabotg'a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 4 tosh, 8 kuru, 32 chaqirim yo'ldir. Bu rabotning ro'baro'sida bir qabr vor. Ustina yozilmish tarixi sanayi hijriy ila 133 da vafoti ma'lum o'lsa-da, hojining ismi ma'lum emasdир. Afg'onlar-da ismini(ng) kim o'ldig'in bilmas ekanlar.

3-(avg'ust)

3-avg'ustda saboh soat 5 da buradan chiqub, **Tiyrabuluq** ismli rabotg'a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh, 12 kuru, 48 chaqirim masofadur.

4-(avg'ust)

4-avg'ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 12 da **Ohangaron** ismli rabotg'a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh 12 kuru, 48 chaqirim yo'ldir.

¹ Muttasil – ulanish, bog'lanish.

² Musabbat – dalil, isbot.

5-(avg‘ust)

5-avg‘ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 9 da **Kohi** ismli Rabotg‘a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 3 tosh, 6 kuru, 24 chaqirim masofadir. Bu manzil-da go‘zal bir diloro yerga bino qilinub, Hirirud nahrining sohilinda manzarali bir yer(dadir).

7-(avg‘ust)

7-avg‘ustda saboh soat 5 da buradan harakat qilub, soat 2 da **Davlatyor** ismli rabotga borub tushduk. Bu iki manzil orosi 9 tosh, 18 kuru, 72 chaqirim masofadir. Bu manzil Hirot ila Kobulning sarhadi (chegara)si o‘lub, burada Hirot tufrog‘i tamom bo‘lub, bu yerdan boshlab Kobul tufrog‘i hisoblanur.

Hirotdan to Davlatyorg‘acha yo‘llar uzorinda tog‘lar orosindan vatan edan xalqning aksari tojiklar o‘lub, biroz afg‘onlar-da vordir. Bularing kasbi maishatlari ekinchilik, to‘rt oyog‘lik mol – chahorpochilikdir. Har odim joyda guruh-guruh o‘tlab yurgan teva, yilqi, qoramol, qo‘ylar ko‘rilmoxda edi. Ekinlar esa bug‘doy, arfa, sholi, moshdan bo‘lak mayda ko‘k ekinlari-da ora-sira ko‘rilurdi. Ammo daraxt meva yo‘q hisobbindadir. Ekinlari nihoyatda yaxshi bitgan edi. Ma’lumotlik kishilaring so‘zlariga qaraganda, agarda chet davlatga sotilmasa, bu yil Afg‘onistonda bitgan g‘allaning bir necha yilg‘a yetajagin so‘ylayurdilar.

Ayog‘lik mollarning ko‘plig‘ina dalil bir katta qo‘yni(ng) 4 rupiya, 12 tanga buxoriga berur edilar. Yaxshi otlar 500 rupiyadan tortib 50 rupiya(gacha), 150 tangayi buxoriga yo‘lga yaraydirg‘on, minsa bo‘ladirg‘on otlarni(ng) o‘z ichimizdan olg‘on kishilar bo‘ldi. Sigirning bahosi 100 rupiyadan tortub 25 rupiyagacha edi. Bug‘doy, arpalarining bahosi bir puti bir yarim rupiya o‘lub, shunga ham oladirg‘on kishi topilmas ekan. Dehqonlarning bir necha yilg‘i g‘allalari bov ustiga bov o‘lub, bosilib yotmishdir.

8-(avg‘ust)

8-avg‘ustda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 12 da **Qizil** ismli rabotg‘a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 7 tosh, 14 kuru, 56 chaqirim yo‘ldir. Buraning raboti imorat-lik o‘lmadig‘indan chodirlar tikilub, bu kechani(ng) chodirlar ichinda o‘tkarduk. Hirotdan to ushbu manzilg‘acha issig‘ havoda kelmush edik. Burada o‘ylab bir sovuq havoga duchor o‘ldukki, ko‘b kishilar kechaning sovuqlig‘indan yurub tong ottirdilar. Bul manzilg‘acha saraton havosinda kelub eduk.

Buradan boshlab ul bahor havosiga duchor o‘lduq. Buralarda arfa, bug‘doy endigina yerdan chiqub kelayotibdir. Holbuki, Hirotda qovun-tarbzuz yeb kelmish eduk. Davlatyordan boshlab, buralarda past-past daraxtlar ko‘rina boshladi.

9-(avg‘ust)

9-avg‘ustda buradan saboh soat 6 da chiqub, soat 10 da **La’l¹** ismli rabotg‘a borub tushduk. Bu iki manzil orosi 4 tosh, 8 kuru, 3 chaqirim yo‘ldir.

10-(avg‘ust)

10-avg‘ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 9 da **Kirmon** ismli rabotg‘a kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 3 tosh, 6 kuru, 24 chaqirim masofadir.

Davlatyordan boshlab to Kobulg‘acha yo‘l uzorina va tog‘ orolarinda vatan edanlarining aksari hazoralardir. Biroz tojiklar-da vordir. Bulari(ng) «barbari» ismi ila-da yuritulur. Bu xalqlaring qiyofatlari va kiygan kiyimlari, xotunlarining boshidagi «dakana»lari, erlarining boshidagi telfak-bo‘rkulari, alhosil butun turmushlari bizim Turkiston qirg‘izlarning ayni o‘zginasidir. Hech bir yerda ayrimlari yo‘qdir. Faqat ayrimlari lisonlarindadir. Bunlar forsi lison ila so‘ylashurlar, turki bilmazlar. Hazoralaring mo‘ysafidlarining so‘zlarina

¹ La’l – qizil rangli tosh.

qaraganda, bunlar Chingizzon zamonasida kelub, buralarda yerlashib qolmishlar. Asl vatanlari Turkistonning va Bahri Hazari(ng) tarafinda emish. Lisonlari, Nodirshoh va Shoh Abbos buralaring istilo qildig'in zamonida forsilashmish hamda mazhablari-da shialashmishdir. Bunlari-da afg'onlar orosinda mazhab da'volari hukmfarmodir. Ilm va maorifsizlik nati-jasi o'laroq qadim zamonlarda bizim Turkistonda tu(r)klar ila qirg'izlar orosinda sho'yla qabila nizolari o'lub, ish boshina qirg'iz minganda, turklari(ng) iskanja orosina olub, ish boshina turklar, minganda, qirg'izlari(ng) tutub, «bug'doy» degil deya, bechora qirg'izlaring tili «bug'doy»ga kelmay «buyday» deya, bosh kesuvchilar, qon to'kvular bo'lg'ani kabi Afg'onis-tonda hozirda ham Buxorodagi «jadid-qadim» da'volari kabi bu islom hukumatining taxti idorasinda o'lan bu iki xil qavm bir-birlari ila anisu ulfat tuta bilmas ekanlar. Aro-sira bir-birlariga haqorat nazari ila boqish bir tarafda tursun, oti-shuv, qon to'kishuvlar-da bo'lub turar ekan. Bunlaring qabila da'volari ul zamonlarda biroz sustlang'on bo'lsa-da, mundan 25 yil muqaddam marhum Abdurahmonxon zamoninda butun hazoralar birdan hukumatg'a yog'iy bo'lub hukumat ila bir necha vaqt urushgonlarindan so'ng har tarafdan askar kelub, bunlaring 480 qo'rg'on - (qal'a)larin yer ila yakson qilinub, o'zlarin qilichdan kechurilmishdir. Mana bu voqeadan so'ng yana orolarindagi qabila da'volarina kuchayub, hozirda ham bir-birlarina qiyshiq ko'z ila boquv hukmfarmodir. Shul sabablar(ga) mabni hazoralardan askar olinmayub, faqat qora xidmatlargagina ishlatilar ekan.

Ammo hazora qishloqlarining boshluqlari arbob, elbosh, zakotchi, kadomdor, xazinachi va bularning taxti himoyasin-dagi xidmatchilar hazoralaring o'zlarindan qo'yilar ekan. Ar-

bob qo'l ostindagi fuqarodin yig'ilg'on ushr va xirojlari(ng) jam' qilub, kadomdorg'a topshurar, kadomdor bunlari(ng) sotub yoki mollik holatinda hukumatg'a topshurar.

Tartib va nizomlari yaxshi o'lsa-da, oling'on ma'lumot-larga qaraganda yog'och kechadirg'on boltaning sofi o'zidan bo'lg'onga o'xhash, hazoralaring o'zlarindan bo'lg'on kadom-dor – arboblari hukumat buyrug'ida(n) ortuqcha ushr va xiroj olub, bechora fuqarog'a jabr-u zulm qilur ekan. Ammo moldor, davlatmand kishilarg'a bo'yla jabr-zulm qila olmadiqlarin, butun og'irliq, faqir-fuqaroning ustiga tushg'onlig'in ko'z yosh ila so'yLAGON kishilar bo'ldi. Hatto ustlarida yaxshiroq kiyim-lar, ostlarida yaxshiroq otlar bo'lsa, zo'rlik qilub, tortub olar ekanlar. Turkistonliklarning «o'ynashma(gil) arbob ila, arbob urar har bob ila» deya so'ylaydirg'on zarbulmasallari sho'yla arboblari haqinda (b)o'lsa kerak.

Hazoralar bizing Turkiston qirg'izlari kabi ko'chma o'lmay, hammasi turg'undir. Ko'chmalari nihoyatda ozdir. Umuman afg'on xalqlarining ko'chmalari butun yil bo'yi ko'chub, umr o'tkarar ekan. Chunki Afg'onistonda yilning to'rt faslinda-da bahor bo'ladirg'on yerlari bor (e)kan. Bir yerda agar kuz bo'lub, o't ado bo'lsa, ikinchi bahor bo'lgan yerga qarab ko'charlar.

Hazoralar axloq jihatindan bizim Turkiston qirg'izlariga yaqin kelmayurlar. Bir ming mehmonni(ng) bir sarig' cha-qaga olmayurlar. Bir nimarsa bormi, deb so'rasangiz, bor bo'lsa-da, yo'q deyurlar. Qo'llariga oqcha bergeningizdan so'ng arang chiqorub berurlar. Bermaqqa sizdan 2 – 3 baho olurlar. Bunlaring orolarinda qizlarni(ng) xotunlikg'a sotuv ayb emas ekan. Hazoralarning oralarinda bobiy mazhabina kirganlari-da vor ekan.

12-(avg‘ust)

12-avg‘ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 11 da **Azg‘arot** ismli rabot(g‘a) kelub tushdik. Bu iki manzil orosi 5 tosh, 12 kuru, 40 chaqirim masofadir.

13-(avg‘ust)

13-avg‘ustda saboh soat 5 da buradan chiqub, soat 11 da **Panjob** ismli rabotg‘a kelub tushdik. Bu iki manzil orosi 6 tosh, 12 kuru, 48 chaqirim yo‘ldir. Bu rabotning Panjob ataluvin sababi 5 tarafdan besh irmoq kelub, burada bir yerga quyilur ekan.

14-(avg‘ust)

14-avgustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 10 da **Zarsang** ismli rabotg‘a kelub tushdik. Bu iki manzil orosi 4 tosh, 8 kuru, 32 chaqirim yo‘ldir.

Bu manzilda Kobuldan Turkistona tayin o‘linmish hay’ati vakola bizlara yo‘luqdi. Boshliqlari jenerol Mirzo Muhammadxondur. Bu hay’at ichinda to‘fchi, muhandis, yuzboshi, do‘qtur va bir turkistonli tarjimon Muhammadsharif So‘fizoda-da vor edi. Bu hay’at 20 kishidan iborat edi. Bu hay’at bizlara amir soib tarafindan istiqbol salomlari so‘yladiqdan so‘ng amir bizlari to‘rt ko‘z ila kutub turdig‘in so‘yladilar. Muhoraba ahvolindan savol qilindik-da jeneral janoblari:

«G‘alaba bizim tarafda mutoraka qilindi. Hindiston askarlari bizlarga qarshi muhorabidan almutanoze’ qila(di)lar. Belujilar bizim tarafg‘a yarog‘-aslahalar ila guruh-guruh o‘tdilar. Inglzlarning bizlarg‘a qarshi olub kelub urushtirg‘on askarlari «shotlans»lar, «gurkas»lar ila «budda»dan iborat edi. So‘ng zamonlar(da) inglizlar bir necha mato‘r havoyi – oyirfilon keturg‘on bo‘lsalar-da, maqsudlarina erisha olmadilar. G‘alaba bizim tarafda o‘laraq muhorabaya mutoraka yopildi», – deya so‘zin tamom etdi.

Bu kecha o'rtoq Brovin taklifi uza Mirzo Muhammad-xong'a Toshkandagi musulmonlarning Markaziy byurosina bir maktub yozub verdim.

Mazkur maktubning ko'fiyasi:

KO'FIYA

Sana 1919-milodiy. 13-avg'ustus, tufrog' Afg'oniston, rabot Zarsangda yozildi.

RUSIYA ISHTIROKIYUN QO'MITASINING TURKISTON MUSULMONLARINING MARKAZ BYUROSINA!

Zoti oliylaringiza ma'lum edaramki, ushbu zot shavkat-maob Mirzo Muhammadxon general Afg'oniston amiri tara-fi oliylarindan buyuk vakolat ila bizim Turkistona tashrif buyurajaqlar.

Muhtaram afandilar! Har holda, bu zoting ehtiromlarin yerina yeturuvingga aminam.

Boqiy ehtirom.

Rusiya Sho'rolar Jumhuriyatining Afg'oniston vakil-larindan

Imzo

15-(avg'ust)

15-avg'ustda saboh soat 6 da iki hay'ati vakola bir-birlarimiz ila xayrbodlashub, afg'onlar Turkiston tarafina, bizzlar Kobulg'a qarab ravona o'lduq. Soat 12 da **Morxona** ismli rabotg'a kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh, 12 kuru, 48 chaqirim yo'ldir. Bu manzildan chiqishdan boshlab, ikinchi manzilg'a yetushg'unimcha afg'onlaring ko'chma xalqlarina uchraduk. Bu iki manzil orosindagi o'r-vodiy butun

teva, yilqi, qo'y, qoramollar ila to'lg'on edi. Bunlaring bolaschaqalari ila, mol-ashyolari ila uzundan uzoq bo'lib ketishlari bir-birlarining baqirub-chaqirishlari, qo'ylarning, qo'zilarining ma'rashi, otlarning, toylarning kishnashi, tevalarning, bo'taloqlaring o'ngrashi har kimning nazar-diqqatini(ng) o'ziga jalg qilurdi. Lekin bunlari ichinda yosh yigitlar oz ko'rinardi. Yarog'lik yigitlari hammasi muhorabaga ko'ngilli bo'lub ketganlig'in so'yladilar.

Bu ketish manzarasining eng go'zal yeri, insonning diqqat-nazarini jalg etadirg'on joyi uch-to'rt yashar yosh-yosh bolalar sho'yla baland-baland tog'lardan, toshlar orosindan pildirab, boshyalang, oyoqyalang, onalarindan, otalarindan ilgariga tushib, chopacha-chopa ketarlar edi. Bularing hammalari Kobul atrofinda yashaydirg'on afg'on ko'chma xalqlarindan edi. Bunlari axloq jihatindan yuqorida mazkur hazoralarga qaraganda madaniy deyilsa mumkindir.

16-(avg'ust)

16-avg'ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 11 da **Elband** ismli rabotg'a kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 5 tosh, 10 kuru, 40 chaqirim yo'ldir. Bu manzildan bir tosh masofada Elband daryosindan kechub o'tduk.

17-(avg'ust)

17-avg'ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 12 da **Rog'ul** ismli rabotg'a kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 6 tosh 12 kuru, 48 chaqirim masofadir.

18-(avg'ust)

18-avg'ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 10 da **Bodi Osiyo** ismli rabotg'a kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 4 tosh, 8 kuru, 32 chaqirim yo'ldir. Bu manzilda olma, o'ruk endigina pishg'on edi. Olma-o'ruklarning bir man – 8 qadog'i bir rupiyadan edi. Demak, burada bahordan chiqub, javzog'a kirduk.

19-(avg‘ust)

19-avg‘ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 10 da **Chovg‘il** ismli rabot(g‘a) kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 4 tosh, 8 kuru, 32 chaqirim masofadir.

20-(avg‘ust)

20-avg‘ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 11 da **Sarchashma** ismli rabot(g‘a) kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 5 tosh, 10 kuru, 40 chaqirim yo‘ldir. Burada Imom Abu Ja’far Sodiqning ziyyoratgoh maqbarasi vordir. Va bu ziyyoratgoh yonida to‘rt chashma havzlar vordirki, har birinda minglarcha baliqlar suzishub o‘ynashib yurur.

21-(avg‘ust)

21-avg‘ustda saboh soat 6 da buradan chiqub, soat 11 da **Ko‘hi Hashtro‘g‘a** kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 5 tosh, 10 kuru, 40 chaqirim yo‘ldir.

Shul kuni soat 12 da buradan chiqub, soat 3 da **Qoziqal‘a** ismli rabotg‘a kelub tushduk. Bu iki manzil orosi 4 tosh, 8 kuru, 32 chaqirim yo‘ldir.

Hirotdan boshlab, to Kobulga kelgancha, yo‘llarda u qadar mazor ko‘pdurki, yo‘lning har iki tarafı bir mazoriston manzarasin tashkil edar. Yo‘llar tog‘-toshlardan iborat o‘ldig‘indan chuqur qazilub, ko‘mmoq mumkin o‘lmayub, o‘luklari atrofiga tosh terub, ustiga tosh bo(s)tirub qo‘yar ekanlar.

Bu Hazora yo‘li Kobulning eng yaqin, eng qattiq, eng qatnov yo‘li o‘ldig‘indan xalq chumolidek o‘lub turar ekan. Bu bir oylik yo‘l orosida tibbiy yordam yo‘qliq sababli og‘irroq kasal bo‘lg‘on kishilarni(ng) yo‘lning bir chetiga yotqizub, ustiga tosh bostirub keta berar ekanlar.

22-(avg‘ust)

22-avg‘ustda saboh soat 9 da Kobul(dan) yuborilgan «kodi» poytunlarga o‘ltirub, «Kobul» shahrina doxil bo‘lduk.

Yo‘lda bizlar uchun tayin bo‘ling‘on mehmondorlar bizlari **Mahtob** bog‘iga tushurib, musiqiy bir yuzga yaqin otliq askarlar ila rasm-gimn(?) ijro qilub, bizlarga choy tutdilar. Bu Mahtob bog‘ida bir soat(lik) choy-ziyofatdan so‘ng takror arobalarimizg‘a minub, bir necha hay’ati vuzarolaring bizlara peshvo(z) chiqmoqlari ila ehtiromlar so‘ngida Kobul shahrida eng mashhur o‘lan bog‘i Mustafog‘a yerlashduk. Yerlashgan xonalarimiz mukammal Yovrupo usulida yasalmish binolar o‘lub, o‘y ashyolari-da tom yovrupocha edi. Bizim uchun tayin o‘lg‘on mehmondor, oshpazlar-da, taomlarimizi-da yovrupocha hozirlab berur edilar.

Bir necha kunlik safar mashaqqatin istirohat qilub azo-la qilduk. Bu aroda Angletara davlati ila Afg‘on hukumati orosinda olti oyg‘a mutoraka qilinub, muhorabaga xotima verildig‘in ochiq suratda angladuk.

25-(avg‘ust)

25-avg‘ustda Angletara davlati tarafindan Kobulg‘a bir hay’at kelmish deya bir xabarni Brovin so‘ylamish edi. Bu xabarni(ng) sobiq Kushka komendanti 26-avg‘ustda siyo-siy qo‘misarimiz o‘lan Ziboro‘fdan ruxsat olub, noziri xoriji Mahmud Tarzi afandining huzurina vorub ahvolot oldim. Yarim soat suhbatdan so‘ng bu shoye’ o‘lan xabaring asilsiz o‘ldig‘i ochiq ma’lum bo‘ldi. Bu xabaring aslsiz o‘ldig‘in kelub, hay’ati vakolamiza so‘yladim. Bu xabaring ne sabab-dandir. Brovin tarafindan so‘ylandig‘indan asilsiz o‘ldig‘in avvalan hozirda Kobulda musulmon dinini(ng) xotuni ila qabul qilmish Vsevaladatskidan naqlan so‘ylamish edi. Kelub so‘ylag‘on vaqtimda o‘rtoq Brovin manga takfir nazari ila bo-qub, bir necha kalima noloyiq so‘zlarni-da so‘zladi. Banda sukut etmoqdan boshqa chora bo‘lamayurdim¹.

¹ Topa olmadim.

28-(avg'ust)

28-avg'ustda no(ziri) xoriji Mahmud Tarzi afandi bir necha kishilar ila bir hay'at (o'lub) Afg'on hukumati tarafindan bizlari tabrik qilmoqqa keldilar. Orolarinda Hindiston inqilobiyun qo'mita a'zolarindan-da kishi bor bo'lub, harbiya maktabining mudiri Visomi afandi-da bor edi.

Bir soat suhbatdan so'ng tabrik majlisina xotima verildi.

30-(avg'ust)

30-avg'ustda Mahmud Tarzi afandi bir hay'ati ila bizim huzurimiza tashrif buyurdilar. Suhbat asnosinda «ag'itatsiya» qilmaslikg'a hamda broshura – inqilobiy risolalar tarqatmaslikg'a bizlardan so'z olub, minba'd bozor va ko'chalarg'a chiqmoqg'a va kezmoqg'a hukumat tarafidan ruxsat va izn o'lqidig'in ma'lum qilub ketdi.

Iydi qurbanoning 3-kuni amir sohib ila ko'rishmak muqarrar o'lsa-da, shul kunlarda Kobul shahrida vabo qo'zg'alub, bir necha kishilar vabo kasali ila og'iganliklari mushohada qilindig'indan amir iyd kunlarin shahardan tashqari bir qishloqda o'tkardig'indan ko'rishmog'imiz keyinga cho'zildi. Ammo bu miyonalarda o'rtoq Brovin – «xususiy amir» ila bir necha marotaba suhbatda bo'lindi.

1-(sentabr)

1-sentabrda hukumat tarafidan tayin qilinmis aftomobilarg'a minub, amir Habibulloxon bino qilgon **Chihl sutun** ismli bog'ga borduk. Bu bog' Kobulning mashhur bog'laridan o'lub, tamom Yovrupo usulida bir kichik tog'ning ustiga bino qilinmisdir. Bu binoning atrofi turli mevalar va gulzorlar, yo'llar yo'lka ila ziynatlanmis o'lub, xonaning ichlaridagi ashyolari-da tom Yovrupo asboblarining so'ng darajadagi usul(i)da-(moda)da yasalmis ashyolardan edi. Xona ichlarini mukammal mo'rcha vodaprovod – suvmoshinlar ila

ziynat verilub, janub tarafinda xonaning sahni uzorina bir ponton suv shalolasi-da bino qilinmish edi. Bu imoratning ustida o‘ltirg‘on kishining butun Kobul shahrining manzarayı umumiysi(ng) ko‘rub o‘ltiruvi naqadar baland bir yerga bino o‘lindig‘ina shohiddur. Bu qasrning ro‘baro‘sida baland bir tog‘ning ustina balandlig‘i olti gaz chamasida oq sangi marmardan marhum Habibulloxon nomina yodgorlik (fomitnik) bino qilinmishdir.

3-(sentabr)

3-sentabrda ma’ruf bog‘larindan o‘lan Bog‘i Boburga bordik. Bu bog‘ning shimol tarafinda Boburning...¹ maqbarasi vordir. Maqbaraning janub tarafinda tom sangi marmardan bino qilinmish bir masjid bor. Bu masjidda zamoninda qirq ming rupiya xarajot o‘ldig‘in, binosining Zahiriddin shoh bino qildig‘in so‘yladilar...² Bu bog‘da Boburning o‘z qo‘li ila ekilmish chinorlar va boshqa daraxtlar mavjuddir.

6-(sentabr)

6-sentabrda o‘rtoq Brovinning faqat o‘zi amir ila borub so‘ylashub keldi-da, hozirda Kobulda faqat Ziboro‘f o‘zi qolish(i)ga, qolgan hay’ati vakolag‘a qaytub ketmoqg‘a amir tarafindan ruxsat bo‘lg‘onlig‘in ma’lum qildi.

8-(sentabr)

8-sentabrda 15-no‘meralik buyruq yozib, birinchi o‘rtoq Ivano‘f, ikinchi o‘rtoq Kuliko‘f, uchinchi manga, to‘rtinchi Maminga va iki kanvoyerdan boshqalariga-da Toshkandg‘a qaytmoqg‘a ruxsat o‘ldig‘in ma’lum qildi.

9-(sentabr)

9-sentabrda o‘rtoq Maminning xonasinda shul xususida majlis qilindi. Bu majlisda o‘rtoq Brovin-da bor edi. O‘rtoq

^{1,2} Faktik chalkashliklar uchragan o‘rinlar tushirib qoldirildi.

Ivano'f ila o'rtoq Kuliko'flar yuqorida yozilmish buyruqg'a irodlar tegdira boshladilar. O'rtoq Brovin o'zin shoshrub, javob vera bilmadig'indan oxirda «Sizlar sabr qiling, ban ertaga borub amir ila so'yashub ko'rayin, so'ngra sizlara kelub chiqg'on natijani (rezultat)ni ma'lum qilurman. Sizlar shunga qarab amal qilursiz», – dedi. Majlis ertanining natijasi-ga tavaqquf qilinub yofildi.

10-(sentabr)

10-sentabrda Brovin borub amir ila so'yashub keldi-da, avvalgi qaror o'zgarganlig'in hamda 15-no'miralik yozub bizlarga vergan buyruqnomasini sahv o'lg'onlig'in ma'lum qilmoq ila barobar ertasi kun butun hay'ati vakola amir ila vorub so'yashmoqg'a muqarrar bo'lg'onlig'in ma'lum qildi.

11-(sentabr)

11-sentabrda saboh soat 10 da aftomobilgarg'a minub, **Bog'i Fog'mong'a**, amir soibning huzurina vordik. Fog'mon Kobuldan 12 chaqirim masofada tog' orasina bino qilinmis bir qishlo(q)da o'lub, havo jihatindan go'yo Turkistonning Chimyonining ayni o'zi edi. Bu bog'ning ichinda tom Yovrupo usulinda bino qilinmis bir necha go'zal binolar o'lmoq ila barobar ashyo-u asboblar-da butun yovrupocha edi. Bu bog'ing sharq tarafinda go'zal gulzor tefasinda 10 gazlik bir yog'ochning uchinda o'rtasina Afg'on tamg'asi naqshlang'on qizil bayroq kulumsiragan kabi bo'lub, bizlarni (h)ilfillab salomalayurdi. Aftomobillarimizdan tushub 22 yoshinda o'lan javon – Afg'on amiri o'lan Omonullaxon ila bir tarafi oyinabandlik, chohordaralik qasrda ko'rishduk. Iki soat siyosiy suhbatdan so'ng majlisga xotima chekdi. Majlis oxirinda amir soib o'rtoq Broving'a «Ertan man faqat musulmonlar ila ko'rishajakman, chunki sizing ila birga kelmish musulmonlar faqat bugun ikigina kishi kelmish, saboh hammasini banim

huzurima ko'ndirmalısız», – deya aftomobilalarımız yonina qadar kelib bizlari kuzatdi.

12-(sentabr)

12-sentabrda saboh soat 9 da yana aftomobilarga o'lturub, butun hay'ati vakola hamma musulmonlar ila vormish eduk. Bizlar ila birga vo(r)mish mehmondor Muhammad Alini(ng) amir soib chaqirdi-da, bir necha kalima so'z so'y lab, qaytorub chiqordi. Muhammad Ali bizim yonimiza rangi tag'yir topg'on holda kelub, o'rtoq Brovinga xitoban: «Man sizga so'ylasam-da, siz qabul qilmadingiz. Kecha sizg'a amir soib, man ertaga faqat musulmonlar ilagina ko'rishaman, degan edi. Ruslar musulmonlarga inonmas ekan, kecha man so'ylagan vaqtimda nima uchun «bisyor xo'b, bisyor xo'b» deb ketdi-da, bugun nima uchun birlashish keldi. Borib aytg'il, agarda musulmonlarga inonmas ekan, onlarni nima uchun Kobulga olib keldi. Man faqat bugun musulmonlar ila suhabat qilmoqchiman. Agarda bu ish onlara yoqishmas ekan, hammalarina-da ruxsat, deya manga g'azablanub so'yladi», – degan vaqtida o'rtoq Brovining rangi o'chub, «Xo'b, xo'b mo merim» deya onlar: «Sizlar qolub, amir ila so'ylashub ketasiz», – deya aftomobiliga minub ketdilar. Bizlar qolub navbat ila qiyomg'acha so'ylashduk. Qiyomdan so'ng o'lturub, birga osh oshashduk. Bizlardan so'ng Farg'onadan kelmish kishilar-da bor edi – suhabat onlar ila bo'ldi. Bu Farg'onadan kelanlar uch kishidan iborat edi. Boshliqlari andijonlik marhum Xudoyorxonning nabirasi edi. Bular ila birga kelmish, 36 yildan beri Kobuli vatan edan Xudoyorxon urug'indan Akramxon to'ra hamda Akramxonning kichik birodari-da bor edi. Bunlaring amir ila suhabatlari to asrg'acha cho'zildi. Biz bu miyonada gulzorlar atrofinda kezub yurdik. Asr vaqtinda majlislari tamom bo'ldi, hammamiz birga o'ltirub choy ichub, manzilimizg'a avdat¹

¹ Avdat – qaytmoq.

etduk. Farg'onadan kelanlarning kim tarafindan keluvi bizg'a ma'lum o'lmasa-da, buyuk bir vakolat ila keldiqlarin sezdir. Albatta, bunlar Farg'onada hukumatg'a qarshu qiyom qilmish kishilar tarafindan kelgonliklarig'a jazm hosil qilduk.

20-(sentabr)

20-sentabrdda umumi hay'ati vakola amir ila so'ylashmoqg'a avvalgi majlisda notamom qolg'on masalalarni(ng) xitoma erishdirmak xususida yo'lga chiqmis eduk. Noziri xoriji tarafindan yo'l uzorinda amirning shu kunlari biroz notoblig'i sababli so'zlashmoqqa imkon yo'qlig'in bir qosid maktub ila anglatdi. Yo'limiz qisqa bo'ldi. Manzilimiz(a) avdat etduk. 18-sentabrdan boshlab, bandaga ko'krak og'rig'i kasali oriz bo'l mish edi. Vaqtidan istifoda qilub mehmondor Muhammad Alig'a meni shifoxonag'a bormog'imizg'a ruxsat vermagin istid'o¹ etdim. Muhammad Ali man ila birga shifo(xonaga) bordik. Shifoxona mudiri o'lan Mizbek ila Muhammad Ali meni tonishtirdi. Mizbek usmon(l)i turklarindan o'lub, bir necha yillardan beri Kobul shifoxonasida buyuk xidmatlar yopmis. Mukammal o'lan bu shifoxonani(ng) yo'lga qo'y mish. O'zi propisur bir zot o'lub, tashrih ilminda buyuk mahorati vordir. Har yil uch-to'rt yuz chamasida kishilarni(ng) operatsiya qilmoqda ekan. Faqat yuzdan besh frasenti o'lub, qolnları sog'alar ekanlar. Bu shifoxonaning mukammal ashyolari va bir necha yilga yetadirg'on davolarin Mizbek o'zi borub, mundan bir necha yil muqaddam Faransadan keturmish ekan. Bu shifoxonada xotunlarga maxsus sho'basida vordir. Operatsiya qilub turg'on holatlarinda o'z ko'zimiz ila mushohada qilduk. Bu shifoxonaning bir tarafinda bolalarga maxsus chechak sho'basi-da vordur.

Buradan darmonni(ng) olub, yo'lga chiqdik. Yo'l uzorinda ko'n korxona-moshinxonalarina kirdik. Bu korxonada

¹ Istid'o – so'ramoq.

400 kishi ishlar ekan. Bu korxonada bir chekkadan xom teri kirub, bir chekkadan o'tuk, botinka, egar, yugan, alhosil, butun charm zotidan ishlanadirk'on hama ashyolar muntazam sur'atda hozirlanmaqda edi. Bu narsalarning aksari moshina ila ishlanub, juz'iy bir yerlari qo'l ila ishlanur edi. Buradan chiqub, manzilimizg'a avdat etmishdim. Kelgan zamon ichi qaro tovarishlarimdan biri bango xitoban: «Na yerga vormish edingiz? Amirning ziyofatina-mi vordingiz?» – dedi. Javoban man tovarishg'a shifoxonani(ng) hamda korxonani(ng) ko'rganligimni bayon qilub: ustol ustina dardima darmon uchun keturgon davolarni(ng) chiqarub qo'yg'on vaqtimda ul mango o'rinsiz savol berg'on ichi qora tovarishning nafasi ichiga tushub ketdi-da, «Man sizga ul so'zni mazox tariqasida so'ylamishdim», – dedi. Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsiologistlik, na millat tafriqa qilmaydirg'on internatsiyolistlar dunyo yuzinda topilarmukin? Balki bordir, topilur, lekin vujudi anqoning tuxumidek kamyoob ekanlig'in Afg'oniston safariga chiqg'onda aniq bildim. Afg'onistong'a chiqg'on besh hay'ati vakolaning ichida bирgina musulmon man o'ldig'imdan har bir og'ir mehnatlar, har bir kulfat va aziyatlar meni ustimg'a yuklandi. Hirotg'a yaqin Par(v)ona qishlog'indan boshlab tovarishlarimizning oralariga tafriqa tushdi. Tafriqaning sababi o'rtoq Brovin afg'on tufrog'iga o'tgandan so'ng o'zini(ng) jenerol – chor noil e'lon qilmish edi. Hamda butun tutg'on takтика, xatti-harakati-da Niko'layning generallarini(ng) raftorindan qolishmas edi. Bu harakat boshqa o'rtoqlarimizga og'ir kelub, Parvonada majlis asnosinda shu borada so'z ochildi. Lekin «g'at-g'at etar karnaychi, baloga qolur surnaychi» maqolincha o'z maqsad va g'oyalarina va g'arazi shaxsiyalarina men bechorani(ng) olat¹ qildilar-da, majlisda

¹ Olat – dastmoya, sabab, bahona ma'nosida.

o'rtoq Broving'a xitoban «O'rtoq Avloniyg'a bo'yla qilding, o'yla yofding, bizlara o'yla dedi, bo'yla dedi», – dedilar. Na chora, ishning haqiq(at)i ochilg'uncha sukul etmoqg'a majbur o'lbum. O'rtoq Brovin manga qarab bir necha kalima og'ir so'zlarni(ng)da so'ylab oldi. Holbuki, man Toshkandan chiqg'ondan bu ona qadar hech kima malol keladurg'on so'z-da so'ylamamish, og'ir keladurg'on ish-da qilmamish edim. Lekin ish esa, «Holvani(ng) hakim yer, kaltakni(ng) yetim yer» qabilindan edi.

(nazm)

*Dunyo kezdim, ko'bni ko'rdim, hech haqiqat ko'rmadim,
Hurriyat nomin eshitdim, lekadolat ko'rmadim.
Maslak-u maqsadg'a ishlarmiz, deya lof urdilar,
Ishlamak-da so'zlariga hech sadoqat ko'rmadim.
Qayda ul insoniyat, qayda musovot, ohkim,
Tillariga dillarin aslo layoqat ko'rmadim.
Majlis-u minbarda og'izdan chiqar ozodliq,
Joyi xilvatgohda bir to'g'ri niyyat ko'rmadim.*

*Hosili bir necha maslakdosh ila qildim safar,
Hech yerda birgina hizr-u halovat ko'rmadim.
Chin haqiqat, chin vujudi dunyoda anqo kabi,
Mardi maydon ko'rdim, ammo sof tiynat ko'rmadim.
Qayda ul ozod, hurlik, ham barobarlik qayon?
Qat'an avlod basharda uns(u), ulfat ko'rmadim.
Qayda borsang, g'olib mag'lubni aylar poymol,
Marhabo, ey hurriyat, sandan muruvvat ko'rmadim.*

Xayr, keldim maqsadg'a. Natijada ishning asli ochildi. Brovin avvalda mandan xafa bo'lmish esa-da, so'ng maqsadni anglab, manim borimda yonmish g'azab o'tig'a suv quyildi, past bo'ldi. Brovin Niko'lay zamonasida Moskvadagi

«vastochni pokultet» maktabin tamom qilmish. Siyosat, tadbir boblarinda...ga saboq berar edi. Fasodning manbayi na yerdan chiqg'onlig'in angladi-da, chorasinga kirishdi. Tovarishlara «Xo'b, bu masalani(ng) ertan Hirot vorub, urada¹ hal qilamiz», – deya majlisa xotima verdi. Ammo tovarish Brovin Hirot kelg'uncha ishni(ng) yaxshi yuritdi. Bu boradagi tadbir va siyosat ro'lin yaxshigina o'ynadi. Moskvadan o'zi ila birga olib kelayotgan sekretarsha – sarkotiba Rayuna Petrovnani Hirotda Bog'i Shohiyda tovarish Ziboro'f ila (bir) biroviga bir-lashtirdi-da oroga tushgan tafriqani(ng) osonlik ila hal qildi. Darhaqiqat, asli fasodning boshi shul nuqtada edi. Chunki Toshkandan chiqg'ondan boshlab, Ziboro'f qizginaga yaqin kelsa, burnini ko'rsatur edi, ya'ni ikinchi iborat ila aytganda, oldindan kelsa tishlab, orqasidan kelsa tefar edi. Mana shul asov qizginani(ng) Brovin politicheski rukovoditel – siyosiy boshlig'imiz o'lan tovarish Ziboro'fg'a rom qilub berdi-da, g'alva, janjaldan xalos bo'ldi. Mana bu oroda «To'ydan to'fiq-cha» mafhum²incha, iki tovarishning munqashin o'rtasida ezilub, dasmoya bo'lub, bahona bo'lub, olat bo'lub, so'kush eshitub, alhosil iki tosh orosida choqilub, iki darranda orosida talanub kelayotgan man bechora-da, bu nikoh to'yidan so'ng ozodlikg'a chiqdim.

22-(sentabr)

22 sentabrda sayohat tariqasida **Bog'i Balandg'a** bordik. Bu bog' Kobulning g'arb tarafinda o'lub, La'lshoh bino qilmishdir. So'ngra marhum Abdulrahmonxon ta'mir qilmishdirki, bu bog' Kobulning eng mar'iy, mashhur bog'larindadir. Kobulda bir necha ma'ruf bog'lar o'lsa-da, bu bog'larga kezmaq, sayr etmak, havoxo'riy qilmak³, kasbi havo etmak

¹ Urada – u yerda.

² Mafhum – fahmlangan, tushunilgan.

³ Havoxo'riy qilmak – toza havo olmoq.

uchun ummiy¹ xalqlarga yo'l yo'qdir. Faqat birta qism hukumat arboblarinagina kezmak va bahr olmak mumkindir.

23-(sentabr)

23-sentabrdan salomxonada butun hay'ati vakola amir huzurina vordik. Shul kunlar banda nihoyatda og'ir betob bo'lsam-da, bora olmaslig'imni o'rtoq Brovin(g'a) izhor qilsam-da, Brovin o'zi banim yonima kelib, faqat musulmonlardan birgina oromizda san o'lub, san-da vormoyin qolmog'ing yaxshi o'lmayajak, har na qilsang-da, quvvatingni o'zingga yig'ub, bir iloj qilub bormasang o'lma, – deya bani-da olib vormish edi.

Bu kun majlisda so'ylamish siyosat masalalarindan eng ahamiyatlilari: Amir tarafindan bizim hukumatdan talab: 1) Kushka qal'asi; 2) Termiz qal'asi; 3) Karki qal'asi; 4) Radio-stansa – havo tilg'iromi, mukammal suratda asboblari ila. Agarda bu mavjud bo'lmasa, mukammal Kushkadan to Kobulg'acha simlik tilg'irom. Bu talablarg'a Brovin sho'yla javob berdi: Termiz ila Karki qal'alari (bo'lsa), asilda Afg'onistonning yeri o'lmay, Buxoro tufrog'iga tobe'dur. Shul xususdan bul xususda man bir nimarsa deya olmayman. Chunki, agar-da talab qilmoq lozim o'lsa, bu yerlari Buxoro hukumati talab qilmog'i lozimdir. Shayx Junayd (Kushka) xususida bul yer aslda afg'onlarniki bo'lsa, balki sho'rolar hukumati bersa ham ajab emas. Lekin bizda bo'yla buyuk ishlarga hukm qilmoqg'a yoxud bo'yla bir tufroq masalalarida bermog'-olmoqg'a haqqimiz yo'q. Bizg'a bir muncha muddat lozimdurki, markazdan bu talablarni(ng) tilg'irom vositasi-la so'raymiz. Bu talablarning rad yo qabuli markazning hukmiga vobastadir. Ammo havo tilg'romi yoxud simlik tilg'irom xususida qat'iy va'da bera olamizki, bizim hukumat bermog'i muqar-

¹ Ummiy – avom, omma.

rardur, – dedi. Mana shul xususda ko‘b muzokaralardan so‘ng iki muddat muqobilindan yuqorida mazkur talablarni(ng) «Markazdan savol qilmoqg‘a va bu savollarg‘a javob kelgunig‘a qadar nim rasmiy uch yerda Turkiston jumhuriyatining qo‘nsuli turmoqg‘a amir-da izn verdi. 1) Maymanada; 2) Mazori Sharifda; 3) Hirotda; 4) Kobul – pre(d)stavitel qabul qilinub, munda 15 kishi, boshqa qo‘nsulxonalarida besh kishidan ortiq odam turmamoq sharti ila. Buning muqobilina o‘rtoq Brovin qaynab ketub, amir tarafindan Turkistonning qay-u shahriga qo‘nsul qo‘ymoq va qanchadan odam qo‘ymoq Afg‘on hukumatining ixtiyorindadir, odamning adadiga biz chegara qo‘ymaymiz, dedi.

Bu masalalardan boshqa Turkiston jumhuriyatiningadolatsiz idorasi xususida hamda Turkiston xususida «Markaz»-dan keladirg‘on «dekret» buyruqlarning ijr(o) qilinmayub, ustol ustinda, qog‘az yuzindan qolib kelvotgani xususlarindan edi. Bu masalaga o‘rtoq Brovin qisqagina «Bolsheviklarning orosinda durust odam kam topiladur, shuning uchun Turkistonda durust odam oz o‘ldig‘indan idora ishlari tartibsizdir», – deya javob berdi. Man bu xususda so‘z olub, bu berulg‘on savollarning bir necha moddalari musulmonlarga taalluqlik o‘ldig‘indan birin-birin javob berib o‘tdim.

Bu vaqt soat o‘n ikini(ng) so‘qmish edi. Amir tarafindan taomg‘a taklif qilindim. Taom asnosinda dardim o‘lturmoqg‘a ixtiyor vermadig‘indan majlisdan ruxsat olub, manzilimg‘a avdat etdim.

So‘ngradan banim verdig‘im majlisda javoblarimdan amirning mandan qattug‘ xafa bo‘lg‘onlig‘i anglashildi. Chunki man majlisda so‘zlag‘on so‘zlarim haqiqat o‘ldig‘indan, haqiqatga jon qurban dedim-da, amir xafa bo‘lsa-da, man xafa bo‘lmadim.

25-(sentabr)

25-sentabr o'rtoq Brovin qoshimg'a kelub, meni Hirotga qo'nsul, Abdulmatlab Orifjon o'g'lini(ng) manga noib tayin qilmoqlig'ini ma'lum qildi. Banda bo'yla ulug' xidmatga layoqatim yo'qlig'in, maqsadim o'rtoq Ivano'f ila Toshkandg'a ketmoqlik o'ldig'in izhor qilub, iltijo qilsam-da, mandan boshqa kishi yo'qlig'in hamda bu o'ta muvaqqat o'ldig'in, balki tezdan Toshkandg'a yozub, mani(ng) xalos qilajagini bildirdi. Na chora, o'zimning kuchim o'zimga ma'lum. Bo'yla og'ir bir xidmatning ifosina¹ iqtidor²siz o'lsam-da, Turkiston jumhuriyatina ojizona bir xidmat deya zo'r ila qabul etdim.

26-(sentabr)

26-sentabrda tasdiqnoma (mandat)larimizni(ng) yozub, qo'llarimizg'a topshurdi. Mazori Sharifg'a kanvoyerlardan Kiselofni(ng) qo'nsul, Muhammad Yusuf Zokir o'g'lini(ng) noib, Maymanag'a Husayn Is'hoq o'g'li Maminni(ng) qo'nsul tayin qildi-da, shul kundan e'tiboran safar tadorikin ko'rmoqlig'imizni(ng) ma'lum qildi.

27-(sentabr)

27-sentabrda xayrbod qilmoqg'a amir soyib yoniga bordan. Biroz siyosiy suhbatdan so'ng amir o'z qilichin o'rtoq Ivano'fg'a taqdim qildi. Ivano'f o'z qilichin amirg'a taqdim qildi. Bundan boshqa amir tarafindan o'rtoq Ivano'fg'a bir yaxshi ot, bir tillo soat, boshqa bizlar ila borgan rus o'rtoqlarning hammasiga biror kumush soat va bir necha kiyimlik Kobul korxonasining movutindan (sukonni trikasindan) berildi. Musulmonlarning hammasiga bir sala, bir chafon, bir do'ffidan berilub, ba'zilarina kumush soat ham taqdir o'lindi-da, xayrboddan avdat o'lindi.

¹ Ifosina – ijrosiga.

² Iqtidor – qodir bo'lish.

Mundan bиринчи о'ктағы ача сағар тадорики көрілді-да, биринчи о'ктағыda Kobulg'a xayr deya yana Hazora yo'liila Hirotg'a qarab ravona о'lduq.

KOBUL SHAHRI

Kobul shahri umuman manzara(lik), eng qadim, go'zal bir shahar o'lub, nahrning bo'yiga bino qilinmisht-da, atrofi butun tog', bir (tarafi) vodiydadir.

Eski shaharning ko'chalari tor, hifzi sihhatga mug'oyir binolar o'lsa-da, yangi shaharda yangi bino o'linmisht go'zal Yovrupo usulida yasalmish itmoma erishdirmish moshinxona – korxona ignadan to'fga qadar Afg'on hukumatining ehtiyojina kerakli ashylar tayyorlanmoqdadir. Burada mukammal maktabi tarbiyadan boshqa butun eski madrasalarda islohot yasalub, butun fanlar mukammal suvratda o'qutilmoqdadir. Tijorat jihatindan butun Yovrupoda mavjud ashyo suvratda mavjuddir. Axloq jihatindan odamlari taassub degan nimarsadan butun voz kechmishtlar. Soqollariga qo'shub mo'ylablarini(ng)da qirdirurlar. Ulamolari-da, avomlari-da kalta kiyim kiyurlar, xotunlari-da yovrupocha kiyinurlar, yosh-yosh bolalari-da qo'llarini(ng) chakkalariga qilub salom (chest) verurlar. Boshlariga erlari ila barobar xotunlari-da shlafa kiyub, yuzlarina to'r tutub yururlar. Bir kimsa nafrat nazari-la boqmayur.

Kobulda ekon vaqtimda «Ishtirokiyun» gazetasini(ng) har bir no'merasini(ng) qoldurmay o'qub turar edim. Toshkandan chiqg'on vaqtimda Turkistonning yettinchi qurultoyi Markazdan o'rtoq Qo'buzo'f keluvi munosabati ila Markazning Turkistong'a nazari bo'lakcha, Turkiston idorasi bo'lak ravishda, Markazning xatti-harakati (taktika)siga mug'oyir

deya o'rtoq Qo'buzo'f baqrub-chaqirsa-da, Turkistonning tol chumchuqlari yettinchi qurultoyda Qo'buzo'fg'a qarshi chiqub...¹ ko'tarub Markazning Turkiston xususidagi to'g'ri fikriga Turkistonning Kazako'f, Uspenskiylar to'dasi (gruffasi) har tarafdan sadlar chekub, o'z xohishlarincha zo'rma-zo'raki (kayfa ma yasha)² hukumat tuzmishlar edi. Oxirda Qo'buzo'f bechorani(ng) «to'g'ri so'z tug'oniga yoqmas» maqolincha, bu musulmon tarafdori deya ish boshindan surmishlar edi.

Bu Jumhuriyat qurultoyidan bir necha oy so'ngra firqa qurultoyi choqirilub, ularda xoh jumhuriyat qurultoyi bo'(l)-sun, xoh firqa qurultoyi bo'(l)sun, «Tobulin munoqashasi» - janjoli - g'alvasi tamom bo'lsa, mana endi «Tobulin»ning o'rniga «Qo'buzo'fning munoqashasi»n chiqardilar. Mana bu chaqirilmish firqa qurultoyi-da sar to po Qo'buzo'f janjoli-xarxashasi ila kechmish edi. Man, banda bu qurultoy oxirlarinda Afg'onistong'a qarab harakat qilmish edim. Bizim bu Afg'oniston safarimiz uzog' cho'zildig'indan Kobulda ekon vaqtimizda olti oy to'lув munosabati ila 8-Sho'rolar qurultoyin chaqirildig'in xabarin g'azitalarda o'qub, bu qurultoy nima natija verajak, deya to'rt ko'z ila muntazir edik. Har bir no'mera g'azitlarni(ng) ittisolan³ ko'zdan kechurmakda edik. Bu miyonada birdan g'azitlar Toshkanda gimnazistlar biroz bosh ko'tarub, hukumatg'a qarshu harakatda bo'lub-da munhazm⁴ o'ldiqlarin, so'ngroq Turkiston hukumat a'zolari, ya'ni Kazako'f, Uspenskiylar firqa (gruffa)si Qo'buzo'fga g'allaba cholub, Qo'buzo'fni(ng) tutub qamaganlarin, so'ngra yana qamoqdan xalos bo'lg'onlig'in, so'ngra yana Qo'buzo'f qo'rquvidan qochub yoshiringanlig'in xabarin keturmish edi.

¹ O'qib bo'lmadi.

² Kayfa ma yasha – xohlaganlaricha.

³ Ittisolan – qo'lga tegishi bilan.

⁴ Munhazm – mag'lub.

Bu xabarni(ng) eshitg'on kech bizim o'rtoqlardan bir nechalar shodliq yasab, qiyom-da ko'tarishdilar. O'rtoq Ivano'f haqiqatparast va haqiqatdan xabardor bir odam o'lqidig'indan bunlarning bu shodliqlarina ishtirok etmayurdi. Qo'lidan kelguncha Qo'buzo'fning tutg'on yo'lin haq ekanlig'in anglatmoq harakatinda bo'lurdi. Lekin VIII qurultoy natijasini anglayolmasdan Kobul yo'liga chiqmish eduk.

1-(o'ktabr)

1-o'ktabrda saboh Kobuldan chiqub, Hazora yo'li ila...¹

26-(o'ktabr)

26-o'ktabrda hama o'rtoqlar ila salomat Hirot shahrina kelub tushduk. Hirot noib-al-hukumasi Hirotda mashhur **Chahorbog'**, hukumat o'rdasi yonidan bir saroychadan biza larga yer verdi.

Bizlar Kobul chiqg'on vaqtimizda 11 kishi harakat qilmish eduk.

1) O'rtoq Ivano'f; 2 yovari: 1) Alishtin, 2) Volpram; banda – Hirot qo'nsuli; noibi man Abdulmatlab Orifjon o'g'li, saforatxona uchun bir askar – Hazratqul Mavlonqul o'g'li. O'rtoq Ivano'f ila Toshkandg'a ketadirg'on uch masteravoy, biri mexanik, iki tilg'irofist, – Fovlo'f, Tirkuzuf, iki askar – biri Hisom Jaloliy, biri Vali Hoji edi. Hisom Jaloliy ila mexanik Fishkol «avstriya»ning xotun-bolalari-da bor edi.

27-(o'ktabr)

27-o'ktabrda o'rtoq Ivano'f ila noibal-hukuma huzurina kirub, ko'rishub, biroz so'ylashub chiqduk.

28-(o'ktabr)

28-o'ktabrda o'rtoq Ivano'f ketuv(i) munosabati ila xayrbod qilmoqg'a iki yovari ila noibal-hukuma qoshig'a kirdi. Noibal-hukuma o'rtoq Ivano'fg'a pirusa ko'zlik, Alishtin ila Volpramg'a olmos ko'zlik uzuk siylov berdi.

¹ Matn uzilgan.

30-(o'ktabr)

30-o'ktabrdan saboh o'rtoq Ivano'f hamma odamlari ila Hirotdan Toshkandg'a qarab ravona o'ldi. Bizlar ma'yusona burada xayrashub qolduk.

No'yabr

4-no'yabrdan Toshkandan Afg'on hukumatiga yollanub, bir ofisaribiz (girmon), bir menshevik uchuvchi (lo'dchik) keldi, Mana shul kung'acha Rusiya ahvolotindan Turkistondagi sakkizinch qurultoy natijasindan hech xabarimiz yo'q edi. Toshkanda chiqadirgon ruscha «Kommunist» g'azitasining 21-no'miri(ni) ko'rmoqg'a musharraf bo'ldik. Bu no'mir g'azetada sho'rolar Turkistonining saylov natijalari mukammal suratda yozilub, Turkistondagi tol chumchuqlarning aksarlarin xiyonatlari zohir bo'lub, ba'zilari hibs qilinub, ba'zilari firqa(dan) chiqorilub, hukumat boshiga «markazchilar, ya'ni markaz Masqvaning ta'limotini(ng) komil suratda Turkistonda ijro qilmoq kerak, degan fikrdagi odamlar o'tirg'onliklari ochiq suratda yozilgan edi. Haqiqat o'lsun bu xayol, deya biroz taskini xotir o'lduk.

9-(no'yabr)

9-no'yabrdan o'rtoq Suritsa boshliq Afg'onistong'a Masqva dan tayin o'linmish hay'at keldi. Bu hay'atga rais o'rtoq Suritsa, bir sarkotib, bir yovar matros, bularning har uchi Masqva qo'mitasidan tayinlanmish kishilar. Yana bulardan boshqa Masqva qo'mita tarafindan qo'ndirilmish Hindiston inqilobchilarindan: 1. Abdulrab afandi, Peshovar shahrinda tug'ilg'on, o'zi afg'on naslindan Yusufzay qabilasina mansubdir. 2. Roja Mahandra Protov afandi Hindistonning avvalg'i hukmdorlarining oilasiga mansub zotdir. 3. Birbatvo Dahongra Ochopor afandi Hindiston barahmanlarindan o'lub, ul Hindistonda hind tilinda «Hindiston» isminda hamda ingliz tilinda «Gan-

j(i) Hindiston» isminda g'azitalar nashr qilmishdir. Bulardan boshqa Toshkandan muxbirlik sifati-la qo'shilmish Islom Shoahmaduf...¹ musulmonlarindandir. Bulardan boshqa bir do'xtur, bir tarjimon, 12 adad askarlar-da vor edi.

12-(no'yabr)

12-no'yabrda butun hay'ati vakolani(ng) noibal-hukuma **Chahorbog'da** mehmon qildi. O'rtoq Suritsa noibg'a 20 qadoq chamasida keladurg'on kumush «vaza» ila bir olmos ko'zlik «broshka» jig'a taqdim qildi.

13-(no'yabr)

13-no'yabrda noibal-hukuma o'rtoq Suritsa yoniga borub, iki soat chamasida gaplashub, qaytdi.

14-(no'yabr)

14-no'yabrda o'rtoq Suritsa saforatxonamiza butun hay'ati vakola ila tashrif buyurdi.

17-(no'yabr)

17-no'yabrda o'rtoq Suritsa Hazora yo'li ila Kobulga qarab jo'nadi. Noibal-hukuma Hirot(dan) to'rt chaqirim yiroq bir hukumat bog'ida yo'lida Suritsaga choy tutib, bir yaxshi suvsar po'stin ila bir mashhur junchakmon taqdim qildi.

18-(no'yabr)

18-no'yabrda o'rtoq Suritsaning maslahati ila Toshkandg'a saforatxonamizg'a keraklik nimarsalar ila oqcha olub kelmoqg'a hamda buradan po'shtalarni(ng) olib bormoqg'a «diplomaticheskiy kuryer» (qilub) yubordum.

¹ O'qib bo'lmadi.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Olim Oltinbek. Ozodlikni orzulagan shoir | 3 |
| Tarjimayi holim | 12 |
| SHE'RLAR | |
| «Adabiyot yoxud milliy she'rlar»dan..... | 21 |
| Birinchi juz | |
| Ikkinci juz..... | 35 |
| Uchinchi juz..... | 91 |
| To'rtinchi juz | 135 |
| «Mardikorlar ashuvlasi»dan..... | 161 |
| PEDAGOGIK ASARLAR | |
| «Birinchi muallim» kitobidan | 167 |
| «Ikkinci muallim» kitobidan | 171 |
| Maktab gulistoni milliy she'rlardan..... | 203 |
| Beshinchi juz | 203 |
| Turkiy Guliston yoxud axloq..... | 235 |
| DRAMA | |
| Advokatlik osonmi? | 315 |
| MAQOLALAR | |
| Madaniyat to'lqunlari | 337 |
| Tiyotr xususida munozara | 342 |
| Kim nimani yaxshi ko'rар? | 352 |
| O'z shahrimda sayohat..... | 354 |
| Kayfim uchdi..... | 359 |
| Zakot | 361 |
| Sanoye nafisa | 363 |
| SAYOHATNOMA | |
| Afg'on sayohati..... | 367 |

Adabiy-badiiy nashr

ABDULLA AVLONIY

*She'rlar, pedagogik asarlar, drama,
maqolalar va sayohatnoma*

Direktor
Ma'mura QUTLIYEVA

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir
Firdavs DO'STMATOV

Musahhihlar
Sayyora MELIQO'ZIYEVA,
Yulduz O'ROLOVA

Dizayner va sahifalovchi
Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir
Hamidulla IBOTOV

Litsenziya raqami: AA № 0009. 2019-yil 6-mayda berilgan.

Bosishga 01.03.2022-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 ^{1/16}.

Bosma tabog'i 13,5. Sharqli bosma tabog'i 22,68.

Garnitura «PT Serif». Ofset qog'ozni.

Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 38.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Zabarjad Media» xususiy korxonasida tayyorlandi.

Murojaat uchun tel.: (97) 409-04-84; (94) 935-00-25



“Print Line Group“ XK bosmaxonasida
chop etildi. 100097, Toshkent shahri,
Bunyodkor shohko‘chasi, 44-uy.

jadid
adabiyoti
namoyandalari

ABDULLA AULONIY



ZABARJAD
MEDIA

ISBN 978-9943-7070-4-7

9 789943 707047



zabarjadmedia